1. Tayyorlov bosqichi (45 daqiqa)	a. Mavzuning nomi, maqsadi va kutilajak natijalarini eshittiradi, amaliyotda qo'llaydi. b. Mashg'ulotni o'tkazish shakli bilan tanishtiradi. c. Baholash mezonlarini va adabiyotlar ruyxatini e'lon qiladi. d. Asosiy tayanch iboralarni O'qib, yozdiradi, saxnada amaliy, mashqlar orqali ishlanadi. e. Har bir talabaga ma'ruza matnini tarqatadi.	Eshitadilar amaliyotda bajaradilar. Eshitadilar, yozadilar, saxnada amaliy xatti xarakteratlar orqali bajaradilar.
2. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	2.1. Gippiusning “Xis tuyg'ular uchun ijodiy mashqlar” yordamida talabalarni faolashtiradi. 2.1.1. Dramaturgik asar taxlili rol ustida	Saxnada tanlangan asar taxlili bo'yicha etyud va mashqlar bajaradilar.

	ishlash deganda nimalarga e'tibor bermoq kerak? 2.2. Fikrlarni umumlashtirib, Dramaturgik asar taxlili rol ustida ishlash tushunchasini yoritadi. 2.3. Tarqatilgan ma'ruza matnlariga diqqatlarini jalb qiladi. Amaliy mashqlar texnikasi yordamida matn mazmuni bilan tanishishni taklif kiladi. 2.4. Amaliy mashqlar texnikasi qoidasini tushuntiradi. 2.5. Bajarilgan ishlarni qisqacha tahlil qiladi. 2.6. Aktyorlik maxorati maktablariga tegishli mashqlar, kompyuter, internet, proyektor va tegishli adabiyotlar yordamida aktyorlik san'atining mohiyati, vazifalari, turlari, ko'rinishlari va tahlil qilish usullari haqida tushuntirib beradi. 2.7. Aktyorlik san'atining omillarini yoritib beradi. 2.8. Aktyorlik san'atining migratsiyasi haqida tushuncha beradi. 2.9. Mashqlar orqali aniqlangan, talabalarni qiziqtiruvchi savollarga chuqurroq to'xtalib o'tiladi. 2.10. Olingan bilimlarni yanada mustahkamlash maqsadida talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi. 1-gurux: Aktyorlik maxoratida partnyorlararo munosabat. 2-gurux: Sukut saqlash doirasida ichki tekst. 3-gurux: Podtekstlar orqali partnyorga ta'sir o'tkazish. 4-gurux: Muxit o'zgarishi bilan, aktyor kayfiyati o'zgarishi. 2.11. Guruhlar bajargan ishlarni tahlil qilish va baholash.	Eshitadilar, saxnada xatti xarakatlar orqali berilgan vazifani bajaradilar. Eshitadilar, saxnada xatti xarakatlar orqali vazifani bajaradilar, taxlil jarayonida faol qatnashadilar. Kichik guruhlarda berilgan vazifalarni bajaradilar, kundalikga yozib, har bir guruxdan bittadan vakil chikib o'z ishlarini amaliy, xatti xarakatlar orqali bajaradilar. Guruhlar bir-birining ishlarini tahlil qiladilar.
III. Yakuniy bosqich (60 daqiqa)	a. Mashqlardan etyudlar tug'ilishi, va taxlil. b. Xatti xarakatda mantiq izchillik tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish. c. Ko'rilgan amaliy ishlar	Xatti xarakatlar, vazifalar bajarilgandan so'ng, taxlil ishlari. Eshitadilar, yozib oladilar.

	bo'yicha kursda taxlil ishlari. d. Uyga vazifa beradi.	
--	---	--

6.1. MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH BO'YICHA KO'RSATMALAR

Asosiy qism va amaliy mashg'ulotlarda ko'rsatilgan barcha mavzu bo'yicha talabalar albatta mustaqil ravishda ish olib borishlari taqozo etiladi. Chunonchi:

1. Ma'ruzalarda berilgan mavzularni qo'shimcha adabiyotlarga murojaat qilib mustaqil ravishda o'zlashtirish.

2. Amaliy mashg'ulotlarda (guruhli, yakka darslarda) o'tilgan mavzularni mustaqil tarzda o'zlashtirish.

3. Kurs ishlari, bitiruv malakaviy ish ustida ishlash jarayonida nazariy va amaliy topshiriqlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish.

4. Rol ustida mustaqil ishlash.

5. O'qish davomida malakaviy amaliyotdan tashqari o'z ustida mustaqil ishlash (spektakl va filmlar ko'rish va taxlil qilish, muzeylarga borish, kuzatuvlar va x.k.), kundalik tutish.

Bundan tashqari san'at asarlarini, jumladan aktyorlik san'atining sirlarini bilishga intilish va mustaqil tahlil qilish kundalik odatga aylanishi zarur. Tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari qo'shimcha manbalardan mustaqil foydalanib, o'z bilimini boyitib borishi shart.

1. Rejissura, aktyorlik mahorati va sahnalashtirishga oid materiallar bilan tanishib borish
2. Teatr va maydonlarda o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish va tahlil
3. Audio va video materiallar
4. Dramatik manbalar to'plash
5. Matnlar ustida ishlash
6. Ijrochilik ko'nikmasini mustahkamlash
7. Ssenariy yozish
8. Insseniroyka qilish
9. Internet tarmog'idan muntazam foydalanish

6.2. Mustaqil ishlar mazmuni

Yuqorida sanab o'tgan ijodiy ishlardan tashqari talabalar mustaqil ravishda "ijodiy kunlar" o'tqazadilar. Ijodiy ishlar dasturida pantomima, akrobatik o'yinlar, masallar, shyerlar, monolog, hikoya va etyudlar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari mashhur yozuvchi, shoir, dramaturg, aktyor, rejissyorlar xayotiga bag'ishlangan adabiy badiiy kechalar tayyorlanadi. Ma'lum sanalarga bag'ishlangan tematik kechalar tayyorlanib namoyish

etiladi. Talabalar institut miqyosida o'qaziladigan tadbirlarning badiiy qismida o'z san'atlari bilan qatnashadilar.

Uchinchi kurs diplom oldi yaxlit spektakl ustida ishlashlikni nazarda tutadi. Sahnalashtirish uchun olingan asarda, voqealar kechadigan davr sinchkovlik bilan o'rganiladi, asarni chuqur taxlil etish orqali talabadan o'zi yaratajak timsolni xar tomonlama o'rganish talab qilinadi. Timsol ustida ishlash jarayonida rolning butun pyesa davomidagi uzliksiz xatti-xarakati belgilanadi.

2-yarim yillikda timsol qiyofasiga kirish jarayoniga ichki va tashqi hislat va xususiyatlarni aniqlash, berilgan rolgagina hos bo'lgan ta'sir vositalarini topish kabi unsurlar yordam beradi.

Mashqlar ustida mustaqil ravishda uzluksiz ishlanib dasrda ko'rsatiladi va muxokama etiladi., repertuar tanlash, asar tahlili va rol ustida ishlash, o'z qobiliyatining barcha qirralarini ochib, "mustaqil ishlar" ko'rigida ko'rsatishni nazarda tutadi. Mustaqil ishlar reyting baholariga ta'sir o'tkazadi.

Talaba darsda berilgan nazariy, amaliy ko'rsatmalarni, albatta, mustaqil ish orqali (auditoriyada, uyda) mustahkamlashi shart

Talaba o'qituvchilar tomonidan berilgan nazariy bilimni va tavsiyalarni amaliyotda mustaqil o'zlashtirishi lozim. Professional teatr, kino va televideniya da rol ijro etish, obraz yaratish uslubiylatlardan to'g'ri foydalanish uchun yanada chuqurroq bilim va tajriba orttirishi lozim.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni. 1998 yil 26 mart. Teatr jurnali. № 1 – 2, 1999.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari

3. Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. –2002 yil 20 fevral // Xalq so'zi. - 2002, 15 mart.
4. O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. -1995.-20 oktyabr // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi.-1995.
5. O'zbekiton badiiy Akademiyasini tashkil etish haqida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. -1997. -23 yanvar // Xabarnoma.

6. O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. -1998.-26 mart // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. -1998.
7. Hamza nomidagi O‘zbek davlat akademik drama teatriga “Milliy teatr” maqomini berish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – 2001 yil 21 sentabr // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2001. -№.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Buxoro viloyat teatrining ochilish marosimida so‘zlagan nutqi.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

- 14.Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. – T.: O‘zbekiston, 1994.
- 15.Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston, 1997.
16. Karimov I.A. Iroda va iymon – e’tiqodimiz sinovi.. –T.: O‘zbekiston, 1999.
- 17.Karimov I.A. Milliy teatrimiz – iftixorimiz // Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. – T.: O‘zbekiston, 2002.
- 18.Karimov I. A. Asarlar. 1-15 jild. – T.: O‘zbekiston, 1996 - 2002.
- 19.Karimov I. A. Ma’naviyat yuksalish yo‘lida. – T.: Ma’naviyat, 2004.
- 20.Karimov I.A. O‘zbek xalq hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. 13-j. – T.: O‘zbekiston, 2005.
- 21.Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

9. Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O‘zbekiston, 2011.

4. Darsliklar

4. Stanislavskiy K. S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.
5. Stanislavskiy K. S. San’atdagi hayotim. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.
6. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. - T.: 2005.
7. Mahmudov J., Mahmudova H. Rejissura – T.: 2008.

5. O‘quv qo‘llanmalar

6. Zoxidova N. Toshxo‘ja Xo‘jayev. –T.:1998.
7. Mahmudov J. Sahna kompozitsiyasining alifbosi. –T.: 2006.
8. To‘laxo‘jayeva M.T. O‘zbek drama teatrining rejissurasi. –T.: 1995.
9. Usmonov R. Rejissura. –T.:1997.

10. Ashurova M. H. Qo'g'irchoq teatrida sahnaviy obraz yaratishning asosiy yo'nalishlari. –T., 2006.
11. Ashurova M.H. Qo'g'irchoq teatri aktyori bo'limi talabalarida qo'g'irchoqning badiiy ifodalash xususiyatini tarbiyalash. –T., 2006.
12. Ashurova M.H. Qo'g'irchoq teatri san'ati aktyorlik maktabi. –T., 2007.
13. Istiqlol va milliy teatr. To'plam. –T., 2002.
14. Rizayev O. Nabi Rahimov. – T.: 1997.
15. Rizayev SH. Jadid dramaturgiyasi. – T.: 1998.

6. Ilmiy monografiyalar va maqolalar

1. San'at ta'limi yilnomasi. 1-4 jild. –T.: O'zDSI.

7. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruza to'plamlari

8. O'zbekiston madaniyati va san'atida zamonaviy qahramon obrazini yaratish muammolari va yechimlari. –T.: O'zDSI, 2012.

8. Gazeta va jurnallar

2. "Teatr" jurnallari. 1-12 son. –T.: 1999-2012.

9. Internet saytlari

1. www.senat.gov.uz
2. www.parliament.gov.uz
3. www.gov.uz
4. www.uza.uz
5. www.ziynet.uz
6. www.infocom.uz
7. www.uzreport.com
8. www.jahonnews.uz
9. www.eco.uz

10. Virtual kutubxona elektron darsliklari va o'quv qo'llanmalari

1. Stanislavskiy K. S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.
2. Stanislavskiy K. S. San'atdagi hayotim. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.
3. Ashurova M. H. Qo'g'irchoq teatrida sahnaviy obraz yaratishning asosiy yo'nalishlari. –T., 2006.
4. Ashurova M.H. Qo'g'irchoq teatri aktyori bo'limi talabalarida qo'g'irchoqning badiiy ifodalash xususiyatini tarbiyalash. –T., 2006.
5. Ashurova M.H. Qo'g'irchoq teatri san'ati aktyorlik maktabi. –T., 2007.
6. Istiqlol va milliy teatr. To'plam. –T., 2002.
7. Shukurov O'. Milliy teatrimiz namoyondalari. –T., 2002.
8. Zoxidova N. Toshxo'ja Xo'jayev. –T.:1998.
9. Mahmudov J. Sahna kompozitsiyasining alifbosi. –T.: 2006.
10. To'laxo'jayeva M.T. O'zbek drama teatrining rejissurasi. –T.: 1995.

11. Usmonov R. Rejissura. –T.:1997.
12. Qurbonova SH. T. Azizovning rejissyorlik faoliyati. –T.: 2004.
13. Rahmonov M. R. To‘laxo‘jayeva M. T. S Muxtorov I. A. O‘zbek milliy akademik drama teatri tarixi. – T.: 2003.

Фойдаланиладиган асосий дарсликлар ва ўқув қўлланмалар рўйхати

Асосий дарсликлар ва ўқув қўлланмалар

1. Каримов И. А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.-Т.: Ўзбекистон, 1997.
2. Ўзбекистон республикасининг Конституцияси,-Т., Ўзбекистон 2003.
- Каримов И. А. Ўзбекистон ХХІ асрга интиломда.-Т.: Ўзбекистон, 2000.
- Миллий истиклол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар.-Т.: Ўзбекистон, 2000.
3. Т. Турсунов “Турғун Азизов” Т., 2004 й.
4. Т. Исломов “Тарих ва сахна” Т., 1997.
5. М. Т. Тулахаджаева, Т. И. Юлдашев Узбекская драматургия на сцене театра Т., 1994.
6. Ашурова М.Х. Қўғирчоқ театри санъати актёрлик мактаби. –Т., 2007.

Қўшимча адабиётлар

1. Ашурова М. Х. Қўғирчоқ театрида сахнавий образ яратишнинг асосий йўналишлари. –Т., 2006.
2. Ашурова М.Х. Қўғирчоқ театри актёри бўлими талабаларида қўғирчоқнинг бадиий ифодалаш хусусиятини тарбиялаш. –Т., 2006.
3. Истиклол ва миллий театр. Тўплам. –Т., 2002.
4. Шукуров Ў. Миллий театримиз намоёндалари. –Т., 2002.
5. www.senat.gov.uz
6. www.parliament.gov.uz
7. www.gov.uz
8. www.uza.uz
9. www.ziynet.uz
10. www.infocom.uz
11. www.uzreport.com
12. www.jahonnews.uz
13. www.eco.uz

ТЕХНОЛОГИК ХАРИТА

МАВЗУ: ЭТЮДЛАР

МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ					
Талабаларга актёрлик маҳоратида этюд тўғрисида маълумот бериш		Этюд бажаришни мақсади билан таништириш		Талабаларни билим савиясини ривожлантириш, уларни ижодий фикрлашга ўргатиш	
ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ МАЗМУНИ					
Этюд ҳақида умумий тушунча, этюдлардан адабий парча ва спектакллар ишлаш тизими, этюдлар устида ишлаш жараёни.					
ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ АМАЛГА ОШИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ					
Метод “Агард а мен” сеҳрли сўз ўйини	Шакл Амалий, якка 80 мин	Восита Саҳна, ширма, қўғирчоқлар	Усул Нутқ тушунчасини кўрсатиб бериш	Назорат Кузатув	Баҳолаш Рағбатлантириш, рейтинг асосида
КУТИЛГАН НАТИЖАЛАР					
Ўқитувчи			Талаба		
- янги билимларни бериш - дарсни оқилона бошқариш - дарсни қизиқарли олиб бориш - қисқа вақт ичида кўп нарсани ўргатиш - талабанинг актёрлик маҳоратини ошириш			- янги билимларни ўзлаштириш - олинган билимни системалаш - малакасини ошириш - мустахкамлаш ва баҳо олиш - якка ва гуруҳ бўлиб ишлаш кўникмасини хосил қилиш		
КЕЛГУСИ РЕЖАЛАР					
Ўқитувчи			Талаба		
- ижодий изланиш - талабалар фаоллигини ошириш - таълим сифатини ошириш - педагогик маҳоратни ўз ўрнида ишлатиш			- янги мавзу билан олдиндан танишиш - олган билимларидан самарали фойдаланиш - юқори ақлий салоҳиятга эга бўлиш		

Мураббий: Д.Абдуллаев.

Талабалар босқичи ва сони: 2-босқич актёрлик бўлими курси, 9 талаба.

Машғулот давомийлиги: 80 минут.

Машғулот ўтказиш жойи: В4-3-аудитория.

МАҚСАД: Талабаларнинг факультет миқёсидаги асосий вазифалари билан таништириш, факультет низомига тўлиқ амал қилиш кўникмасини шакллантириш.

Т/р	Машғулот ривож	Қўлланиладиган услуб	Вақт	Восита
1.	Бу нима?	➤ Талабанинг вазифаси – унинг таълим олиш мақсадидан келиб чиқадиган муҳим фаолиятлари ва мажбуриятлари мажмуи. ➤ Ўз олдидаги ва ўқув муассасаси олдидаги вазифалари	10 минут	Магнитли доска, маркер, компьютер, проектор, экран.
2.	Нима учун?	➤ Талабалар ўз олдида қўядиган мақсад ва вазифаларини тўлиқроқ англаб етишлари лозим. ➤ Факультет ва хатто жамият миқёсидаги ўзларини ўрни ва ролини белгилаб олиш учун.	10 минут	Магнитли доска, маркер, компьютер, проектор, экран.
3.	Қандай қилиб?	“Оғзаки мулоқот”, “Ақлий ҳужум”, “Ролли ўйин”, “Свот анализ”, “Интерфаол мулоқот”	10 минут 10 минут 15 минут 10 минут 10 минут	Магнитли доска, маркер, компьютер, проектор, экран.
4.	Хулоса	❖ Бўлажак актёрлар ўзларининг касбий вазифаларини ва шундан келиб чиқадиган жамият ва давлат олдидаги ўрни ҳамда ролини аниқ тушуниб, етарли тасаввур ва кўникмалар ҳосил	5 минут	Магнитли доска, маркер, компьютер, проектор, экран.

MASALALAR, MASHQLAR TO‘PLAMI

Amaliy mashqlar

Xotira uchun mashqlar

Yozuv mashinkasi

Talabalar yarim aylana shaklida joylashadi. Ular ketma-ketlikda alifbodagi harflarni va tinish belgilarni aytishadi. Qaysi talaba qaysi harfni aytgan bo‘lsa yozuv mashinkasidagi o‘sha harf vazifasini bajaradi. Pedagog tarafidan biror bir jumla, gap yoki she’riy misralar aytilishi mumkin. Masalan: “Toshkent 2200 yoshda”. Mazkur so‘zni yozish uchun talabalar o‘zlariga tegishli harflarni qarsak orqali aytishadi. Bunda so‘zlar xuddi yozuv mashinkasi tugmachalari qatori yozilishi kerak. Gap oxirida talabalar birgalikda so‘zlardagi har bir bo‘g‘inni qarsak bilan hamohang aytishadi.

Mashqning o‘tkazilish tartibi va bajarilishi talabalar ongiga singdirilgach, ularni yozuv mashinkasi tugmachalari kabi joylashtiriladi. Ya’ni talabalar uch qatorda turishadi. Birinchi qator stullarga o‘tiradi va harf yozayotganda o‘rnidan turib, qarsak chaladi va o‘zlariga tegishli harflarni aytishadi. Ikkinchi qator tik turishadi va o‘zlariga tegishli harflarni qarsak chalib aytishadi. Harf aytilayotgan vaqtda yarim o‘tirib turiladi. Uchinchi qator stullar ustida chiqadi va o‘zlariga tegishli harflarni aytishadi. Harf aytilayotganda, unga hamohang qarsak chalinadi va stullar ustida turgan holatda yarim o‘tirib turiladi. Talabalarning bunday uch qatorda turishi xuddi zinadek pasttdan tepaga ko‘tarilgan bo‘ladi.

Kalkulyator

Talabalar kalkulyator tugmachalari kabi to‘rtburchak shaklda joylashadi. Talabalar 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90, 100, 1000 va h.k., shuningdek qo‘shuv, ayiruv, ko‘paytiruv, bo‘luv, barobar kabilarni bo‘lib olishadi. Pedagog tomonidan topshiriq beriladi. Masalan: 22 qo‘shuv 46 ayiruv 60 ko‘paytiruv 8 barobar 48.

Talabalar ushbu vazifani bajarish uchun yarim o‘tirib turib o‘zlariga tegishli sonni qarsak bilan hamohang chalishadi. 46 sonini yozish uchun 40 soni tegishli talaba va 6 soni tegishli talabalar aytishadi. Mashq oxirida vazifa talabalar tomonidan birgalikda qarsakka hamohang aytiladi.

Dunyo shaharlari

Talabalar doira shaklida o‘tirishadi. Pedagog tomonidan ularga dunyo shaharlarini nomini aytish vazifasi beriladi. Mashq tartibi quyidagicha, birinchi talaba biror bir shaharning nomini aytadi, ikkinchi talaba birinchi talaba aytgan shahar nomini va uning oxirgi harfi bilan boshlanuvchi shahar nomini aytadi. Mashq shu tariqa davom etadi. Aytilgan shaharni takroran aytish, yoki uzoq o‘ylanib qolish talabani mashqdan chetlatishga olib keladi. Masalan:

1-talaba: London

2-talaba: London, Nyu York

3-talaba: London, Nyu York, Kattaqo'rg'on

4-talaba: London, Nyu York, Kattaqo'rg'on, Navoiy va h.k.

Diqqat uchun mashqlar

Stullar bilan mashqlar

1. Talabalar yarim doira shaklida stullarda o'tirishibdi. Ular o'zlari o'tirgan stullari atrofida harakat qilishadi. Ya'ni, stuldan turadi, stul yoniga o'tadi, stul orqasiga o'tadi, stulga engashib uni ushlaydi, stulni ko'taradi, har bir talaba stulni ko'targanda qo'l bilaklari 45 gradusda qayrilishi kerak. Stullarni joyiga qo'yadi. Stul yoniga o'tadi, stul oldiga o'tadi, stulga o'tiradi. Talabalar bir-birlarini sezib, bir xil harakat qilishi kerak. Stullar bilan mashqlar bajarilishida shovqin-suronga yo'l qo'yilmasligi lozim.

2. Talabalar doira shaklida tik turishibdi. Ular 1, 2 sonlarini galma-galdan sanashadi. Ya'ni juft va toqliklarni aniqlab olish uchun. Toq sondagilar stullarni qo'lga olib juft sonlarga uzatadi. Stullar ovoz chiqarilmasdan, shovqinsiz bajarilishi kerak. Bu mashqni ko'zlarni bog'lash orqali ham bajarish mumkin.

3. Talabalar doira shaklida tik turishibdi. Ular 1, 2 sonlarini galma-galdan sanashadi. Ya'ni juft va toqliklarni aniqlab olish uchun. Toq sondagilar stullar ustiga bir piyolaga suv qo'yib ko'tarishadi va juft sonlarga uzatadi. Stullar ovoz chiqarilmasdan, shovqinsiz bajarilishi kerak. Piyoladagi suv to'kilmasligi lozim. Bu mashqni ko'zlarni bog'lash orqali ham bajarish mumkin.

Muloqot

Talabalar ikki guruhga ajratiladi. Sahnaning ikki tarafidan parallel joylashtiriladi. Har bir talaba uchun to'g'rida joylashgan talaba partnyor sanaladi. O'ng tarafdagilar tinglovchi, chap tarafdagilar hikoyachi sanaladi. Pedagogning maxsus ko'rsatmasidan so'ng hikoyachilar o'zlari hohlagan bir voqeani hikoya qilib berishadi. Bunda tinglovchilar o'ziga tegishli hikoyachining gaplarini aniq eshitishi shart. Chunki, uning atrofida gilar ham o'z hikoyasini aytib bermoqda. Bunday xolatda shovqin-suron bo'lishi tabiiy. Mashqning ahamiyati ham shunda.

Biroz vaqt o'tgach pedagog vazifani tugatishni so'raydi. Tinglovchilardan o'z partnyorlari qanday hikoyani aytgani so'raladi. Shovqin-suronda o'z partnyorining hikoyasini nechog'lik to'g'ri eshitish, talabaning eshitish qobiliyatini kuchaytiradi.

So'z va sanoq

1. Talabalar yarim doira shaklida o'tirishadi. Ular 1, 2, 3, 4 deb sanashadi. Har to'rttadan keyingi yana 1, 2, 3, 4 deb sanayda va h.k. Ya'ni talabalar to'rtta guruhga ajratiladi. 1 sonini aytgan talabalar yarim ovozda pedagog tomonidan berilgan she'rning birinchi misrasini aytadi, ular ikkinchi

misraga yetganda 2 sonini aytgan talabalar she'ning birinchi misrasini aytadi, ular ikkinchi misraga yetganda 3 sonini aytgan talabalar she'ning birinchi misrasini aytadi, ular she'ning ikkinchi misrasini aytganda 4 sonini aytgan talabalar she'ning birinchi misrasini aytadi. Bu paytda 1 sonini aytgan talabalar she'ning to'rtinchi misrasini aytayotgan bo'ladi. She'r aytilishi davomida talabalar o'z guruhdoshlaridan adashib ketmasligi, o'zgani eshitishdan avval o'zini eshitishni amalga oshirishi kerak.

2. Talabalar doira shaklida tik turishibdi. Ular 1, 2 sonlarini galma-galdan sanashadi. Ya'ni juft va toqliklarni aniqlab olish uchun. Toq sondegilar birdan ellikkacha sanashadi, ular bilan bir vaqtda juft sondegilar ellikdan birgacha teskari sanashadi. Sanash davomida shunday natijaga erishish kerakki, toq va juft sondegilar yigirma besh sonini birdan aytishi kerak. Bu mashqni stullar atrofida harakatlar bilan bajarish ham mumkin.

3. Sahnaga bir talaba chiqariladi. Uning ko'zlari bog'lanadi, uning ro'parasiga yana bir talaba chiqariladi. Ko'zi bog'langan talaba partnyorning kiyim boshini qo'llari bilan silab aytib berish lozim.

Tasavvur uchun mashqlar

Assotsiatsiya zanjiri

1. Pedagog tomonidan turli guruhga mansub predmetlar yoki ish jarayoni nomi aytiladi. Masalan: osmon, sigir, hashak, yer chopish, ovqatlanish va h.k. kutilmaganda o'qituvchi o'zi hohlagan talabadan tezkorlik bilan ushbu so'zlarni tasvirlashni so'raydi. Talaba tezlikda tasavvuriga suyagan xolatda ushbu so'zlarni tasvirlaydi.

2. Doira shaklida o'tiriladi. Galma-galdan qarsak orqali bir guruhga tegishli so'zlar yoki predmetlar aytiladi. Masalan Ot so'z turkumiga mos so'zlar. Yoki bog'dagi mevalar nomini aytishadi. Talabalar ikkita doira shaklida turishadi. Doiralar bir-biriga kesishgan. Yuqoridagi mashq bajariladi.

3. Ikki talaba bir-biriga xayolan koptok irg'itayapti. Koptokni irg'itayotgan paytda bir guruhga mos so'zlar aytiladi. Masalan qish fasliga oid. Bu mashqni to'rtta yoki undan ko'proq talabalar ham ijro etish mumkin.

Hamkorlik mashqlari

1. Talabalar metroda. 3-4 bekat yuradi. Vagondagi xatti-harakatlar amalga oshiriladi. Metro birdan to'xtaydi. To'xtash jarayonini ijro etish lozim. Avtobus yoki tramvay birdan to'xtaydi, ya'ni tormoz beriladi. O'sha jarayonni tasavvur qilish va ijro etish lozim.

2. Talabalardan 4-5 tasi sahnaga chiqariladi. Avvalo ular un ortilgan aravani sudrashadi. So'ngra yengil mashinani joyidan qo'zg'atish kerak. Undan keyin kamaz avtomashinasini joyidan qo'zg'atish vazifasi topshiriladi. Talabalar ushbu vazifalarni bajarishda, tasavvurdagi mashinani sezishi va uning og'irligini hisobga olishi kerak.

3. Hashar. Talabalar sahnaga chiqarilib to'g'ri chiziqda turiladi. Ular bir-biriga g'isht uzatishadi. Avvalo kichik g'ishtlarni, keyin esa katta

g'ishtlarni uzatishadi. Talabalarning oraliq masofasi dastlab bir metr bo'lsa, bir ozdan keyin uch metrga uzaytiriladi. Bunda talabalar avvalo predmetni his qilishi, partnyorni sezishi, og'irlik va oraliq masofani tasavvur etishi lozim. Juft bo'lib, yoki to'rt kishi bo'lib og'ir narsalarni ko'tarish. Masalan, katta tosh yoki og'ir qop.

4. Sahnaga 6 yoki 8 ta talaba chiqariladi. Ularga devor ortida bo'layotgan gapni eshitish vazifasi yuklatiladi. Talabalar devor oldida bajaradi. So'ngra "to'rtinchi devor"dan foydalanadi.

Teatr

Guruh talabalari sahnada xuddi teatrdagi o'tirgandek joylashadi. Ular har xil mavzularda spektakl tomosha qilmoqda. Talabalar tomosha qilish xolatini ko'rsatib berishi kerak. Masalan, komediya, tragediya.

Predmet biografiyasi

Pedagog tomonidan turli guruhga mansub predmet nomlari aytiladi. Masalan: stul, qoshiq, ko'ylak, mashina, choynak, qalam, telefon, miltiq, kitob, daftar va h.k. pedagog o'zi hohlagan talabaga yuqorida sanalgan predmetlardan birining biografiyasini gapirib berishni so'raydi. Masalan: pedagog talabaga ko'ylak biografiyasini gapirib berishni so'radi. Talaba ko'ylakning yaratilish jarayonini, ya'ni, dalaga chigit eqiladi. Chigit unib g'o'zaga aylanadi, g'o'za ochilib paxtaga aylanadi. Paxtani terishadi. Uni zavod olib borib tozalashadi, tozalangan tolalarni fabrikalarga olib borishadi. Toladan mato yaratiladi. Matodan tikuvchilar ko'ylak tikishadi va h.k

TEST SAVOLLARI

“Aktyorlik san’ati asoslari”

fanidan test savollari.

1. Badiiy yaxlitlik tushunchasi qaysi tartibda o'z aksini topadi?

- A) dramaturg, rejissyor, aktyor va tomoshabin uyg'unligida
- B) teatrning barcha ijodiy kuchlari spektakl sifati uchun kurashganda*
- S) rejissyor va direktor buyrug'idan keyin
- D) vazirlik buyurtma berganda

2. Teatrdagi katarsis – tomoshabinni poklanish jarayoni qanday sodir bo'ladi?

- A) mukammal pyesa yaratilganda
- B) ta'sir o'tkazish, xayratlantirish va larzaga solish orqali*
- S) spektaklni mutaxassislar ko'p maqtaganda
- D) spektaklga tomoshabinlar o'z ixtiyori bilan kela boshlaganda

3. Aktyorning ijtimoiy mavqei qaysi javobda to'g'ri belgilangan?

- A) masharaboz
- B) ijodkor shaxs*
- S) taqlid qiluvchi

D) o‘ynab beruvchi

4. Aktyor ijodining tayanch nuqtasini aniqlang?

- A) pyesa g‘oyasi
- B) pyesadagi shart-sharoitlar*
- S) pyesadagi to‘qnashuvlar
- D) pyesadagi xarakterlar

5. “Aktyor etikasi” tushunchasi kim tomonidan kiritilgan?

- A) A.P. Lenskiy
- B) K.S. Stanislavskiy*
- S) V.I. Nemirovit Danchenko
- D) V.E. Meyerxolva

6. Saxna xunarmandligi nima uchun inkor qilinadi?

- A) aktyorni yengiltaklikka o‘rgatish uchun
- B) aktyorni ijod qilishdan to‘xtatgani uchun*
- S) aktyorga imrovizatsiya taqiqlagani uchun
- D) aktyorni

7. Aktyorda paydo bo‘ladigan shtamp nima?

- A) avvalgi ijro uslubini qaytarish
- B) hamma rolni bitta uslubga solish*
- S) mashhur aktyorlarning ijro uslubiga taqlid
- D) saxnada chiroyli ko‘rinishga intil

8. Taqlidiy san‘at qaysi saxna san‘atiga nisbatan taqqoslanganda uning zaifligi ochiladi?

- A) ekletik san‘at
- B) kechinma san‘ati*
- S) biomexanika
- D) xunarmandchilik

9. Teatrning tomosha ko‘rsatishdan maqsadi nima?

- A) moddiy foyda ko‘rish
- B) ma‘naviy poklash – katarsis*
- S) ko‘ngil ochish
- D) vaqtni o‘tkazishga sharoit yaratish

10. “Kechinma san‘ati” nima uchun ulug‘lanadi?

- A) yaxshi tomosha ko‘rsatgani uchun
- B) ma‘naviy poklagani uchun
- S) aktyorni ulug‘lagani uchun
- D) inson tuyg‘ularini ochgani uchun*

11. Aktyor nima uchun sahnaga chiqadi?

- A) mashxur bo‘lish uchun
- B) obraz yaratish uchun*

- S) xarakter yaratish uchun
- D) rol' o'ynash uchun

12. Aktyorlik maxoratining birinchi elementini aniqlang?

- A) qobiliyat
- B) diqqat*
- S) xotira
- D) tasavvur

13. Aktyor nima uchun “muskullar erkinligi” tushunchasiga ega bo‘lishi kerak?

- A) kechinish uchun
- B) tabiatini tabiiy ishga tushirish uchun*
- S) zo‘riqmasligi uchun
- D) xarakterni ko‘rsatib berish uchun

14. Sahnaviy muloqot qaysi tartibda sodir bo‘ladi?

- A) ko‘rish, eshitish, ta‘m bilish, hid sezish, his qilish
- B) ko‘rish, qabul qilish, taxlil qilish, qarorga kelish, javob qaytarish*
- S) ko‘rish, eshitish va baxolash
- D) his qilish, baholash va muloqotga kirishish

15. Aktyorning ish quroli qaysi tartibda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) pyesa, insenirovka, ssenariy, rol
- B) gavda, nafas, ovoz, nutq, tasavvur*
- S) mimika, jest, grim, kostyum
- D) mizanssena, ritm, atmosfera, konflikt

16. Aktyor sahnada nima ish qiladi?

- A) rol o‘ynaydi
- B) berilgan shart-sharoitda maqsadga muvofiq xatti-harakat qiladi*
- S) spektaklda ishtirok etadi
- D) rejissyor bergan vazifani bajaradi

17. Sehrli “agarda” atamasining aktyorga qanday yordam bor?

- A. Rejissyor bergan vazifani bajarishga yordam beradi
- B. Spektakl muhitiga olib kiradi*
- V. Sahnaviy siqqlikdan qutqaradi
- G. Muloqotga kirishishga yordam beradi

18. “Temir xotin” pyesasi persanajlari o‘rtasidagi to‘qnashuvlar qaysi konflikt natijasida kelib chiqadi?

- A. Xarakterlar o‘rtasidagi konfliktidan
- B. Taraqqiyot va qoloqlik o‘rtasidagi kurashdan*
- V. Ichkilik oqibatidan
- G. Utishmovchilikdan

19. “Aktyorlar ansanbli” tushunchasi nimani anglatadi?

- A. Rejissyor bergan vazifani to'liq bajarishni
- B. Asar g'oyasini birgalikda tomoshabinga yetkazishga intilini*
- V. Mashhur aktyorni birgalikda ulug'lashni
- G. Aktyorlar birgalikda rejissyorni maqtashini

20. Aktyorning sahnadagi maqsadi qaysi tartibda aniqlanadi?

- A. Maqsaddan kelib chiqadigan vazifalar tizimiga asoslanib
- B. Maqsad, oliy maqsad, eng oliy maqsad aniqlanganda*
- V. Dramaturg belgilagan maqsadga rejissyor tayanganda
- G. Rejissyor belgilagan maqsad sari aktyor intilganda

21. Stanislavskiyning saxnaviy xaqiqat atamasini uning shogirdi Mixail Chexov qaysi tushuncha bilan to'ldirdi?

- A. Biomexanika
- B. Atmosfera*
- V. olish tizimi
- G. Tomoshaviylik

22. "Turkiy guliston yoxud ahloq" asarini muallifi kim?

- A. Elbek
- B. Avloniy*
- V. Xamza
- G. Fitrat

23. "Mirzo Ulug'bek" dramasini muallifi kim?

- A. A. Qodiriy
- B. M. Shayxzoda*
- V. A. Qaxxor
- G. O. Yoqubov

24. Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni bosh qaxramonining asl ismi kim?

- A. Majnun
- B. Qays*
- V. Mexr
- G. Suxayl

25. Achchiq tanqidiy saxna asari janri qanday ataladi?

- A. Komediya
- B. Satira*
- V. Felyeton
- G. Masal

26. O'zbek qo'g'irchoq teatrining milliy qaxramoni kim?

- A) Afandi.
- B) Qorago'z.
- V) Kachal polvon. *
- G) Aldar ko'sa.

27. "O'zbek xalq tomosha san'ati", "O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri" asarlar muallifi kim?

- A) Iso Yoqubov.
- B) Toxir Maxramov.
- V) Toshpo'lat Tursunov.

G) Muxsin Qodirov.*

28. Yalong'och qo'l orqali bajariladigan mashqlar yig'indisi nima deb ataladi?

A) Etyud

B) Kompozitsiya

V) Ekzersis*

G) a va b javob

27. Quyidagilarning qaysi biri san'atning nisbatan yosh turi xisoblanadi?

A. Teatr*

B. Kino

V. Rassomlik

G. Musiqa

28. K.S.Stanislavskiy va N.Danchenko tomonidan nechanchi yil Moskva badiiy teatri tashkil yetilgan?

A. 1880 y

B. 1898 y*

V. 1900 y

G. 1911 y

27. Teatrda katarsis – tomoshabinni poklanish jarayoni qanday sodir bo'ladi?

A. Mukammal pyesa yaratilganda

B. Ta'sir o'tkazish, xayratlantirish va larzaga solish orqali*

V. Spektaklni mutaxassislar ko'p maqtaganda

G. Spektaklga tomoshabinlar o'z ixtiyori bilan kela boshlaganda

28. Saxna xunarmandligi nima uchun inkor qilinadi?

A. Aktyorni yengiltaklikka o'rgatish uchun

B. Aktyorni ijod qilishdan to'xtatgani uchun*

V. aktyorga imrovizatsyani taqiqlagani uchun

G. Aktyorni

29. "Chodir jamol" spektaklining rejissyori kim?

A. Iso Yoqubov

B. Bekpo'lat Farmonov

V. Shomurod Yusupov*

G. Maryam Ashurova

30. "Chodir jamol" spektaklning avtori kim?

A. Haytmat Rasul

B. Raim Farhodiy

V. Hamza Imomberdiyev

G. Shomurod Yusupov*

31. "Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrasining asoschisi kim?

A. I. Yakubov

B. T. Maxramov

V. V. Iogelsen*

G. N. Timofeyeva

32. Respublika qo'g'irchoq teatri qachon tashkil etilgan?

A. 1939 yil*

- B. 1925 yil
- V. 1945 yil
- G. 1937 yil

33. “Olovuddinning sehrli chirog‘i” spektaklining avtori kim?

- A. Anvar Obidjon
- B. Raim Farhodiy
- V. Isfan Diyor
- G. Hamza Imomberdiyev*

34. Qo‘g‘irchoq teatri sohasida badiiy obraz yaratish jarayoni necha xil yo‘nalishni o‘z ichiga oladi?

- A. 1*
- B. 3
- V. 4
- G. 7

35. Qo‘g‘irchoq teatrida qo‘g‘irchoq turlari nechta?

- A. 5
- B. 10
- V. 7*
- G. 15

36. “Fonus xayol teatri” nimaga “Fonus xayol” deb yuritiladi?

- A. Soya teatri*
- B. Olov teatri
- V. Kunduzgi teatr
- G. Kechki teatr

37. Qaysi davlat qo‘g‘irchoq teatri suv ustida harakat qiladi?

- A. Yaponiya
- B. Xitoy
- V. Tailand
- G. Vetnam*

38. “Chodir jamol” teatrida qaysi turdagi qo‘g‘irchoqlar ishlatiladi?

- A. Trostli
- B. Maska
- V. Qo‘lqopli*
- G. Planshetli

39. Moskva markaziy qo‘g‘irchoq teatri kimning nomida?

- A. K. Stanislavskiy
- B. A. Raykin
- V. N. Danchenko
- G. S. Obrazsov*

40. Qo‘g‘irchoq teatri kimlar uchun xizmat qiladi?

- A. Kattalar uchun
- B. Yosh tomoshabinlar uchun
- V. Kichik tomoshabinlar uchun*
- G. To‘g‘ri javob yo‘q

41. Soya qo‘g‘irchoq teatri qaysi mamlakatdan bizgacha yetib kelgan?

- A. Indiya*
- B. Xitoy
- V. Turkiya
- G. Qozog‘iston

42. Respublika qo‘g‘irchoq teatrida eng ko‘p ijod qilgan rassom kim?

- A. B. Rubinov
- B. K. Sultonov
- V. V. Akudin*
- G. S. Xadjayev

43. Xorazm qo‘g‘irchoq teatri nechanchi yilda tashkil topgan?

- A. 1990 yil
- B. 1995 yil
- V. 1993 yil*
- G. 1997 yil

44. Qashqadaryo viloyati qo‘g‘irchoq teatri qachon tashkil topgan?

- A. 1993 yil
- B. 1998 yil
- V. 1997 yil
- G. 1994 yil*

45. Qoraqalpoq qo‘g‘irchoq teatri qachon tashkil topgan?

- A. 1991 yil
- B. 1996 yil
- V. 1994 yil
- G. 1990 yil*

46. Toshkentda “XX asr O‘zbekiston qo‘g‘irchoq teatr san’ati istiqboli” seminari nechanchi yil bo‘lib o‘tgan?

- A. 2000 yil
- B. 2001 yil*
- V. 2003 yil
- G. 1999 yil

47. Surxandaryo viloyat qo‘g‘irchoq teatri nechanchi yil tashkil topgan?

- A. 2001 yil *
- B. 1994 yil
- V. 2000 yil
- G. 1998 yil

48. Farg‘ona viloyati qo‘g‘irchoq teatri nechanchi yil tashkil topgan?

- A. 1994 yil
- B. 1996 yil
- V. 1998 yil
- G. 1993 yil*

49. Andijon viloyati qo‘g‘irchoq teatri nechanchi yil tashkil topgan?

- A. 1975 yil
- B. 1962 yil
- V. 1969 yil
- G. 1968 yil*

50. Buxoro viloyat qo‘g‘irchoq teatri birinchi badiiy rahbari kim bo‘lgan?

HIKOYANI O‘QIB, MANTIQUAN DAVOM ETTIRING

Qamchibek Kenja

Baliq ovi

Men birinchi sinfga qatnardim. Akam yettida o‘qirdi. Otam xo‘jalik mudiri edi. Uyimizga tez-tez mehmon kelib turardi. Har safar har xil kishilar: oriqlar, semizlar, novchalar, pakana, moylovli, moylovsiz... Ularning ko‘pini tanimasam-da, o‘zimda yo‘q sevinib ketardim. Chunki mehmon kelsa, akam ikkimiz, albatta, baliq oviga jo‘nardik. Qishlog‘imizning kunbotar tomonida to‘qay bo‘lib, hali zovurlar qazilmagan, zaxob suvlar quritilmagandi. Kattakichik buloqlarda, ayniqsa, Dimariqda (dimlanib oqqani uchun shunday deyilardi) baliq mo‘l bo‘lar edi. Suv ko‘payganda hatto to‘qay ichidagi sholipoyalarga ham baliq chiqib ketardi. Shanba-yakshanbada bu yerga bolalar to‘lib ketardiki, kim qarmoq ko‘targan, kim to‘r sudragan...

Men akamning baliq tutishini ko‘rishga ishqiboz edim. U baliq ovlashga usta edi. To‘rdayam, sanchiqdayam bir zumda bir paqirini ilintirardi. Hatto qo‘ldayam. Suv ostiga sho‘ng‘ib, baliqlarni o‘z kamaridan tutib chiqardi. Hech narsadan, ilondan ham qo‘rqmasdi. Ilon ko‘rdimi, tamom, uni dumidan ushlab aylantirib-aylantirib otib yubormaguncha ko‘ngli joyiga tushmasdi. Qirg‘oqda kulcha bo‘lib, mudrayotgan ilonlar sharpamizni sezdi deguncha jilib qolishar yo o‘zlarini suvga urishardi.

O‘rtoqlarimning havasi kelar, men kerilib, «akang Qarag‘ayning akasi shunaqa», deb ko‘kragimga urardim. Bolalar chuvillashib akamning izidan ergashib yurishar, undan ilon ushlab ko‘rsatishni so‘rab, yalinib-yolvorishardi. Akam ko‘pincha ularga yo‘q demasdi. Bunday vaqtda bolalar akamning qo‘lidagi ilonning havoda doira yasab, chirillab aylanishini uzoqdan, bir-birining pinjiga kirishganicha, qo‘rqa-pisa tamosha qilishardi. Ilon o‘ttiz-qirq qadam nariga shaloplab tushgach, o‘shayoqqa chopishar, sulayib yotgan gazandaning o‘lganiga ishonch hosil qilishgandan so‘nggina unga yaqinlashishardi. Bironta yuraklisi (u ham iloji boricha o‘zini orqaroqqa olib) ilonning dumiga hadiksirab qo‘l uzatardi. Shundan keyin boshqalar, men bir aylantiray, men bir ushlab ko‘ray, deb talashib ketishar, so‘ngra murosaga kelishib, to‘qay o‘rtasidagi keng chimzor maydonda navbatma-navbat, kim uzoqqa otar oynardilar.

Akam ularga qo‘shilishimga ruxsat bermasdi...

HIKOYANI O‘QIB, MANTIQUAN DAVOM ETTIRING

Shukur Xolmirzayev

Baxtli bo‘linglar

Tashqarida lopillab laylakqor yog‘ardi. Zebo buvisining tanchasida mudrab o‘tirar, uning ko‘z oldidan qachonlardir kitoblarda o‘qigani yoxud odamlar tilidan eshitgani bir manzara o‘tar edi: derazalar! Deraza oynalari lampochkalar nuriga yo‘g‘rilib ko‘rinadi. Ichkaridagi noz-ne‘matlarga to‘la stol atrofida tik turgan odamlar qo‘llaridagi qadahlarini cho‘qishtirib, bir-biriga shirin orzu-tilaklar bildirishyapti.

Zebo xayolan o‘shalar davrasiga tushib qoldi: ana, bittasi Zeboning ham qo‘liga qadah tutib, peshonasidan o‘pdi. Zebo qarasa, u akasi emish. Ana, yangasi ham uni quchib o‘pdi: «Senga baxt tilayman, Zebo! Yangi yil bilan!» — dedi.

Qiz cho‘chib boshini ko‘tardi. Yon-veriga qaradi va shaxt bilan tanchadan turib ketdi. Ayvonga chikdi.

Ayvondan to‘g‘riga, o‘z uylariga qarab ketgan yo‘lka oppoq, undagi yolg‘iz odam goldirgan izni ham qor ko‘mib boryapti.

Zebo kalishini kiyib, ayvondan tushdi. Qordagi izlarni tavakkal bosib pildirab ketdi. Chorpoya ostidan chiqqan it ham cho‘zilib kerishdi-da, qizning ortidan chopdi. Undan oldinga o‘tib, ro‘paradagi uy ayvoniga chiqib bordi.

Zebo nam tortib ketgan dahlizda kalishini yechib, o‘ng qo‘ldagi xonaga kirdi. Yuziga bo‘g‘riqqan issiq havo urildi. Choyan pechning kulxonasini tozalayotgan onasi qoshida to‘xtadi.

— Ena, shaharga ketaman. Akamni ko‘rib kelaman!

Ona unga hayron bo‘lib qaradi.

—Hozirmi? Bayram o‘tsin. Keyin borib kelasan. Biznikiga ham bitta-yarimta mehmonlar keladi. Men yolg‘izlik qilib qolaman.

—Boraman! — dedi Zebo onasining gapini eshitmaganday. — Hozir ketaman! Nima berasiz, tayyor qiling hozir!

— Otangdan so‘ra bo‘lmasam. Hali-zamon kelib qoladi.

—Otam rozi bo‘ladilar. Menga pul bering! Sandiqni oching...

Ota-ona yolg‘iz qizlari bilan qolgan. Ular Zeboning so‘zini ikki qilishmasdi.

Zebo dahlizga qaytib chikdi. Narigi xonaga kirdi. Devorlarga ko‘z tashlab, to‘rdagi shkafni ochdi. Tugundan atlas koylagini, qoziqdan paltosini oldi. U bir-pasda kiyinib ham bo‘ldi.

Palto unga uzunlik qilar, guldr shol ro‘mol uni katta qilib ko‘rsatar, ichi moynali etikchasining qo‘nji keng, qizga yarashmas edi.

Ona kirdi, chiqdi. Zeboning qoshida to‘xtadi. Nimadir deb to‘ng‘illadi. Oxiri: — Borasan dedim-ku! — dedi.

Oradan bir soatlar vaqt o‘tdi chamasi. Zebo shaharga qatnaydigan avtobusda o‘tirar, avtobus qorga burkangan qishloqdan chiqib biyday dala yo‘liga tushgan, yo‘lning odoqlari

oqarib, tumanlanib ko'rinar, goyo avtobus allaqancha odamlarni olib noma'lum, sirli tomonga ketmoqda edi.

Lekin yo'lovchilar mamnun, derazalardan olislarga ko'z tashlashadi, bir-biriga qishning yaxshi kelgani, qor ham ayni vaqtida yog'ayotganini aytishadi...

Nazorat uchun savollar

Qo'g'irchoq teatri aktyorligi san'ati fanidan talabalar bilimlarini baholash reyting mezonlari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyrug'iga asosan (30-sentabr 2005-yil 217-sonli) kafedra reytingini baholash mezonlarini quydagicha tashkil qilishni taklif etadi.

Joriy baholash: O'quv semestrining to'rt oyligining har oy oxirgi mutahassislik darsida, sentabr, oktabr, noyabr, dekabr yakunlarida bir marotaba o'tkazilib, baho 10 bal miqyosida qo'yiladi.

Oraliq baholash: Bu reyting bahosi har ikki oyda bir marotaba o'tkazilib, ja'mi semestr ichida ikki marotaba bo'ladi. Ularning reyting baholari 15 baldan iborat.(sentabr-oktabr bir marotaba 15-ball; noyabr-dekabr bir marotaba 15-ball)

Yakuniy baholash: O'quv yili 1-2 semestrlari yakunida ko'rik tarzida o'tkazilib, 30 baldan iborat bo'ladi.

Shunday qilib semestr bo'yicha joriy baholash 40-ball, oraliq baholash 30 ball va yakuniy baholash 30 ball bo'lib, ja'mi 100 balni hosil qiladi.

1 kurs.

Aktyorlik mahorati elementlarini o'zlashtirish Joriy baholash

1. Ijodiy eshitish	-1
2. Ijodiy ko‘rish	-1
3. Ijodiy e‘tibor	-1
4. Ijodiy tasavvur	-1
5. Sahnaviy erkinlik	-1
6. Diqqatni jamlash	-1
7. Diqqatni bir obektdan ikkinchi obektga ko‘chirish jarayoni	-1
8. Priznaklar yig‘ish jarayoni-	-1
9. Yangi tempo-ritmning paydo bo‘lishi	-1
10. Mustaqil ish	-1

1. Berilgan shart-sharoitda eshitish	-1
2. Berilgan shart-sharoitda ko‘rish	-1
3. Berilgan shart-sharoitda e‘tibor	-1
4. Berilgan shart-sharoitda tasavvur	-1
5. Berilgan shart-sharoitda badiyxaguylik.	-1
6. Buyumlarni ijodiy jonlantira olish	-1
7. Ijroda tabiiylikka erishish	-1
8. Munosabatning tug‘ilishi.	-1
9. Priznaklar yig‘ish jarayoni	-1
10. Mustaqil ish	-1

1. Berilgan maqsad, voqeaviylik orqali eshitish	-1
2. Berilgan maqsad, voqeaviylik orqali ko‘rish	-1
3. Berilgan maqsad, voqeaviylik orqali e‘tibor	-1
4. Berilgan maqsad, voqeaviylik orqali tasavvur	-1
5. Berilgan maqsad, voqeaviylik ichida badixago‘ylik	-1
6. Xotira asosida xatti-xarakat mashqi	-1
7. Sahnaviy haqiqatni paydo qilish	-1
8. Priznaklar yig‘ish	-1
9. Munsabat	-1
10. Mustaqil ish	-1

1. Tanho etyud jarayonida eshitish	-1
2. Tanho etyud jarayonida ko‘rish	-1
3. Tanho etyud jarayonida e‘tibor	-1
4. Tanho etyud jarayonida tasavvur	-1
5. Tanho etyud jarayonida badixaguylik	-1
6. Tanho etyud jarayonini tashkil etish	-1
7. Etyudning plastik yechimi	-1
8. Etyudni musiqali yechimi	-1
9. Yakka etyuddan juftlik etyudga o‘tish jarayoni	-1
10. Mustaqil ish	-1

Oraliq baholash:

1 Oraliq baxolash

1. Eshitish, ko‘rish, e‘tibor, sahnaviy erkinlik	-2
2. Diqqatni jamlash	-2

3. Diqqatni bir obektdan ikkinchi obektga ko‘chirish jarayoni	-2
4. Priznaklar yig‘ish jarayoni-quyi priznikdan yuqqori priznikgacha	-3
5. Yangi tempo-ritmning paydo bo‘lishi	-3
6. Mustaqil ish	-3
2 Oraliq baxolash	
1. Sahnaviy haqiqatni paydo qilish	-1
2. Priznaklar yig‘ish	-1
3. Tanho etyud jarayonida eshitish	-1
4. Tanho etyud jarayonida ko‘rish	-1
5. Tanho etyud jarayonida e’tibor	-1
6. Tanho etyud jarayonida tasavvur	-2
7. Etyudning plastik yechimi	-2
8. Etyudni musiqali yechimi	-2
9. Yakka etyuddan juftlik etyudga o‘tish jarayoni	-2
10. Mustaqil ish	-2
Yakuniy baholash:	
1. Eshitish, ko‘rish, e’tibor, sahnaviy erkinlik	-2
2. Diqqatni jamlash	-2
3. Yangi tempo-ritmning paydo bo‘lishi	-2
4. Mustaqil ish	-2
5. Sahnaviy haqiqatni paydo qilish	-2
6. Prizniklar yig‘ish	-2
7. Tanho etyud jarayonida eshitish	-2
8. Tanho etyud jarayonida ko‘rish	-2

9. Tanho etyud jarayonida e'tibor	-2
10.Tanho etyud jarayonida tasavvur	-2
11.Etyudning plastik yechimi	-2
12.Etyudni musiqali yechimi	-2
13.Yakka etyuddan juftlik etyudga o'tish jarayoni	-1
14.Mustaqil ish	

SAVOLLARGA JAVOB BERING?

1. Etyud nima?
2. K.S.Stanislavskiy kim?
3. K.S.Stanislavskiy sistemasi haqida gapirib bering.
4. Teatr san'atiga K.S.Stanislavskiy sistemasi qanday ta'sir etgan?
5. Ritm nima?
6. Temp nima?
7. Diqqat nima?
8. Monolog va dialog haqida tushunchangiz.
9. Aktyorning asosiy ish faoliyatini nima?
10. O'zbekiston teatrlari haqida gapirib bering?
11. Kompozitsiya nima?
12. Dramaturgiya komponentlari haqida gapirib bering.

13. V.I.Nemirovich-Danchenko hayoti va ijodi haqida gapirib bering.

14. B.Brext hayoti va ijodi haqida gapirib bering.

15. V.E.Meyerxold biomexanikasi haqida gapirib bering.

GLOSSARIY

Aktyor	- drama, opera, balet, qo'g'irchoq teatri, tsirk, teatr, kino, radio (instsenirovka, postanovka, montaj) va televideniya rollari ijro etuvchi shaxs, artist.
Aktyorlik mahorati	- boshqa davr va muhitdagi obrazni aktyorning o'z ruhiy-jismoniy apparati orqali jonlantirish qobiliyati.
Amplua	- aktyorning shaxsiy imkoniyati va sahnadagi ijrochilik qobiliyatiga juda mos tushadigan rollar tipi. Masalan: tragik, komik rollar va h.k.
Antrakt	- 1. Spektakl pardalari, kontsert va tsirk tomoshalarining bo'limlari orasidagi tanaffus. 2. Teatrda ikkinchi va undan keyingi pardalar boshlanishi oldidan chalinadigan musiqali muqaddima.
Arena	- tsirkda tomosha ko'rsatish uchun mo'ljallangan qum (yoki kipik - arrato'pon) sepilgan aylana maydon.
Artist	- sahna san'ati ijrochisi, aktyor. Keng ma'noda san'atning muayyan sohasidagi ijodkor.
Arerstsena Afisha	- sahna orqa pardasi ortidagi maydon. - spektakllar, kontsertlar va boshqa adabiy tadbirlar, tomoshalar to'g'risida xabar beruvchi, ko'zga ko'rinarli joylarga yopishtirilgan maxsus e'lon.
Butaforiya	- teatr spektakllarida haqiqiy narsalar o'rnida qullaniladigan, spektakl xarakteri va sahna talablari, imkoniyatlaridan kelib chiqib yasalgan mebel, bezaklar, kostyum detallari, turli idishlar va sh.k.lar.
Butafor Grim	- turli butaforiya buyumlarini tayyorlovchi sahna ishchisi. - aktyor qiyofasini, ayniqsa, yuzini o'ynaladigan rolga mos qilib maxsus bo'yoq, yasama soch- soqol, plastik massalar va sh.k.lar vositasida o'zgartirish san'ati, shuningdek, ana shu vositalarning jami.
Grotesk	- bo'rttirish, obrazni haddan tashqari mubolag'ali tarzda tasvirlash usuli. Bunda obraz shu qadar bo'rttirilgan mubolag'a bilan tasvirlanadiki, u o'zining real qiyofasini yo'qotib, fantastik xarakter kasb etishga boradi. Groteskli tasvir juda ham qadimiy bo'lib, shu asosda tasvirlangan obrazlarni biz hamma xalqlarning qadimiy san'ati va mifologiyasida uchratamiz. Grotesk biror maqsadga yo'naltirilgan, hajviylik bilan fantastik tasvir uyg'unlashgan bo'rttirishdir.

Dekoratsiya	- sahnada ko'rsatilayotgan voqea o'rini aks ettirishga, spektaklning g'oyaviy ma'nosini ochishga xizmat qiluvchi sun'iy manzara, badiiy jihoz. Dekoratsiya rang-tasvir, grafika arxitektura, sahna texnikasi, kinoprojektsiya va shu kabilarning tasviriy vositalari yordamida yaratiladi.
Diktsiya	- nutqda va kuylashda so'z va tovushlarni aniq, ravshan talaffuz qilish.
Drama	- 1. Muallif nutqisiz, yani diolog shaklida yozilgan va sahnada ijro etish uchun mo'ljallangan badiiy adabiyotning lirika va epos qatoridagi bir turi. 2. Tor ma'noda – dramatik adabiyotning bir qismi, tragediyadan hayot hodisalarining o'rtacharoq o'tkirlikda tasvirllovchi bilan, komediyadan esa hayot hodisalarini kulgi orqali emas, balki jiddiy tasvirlash bilan farq qiladi.
Dramaturgiya	- 1. Dramatik asarlar majmuasi. Masalan Hamza dramaturgiyasi, 50-yillar dramaturgiyasi. 2. Dramatik asar tuzilishi haqidagi nazariy.
Dublyor	- 1. Musiq va teatrdagi spektakl (opera, balet, drama, komediya va sh.k.)larda muayyan rolni navbat bilan ijro etuvchi ikki ashulachi, raqqos, aktyordan biri. 2. Kinoda-filmning matnini dublyaj qilganda ovoz beruvchi aktyor.
Dublyaj	- ovozli filmning so'z qismini boshqa tilga tarjima qilish va filmning shunday varianti.
Intermediya	- 1. Qadimgi drama va opera spektakllarida tanaffus paytida, shuningdek, hozirda kontsert nomerlari orasida ijro etiladigan komik xarakterdagi kichik sahna asari. 2. Musiqada fuganing ikki mavzu orasidagi qism.
Intonatsiya	- 1. Tovushning past-baland bo'lib o'zgarib turishidan iborat ritmik-milodik nutq tuzilishi, ohang. 2. Musiqada-tovush balandligini to'g'ri olish darajasi.
Kabuki	- yaponcha chekinish, kechish. XVII asrda hozirgi teatr texnikalari va dekoratsiyalariga yaqin bo'lgan yapon teatri. Uning manbai komediantlar va raqqoslar bo'lib, ayollar rolini erkaklar o'ynagan.
Komediya	- ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni, kishilardagi yaramas xususiyatlarini kulgi vositasi bilan fosh etuvchi quvnoq, hushchaqchaq xarakterdagi dramatik asar.
Kontsert	- 1. Oldindan tuzilgan muayyan dastur asosida san'atkorlarning sahnaga (shuningdek, radio va televideniyeda) chiqishi. 2. Bir, ba'zan ikki-uch asbob va orkestr uchun yozilgan, odatda virtuoz xarakterdagi musiqa asari.
Korfarmon	- 1. O'zbek qo'g'irchoq teatrining turlaridan biri bo'lgan qo'l qo'g'irchoq tomoshalaridan biri. 2. Ish boshqaruvchi. Rejissyor. Sahnalashtirish ishlari boshqaruvchisi. Uning fikr va talqini orqali asar sahnalashtiriladi va tomoshabinga taqdim etiladi.
Kulminatsiya	- biror voqea yoki hodisa rivojlanishidagi eng yuqori nuqta, avjiga chiqish.

Mizanstsena	- frantsuzcha- sahnadagi joylashuv. Pesadagi konfliktlarning plastik harakatga ko‘chirilishi, aktyorlarning ma’lum vaqtda sahnadagi xatti-harakati va joylashuvi.
Metafora	- istiora, so‘z yoki iboraning ko‘chma ma’noda ishlatilishi va shunday ma’noda ishlatilgan so‘z, ibora.
Monolog	- dramatik va boshqa asarlar ishtirokchisining suhbatdoshiga, o‘ziga, ba’zan tomoshabinlarga qarata aytgan so‘zi, nutqi.
Musiq	- 1. Emotsional-g‘oyaviy mazmunni ovozdagi badiiy obrazlar orqali ifodalovchi san’at turi. Masalan Vokal musiq, simfonik musiq. 2. Shu san’atning cholg‘u bilan ijro etiladigan tugal asari, kuy. Masalan: ashula musiqasi.
Musiqali teatr	- sahna xatti- harakati va musiqali uyg‘unligi asosiga qurilgan qo‘shiq va raqs elementlari ishtirok etgan (opera, balet, operetta, myuzikl) teatr.
Muqaddima	- adabiy-badiiy, ilmiy, musiq va sh.k. asarlarning boshlanishi, kirish qismi.
Oliy maqsad	- rejissyorning, nega aynan shu pessani sahnalashtirayotgani, uning yordamida nima demoqchiligi, tomoshabinda qanday fikr va tuyg‘ular uyg‘otishi kerakligini aniqlash mahsuli.
Ommaviy sahna	- pesa davomida olomon, xalq, omma kabilarni aks ettiruvchi, ishtirokchilarning soni ko‘p bo‘lgan sahna ko‘rinishi.
Pantomima	- teatr tomoshalarining bir turi bo‘lib, unda badiiy obraz so‘zsiz, mimika, imo-ishoralar, gavdani har maqomga solish orqali yaratiladi.
Parda	- 1. Teatrda sahna jihozi yoki spektakl bezagi. 2. Dramatik asar, spektaklning bo‘limi (akt). 3. Torli musiq asboblari dastasiga bog‘lanadigan to‘siq bo‘g‘inlar.
Parodiya	- adabiyot, musiq va tasviriy san’atda biror san’atkor ijodi yoki ayrim asarning uslubiga taqlid qilish yo‘li bilan tanqidiy ruhda yaratilgan asar.
Parter	- teatr va kontsert zallarining sahnaga nisbatan pastroqda joylashgan, tomoshabinlar o‘tiradigan qismi.
Pauza	- 1. Kuy, ashula orasida uzilish, o‘xshash va uning notadagi belgisi. 2. Nutqdagi tanaffus, intonatsiya elementlaridan biri.
Plastika	- balet, raqs, badiiy gimnastikada kishi tanasining nafis harakatlari, nafis harakat san’ati.
Popurri	- har xil keng tarqalgan musiq asarlaridan olingan parchalardan tuzilgan yig‘ma asar.
Portal	- sahnani tomoshabin zalidan ajratib turuvchi chegara.
Premiera	- yangi tayyorlangan yoki qayta ishlangan spektakl, estrada yoki tsirk dasturining birinchi marta pullik ko‘rsatilishi, shuningdek, yangi filmning birinchi marta namoyish qilinishi.
Prolog	- 1. Adabiy asarlarda muqaddimaning bir turi. 2. Teatrda spektakl boshlanishi oldidan ijro etiladigan ko‘rinish, sahna. 3. Musiqada kantata, oratoriyalarning kirish qismi.
Pesa	- 1. Teatrda qo‘yish uchun mo‘ljallangan dramatik asar. 2.

	Yakkanavoz sozanda yoki cholg'uchilar ansambli uchun yozilgan kichik musiqa asari.
Rejissyor	- korfarmon. Teatr va kinoda dramatik yoki musiqali asarlarni sahnalashtiruvchi hamda filmni suratga olish jarayonini boshqaruvchi.
Rejissyor yordamchisi	- sahnalashtiruvchi rejissyorning tashkiliy va texnik tomondan yordamchisi.
Rejissura	- ijodiy va amaliy ish jarayoni.
Rekvizit	- teatr tomoshalarida yoki kinofilm suratga olinayotganda foydalaniladigan, spektakl davomida sahnada bo'ladigan, aktyorlar olib chiqadigan buyumlar.
Remarka	- daramatik asar matnida muallif tomonidan beriladigan turli izohlar.
Repertuar	- 1. Teatr, kontsert, estrada va sh.k.da ijro etiladigan asarlar majmui. 2. Biror san'atkor ijro etadigan rollar, musiqa asarlari va boshqalar majmui.
Repetitsiya	- teatr, tsirk, musiqa va sh.k. tomoshalarni ommaga ko'rsatish oldidan sinab ko'rish, mashq qilish, tayyorlash jarayoni.
Asosiy (general) repetitsiya	- tomoshabinga taqdim etilishdan oldin tayyor tomoshaday ko'riladigan eng so'nggi repetitsiya.
Rol	- aktyor tomonidan sahnada, ekranda ijro etiladigan badiiy obraz.
Sahna	- 1. Teatr binosining tomoshabinga yaxshi ko'rinadigan, aktyorlar uchun qulay bo'lgan tomosha ko'rsatiladigan qismi. 2. Pesa va spektakllardan bir ko'rinish.
Sahna arlekini	- asosiy, antrakt pardadan so'ng joylashgan, butun portalni qoplovchi, parda bilan bir xil matodan ishlangan, yuqoriga osilgan parda.
Sahna barabani	- sahna maydoning aylanuvchi qismi.
Sahna galereyasi	- sahna atrofi devorlarida joylashib o'zaro ensiz ko'priklar bilan bog'langan qurilmalar.
Sahna yorug'lik ta'sir vositalari	- sahnada yorug'likning o'zgarishi orqali va yorug'lik orqali amalga oshiriladigan (yomg'ir, qor, tuman) ta'sir vositalari.
Sahna kolosnigi	- shiftga yaqin joyga o'rnatilgan, shtanketlarni ushlab turuvchi temir o'qlar.
Sahna kulisi	- sahna yon tomoni va cho'ntaklarini berkitib turuvchi, o'ng va chap tomondan osilgan katta-katta to'g'ri to'rtburchak shaklidagi dekoratsiya matolari.
Sahnalashti-rish	- spektakl, tsirk, estrada tomoshalari va film yaratishdagi ijodiy jarayon.
Sahna maydoni	- spektakldagi voqealar kechadigan, xatti-harakat qilinadigan joy bo'lib sahnaning 2-qavatidir.
Sahnaning 1-qavati	- planshet ostidagi kenglik, unga planshetdagi lyuklar orqali tushiladi. Unda spektakllar o'tishi uchun yordam beruvchi moslama va qurilmalar joylashgan.
Sahnaning 3-qavati	- sahnaning padugadan shiftgacha bo'lgan qismi.

Sahna nutqi	- teatrda badiiy obraz yaratish, pesada g'oya, fikr, hissiyotlarni tomoshabinga yetkazishda asosiy ifoda vositalaridan biri, shu vositalarni o'rgatuvchi fan.
Sahna oynasi	- "P" shaklidagi portal devoridagi, odatda parda bilan to'silgan ochiqlik.
Sahna orqa pardasi	- kulislar tugagan joyda, butun sahnaning ichi tomonini qoplovchi, ikki yoniga suriluvchi yoki ko'tariluvchi parda.
Sahna padugasi	- yuqoridan kulislarni birlashtirib turuvchi ensiz, xarakatsiz parda.
Sahna plunjeri	- sahna barabanining ko'tarilib tushiriladigan qismi.
Sahna super pardasi	- o'yin pardasi. Asosiy pardadan so'ng joylashadi. Odatda spektakl uchun maxsus tayyorlaniladi va asosiy g'oyani targ'ib etadi.
Sahna ta'sir vositalari	- sahnada tomosha vaqtida ishlatilib, uning tomoshaviyligi va haqqoniyligi uchun xizmat qiladigan vositalar yig'indisi.
Sahna texnikasi	- sahna qutisi, arxitektura qurilishi, undagi jihozlar va maxsus ayrim spektakllar uchun tayyorlanadigan texnik moslamalar.
Sahna tomosha pardasi	- sahna oynasi bo'yini kichraytirishga xizmat qiladigan, temir o'qqa tarang tortilgan matodan iborat ko'tarilib tushiriladigan parda. Podzor.
Sahna tryumi	- sahnaga aktyorlarning chiqib kelishi, dekoratsiyalarning "o'sishi"ni ta'minlovchi planshet ostidagi bo'shliq, xona.
Sahna furkasi	- sahnaning ikki tomonidan "yo'l bo'ylab" kirib keluvchi va chiqib ketuvchi qismi.
Sahna chirog'i	- sahnadagi dekoratsiyalarga yordam berish, ularni alishtirish, muallif g'oyasini yetkazish, issiq, sovuq, kunduz, kecha kabi ta'sir vositalarini hosil qiluvchi rangli chiroqlar jamlamasi.
Sahna cho'ntagi	- karman. Sahna maydonining ikki chetida, dekoratsiyalarni qo'yish va spektakl davomida ularni tez almashtirish imkonini beruvchi kenglik.
Sahna shovqin vositalari	- kulislar ortidan teatrda uzoq zamonlardan beri qo'llanilib kelinayotgan buyumlar yordamida hosil qilinadigan ovoz va ovoz vositalari (hozirda, ko'p hollarda musiqa yozuvlaridan foydalaniladi).
Sahna shtanketi	- sahna kiyimi, dekoratsiyalar va chiroqlar o'rnatiladigan, sahna maydoni bo'ylab cho'zilgan, kolosniklarga perpendikulyar o'rnatilgan temir yoki taxtadan yasalgan ko'tarib-tushiriladigan moslama.
Simvol	- (ramz) biror g'oya, tushuncha va his-tuyg'ularning shartli belgilar, ishora, yordamida ifodalanishi (kabutar – tinchlik belgisi).
Sofit	- sahnani old tomonidan va yuqoridan yoritishga xizmat qiluvchi bir necha yoritqichlardan tuzilgan osma moslama.
Spektakl	- teatrning ijodiy jamoasi tomonidan sahnaga qo'yilgan teatr tomoshasi.
Stol atrofida o'qish	- pesa ustida boshlang'ich ish bo'lib, unda aktyorlar stol atrofida o'tirib o'z obrazlarini ovoz orqali yaratadilar va qahramon

	xarakteri ishlanadi.
Suflyor	- aktyorga rolining so‘zlarini aytib berib turuvchi teatr xodimi.
Stsenariy	- asar tuzilmasi. Mahalliy dalillarga asoslanib yozilgan bo‘lib, to‘laqonli badiiy asar.
Syujet	- badiiy asarning asosiy mazmuni va undagi voqea yoki o‘zaro uzviy bog‘langan va ketma-ket rivojlanib boradigan voqealar yig‘indisi, tasviriy san’atda tasvir buyumi.
Taqlid	- xalq teatrida aktyor o‘yini uslublaridan biri, hayotdagi aniq kulguli voqea, xatti-harakat qiliq, mimika, tovush va sh.k.larning qiziqchi va masxarabozlar tomonidan ijodiy o‘zlashtirilishi.
Teatr	- spektakl qo‘yilishi uchun mo‘ljallangan bino.
Teatr kostyumi	- tomoshabin va aktyorga bo‘layotgan voqea va davrni tushunishga, uning ruhiga singdirishga yordamlashuvchi muallif g‘oyasini ochib beruvchi kiyim, parik va grimlar.
Teatrlashtirilgan ommaviy tomoshalar	- noan‘anaviy sahnalarda o‘tkaziladigan biror mavzu yoki sanaga bag‘ishlangan teatr elementlari bilan boyitilgan katta omma ishtirok etadigan tadbir.
Temp	- 1. Musiqa asarini ijro etishdagi tezlik darajasi. 2. Ishdagi, harakatdagi sur‘at, tezlik.
Tragediya	- qahramonning biror odamga, tuzumga, hayotga yoki o‘z-o‘ziga qarshi kurashi aks etgan jismoniy yoki ruhiy halokati bilan yakun topuvchi fojeaviy sahna asari. Dramaturgik janr. Yunoncha “echki qo‘shig‘i”.
Tragikome-diya	- chuqur dramatism xarakterlariga ega bo‘lgan komik qarama-qarshiliklar asosidagi, ham tragediya, ham komediya elementlarini o‘z ichiga olgan dramatik asar.
Etyud	- 1. Tasviriy san’atda biror narsaning o‘ziga, asliga qarab ishlangan, odatda biror katta asar yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan dastlabki rasm, eskiz va sh.k. 2. Ijrochilik mahoratini oshirish uchun yozilgan musiqaviy pesa, virtuoz xarakterdagi uncha katta bo‘lmagan musiqaviy asar. 3. Teatr pedagogikasida aktyorlik texnikasini rivojlantirish va takomillashtirish uchun xizmat qiluvchi janr. Hayotiy haqiqat asosida harakatga asoslangan, kam so‘zli, diologsiz, dramaturgiya komponentlarini mujassam etgan kichik ko‘rinish. 4. Uncha katta bo‘lmagan adabiy, ilmiy yoki falsafiy ocherk.
Yumor	- voqealarni kishilarning xarakteri va xatti-harakatidagi turli kamchiliklarni, zaif tomonlarni beg‘araz hajv qilish, hazilomuz, kulguli tasvirlash.
Yarus	- teatrdagi tomosha zalining orqa , yon devori bo‘ylab joylashgan o‘rindiqli balkoni.
Qiziqchi	- o‘zbek xalq qiziqchilik teatrining aktyori.
Havaskorlik teatri	- teatr san’ati bilan asosiy mashg‘ulotlardan tashqari shug‘ullanadiganlar teatri.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston". 2011.
2. I.A.Karimov. "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor". T.: "O'zbekiston". 2009.
3. I.A.Karimov. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". T.: "O'zbekiston". 2009.
4. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat". 2008.
5. I.A.Karimov. "Milliy teatrimiz – iftixorimiz". Toshkent shahrida Akademik Drama teatri yangi binosining ochilish marosimida so'zlagan nutqi. 2001 yil 30 avgust.
6. K.S.Stanislavskiy. "Aktyorning o'z ustida ishlashi". T.Xo'jayev tarjimai. S.Muhamedov muharrirligida. T. Yangi asr avlodi. 2010
7. M.Umarov. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. T.: "Yangi asr avlodi". 2009.
8. V.Q.Rustamov. "Ommaviy bayramlar rejissurasi". T.: TDMI bosmaxonasi. 2009.
9. A.Rasulova. "Sahna nutqi". T.: "Musiqqa". 2009.
10. J.Mamatqosimov. "Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati". T.: "Fan va texnologiya". 2009.
11. F.Ahmedov. "Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari". T.: "Aloqachi". 2008.
12. X.Mirpo'latov. "Ommaviy bayramlar rejissurasi". T.: "Cho'lpon". 2008.
13. T.Tursunov. "O'zbek teatri tarixi". T.: 2008.
14. S.Tursunboyev. "Jahon teatri tarixi". T.: "Fan va texnologiya". 2008.
15. J.Mahmudov, X.Mahmudova. "Rejissura asoslari". T.: O'DSI bosmaxonasi. 2008.
16. T.Bayandiyev., T.Islomov. "Jahon teatri tarixi". T.: O'DSI bosmaxonasi. 2008.
17. X.Abdullayev, U.Xasanov. "Estetika". T.: O'DSI bosmaxonasi. 2008.
18. M.Muhamedov. "Rejissura asoslari". T.: O'DSI bosmaxonasi. 2008.
19. N.Ikromova. "Ommaviy bayramlar tarixi". T.: 2008.
20. J.Shukurov. "Ommaviy bayramlarda musiqiy bezak". T.: 2008.
21. G.Narimonova. "Raqs san'ati". T.: 2008.
22. V.Rustamov. "Ommaviy bayramlar rejissurasi". T.: 2008.
23. V.Rustamov. "Xalq teatri rejissurasi". T.: O'DSI bosmaxonasi. 2008.
24. F.Jalilova. "Grim". T.: O'DSI bosmaxonasi. 2008.
25. A.To'laganov. "Sahna nutqi". TDSI bosmaxonasi. T.: 2008.
26. O'.Nurmuhammedova. "Sahna nutqi". T.: O'DSI bosmaxonasi. 2008.
27. R.Nurmuhammedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". T.: "Istedod" jamg'armasi. 2008.
28. F.Ahmedov. "Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va aktyorlik mahorati". T.: "Cho'lpon". 2007.

29. M.Ismoilov. "Rejissura va aktyorlik mahorati bo'yicha o'tkaziladigan amaliy mashqlar" T.: O'z RFAAK bosmaxonasi. 2007.
30. M.Ismoilov. "Ommaviy bayramlarda badiiy bezak". T.: O'z RFAAK bosmaxonasi 2007.
31. M.Ismoilov. "Qiyofa yaratuvchi musavvir". T.: O'z RFAAK bosmaxonasi. 2007.
32. J.Mahmudov. "Sahna kompozitsiyasi alifbosi". T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2006.
33. E.Konorova. "Ritmika". Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.: 2006.
34. N.Azizxo'jayeva. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006.
35. J.Mahmudov. "Aktyorlik mahorati". T.: "Bilim". 2005.
36. A.Ismoilov. "Sahna qilichbozligi". T.: TDSI nashriyoti. 2005.
37. J.Mamatqosimov. "Teatrlashtirilgan ommaviy tadbirlar". T.: 2004.
38. M.Abduqunduzov. "O'zbek teatri namoyondalari". T.: 2004.
39. M.Ismoilov. "Sahna pardozi". T.: 2004.
40. T.Tursunov. "Turg'un Azizov". T.: "Yangi asr avlodi". 2004.
41. M.Rahmonov., M.To'laxo'jayeva., I.Muxtorov. "O'zbek Milliy Akademik drama teatri tarixi". T.: 2003.
42. M.Qodirov. "O'zbek teatri tarixi". T.: "Ijod dunyosi". 2003.
43. H.Abdusamatov. "Sahna sardori". "Sharq" nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2003 y.
44. A.Nosirova. "Jonli so'z san'ati". T.: TDSI bosmaxonasi. 2003.
45. U.Qoraboyev. "O'zbek xalqi bayramlari". T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2002.
46. J.Dushamov. "Ommaviy tadbirlar rejissurasi". T. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2002.
47. "Istiqlol va milliy teatr". To'plam. T.: "Yangi asr avlodi". 2002.
48. O'.Shokirov., F.Ashrafiy., I.Shokirova. "O'zbekiston madaniyati namoyandalari". T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001.
49. B.Shodiyev. "Navro'z bayrami" (tarixiy yo'li va qayta tiklanishi). T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2001.
50. M.Qodirov. "Navoiy va sahna san'ati". T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2000.
51. H.Abdusamatov. "Drama nazariyasi". T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2000.
52. Sh.Rizayev. "Jadid dramasi". "Sharq" nashriyot-matbaa kontserining Bosh tahririyati, 1997.
53. Sharafiddin Ali Yazdiy. "Zafarnoma". T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 1997.
54. O.Rizayev. "Nabi Rahimov". T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1997.

55. M.Qodirov. "Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar". T.: "Fan" 1993.
56. M.Ismoilov. "Sahnaviy qurol-yarog' va liboslar bilan ishlash". T.: 1990.
57. M.Qodirov. "Sahnamiz lochinlari". T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1986.
58. Q.Xo'jayev. "Sahnaga yo'l". T.: "O'qituvchi". 1982.
59. Aristotel. "Poetika". Ruschadan M.Mahmudov va U.To'ychiyevlar tarjimai asosida. T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980.
60. M.Qodirov. "O'zbek teatri an'nalari". T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1976 y.
61. M.Rahmonov "O'zbek teatri. Qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar". T.: "Fan" 1957.
62. K.Stanislavskiy. "Aktyorning o'z ustida ishlashi". T.Xo'jayev tarjimai. T.: "Toshkent" badiiy adabiyot nashriyoti. 1965.
63. Miyon Buzruk Solihov. O'zbek teatri tarixi uchun materiallar. T.: 1935.
64. "Teatr" adabiy-badiiy, axborot-reklama jurnali.
65. ZiyonET
66. <http://www.tsic.uz>
67. <http://www.usia.uz>
68. <http://www.teatr.ru>
69. <http://www.uzbekteatr.skm.uz>
70. <http://stanislavsky.by.ru>
71. <http://www.teatr-estrada.ru>
72. teatr.com
73. <http://www.aktor.ru>
74. <http://www.meyerhold.ru>
75. <http://www.mxat.ru>

MA'RUZA VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MATNI

Mavzu: Teatr san'at turi sifatida

Reja:

1. San'at turlari
2. O'zbek teatri arboblari
3. Aktyor san'ati taraqqiyotidagi uslubiy yo'nalishlar

Sizga yaxshi tanish bo'lgan Yevropa tipidagi professional teatrning yuzaga kelganiga ikki yarim ming yildan oshdi. San'at turlarining, shu jumladan teatr san'atining yuzaga kelishi, insonning shu dunyoda yashashi (yaxshi yashashi) uchun kurashi bilan bog'liqdir. Teatr san'atining Dionis bilan bog'liq eng qadimgi (antik) marosimlari ham, undan keyingi taroqqiyot bosqichlari ham faqat bir maqsad ulug' gumanistik g'oyani ya'ni insonning inson bo'lishi, uning kamoloty uchun kurashni ko'zlab kelmokda.

Shu bois gumanistik teatr o'zining; Promitey, Edip, Medeya, Gamlet, Otello, Karl Moor, Ferdinand, Alisher Navoiy, Jaloliddin, Muqanna, Komilov, Amir Temur, Ulug'bek, Al Farg'oniy, Alpomish kabi minglab buyuk obrazlari orqali o'z muhlislari bo'lmish tomoshabinni ma'naviy barkamol, g'oyaviy ulug'vor, nafosatli, nazokatli, bo'lishga, vatanparvarlikka, sadoqatga, ilim-ma'rifatga intiltirib ziyo egasi bo'lishga chorlab kelmoqda. Qadimgi grek teatrini olaylik Esxil, Sofokl, Yevripid va Aristofanlar o'zlarining ulug'vor tragediyalari, ijtimoiy o'tkir komediyalari orqali eng avvalo el-yurt manfaati, tinchligi, farovonligi g'oyasini, bir so'z bilan aytganda vatanparvarlik g'oyasini ilohiy darajaga ko'tarib kuylaganlarini bilamiz. Ulug' Shekspir va uning o'tmishdoshlari, Moler, Shiller, Pushkin, Chexov, A.Qodiriy, M.Shayxzoda, H.Olimjonlar tasvirda noziklashib inson kamoloti uchun halal berayotgan, uning oyog'iga tushov bo'layotgan zararli illatlarni ayovsiz fosh etish orqali insonni yaxshilikka, mehr-oqibatga, sahovatga, sadoqatga, to'xtovsiz mukammallashishga chaqirdilar. O'zbek teatrining otasi M.Behbudiy va boshqa o'zbek jadidlari, XX asr o'zbek madaniyatining eng yirik dramaturglari, rejissyorlari, aktyorlari jaxonda eng ilg'orlardan bo'lgan teatr yaratdilar. O'z faoliyatlari bilan o'zbek halqini taraqqiyotta, ma'naviy-ma'rifiy mukammalikka, vatanparvarlikka, chorladilar. Bu yo'lda ko'p narsaga erishildi. Shu bois O'zbek Milliy akademik drama teatri millatimizning dorilfununiga aylandi desak yanglishmaymiz.

O'zbek teatri arboblari A.Avloniy, M.Uyg'ur, Hamza, G'.Zafariy, A. Hidoyatov, Z.Qobulov, Tamarahonim, Sarahonim, Tursunoy, Nurhon kabilar hayotlari uchun havfli bo'lgan davrlardayoq elni-yurti ma'rifati, madaniyati, ma'naviyatini uchun dadil sahnaga chiqqanlari, go'zallikka, ruhiy ozodlikka, ma'rifatga chorlaganlari haqiqiy mardlik, qahramonlik bo'lganini tushuntirib o'tirishning hojati yo'q. Nima uchun shunday qildilar? Chunki o'z yurtlari Turkistonni tenglar ichida teng ko'rishning, rivojlangan, ma'nan va moddiy boy badavlat va go'zal ko'rishni istadilar.

Undan keyingi davrlar o'zbek sahnasiga chiqqan birnecha avlod san'atkorlari, teatrning azaliy gumanistik an'anasini davom ettirib, yurt rivoji uchun hormay tolmay ishladilar. Yurtimizning hozirgi rivojlangan jamolida ularning ham ulug' mehnatlarining samarasini ko'rishimiz mumkin. Shu bois aktyor san'ati, u yaratgan obrazlar xalq uchun doimo o'rnak, ibratdir. Ular masalan, Abror Hidoyatov deganda G'ofir, Rustam, A.Navoiy, Otellolarga hos ulug' hislatlarni ko'z oldilarga keltiradilar. Sh.Burhonov deganda Ulug'bek, Yalangto'sh, Sulaymon ota, Edipga xos zaxmatkashlik, fidoiylilik, mardlik timsollari ko'z oldilariga keladi. Obid Jalilov, Sora Eshonto'rayeva, Lutfixonim Sarimsoqova, Zaynab Sadriyeva, Olim Ho'jayevlarni buyuk san'atkor el-yurt uchun mehnatlari, fidoiylar ideali sifatida biladilar. Ular o'zbek xalqning haqiqiy vatanparvarlari edilar. Shunday bo'lmaganda buyuk o'zbek teatri, aktyorlik, rejissyorlik san'atlari, dramaturgiyasi yuzaga kelmagan bo'lardi. Ular ham siz kabi yosh bo'lganlar, iqtidorli bo'lganlar, o'qiganlar, san'at sirlarini tinmay egallaganlar. Yuksak

natijalari esa ana shu temir intizom, ahloq-odob, chidam, sabr va toqat mevasidir. Siz aziz talabalar ulardan oʻrnak olsangiz. Yurt talabiga, yurtboshimiz talabiga quloq solsangiz sanʼatda ulugʻ ustozlarning arziguli vorislari boʻlib yetishishingiz, teatr sanʼatimizni yanada taraqqiy ettirishingiz shubhasiz.

Shundan soʻng talabalar bilan tanishuv. Suhbat. Talabalarni kirish imtihonida ijro chtgan etyud, monolog, masal, sheʼr, qoʻshiqlarining koʻrigi va muhokamasi boʻlishi mumkin.

Institut tartib-qoidalari, talabalik etikasi, estetikasi haqida maʼnaviy-maʼrifiy suhbatlar ham maqsadga muvofiq.

Sanʼat, shu jumladan teatr sanʼati inson qalbini noziklashtirib, maʼnaviy dunyosini syuyitadi, goʻzallashtiradi, ezgulikka chorlaydilar. Teatr sanʼati murakkab, kollektiv sanʼatdir. U oʻz vositalari orqali inson ruxiyatiga taʼsmr qiladi. Teatr sanʼatining eng asosiy namoyondasi, aktyor u siz teatr yoʻq. u saxnaning mutloq qiroli.

Aktyor sanʼati taraqqiyotida quyidagi uslubiy yoʻnalishlar yuzaga kelgan.

Diletantizm uslub va texnikani rad etadi. Deletantizm teatr maktabiga zid oqimdir. Bu oqimga rioya qiluvchilar aktyorlik texnikasi va sistemasi, layoqat:iz aktyorlarga kerak. Texnika va sistema ilxrmalaga halaqit beradi deb ishontirmoqchi boʻladilar.

Taqlidiy sanʼat -- aktyor repititsiya paytida yoki uyida aktyor bir marta haqiqiy, hayotiy, kechinmani boshidan kechiradi (shu uchun uni sanʼat deyiladi) va yodlab oladi. Ammo tomoshabin uchun spektakl oʻynaganda, kechinma yoʻqoladi rs;pititsiyada qilgan ishlarini faqat koʻrsatib beradi. Taqlidiy sanʼat repititsiya paytida yodlab olingan kechinma shaklini, qaytarish, koʻrsatish. namoyish qilishdir.

«**Kechinma sanʼag**» - rolda inson ruxini hayotdagiday, har gal qayta gavalantirishdir. 1>u sanʼat tomoshabin ongi va hissiyotiga chuqur taʼsir koʻrsatadi. Shu uchun 1>yechinma sanʼat-samimiylk, haqiqat va hayotiylikni oʻz ichiga oladi.

Tayanch iboralar:

Dramaturg, rejissyor, teatri arboblari, diletantizm, taqlidiy sanʼat, «kechinma sanʼat»

Savol va topshiriqlar:

1. Sanʼat turlarini sanang!
2. Ular haqida tu shunchalaringizni gapirib bering.
3. Taqlidiy va kechinma sanʼatining farqi?
4. Aktyor tarbiyachi, vatanparvar fuqaro mavzusida yozma matn tayyorlab keling

Adabiyotlar roʻyxati:

1. I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston". 2011.
2. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat". 2008.
3. K.S.Stanislavskiy. "Aktyorning o'z ustida ishlashi". T.Xo'jayev tarjimai. S.Muhamedov muharrirligida. T. Yangi asr avlodi. 2010
4. M.Umarov. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. T.: "Yangi asr avlodi". 2009. J.Mahmudov. "Aktyorlik mahorati". Toshkent: Bilim, 2005.
5. Yusupova M.R. "Uprajneniya po aktyorskому treningu". T.: O'zDSI bosmaxonasi. 2005.
6. Sh.S.Hamidova. "Estrada teatri va uning janrlari". T.: 2009.
7. J.Mahmudov, X.Mahmudova. "Rejissura asoslari". T.: O'zDSI bosmaxonasi. 2008.
8. Ziyonet.
9. <http://www.teatr.ru>

Mavzu: Dramaturgiya teatr san'ati asosi sifatida

Reja:

1. Teatr san'ati tarixi
2. Dramaturgiyaning qonun-qoidalari
3. Rejissyorning badiiy asar ustida ishlashi

Teatr san'ati qadim - qadimdan o'z mualliflariga ega. Necha asrlardan beri dramaturglar teatr uchun asarlar yozishgan. Antik davr, o'rta asrlar, uyg'onish davridan to shu kunga qadar ham mashhur teatr dramaturglari sahna asarlarini yaratishdi. Esxil, Yevripid, Lope de Vega, Moler, Shekspir, Goldoni, Shiller, Chexov, Gorkiy, Hamza va boshqalar. Dramaturgiyaning o'z qonun-qoidalari, sir-asrorlari tashkil topdi. Fojiali, kulguli, dramatik janrlar, qayg'uli, xursandchilik tomoshalari va boshqalar. Har bir davrning o'z estetikasi, o'z talablari bor. Bir necha asr avval asarlar 4-5 pardali qilib yozilgan bo'lsa, so'nggi asr o'rtalariga kelib bir tanaffusli, ikki pardali asarlar teatr sahnasini egalladi. O'tgan asr, -30-40-50 yillarida tomoshabinlar 2-3 tanaffusli sahna asarlarini sahna bezaklari almashinib parda ochilguncha kutishgan. Spektakl kechasi soat o'n ikki-birda tugab, tomoshabin miriqib tomoshadan qaytgan bo'lsa, tezkor zamon taqozosi bilan tomoshabin vaqtini tejash maqsadida bir tanaffusli yoki tanaffussiz asarlar sahnalashtira boshlandi. San'at turlarining bir-biriga ta'siri namoyon bo'ldi. Agar kinotomosha bin bir yarim soat ichida yakunlangan mavzuni tomosha qilib chiqsa, teatr ham yirik mumtoz sahna asarlarini davr ehtiyojiga qarab qisqartirib asar qaymog'ini ko'rsata boshladi. Voqealar kechadigan joylarni majoziy timsollar, shartli bezaklar bilan tomoshabinga havola qilinadigan bo'ldi. Vaqt, joy va harakat birligi teatr san'ati uchun katta rol o'ynadi. Hamzaning "Maysaraning ishi", Izzat Sultonning "Imon", Uyg'unning "Qotil", Sharof Boshbekovning "Temir xotin", "Toshkentga sayohat", Mashrab Boboyevning "Gurung" kabi asarlari shular jumlasidandir.

Muallifning har bir asari rejissyor talqiniga bog'liq. Rejissyor ham spektakl muallifi hisoblanadi. Qog'ozdagi so'zlarga jon ato qilgan, unga umr bergan, o'z zakosi bilan jonli sahna asarini ijodiy jamoa bilan yaratgan rejissyor hisoblanadi. Rejissyor va muallif birligi maslakdoshligi katta rol o'ynaydi. Rejissyor dardi dramaturg dardi bilan hamohang bo'lishi kerak. Stanislavskiyning Chexov va Gorkiy bilan yaqinligi, Mannon Uyg'urning Hamza bilan maslakdoshligi, Toshxo'ja Xo'jayevning Oybek, Erkin Vohidov bilan hamkorligi, Bahodir Yo'ldoshevning Said Ahmad bilan, Rustam Hamidovning O'lmas Umarbekov bilan izlanishidan ajoyib sahna asarlari yaratildi. Ba'zi rejissyorlar muallif tanlamaydi, duch kelgan asarni sahnalashtiradi. Bunday rejissyorlar ijodni kasbga almashtirgan, u asardan bu asarga o'zini takrorlaydigan hunarmand rejissyorlardir. Ayrimlarga voqea qayerda kechadi, qachon kechadi, tarixiymi, zamonaviymi farqi yo'q, o'z uslubi tayyor qolipi bor, sahnalashtiraveradi. Bu o'z navbatida tomoshabin qalbini jiz ettirmaydi, larzaga solmaydi, hafsalasi pir bo'lib teatrni tark etadi. Qars ikki qo'ldan deganiday dramaturg o'ylab topgan mavzu, matn, qog'ozdagi qiyofalar rejissyor sayi-harakati tufayligina jonlanadi, hayotiy haqiqatga aylanadi, tomoshabin larzaga tushadi, ma'naviy kamol topadi. Teatr san'ati- shartli san'at. Sahnaga haqiqiy daraxtni, paxsa devorni olib chiqib bo'lmaydi. Tomoshabin chizilgan jihozlarni, yasama rekvizitlarni tushunadi, hamma gap ijroda, uning ishonarli jonli va hayotiy chiqishida, talqinida. Tomoshabin teatrga nega tushadi? Aktyorning jonli ijrosi, uni yuzma-yuz turib tomosha qilish, har gal yangi holat, yangicha ruh, harorat o'ziga jalb qilaveradi. Qiyofalar turlanishi, voqealar rivoji, ijrochilarning har safar rolga o'zini baxshida qilishi tomoshabinni o'z domiga tortaveradi. Teatrning jozibasi ham shunda. Ba'zilar televideniye paydo bo'lgandan keyin teatr o'ladi deb bashorat qilgan edilar, yo'q teatr o'z jonli mehriyosi - ijrosi bilan abadiy san'at ekanligini isbot qildi. Kino va televideniyeining ravnaqiga qaramay keyingi yillarda tomoshabin teatrga yana oqib kela boshladi.

To'g'ri, teatr san'ati asrlar davomida qutining ichida qolib ketaverdi, yangi texnik imkoniyatlar yaratilmadi. Endi-endi teatr tomoshalari ochiq maydonga chiqa boshladi. Bu esa o'z navbatida rejissyorlarga yangi imkoniyatlar yaratdi. To'rt devorning ichida qolgan teatr san'ati, yangi kino san'atining paydo bo'lishiga olib keldi. Dramaturg va rejissyor teatrdagi qila olmagan ijod mahsulini kino san'atida amalga oshirdi. Kinoda voqealar ko'lamining kengligi, vaqt cheksizligi ssenarist uchun ham rejissyor uchun ham katta sharoitlarni tug'dirdi.

Teatrdagi rejissyor bilan dramaturg hamkorligi kino san'atida rejissyor va ssenariy muallifi hamkorligiga aylandi. Teatrdagi kabi kinoda ham rejissyor film muallifi hisoblanadi. Kinodramaturg o'ylab topgan voqealarni jonlantiradigan, uni ko'rimli tomoshaga aylantiradigan shaxs bu kino rejissyordir. Teatr san'atini sintetik san'at dedik. Kino ham teatr kabi sintetik san'at hisoblanadi. Teatrdagi aktyor, rassom, bastakor, chiroqchi, liboschi, pardozchi, rekvizitlar tufayli spektakl bunyodga kelsa, kinoda bundan ham murakkabroq ularga qo'shimcha tasvirchi-operator, assistent, ovoz operatori, montajchi, lablashtiruvchi va boshqa qator texnik xodimlar tufayli film

vujudga keladi. Yoz demay, qish demay, kech demay, kunduz demay mashaqqatli mehnat, juda katta ijodiy jamoaning birligi sababli kinofilm dunyoga keladi, tomoshabin yuzini ko'radi. "Tohir va Zuhra", "Alisher Navoiy", "Nasriddinning sarguzashtlari", "O'tgan kunlar", "Mahallada duv-duv gap" kabi mumtoz filmlar mana shunday mashaqqatlar evaziga bunyod etildi. Nabi G'aniyev, Komil Yormatov, Yo'ldosh A'zamov, Malik Qayumov, Shuhrat Abbosov kino san'atimizning darg'a rejissyorlari hisoblanadi. Bu rejissyorlar kino san'atining qonuniyatlari, sir-asrorlarini yaxshi bilganliklari uchun, kinodramaturglar bilan hammaslak bo'lib ishlaganliklari uchun ana shunday jahonga mashhur filmlar yaratdilar. Necha yillar o'tsa ham bu filmlarni qayta-qayta ko'rging kelaveradi. Kino san'atining ajoyib xislati ham mana shunda. U lentaga muhrlangan. Tasmada saqlanayapti. Uni takror va takror ko'ra olamiz. Teatr san'atining fojiasi shundaki, uni har kuni muhrlab bo'lmaydi, har kungi jonli ijroni saqlab qololmaymiz. Bir marta muhrlandimi, tasmaga tushirildimi, shu qoladi. Hozirgi elektron texnika taraqqiyotini afsuski o'tgan asr o'rtalaridagi buyuk san'atkorlar ko'ra olishmadi. Mannon Uyg'ur, Mariya Kuznetsova, Yetim Bobojonov, Abror Hidotovlarning yuksak darajada yaratgan jonli qiyofa va spektakllari saqlanib qolmadi, ayrim xronikadagi lavhalar, urvoq kadrlargina xotira sifatida qoldi. Teatrda mashhur spektakllar ayrim suratlar orqaligina ko'z oldimizda gavdalanadi, rejissyor va dramaturg hamkorligini tasavvur qilamiz.

Ommaviy axborot vositalarining shakllanishi, elektron texnikaning keskin rivoji teatrga ham, kinoga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Rejissyor va dramaturg hamkorligining yangi qirralari ochildi. Avvallari teatr va kino san'atida amalga oshmagan mo'jaz filmlar, kichik novellalar, uzundan-uzoq seriallar, hujjatli ekran asarlari, publitsistik janrlar, film portretlar, kundalik informatsion ko'rsatuvlar XX asr mo'jizasi televideniye tufayli dunyoga keldi va rivoj topdi. Televideniye va radio kirmagan xonadon qolmadi.

Rejissyorning badiiy asar ustida ishlashi

Buyuk yozuvchilar buyuk rejissyor bo'ladi, der edi ustozim. Darhaqiqat Shekspir ham, Balzak ham, Lev Tolstoy ham, Abdulla Qodiriy ham buyuk rejissyorlardir. Ularning har bir satri, har bir sahnasi, so'zi zamirida yotgan fikrlar rejissyor uchun katta bir ma'naviy ozuqa, sahnalashtirishning ulkan imkoniyatlarini yaratib beradi, tasavvuringizda, ko'z oldingizda o'z-o'zidan voqealar tizmasi jonlanib namoyon bo'laveradi. Siz uni muallif uslubini, oldiga qo'ygan maqsad, niyatlarini buzmaganda holda ro'yobga chiqarsangiz bas, shuning o'zi yetadi. To'g'ri, rejissyor ijodkor shaxs sifatida o'zining "men"i, muallifga munosabati, davrga hamohangligi, avval ochilmagan qirralarni asardan topishi, yangi yondashuvni zamondoshga izhor qilishi, uni larzaga keltirishi lozim. Ammo ko'pincha rejissyorlar o'zini namoyon qilib, "men"i bo'rtib, muallifning fikri-zikri ikkinchi darajali bo'lib qolayotgan hollari uchrab turibdi. Men mumtoz asarlarga har gal yangicha ifoda topib yangi talqinda tomoshabinga havola etilgan spektakllarni ko'rib, hayratga tushganman. "Revizor", "Hamlet", "Otello", "Qutlug' qon", "Kelinlar qo'zg'oloni", "Qiyomat qarz" shular jumlasidandir. Asarlarni sahnalashtirishda rejissyor yozuvchining biron so'zini o'zgartirmay yangi

qatlam fikrlarni topa bilgan. Talqinda gap ko'p. Rejissyor bir asarni har asnoda ko'rishi, o'ziga kerakli durni topib olishi mumkin. Ikkinchi jahon urushida Aleksandr Korneychukning "Front" asari sahnalashtirilgan. Asar qahramonlari, sovet zobitlari va askarlari nemisga qarshi kurashadi. "Sovet"da qo'yilgan bu asar vatanparvarlik ruhida tayyorlanib dushmanga nafrat uyg'otgan. Aynan shu asarni Germaniyada sahnalashtirilib birona so'zini o'zgartirmasdan ko'rsatishgan. Natijada nemis zobitlari aqlli, idrokli, sovet zobitlari ahmoq, laqma sifatida namoyish qilingan. Farq uslubda, ijro ohangida, talqinda. Demak, asarning qo'yilishida gap ko'p ekan. Rejissyor qanday qo'ysa, tomoshabinga qanday havola qilsa, shunday taassurot qolar ekan. Dramaturg yozadi, muallif ham o'zi. Lekin sahnalashtirilgan asar – spektakl muallifi rejissyordir. Qog'ozdagi muallif dardi bilan sahnada jonlangan rejissyor dardi hamohang bo'lib, uyg'unlashib ketsa, maslak bir joydan chiqsa, asar muvaffaqiyati, uzoq umr ko'rishi shundan bo'ladi.

Bahrom Rahmonovning "Yurak sirlari" dramasi bo'lardi. Taniqli bo'lmagan dramaturg, mashhur bo'lmagan asar, shu asarga jon ato qilgan, uni mashhur qilgan rejissyor Toshxo'ja Xo'jayev bo'ladi. Ajoyib shoir Erkin Vohidov "Oltin devor"ning qoralamasini teatrga olib kelganida, unga ishlov bergan, ko'rimli tomoshaga aylantirgan, hozirga qadar sahnadan tushmaydigan komediyani vujudga keltirgan, shoirni dramaturg qilgan - Toshxo'ja Xo'jayev bo'ladi. Oybekning "Qutlug' qon" asarini sahnalashtirayotganda, mashq jarayonida zalda o'tirgan Oybek sahnadagi bezak, ijro mahoratini ko'rib, ijod jarayonining ketishiga qarab necha bor rejissyor Toshxo'ja Xo'jayevning yelkasiga qoqib qoyil qolganini, tasannolar aytganining shohidi bo'lganman. Dramaturg Sharof Boshbekovning "Temir xotin" asari yozilganida, qator teatrlar uni sahnalashtirdi. Biri komediya, biri fars qilib ijro etdi. Lekin kulgu tagida ijtimoiy fojia yotganligini rejissyor Olimjon Salimov ilg'adi. Bir kuni Sharof Boshbekov "Mahkam aka, asarimni Farg'onada Olimjon Salimov ko'nglimdagiday sahnalashtiribdi", deb tan oldi. Muallif dardi, rejissyor dardi bir yerdan chiqdi. Qars ikki qo'ldan deganiday, dramaturgning qochirimlarini, kulgu tagida yig'i borligini rejissyor anglay bilgan va uni mohirona ijroda ro'yobga chiqargan.

Pesa birlamchi, spektakl ikkilamchi hisoblanadi. Atayin sahnaga yozilgan asarlar bor: drama, komediya, tragediya, opera, operetta, musiqali drama va hokazolar. Sahnaga moslashtirilgan (adaptatsiya) asarlar ham bor: roman, qissa, novella insseniroykalari.

Badiiy asar ustida ishlaganda rejissyor birinchi holatda asar mavzusi, g'oyasi, shu kun uchun dolzarbliligi ustida bosh qotirishi, tomoshabinga qanday ma'naviy ozuqa berishi haqida o'ylashi kerak.

Biz bilamiz, barcha badiiy asar - to'qima, yozuvchi, dramaturg xayolotida o'ylab topilgan hayotiy lavhalar. Bu badiiy to'qimalar rostga aylanishi kerak. Bu o'z yo'lida muallif mahoratiga bog'liq. Muallif goh tarixiy, goh ijtimoiy, goh maishiy mavzuga murojaat qilar ekan, insoniy muammolarni rost, ishonarli qilib dramaturgiya qonunlariga moslab yozmog'i kerak.

Buyuk shoir A.S.Pushkin "to'qimalarimdan o'z ashkinga chulg'anaman", - deb yozadi. To'qimaning rostligi shoirni larzaga soladi.

Yozuvchi shu bugungi muammolar yechimini boshqa davrlardan qidiradi, murojaat qiladi. Shekspir Angliyada sodir bo'layotgan qusurlarga javobni boshqa asrdan, o'tgan zamonlardan topadi. Abdulla Qodiriy ham shunday mavzuni o'tgan zamonlardan boshlaydi. Badiiy to'qima yozuvchi iqtidoriga, xayolot dunyosiga bog'liq. Bu san'atga xos bo'lgan xususiyatdir.

Umuminsoniy abadiy mavzular, muammolar bor: muhabbat, nafrat, o'lim, hasad, rashk kabilar hech qachon o'lmaydi. Insoniy xislatlar, ezgulik va yovuzlik, itoat va takabburlik, mehr va shafqatsizlik, donolik va nodonlik, saxiylik va xasislik, insonning barcha his-tuyg'ulari asarlarda o'z ifodasini topsin. O'tkinchi, kundalik mavzular bor: ular sharoitdan, vaziyatdan kelib chiqib yozilgan tezpishar asarlar. Bular tez eskiradi va nazardan tushib qoladi.

Yaqin o'tmishda yozilgan va o'sha davrni ulug'lagan ko'pgina sahna asarlari hozir keraksiz bo'lib qoldi. Rejissyor asar tanlar ekan, mana shu narsalarga e'tibor berishi kerak. Bundan tashqari har bir yozuvchining o'ziga xos xususiyatlari, yozish uslublari mavjud. Masalan, Oybekni Abdulla Qahhordan, Abdulla Qodiriyning Tog'ay Muroddan tili, uslubi, tasvir ifodalari, qiyofalari bilan bimalol ajrim qilish mumkin. Rejissyor yozuvchining nimaga qodir ekanligini, o'ziga xosligi nimadiligini, qaysi jihatlari bilan ajralib turishini aniqlab olish lozim. Demak yozuvchi - dramaturg qahramonlar nimani gapirayotganini yozadi, rejissyor qanday gapirayotganini ochib beradi. Ba'zan dramaturg rejissyorga yordam bo'lsin uchun voqea sodir bo'layotgan joylarni ipidan ignasigacha luqmalarda (replika) tafsilotini beradi. Ba'zan yozuvchi rejissyorning o'ziga talqinni havola qiladi. Muallif ruhiyatini, unga yashiringan muddaoni rejissyor ilg'ashi, topishi kerak bo'ladi.

A.P.Chexov, M.Gorkiy o'z pesalarini komediya deb yozadi. Aslida uning zamirida dramatik holatlar, fojialar yotgan bo'ladi. Rejissyor muallif ijodini, dunyoqarashini, uning kayfiyatini, uslubiyatini chuqur o'rgangan, asarni sahnalashtirganga qadar o'ziga xoslik tomonlarini yaqqol anglagan bo'ladi. Ba'zan bitta mavzuni bir necha muallif o'z ijodida qalamga oladi. Masalan, "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin", "Sabba'i sayyor", "Saddi Iskandariy" va hokazolar. Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy nega bu mavzularga qo'l urgan, versiyalar turlicha, yondashuvlardagi tafovut nimada? Boshqa manbalardagi farq va oxir-oqibat rejissyor bu asarni sahnalashtirishdan maqsad shaxs sifatida nima demoqchi, qanday yangi gap aytmoqchi, mana shu holatlar rejada o'z ifodasini topsin. Pesa adabiy mahsul, uni o'qish mumkin. Rejissyor unga hayot bag'ishlaydi, murakkab ijodiy jarayonni boshdan kechiradi. Sahnada san'at mahsulini, tomoshabinga mo'ljallangan jonli mahsulni ro'yobga chiqaradi. Bu mahsul – spektakl tomoshabin vijdonini g'ulg'ulaga solsin, qalbini junbushga keltirsin.

Shu o'rinda adabiy mahsulning sifati, ko'targan yuki, beradigan ma'naviy ozuqasi haqida rejissyor munosabatini o'ylab ko'rsak. So'nggi vaqtlarda sahnani, kinoekranni, televizion efini o'ta jo'n, sayoz, bir ko'rimli "asar"lar to'ldirib ketdi. Teatrda, kinoga kirgan, televizorni tomosha qilgan tomoshabinning hafsalasi pir bo'layapti. Bu nima? Haqiqiy san'atga bo'lgan talabning susayishimi? Tomoshabin didi o'tmaslashganimi? Yuksak san'at namunalari qayerda qoldi? Bir domlam "saryog' turgan joyda margarinni yeb

nima qilamiz” , degan edi. Yuksak adabiy asarlar, haqiqiy ijod namunalari turgan joyda biz o‘rtamiyona, tomoshabinga hech narsa bermaydigan “asar”larni sahnalashtirib, ekranlashtirib, efirga uzatib nima qilamiz. Menimcha haqiqiy rejissyor badiiy asar tanlashda, uning ustida ishlashda mana shunga e‘tibor berishi kerak. Agar san‘atning burchi yuksak saviyali barkamol insonni tarbiyalash bo‘lsa rejissyor kelgusi avlod oldida, uning dunyoqarashi, saviyasi oldida o‘ta mas‘ul ekanligini hech qachon unutmaslik kerak.

Rejissurada voqealar zanjirini aniqlash

Aytaylik, rejissyor sahnalashtirish uchun mashhur N.V.Gogolning “Revizor” asarini tanladi. Deylik bu asar o‘lmas asar, necha zamonlar o‘tsa ham takror va takror sahnalashtirilaveradi. Ko‘p rejissyorlar bu asarga murojaat qilaveradi. Aytishlaricha, asar g‘oyasini Gogolga Pushkin bergan ekan. Daftar hoshiyasiga “Shaharga revizor keldi” deb dastxatini yozgan, buyog‘ini Gogol yuksak mahorat bilan davom ettirgan ekan.

Dastlab rejissyor asarni mutolaa qilib pesa bilan tanishgandan so‘ng miyasida butun asarni tahlil qilib chiqadi. Har bir sahnada nima sodir bo‘ldi. qahramonlar xatti-harakati berilgan holatni aniqlaydi, joy haqida tushuncha hosil bo‘ladi. Rossiyaning o‘rta mintaqalariga mansub chekka viloyatlaridan birida Sank-Peterburgdan ancha voqealar bo‘layotganini belgilaydi. XIX asrning birinchi choragida shaharda hukm surayotgan o‘zboshimchalik, xalqqa bo‘lgan jabr-sitam, bedodlik, hokim boshliq amaldorlarning qilmish-qidirmishlari butun asar jarayonida yaqqol ochiladi. Hokimdan tortib barcha davlat xizmatida o‘tirgan amaldorlar jinoyat botqog‘iga botib qolganligini, poraxo‘rlik avj olganini, vaziyat keskin bir holatda shaharni “taftish” qilgani poytaxtdan to‘satdan maxfiy revizor kelganligi to‘g‘risidagi xabar barchani bexosdan g‘aflatda qoldirganligining guvohi bo‘lasiz. Natijada butun sahnalarda yashirin va sirli kelgan “taftishchi” oldida dahshatli vahimali va tahlikali hukm suradi. Yaqinlashib kelayotgan halokat oldida maktab nozirilaridan tortib pomeschchiklar, pochta mudiri, sudya, shahar mo‘tabar ishlariyu mirshablarigacha o‘zini qutqarish xatti-harakatiga tushib qoladi. Maxfiy “taftishchi” to‘g‘risidagi xabar shahar hokimining tunni uyqusiz o‘tkazib tong sahardan shahar kezishi, rasvogarchiliklarga barham berish maqsadida amaldorlarini chaqirib ogohlantirishi va hushyorlikka, o‘ta ehtiyotlikka chaqirishi bilan parda ochiladi. Maxfiy revizor shaharda yurganligi to‘g‘risidagi xabar vaziyatni keskinlashtiradi, hokimdan tortib barchani xavf ostiga qo‘yadi.

Qilinayotgan bedodliklar, hukm surayotgan jinoyatlar oshkora bo‘lishidan cho‘chidi, qo‘rqadi. Asablar tarang, bir-birini sotib qo‘yish xavfi kuchli, qanday bo‘lmasin maxfiy revizor oldida o‘zini asrab qolish, qutqarib qolish tashvishida, niyat boshga tushgan kulfatdan xalos bo‘lish.

Rejissyorga quyidagi voqealar tizmasi aniq bo‘ladi:

1. Shahar hokimi va amaldorlar revizor kelishini kutayapti.
2. Bobchinskiy bilan Dobchinskiy revizor shaharda ekanligini xbar beradi.
3. Revizor bilan shaxsan uchrashish uchun hokim mehmonxonaga jo‘naydi.

4. Xlestakov qorni och, nima qilarini bilmay o'zini mehmonxonadan haydab qamab qo'yishlarni kutib o'tiribdi.
 5. Xlestakov mehmonxonaga hokimning kirib kelishini uni qamash uchun kelgan deb qabul qiladi va o'zini qutqarish maqsadida hokimga hamla qiladi.
 6. Xlestakovning hamlasini shahar hokimi butun bemazagarchiliklar ayon bo'lib qolibdi deb fahmlab unga abjirlik bilan pora beradi va xonadoniga mehmonga taklif qiladi.
 7. Porani olib, ochlik mushkulidan qutilgan Xlestakov, amaldorlar avzoyini sezib o'z tasavvuriga erk beradi, o'z ahvolotidan qutilish niyatida yolg'onni do'ndira boshlaydi va bu yolg'onga o'zi ham ishona boshlaydi.
 8. Amaldorlar Xlestakovga pora berib, o'zlariga moyil qila boshlaydilar.
 9. Shahar fuqarosi hokimning beboshliklaridan Xlestakovga arz-dod qilishadi.
 10. Xlestakov cho'ntakni pulga to'ldirib, xotinlarning ko'nglini ovlab, hokimning qiziga uylanishni va'da berib, xizmatkori Osip bilan jo'nab qoladi. Hokim o'z martabasida qolganligidan xursand, revizordan g'olib chiqqanligidan tantana qiladi.
 11. Xlestakovning peterburglik do'sti Tryapichkinga amaldorlarning ahmoqligidan kulib, hokimning kirdikorlarini fosh qilib yozgan nomasini pochta mudiri keltiradi, Xlestakovning kim ekanligi oshkora bo'ladi.
 12. Hokim va barcha mehmonlar dahshatga tushgan, hamma aybdorni qidira boshlaydi.
 13. Haqiqiy yorliq bilan revizorni shaharga kelganligini jandarm xabar qiladi. Rejissyor mana shu voqealar zanjiridan kelib chiqib asosiy yirik voqealarni aniqlaydi.
1. Hokim shaharga maxfiy revizor kelishidan xabar topadi va u revizor kelganligidan voqif bo'ladi.
 2. Xlestakov ochlikdan qamalishini kutib yotibdi.
 3. Hokim pora bilan Xlestakovni osongina o'ziga og'dirib oladi.
 4. Xlestakov o'ziga bo'lgan tavoze ehtiromni kzrib hokim va amaldorlarni g'ulg'ulaga soladi.
 5. Pullarni olib, uylanishni va'da berib, Xlestakov jo'nab qoladi.
 6. Hokim o'z martabasini nishonlamoqda.
 7. Xlestakovning kimligi oshkor bo'ladi.
 8. Haqiqiy revizor tashrif buyuradi.
Rejissyor bu voqealarni yanada yirik voqealarga ajratadi:
 1. Hadikdagi shahar hokimi peterburglik o'tkinchini revizor ko'rinishida qabul qiladi.
 2. Hokimning mehmondo'stligidan foydalanib xlestakov cho'ntakni qappaytirib, maishatini qilib jo'nab qoladi.
 3. Hokim sharmanda shoshqaloqligidan, o'z dovdirligidan jazosini oladi.
- Biz buyuk Gogolning jaholat botqog'iga botgan amaldorlarning ustidan zaharxanda kulgusini, poraxo'rlik asosiy mezonga aylangan yakka hokimlik rossiyasini hajv tig'iga olganligini ko'ramiz. Gogol Rossiyadagi barcha

yaramas illatlarni bir joyga to'plab timsolga aylantiradi, jamiyat badaniga tushgan qurt kabi nafs bandalarining kirdikorlarini fosh qiladi.

Butun mavzu mana shu uch jumla bilan ochildi. Asarning qarama-qarshiliklari, to'qnashuvlar tahlil jarayonida ravonlashadi. Rejissyor voqealar zanjirini ilg'ashi, aar qurilmasini aniq ko'z oldiga keltirishi kerak. Pesaning kompozitsion tuzilishida tugun, mavzuning rivojlanib borishi, voqealarning eng yuqori cho'qqisi hamda ularning yechimi rejissyorning sahnada urg'u beradigan holatlaridir. Bular mantiqiy tahlil jarayonida aniq bo'lmasdan rejissyor sahnalashtirishni boshlay olmaydi. Yana bir voqea zanjirini aniqlab ko'raylik.

Biz buyuk Shekspirning o'lmas asarlarini hamisha miriqib tomosha qilamiz. Har bir davr uning asarlariga murojaat qiladi va o'zicha talqin qiladi. Masalan, "Romeo va Juletta" fojeasi. Bu asar film qilingan, sahnalashtirilgan, hatto yaqinda o'zbekcha versiyasi kino qilindi. Aslida Shekspir bo'yicha voqealar kechmishi qanday bo'lgan va bu voqealarni o'tishiga nima sabab bo'lgan?

Biz qarab chiqaylik:

1. Verrona ko'chasida favqulodda janjal chiqadi va mushtlashishga aylanadi, dastlab xizmatkorlar orasida, keyin advokat Montekki va Kapuletti oilasi orasida avjiga chiqadi.
2. Montekki qabilasiga mansub o'smir Romeo tong saharda Verrona chekkaisdagi daraxtzorda Rozalinda ishqida kezib yuribdi. Romeoning do'sti Benvenio uni bu g'ussadan chalg'itishga harakat qiladi.
3. Kapuletti o'z qizi Julettani Parisga berish niyatida. Paris Kapulettining roziligiga erishmoqchi.
4. Kapulettining balga taklifi va tayyorgarligi.
5. Julettaning onasi Kapulettixonim kuyov bilan uchrashuvga tayyorgarlik ko'rishmoqda.
6. Romeoning Merkusio, Benvenio va do'stlari bilan balga kelishi.
7. Bal. Romeoning Tibalt bilan to'qnashuvi va Juletta bilan Romeo uchrashuvi. Tibaltning balda janjal chiqarish niyati. Kapulettining Tibaltni tinchitishi.
8. Kapuletti xonadonining bog'i. Tungi uchrashuv.
9. Romeoning ruhoniydan madad izlashi. Romeoning Lorensiodan Julettani nikohlab qo'yishini iltimos qilishi.
10. Romeoning enagani o'z tomoniga og'dirishi, qachon, qayerda nikohlanishini Julettaga yetkazishni iltimos qilishi.
11. Kapuletti bog'i. Julettaga Romeo uylanish nikohi haqidagi xabarni enaganing yetkazishi.
12. Nikoh. Lorensio nikoh marosimini o'tkazadi.
13. Urishish. Tibalt Merkusioni o'ldiradi. Romeo Tibaltni o'ldiradi.
14. Julettaning tog'asi Tibaltning o'limidan motamda, Romeoga sadoqatini bildiradi.
15. Surgun. Romeoning Verronadan quvg'in qilinishi.

16. Romeo o'zini o'ldirmoqchi bo'lishi. Lorensioning Romeoni bu shaxtidan qaytarishi va bundan ketsin o'zini qanday tutishi kerakligi to'g'risida bir qarorga kelishi.
17. Kapulettining qizini Parisga berish to'g'risida bir qarorga kelishi. Payshanbaga nikohning belgilanishi.
18. Romeo va Julettaning tungi uchrashuvi va xayrlashuvi.
19. Julettaning Parisga turmushga chiqishdan voz kechishi, Lorensioning Juletaga uyqu dori berishi.
20. To'yga tayyorgarlik. Julettaning dorini ichishi.
21. Julettaning soxta o'limi. Dafn marosimi.
22. Julettaning o'limi to'g'risida xizmtkor Baltizarning Romeoga xabari. Romeoning zaharli dorini xarid qilishi.
23. Romeo bilan Parisning go'ristonda yakkama-yakka olishuvi. Parisning o'limi.
24. Romeoning zaharlanishi.
25. Julettaningo o'g'irlanishi va o'zini o'ldirishi.
26. Montekki va Kapulettlarning yarashishi.

Mana shu voqealar zanjiri "Romeo va Juletta" fojeasini tashkil etadi. Eng asosiy voqea Romeo va Juletta muhabbatiyu Montekki va Kapulettlarning adovati.

Bu adovatning yarashuvga muhabbatning halokati sabab bo'ladi.

Bu mavzuda Sharqda ham rivoyatlar ko'p "Layli va Majnun", "Vomiq va Uzro", "Tohir va Zuhra" va boshqalar. Umuminsoniy muammolarga bag'ishlangan bu asarlar o'lmas asarlardir. Rejissyor bunday asarlarga qo'l cho'zar ekan, chuqur tahlil qilishi, adovat zamirida nimalar yotganini aniqlashi, o'rta asrlarda sodir bo'lgan jaholatning hozirgi zamonga dolzarblik tomonlarini ochishi kerak bo'ladi.

Tayanch iboralar:

Teatr, dramaturg, pesa, dramaturg va rejissyor, san'at turlari.

Savol va topshiriqlar:

1. Teatr san'ati tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Rejissyor bilan dramaturg hamkorligi haqida gapirib bering?
3. Badiiy asar ustida ishlash haqida gapirib bering?
4. Rejissurada voqealar zanjirini qanday aniqlanadi?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston". 2011.
2. **I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat". 2008.**
3. K.S.Stanislavskiy. "Aktyorning o'z ustida ishlashi". T.Xo'jayev tarjimai. S.Muhamedov muharrirligida. T. Yangi asr avlodi. 2010

4. M.Umarov. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. T.: “Yangi asr avlodi”. 2009. J.Mahmudov. “Aktyorlik mahorati”. Toshkent: Bilim, 2005.
5. **Yusupova M.R. “Uprajneniya po aktyorskemu treningu”. T.: O‘zDSI bosmaxonasi. 2005.**
6. Sh.S.Hamidova. “Estrada teatri va uning janrlari”. T.: 2009.
7. J.Mahmudov, X.Mahmudova. “Rejissura asoslari”. T.: O‘DSI bosmaxonasi. 2008.
8. Ziyo.net.
9. <http://www.tsic.uz>
10. <http://www.teatr.ru>

Mavzu: K.S.Stanislavskiy “Sistemi”

1. Diqqat elementi
2. Hayotiy haqiqat
3. Oliy maqsad
4. Faollik va yetakchi xatti harakat
5. Tabiiylik (organik) tamoyili
6. Aktyorning obrazda yashash tamoyili

Konstantin Sergeevich Stanislavskiy (Aleksiev) 1863 yilning 17 yanvarida Moskvada san’atsevar savdogar oilasida dunyoga keldi. Stanislavskiy bolaligidanoq teatrga alohida mehr qo’ydi. O‘z tengdoshlari qatori ko‘chada bekorchilikda yurmas, balki kitob o‘qir, teatr yoki muzeyga borar edi. Bunga sabab ularning oilasiga o‘sha davrdagi Moskvaning yetakchi ilg‘or doirasiga kiruvchi ziyolilar tez-tez tashrif buyurishar, mehmonlar davrasidagi suhbatda yosh Konstantin ham ishtirok etar edi. Rasmlar galereyasi tashkilotchisi P.M.Tretyakov, teatr va muzey tashkilotchisi S.I.Mamontov, kitob noshiri M.V.Sabashnikov suhbatlarini tinglagan Konstantin suhbat jarayonidagi voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rishni hohlar edi. Shu sabab, o‘z akasi Vladimir bilan ota-onasi rahnomaligida teatrga tez-tez borib turar edi. Oilaning teatrga bo‘lgan muhabbati Stanislavskiy bolaligidanoq o‘ziga rom etib, butun umrini shu sohaga baxshida etishiga sabab bo‘ldi.

Teatr san’ati sohasida xususiy faoliyat imkoniyatlarining eng nodir va eng samarali namunasi 1898 yili ish boshlagan Moskva badiiy-hammabop teatr qiyofasida namoyon bo‘ldi. Bu teatr barcha xususiy teatrlar diqqat markazida bo‘lgan kommertsiya maqsadlarini emas, balki rus milliy ma’naviyati va juda katta mavqega ega bo‘lgan teatr san’atini yangi ijodiy yo‘lga olib chiqish edi. Moskva Badiiy teatri (MXT) 1898 yil 14 oktabrda «Podsho Fyodor Ioannovich» spektakli premerasi bilan ochildi.

MXTning tug‘ilishi uning asoschilarining 1897 yil 19 iyunda Moskvadagi «Slavyanskiy bazar» restoranida bo‘lib o‘tgan tarixiy uchrashuvlarida ro‘y bergan deb hisoblanadi. K.S.Stanislavskiy (Aleksiev) va Vl. I.Nemirovich-Danchenko 18 soat davom etgan suhbatlarida bo‘lajak

teatrning barcha xususiyatlari chuqur muhokama qilinadi. Stanislavskiy soʻzlariga koʻra uchrashuvda «boʻlajak ish asoslari, sanʼatning oʻziga xos masalalari, badiiy ideallar, sahnaviy etika, texnika, tashkiliy rejalar, boʻlgʻusi repertuar yoʻnalishlari, oʻzaro munosabatlar» muhokama etilgan. Suhbat davomida boʻlgʻusi ijodiy truppa tarkibi, uning yosh ziyolilardan iborat boʻladigan asosi, zalni did bilan, ammo odmi bezatilishi masalalari ham diqqat bilan koʻrib chiqildi. Teatrga rahbarlik vakolatlari va teatr faoliyati mazmunini belgilovchi shiorlar ham oʻz tasdigʻini topadi. Adabiy-badiiy xukm chiqarish huquqi V.I.Nemirovich-Danchenko, badiiy xukm chiqarish huquqi Stanislavskiyga berildi. Asosiy shiorlardan biri – «Bugun – Gamlet, ertaga statist, ammo statist sifatida ham u artist boʻlmogʻi shart!» edi. Teatr repertuariga kiritiladigan yozuvchi-mualliflar doirasi ham aniq belgilanadi. Bular birinchi galda G.Ibsen, G.Gauptman, A.Chexov milliy hamda jahon mumtoz dramaturglari edi.

K.S.Stanislavskiy 1938 yil 7 avgust kuni Moskva shahrida olamdan oʻtgan.

K.S.Stanislavskiy umri mobaynida bor kuch-qudratini sanʼatga, xususan teatr sanʼatini rivojlantirish, professional teatr yaratish maqsadida sarf qildi. Nafaqat rus teatri tarixi, uning rivojlanish bosqichlarini, balki jahon teatri rejissurasi, undagi aktyorlar faolyaiti bilan keng tanishdi. Hamkorlikda bir qancha spektakllar yaratdi. Oʻz ijodiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyatlarini, bajargan ishlarini xotirlab 8 tomdan iborat memuar teatr asarlarini yaratib, mazkur asarlari orqali oʻz sistemasining mohiyatini tushuntirishga harakat qilgan. U yaratgan “sistema” - realistik sanʼat boʻlib, barcha aktyorlik va rejissyorlik maktablarining asosiga aylandi. Ushbu sistemada bir qancha artistik avlodlarning tajribasi umumlantirilib, zamonaviy teatr estetikasining asosiy qirralari shakllangan. Shu tufayli uning ijodiy gʻoyalari, estetik dasturi butun jahonda tan olindi.

Uning estetik qarashlari va novatorligi faqatgina teatr bilangina chegaralanmay, balki ijodiy jarayon haqidagi gʻoyalari badiiy ijodiyotning barcha yoʻnalishlarida qoʻllanib kelinmoqda. Estetikaning umumiy masalalarini yechishda, badiiy ijodiyotning psixologiyasini ochib berib, ijodiy jarayonni qanday egallash, inson maʼnaviy hayotiga qanday kirib borishning yoʻllarini koʻrsatib beradi.

“Stanislavskiy oʻzidagi ijodiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida sahna sanʼati asosining sirlarini chuqur oʻrganishga kirishadi. **1900 yil aktyor ijodini oʻrganishga bagʻishlangan taʼlimini, yaʼni oʻzining sistemasini (Stanislavskiy sistemasini) yaratdi.** U oʻzining sistemi bilan aktyorlarni marionetkaga aylantirib, haqqoniy haqiqatni sahnadan haydayotgan baʼzi dekadent-rejissyorlarga qarshi chiqib, realistik sahna sanʼatini rivojlantirib, insonning ichki dunyosini toʻliq ochib bera oladigan yangi aktyorlik uslublari va texnikasini namoyish etdi. 1912 yil Stanislavskiy L.A.Sulerjitskiy bilan hamkorlikda, oʻz sistemasidagi gʻoyalarni muqimlashtirib, rivojlantirish uchun MXT-1 studiyasini tashkil etdi. Keyinchalik bu studiyadan koʻplab mashhur aktyorlar va rejissyorlar yetishib chiqdi”¹.

¹ Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. T. Aloqachi. 2008 y. 22-23 b.

K.S.Stanislavskiy o'z sistemasi bilan aktyorlik va rejissyorlik san'atida buyuk o'zgarish yasadi. Dunyodagi ko'pgina millat san'atkorlari uning hayotbaxsh nazariyalaridan bahramand bo'lishga intildilar. U, o'z kitobiga yozgan so'zboshisini quyidagicha tugatadi: "Biroq kitobimda yozganlarim ayrim davr va o'sha zamon kishilarigagina taaluqli bo'lmay, balki hamma zamon va zamonlardagi artistlik qobiliyatiga ega bo'lgan barcha millatning organik tabiatiga taaluqlidir"².

Stanislavskiy o'z sistemasi bilan teatrdan bachkana teatrini, aktyorlik o'yinidan soxtalikni, yuzakilikni, taqlidchilikni, bachkana qiliq qilishni quvib chiqardi hamda mazmundorlik va hayotiylikni o'rnatishga urindi. U, o'zining butun hayotini sahnada tirik inson, jonli obraz, hayotiy haqiqatning tantana qilishiga bag'ishladi. Sahnada ko'pchilik oldida ijod qilganda rolni chinakamiga his etish, tuyg'uni aktyorchasiga, yolg'ondakam qilib ko'rsatmay, balki insoniycha, mantiqan izchillik bilan, maqsadga muvofiq, unumli xatti-harakat orqali paydo qilish Stanislavskiy sistemasining asosiy mohiyatini tashkil etadi.

Stanislavskiy sistemasining yaratilishi aktyorlar, rejissyorlar, teatr pedagoglari uchun qimmatbaho qo'llanma bo'ldi. Sistemada sahna san'ati tabiatining ma'naviy hamda jismoniy elementlari ko'rib chiqilib, amaliy badiiy faoliyatdagi ularning uzviy aloqalari ochib beriladi.

"Stanislavskiy sistemasi" quyidagi tamoyillarga bo'linadi:

1. Hayotiy haqiqat (Hayotiylik tamoyili).
2. Oliy maqsad (San'atda g'oyaviy fikrning «Oliy maqsad» orqali amalga oshirilishi tamoyili).
3. Faollik va yetakchi xatti-harakat (Sahnadagi maqsad sari intilish jarayonida sezgi va hissiyotlarni qo'zg'atuvchi yagona kuch harakat ekanligi to'g'risidagi tamoyil).
4. Tabiiylik (organik) tamoyili (Aktyorning tabiiy tarzda paydo bo'ladigan ijod tamoyili).
5. Aktyorning obrazda yashash tamoyili (Siymo qiyofasiga kirishish chog'ida aktyorning o'zligini yo'qotmay, ijodiy yondashuvi tamoyili).

Taniqli rejissyor va pedagog V.Q.Rustamov "Xalq teatri rejissurasi" qo'llanmasida K.S.Stanislavskiy sistemasining yaratilishi xususiyada to'xtalib quyidagicha to'laqonli fikr bildirgan:

Stanislavskiyning shogirdlari uning teatr san'atiga oid qarashlarini o'rganish va sahnalashtirgan spektakllarini tahlil qilish asosida bir qancha asarlar yaratganlar. G.Kristining "Stanislavskiy maktabi aktyori tarbiyasi", B.E.Zaxavaning "Aktyorlik va rejissyorlik mahorati" kitoblari va boshqalar shular jumlasidandir. Masalan, G.Kristi 30-yillarda Stanislavskiy o'zining eksperimental tadqiqotlarini olib borayotgan paytda uning assistenti sifatida ish olib borgan. U sistemasining birinchi qismi – aktyorning o'z ustida ishlashi va ikkinchi qismi - rol va pesa ustida ishlash masalalarini tahlil qiladi va Stanislavskiy sistemasini qo'llovchi nazariyalar yaratadi. B.E.Zaxava esa

² Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. T.Xo'jayev tarjimasi. "Toshkent" badiiy adabiyot nashriyoti, 1965 y. 9 b.

uning sahnalashtirgan asarlari asosida aktyor tarbiyasining asosiy printsiplarini yaratadi va h.k.

K.S.Stanislavskiy yozgan asarlarining I-tomini "Sahnadagi hayotim" deb nomlaydi va o'quvchini sistemaga kirishga tayyorlaydi. II-tomi esa "Aktyorni o'z ustida ishlashi" deyilgan. Sistemaning aktyorlik mahoratini shakllantirishga oid barcha tushunchalar ushbu kitobda yoritishga harakat qilingan. "Aktyorning o'z ustida ishlashi" kitobi rejissyor-pedagog Arkadiy Nikolayevich Tortsov va uning yordamchisi Ivan Platonovich Raxmanovlarning saboqlari misolida uni tahlil qilish asosida vujudga keldi.

Diqqat elementi bu butun diqqatni saxnaviy obektga qarata bilish ko'rish, eshitish, sezish orqali undan kelayotgan impulsni qiziqish bilan qabul qilish va unga mos zarur hatti harakatlar qilishdir. Artist na faqat sahnada, xattoki xayotda ham diqqatli, kuzatuvchan bo'lish kerak. Atrof-xayotda aktyor e'tiborini nimainki tortsa, u barcha diqqatini shunga qarata bilish kerak. Kuzatayotgan obektini faqat sirtidan emas ichidan ham kuzatish kerak. Talaba birinchi o'rinda to'g'ri ko'rish, eshitishni o'rganishi maqsadga muvofiqdir. Bunda faqat yomonlik holatlarinigina emas balki go'zallik va saxovat holatlarini ko'proq ko'rish, eshitishga intilish kerak. Go'zallik, hayri-sahovat qalblarda, buyuk xissiyotlar uyg'otadi.

Tabiat - bu go'zallik. Avvaliga gul, barg, derazadagi muzlagan qor naqshlarini chizgan ijodkor tabiatning ishini kuzating. Bulara sizga aynan nima yoqayotganini, so'z bilan izoxlang. Tabiatga zulmat va qorong'ulik hollarini ham taxlil qilayotganda, avvalo undagi go'zallikni, yaxshi tomonlarini topishga xarakat kiling. Siz kuzatayotgan obekt x.aqida qarata, o'zingizga quyidagi savollarni bering: Kim?.., nima?... qachon?.., qayerda?.., nimaga?.., nima uchun...? va hako'zolar.

Olaylik diqqat bilan odamlarni kuzatyapsiz. Masalan parkda. Bir kampir kolyaska sudrab o'tib borayapti. Kolyaska ichida bola emas, qafas, uning ichida qush. Balki kampir, qafas og'irligi uchun uni kolyaskaga solgandir:

Ammo, aktyor ijodiy xissiyotlarini ishga solsa, uni bu kampir bola-chaqasidan ayrilganligini, qachonlardir shu yerda navaralarini kolyaskada sayr qildirganligi ko'z oldiga keltirishi mumkun. Shunday qilib, talaba-ijodkor, diqqat mashqi orqali darsxonada badiiy-emotsional sahna yaratishi mumkin.

Siz kuzatayotgan insonning ichki dunyosi uning muomalasi, fikri, biror narsaga intilishi orqali yoki shart - sharoit ta'siri bilan ochilsa

- diqqat bilan shu intilish va holatlarni kuzating, sharoitni o'rganing, o'zingizdan so'rang - nimaga bu odam bunday qildi? Xayolida nima bor edi?

Diqqat, shartli-ixtiyoriy va shartsiz-beixtiyor bo'ladi. Diqqatning elementar shakli - bu shartsiz -beixtiyoriylikdir.

Masalan, chaqaloq atrofida qilarga o'z munosabatini bildiradi. Rangli, yaltiroq o'yinchoqni ko'rganda, beixtiyor o'z diqqatini shunga qaratadi. Bu yerda ko'rayotgan shaxs subekt - chaqaloq. Diqqat qaratilgan narsa obekt esa - o'yinchoq. Beixtiyor diqqat vaqtida subekt o'z ichiga obektini qamrab olmaydi. Aksincha, obekt subektning diqqatini o'ziga tortadi. Beixtiyoriy diqqat passiv diqqat. Zero, u - ongsiz ravishda amalga

oshadi. Ixtiyoriy diqqat esa aksincha, insonongi bilan bog'liq. Shu uchun u aktiv xarakterga egadir. Ixtiyoriy diqqatda obekt qiziqarli bo'lganligi uchun emas, subekt ongida kechayotgan jarayon faol analitik bo'lgani uchun, diqqatni tortadi.

Ixtiyoriy (shartli) diqqatda obekt faqat o'ziga xos tomoni bo'lgani uchun emas, subekt ongida hosil bo'lgan jarayon sababli, diqqat markaziga aylanadi.

Tashqi va ichki diqqat.

Tashqi - diqqat deganda insonning o'zidan tashqaridagi obektlar bilan bog'liq diqqat nazarda tutiladi. Bularga bizni o'rab turgan dunyodagi barcha predmetlar va ovozlari kiradi. Qaysi -- tuygu organlari yordamida -- yuzaga kelganiga qarab tashqi diqqat o'z o'rnida tomoshaviy, eshitish, sezish, xis qilish, ta'm bilish diqqati bo'lishi mumkin. Eshitish, ko'rish bular ichida asosiysi sanaladi.

Ichki diqqat deb inson organizmi ichida sodir bo'lgan jarayon tufayli yuzaga kelgan diqqatga aytiladi. Bularga ochlik, chanqash, og'riq,

fikr, hissiyot, tasavvur orqali tug'ilgan obrazlar, fantaziyalar va boshqalar kiradi.

Tashqi diqqat - beixtiyoriy (passiv) bo'lishi ham mumkin. Lekin tashqi diqqat bitta obekt bilan uzoq boglanib turolmaydi. U yo, boshqa obektga ko'chadi, yoki fikrlash jarayoni orqali ichki diqqatga aylanadi -shunda, diqqatni bir yerga YIYEISH aktiv xarakterda bo'ladi. Shunda tashqi va ichki - diqqat degan shakl yuzaga keladi.

Masalan, ish stolingizga o'tirib, stol ustidan begona xat topib oldingiz deylik. Bunda dastlabki daqiqadagi diqqat - tashqi diqqat ya'ni beixtiyoriy, refleks diqqati bo'ladi. «Bu xat kimga ekan» degan avtomatik fikrni uyg'otadi. So'ng insonning ong faoliyati aktivlashadi. Xat kimga kelganligini bilishi uchun ichini ochib o'qib ko'radi, xotirasida tiklaydi va eslaydi. Shunda tashqi diqqat ikkinchi planga suriladi. Chunki, xat bilan ish to'xtagan bo'lsa ham, ong ish davom etmoqdadir. Demak ichki diqqat birinchi planga chiqadi. Diqqat har doim o'zi xarakterini o'zgartirib boradi.

Mushaklar erkinligi. Sahnaviy diqqat bilan chambarchas bog'liq holda aktyor faoliyatiga ta'sir etuvchi ikkinchi muhim element-saxnaviy erkinlikdir. Bu erkinlikning tashqi ya'ni -jismoniy, hamda ichki ya'ni -ruxiy tomonlari bo'ladi. Badan erkinligi va ruxiy erkinlik o'zaro hamkorlik xrlatidagina aktyor uchun saxnada haqiqiy ijod imkoniyatlarini yaratadi. Bularni ketma-ket ko'rib chiqamiz.

Jismoniy xarakat, ya'ni muskullar bo'shligi inson organizmida muskullar energiyasining to'g'ri taqsimlanishidan kelib chikadi. Mushaklar erkinligi - - bu organizmning shunday xarakatini unda biror harakat uchun, shu harakatnigina amalga oshirishga zarur bo'lgan energiyani ishlatiladi, ya'ni keragidan ortiq ham, kam ham emas. Mushaklar energiyasini to'g'ri taqsimlay bilish, bu inson gavdasi plastikasining asosiy shartidir. Gavdaning har bir harakati uchun zarur meyorda kuch ishlata olish plastikaning asosiy ichki qonuniyati sanaladi. Shu bois, har bir jismoniy harakat go'zal ya'ni ishonchli bo'lishi uchun ushbu qonunga bo'ysunishi kerak.

Sahnada ma'lum maqsadga yo'naltirilgan har qanday harakat ana shu ichki qonunga mos bo'lgandagina erkin bo'ladi.

Tabiatda energiya doimo bir shakldan boshqa shaklga o'tib, taqsimlanib turadi va xech qachon keragidan ortiq yoki kam bo'lmaydi. Faqat inson ma'lum shart-sharoitlarda o'z gavdasini, gavda plastikaning asosiy qonuniyatiga bo'ysundira olish qobiliyatini yo'qotib qo'yadi. Qilayotgan hatti-harakatining, gapirayotgan gapining to'g'ri ekanligiga bo'lgan ishonch, ichki erkinlikka sabab bo'ladi, ichki erkinlik o'z navbatida, insoning tashqi jismoniy holatida, plastikasida o'z aksini topadi. Demak akter holatining ichki va tashqi erkinligi asosida ichki ishonchga to'liq ega bo'lish yotadi. Shu ishonch bo'lmagan vaqtda mushaklarda siqqlik yoki aksincha bo'shlik paydo bo'ladi. Harakatlardan yoki gavda holatlaridan tabiiylik yo'qoladi. Mushaklarda erkinlikning yo'qligi, birinchidan, kerak bo'lmagan mushaklarning tortishuviga, ikkinchidan, ishlashi zarur bo'lgan mushaklar haddan tashqari zo'riqib qotish holatiga olib keladi. Tabiiy holda mushaklar sharoit taqozosiga asosan avtomatik tarzda taranglashib yoki bo'shashib turadi. Bo'shashgan vaqtlarda oldin sarflangan energiya tiklanadi. Bu jarayon ma'lum bir ritm asosida amalga oshadi. Mushak taranglashsa-yu, lekin o'sha mushak ishlatilmasa, u yo'qotgan energiyasini tiklab ololmaydi. Bunday vaqtlarda aktyor jismonan juda charchaydi.

Ba'zan esa, mushaklar keragicha taranglashmaydi, bunda harakatlar bo'sh, sust bo'ladi. Bir mushakning zo'riqishi boshqasini yetarli darajada quvvat bilan ta'minlanmasligiga olib keladi, o'rnini to'ldirish (kompensatsiya) qonuniga asosan u yoki bu turdagi quvvat inson badanida teng miqdorda olmashinib turadi. Shu bois, faol aqliy mehnatni, og'ir jismoniy mehnat bilan bir vaqtda muvoffiqlashtirib bo'lmaydi. Agar aktyor sahnada keragidan ko'p enargiyani jismoniy harakatlar uchun sarf qilsa, ya'ni uning mushaklari doimo siqiq holda bo'lsa, aktyorning sezish va fikrlash imkoniyati pasayib ketadi. Ijod esa Stanislavskiy aytganidek «juda kam jismoniy kuch va ulkan aqliy va ruhiy quvvatni talab qiladi». Mushaklar siqiqligi bilan diqqat bir-biriga teskari proporsiyada o'zgaradi. YA'ni mushak siqilsa, diqqat bo'shashadi yoki aksincha bo'ladi. Ba'zi tashqi organlardagi siqiqlikni ongli ravishda o'z irodasiga bo'ysundirish orqali, kamaytirish yoki yengish mumkin. Masalan: qo'l, oq, bo'yin, yelka, yuz va hako'zolar. Shular jumlasidan, lekin, qo'rquv natijasida yuzaga kelgan yurakning tez urishini iroda bilan tinchlantirib bo'lmaydi. Ichki organlardagi siqiqlikni faqatgina butun diqqatni bir yerga jamlash orqali yengish mumkin.

Mushaklardagi ortiqcha siqiqlikdan qutilish jarayoni ketma-ket 4 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Ongli ravishda, iroda asosida mushaklarni bo'shatish.
2. Ongli ravishda diqqatni kerakli obektga yo'naltirish, orqali mushaklarni bo'shatish.
3. Shartli diqqatni shartsiz diqqatga aylantirish orqali ichki erkinlikka erishish
4. Tashqi va ichki organlarda tamoman erkinlikka erishish. (Tashqi va

ichki a'zolari dagi yo'lqilikning qoldiqlarini beixtiyor yo'qolishi).

Ichki ijodiy erkinlikka erishish ko'p kuch, mehnat va vaqt talab qiladigan jarayondir. Bu muammo faqat aktyor ichki va tashqi texnikaning xamma elementlarini mukammal o'zlashtirgandan keyingina hal bo'ladi. Mushaklardagi ortiqcha siqqlikni yo'qotishga esa amaliy aniq tizimga ega bo'lgan mashg'ulotlar orqaligina erishish mumkin.

1-mashq - Mushaklarni har birini alohida-alohida maksimal darajada siqish va bo'shatish. Bu mashq orqali talaba u yoki bu muskulga diqqatini yo'naltirishni o'rganadi. 2-mashq - Tepadan pastga va pastdan tepaga qarab har bir muskulni navbatma-navbat bo'shashtira olish va siqish. 3-mashq - Normal holga keltirish. 4-mashq - Mushaklarning alohida olingan ma'lum bir gruppasini

taranglashtirish, bo'shashtirish. Bunday mashqlar yordamida talaba-ijodkorlar o'z gavdalarini nazorat qila olishni o'rganadilar. Avval bu narsa shartli ravishda amalga oshadi, keyinchalik avtomatik tarzda nazorat qilishga erishiladi. Mashqlar bilan muntazam va mustaqil shug'ullanib boriladi. Raqs, ritmika, sahna harakati fanlarida ham talabalar, gavda plastikasining asosiy qonuniyatiga rioya qilishlari kerak. Kundalik hayotda ham, o'z jismoniy harakatlarini shu qonunga moslashtirishlari lozim. Faqat shundagina muskullar erkinligini tarbiyalash muammosi hal bo'ldi deb umid qilish mumkin.

Sahnaviy ishonch. Sahnaviy erkinlik bilan chambarchas bog'liq yana bir element -- bu saxnaviy ishonchdir. Albatta «ishonch» so'zi bu yerda o'ziga xos ma'noda ishlatiladi. Chunki chizilgan dekoratsiyalarning haqiqiy o'rmon yoki dengizligiga ishonib bo'lmaydi. Lekin dekoratsiyaga o'rmon sifatida yoki gruppadagi do'stiga qirol sifatida jiddiy munosabatda bo'lish mumkin. Shu jarayonda aktyor ,hobiliyatining yana bir tomoni - saxnaviy haqiqatga bo'lgan ishonchi namoyon bo'ladi. Zero, aktyor sahnada yashar ekan sahnaviy badiiy to'qimalarga xuddi haqiqiatga qaragandek jiddiy yondoshadi.

«Jiddiylik! va «agarda» - teatr san'atining butun sehri, sir-asrori ana shu ikki so'zda mujassam bo'lgan. Aktyor o'zi qilayotgan harakatlarining yokh gapirayotgan gaplarining to'g'riligiga va zarurligiga bo'lgan qat'iy ishonchidan kelib chiqadi. Agar ijrochi ikkilana boshlasa, tomoshabinda ham iionchsizlik paydo bo'ladi. Aktyor sahnada muallifning so'zlarini gapirsa, rejissyor qo'ygan harakat va mizanssenalarni bajarsa-yu, ammo shu gap va harakatlarni o'zi uchun tom ma'noda anglab olingan haqiqatga, zaruriyatua aylantirmasa, sahnaviy haqiqat yaratilmaydi. Shu bois, aktyor sahnadagi barcha harakatini, YE.Vaxtangov «menga zarur» degan iborasiga bo'ysundirishi kerak. «Menga zarur» degan formulani 3 xil ma'noda talqin sshtsh mumkin:

Birinchi «Menga zarur»: bunda aktyor aynan shu harakatning, shu so'zlarning o'zi yaratayotgan obraz uchun zarurligini anglab oladi. Bunga erishish uchun aktyor u yoki bu sax_naviy harakatni, so'zni berilgan shart-sharoitdan kelib chiqqan holda, sababi va maqsadini aniqlab, to'g'ri

tushuntirib bera sigishi «nimaga?» «nima uchun?» degan savollarga to‘lik javob topa olishi zarur.

Ikkinchi «Menga zarur»: buning ma’nosi, qilinayotgan ish, aytilayotgan so‘z atstyor sifatida menga, mening asablarimga, mening qalbimga kerak. h'gzmak aktyor, personaj hatti-harakatini tushuntirib bera oladigan shunday sabablarni topishi lozim, bu sabablar aktyorning hissiyotiga to‘liq ta’sir qila olsin. Natijada obraz orzu- armonlari, maqsadi, aktyorning shaxs sifatidagi orzulariga, maqsadlariga mushtarak tomonlari paydo bo‘ladi. Aktyorda temperament uyg‘onadi va u qo‘yilgan maqsadga erishish uchun kurasha boshlaydi. Shunday qilib, «menga zarur» formulasining 3-ko‘rinishi ya’ni «manga zarur» yuzaga keladi. Shu formulaga rioya qilgan holda mashq qilish aktyorda o‘z xatti-harakatining to‘g‘riligini isbotlanishi uchun zarur ishonch yuzaga keladi. Ishonch bilan birga esa saxnaviy erkinlik paydo bo‘ladi va aktyor tomoshabinni sahnada bo‘layotgan voqealarga ishontiradi. Demak, yuqorida aytganimizdek sahnaviy ishonchning manbai «nimaga?» «nima uchun?» savollariga topiladigan javoblardadir. Bundan tashqari yana «qachon?», «qayerda?», «qanday qilib?», «qaysi sharoitda?» degan savollarga ham sahnaviy javob topish ham ishonchni izlash jarayoniga kiradi.

Bu savollarga javoblar -sahnaviy oqlash deyiladi. Oqlamoq - demak sahnaviy harakatni tushuntirib berish, sabablarini aniqlab, sahnaviy haqiqatni yuzaga keltira olishdir. Oqlamoq spektakl uchun to‘g‘ri, foydali aktyor uchun esa, qiziq bo‘lgan hatti-harakat sabablarini topa olishdir. Aktyor sahnadagi mavjud va yuz beruvchi hamma narsani oqlay olishi kerak. Masalan, voqea o‘rnini, vaqtni, jihozlar, sahnadagi barcha predmetlar-u, kostyumlarni, grimlar-u, berilgan shart-sharoitni, obrazning hatti-harakati-yu, ularning fe‘l-atvorlarini, shuningdek partnerlarning o‘ziga nisbatan munosabati va hakovolar shular jumlasidan. Oqlash - demak o‘ylab topilgan narsalarni o‘zi uchun badiiy haqiqatga aylantirish deganidir.

Oqlash orqali aktyorning ichki texnikasi o‘sadi, takomillashadi. Bunday aktyor sahnada hech narsadan dovdirab qolmaydi, kutilmagan harakat, ritmik holat uning obraz qiyofasidagi hayotiy jarayonini buzolmaydi. Demak, sahnada yuz beruvchi har qanday kutilmagan narsa aktyor tomonidan oqlanishi zarur. Bu aktyorlik san’ati texnikasining qonunidir.

Hayotiy haqiqat

Hayotiy haqiqat nima? Nima uchun u sistemaning birinchi raqamli talabi?

Keling javobni Stanislavskiyning o‘zidan qidiramiz. Uning “Barcha janrlarning asosida hayot yotadi”, - degan birgina sehrli so‘zidan bilsak bo‘ladiki, sahna bu badiylashgan hayotdir. Faqat hayotiy hislar va kechinmalargina sahnaning to‘laqonli egasidir.

Hayotiy haqiqatning asosiy jihati shundaki, u hayotni haqqoniy aks ettirish uchun xizmat qiladi. Bu ta’limot boshidan oxirigacha hayotiy haqiqat tushunchasi bilan sug‘orilgan. Shuning uchun rejissyorlar aktyorlar uchun soxta haqiqat bilan hayotiy haqiqatni bir-biridan farqlashni bosh vazifa deb

bilish kerak. Aktyor ijrosidagi har bir harakatni hayotiy haqiqatga taqqoslashni odat qilishi lozim.

Hayotiy haqiqat aktyorlik va rejissyorlik faoliyatda eng e'tibor qaratish lozim bo'lgan qismidir. Ayniqsa bo'lajak aktyorlarni tayyorlashda etyudlar ustida ishlashda bunga alohida ahamiyat berish kerak. Sahnada bo'layotgan har qanday voqelik va xatti-harakatlar hayotiy haqiqatga mos kelishi kerak. Sahnada "yolg'on" bilan tomoshabinni aldash - sahna san'ati ichidagi eng kechirib bo'lmaz gunohdir. Shuning uchun haqiqat tamoyillariga tayangan holda ijod qilishga o'rganib borish kerak. Masalan, mushuk hech qachon hayotda it kabi "vovullamaydi". Agar sahnada ham shunga o'xshash xatti-harakat namoyish etilsa, hayotiy haqiqat printsiplari buzilgan sanaladi. Aktyorlarni tayyorlash jarayonida haqiqat tamoyilining o'zini ikkita, ya'ni hayotiy (real) haqiqat va sahnaviy haqiqat ko'rinishlari nuqtai nazaridan o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Sahnaviy haqiqat – bu aktyor tomonidan yaratiladigan haqiqatdir. Sahnada ko'proq shartlilikni talab qiladi. Ana shu shartlilik asosida hayotiy haqiqat yotadi.

Oddiy misol, ba'zida aktyorning birgina xatosi uchun tomoshabinning "e, o'xshamabdi" degan so'zlari quloqqa chalinadi. Nima uchun "o'xshamagan" tomoshabin uning o'xshamaganligini qayoqdan biladi. Balki, bu aynan shunday sahnalashtirilgandir. Axir tomoshabin repititsiya jarayonida ishtirok etmagan, bu spektaklni birinchi marotaba ko'rayaptiku. Bilingki, baribir tomoshabin haq. U aktyorning xatosini sezmedi. Balki aktyorning harakatini hayot bilan taqqosladi. Demak aktyor ijrosida hayotiylik bo'lmagan.

Ba'zida, talabalarga hayotiylik ta'limotini tushuntirish jarayonida ular tomonidan savol beriladi. Fantastik asarlarda hayotiylik, ya'ni ishonchsizlik yo'q-ku? Javob esa oddiy, oq va qora, yaxshilik va yomonlik, er-xotin, do'st-dushman o'rtasidagi tafovut fantastik asarlar mezonini, ulardan chetga chiqib birorta fantastik asar yaratingchi. Hattoki, bolalar uchun mo'ljallangan sahnaviy asarlarda, multfilmlarda ham hayotiylik qaror topgan. Sehgarning ming bir sehri, Yalmog'izning ming bir nayrangisi... axir bular hayotdan olingan asliy haqiqat-ku. Demak, Stanislavskiyning yuqoridagi gapini yana bir bor eslaylik: "Barcha janrlarning asosida hayot yotadi".

Bu tamoyilning asosiy mezonlaridan bir bu - hayotiylik, haqqoniylik va badiiylikning omuxta, sintez tarzda, mahorat darajasida namoyon bo'lishidir. Bu talab dramaturgga ham, uni sahnalashtirayotgan rejissyorga ham barobar taaluqlidir. Hatto bu ikki talabni sahnada to'la va mahorat darajasida ro'yobga chiqarish uchun nafaqt dramaturg, rejissyor mas'ul, balki ana shu asarni tayyorlab, tomoshabinga yetkazishda ishtirok etuvchi aktyordan, rassomdan, hatto chiroq ustasi, rang tasvir yaratuvchi elektrikkacha javobgardir, ma'suldir.

Mannon Uyg'ur ijodi avvalombor hayot haqiqatiga asoslangan. Shu bois san'atkor o'zining shogird va hamkasblaridan hayotni yaxshi bilishni, kundalik turmushni puxta o'rganishni, umuman ijodda hayotiy haqiqatga

tayanib ish tutishni maslahat beradi. Uyg'ur bunday ijod etishni birinchi galda Stanislavskiydan o'rganish kerakligini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Oliy maqsad

“Oliy maqsad”ning o'zi nima?

Ayrim mutaxassislar “oliy maqsad” “g'oya”ning o'zi, degan fikrni ilgari surishadi. Bunday fikr noto'g'ri, albatta.

Agarda “oliy maqsad” bilan “g'oya” bitta tushuncha bo'lganida Stanislavskiy o'z ta'limotiga yana bitta ibora kiritib o'tirmagan bo'lardi.

Oliy maqsad bu - ijodkorning o'z g'oyasini insonlar ongiga singdirishdan ko'zlagan muddaosidir. Oliy maqsad rejissyorning xususiy fikri, shaxsiy, ob'ektiv nuqtai nazari bo'lib, unda u o'z oldiga qo'ygan shaxsiy va jamiyatning ijobiy fikrlarini amalga oshirishga qaratiladi.

G'oya - bu asarda ilgari suriladigan asosiy fikr, ya'ni adabiy asarning butun mazmunidan, badiiy to'qmasidan kelib chiqadigan fikr. Agar muallif o'zi yozgan asari orqali nima demoqchi ekanligi to'g'risida gapirganda g'oya tushunchasini anglasak, oliy maqsad tushunchasi esa, men rejissyor, shu asarni sahnalashtirish orqali nima demoqchiman, nimaga erishmoqchiman va bunga qanday vositalar orqali yetishishim mumkin, degan savollarga javob berishi kerak.

“Oliy maqsadni faqatgina roldan qidirmay, balki artistning qalbidan qidirish lozim. Buning uchun oliy maqsad va ijodiy tasavvur bo'lishi lozim”, - degan edi K.S.Stanislavskiy.

K.S.Stanislavskiy “Oliy maqsad” haqidagi ta'limotida, asarda taklif etilgan shart-sharoitni bilmay turib, ya'ni hayotni o'zini bilmay turib, aktyor o'z oldiga qo'yilgan muayyan vazifa va oliy maqsadni shu shart-sharoitga qo'yib ko'ra olmasligini uqtiradi. Aktyor o'zini “taklif etilgan” shart-sharoitga olib kirish jarayoni nimadan iborat va u qanday sodir bo'ladi, degan savolga javob berish uchun avvalambor asarni ba'zi jihatlarini ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Inson organizmi qo'l, oyoq, o'pka va yurakning arifmetik yig'indisidan iborat bo'lmaganidek, har qanday badiiy asar ham ijrochilarning bunday yig'indisidan iborat emas. Badiiy asar personajlarning bir-biriga moslashgan faoliyati, o'zaro munosabati va birgalikdagi harakatidan iborat. Bu jihatdan badiiy asar organizmga o'xshaydi: unda alohida komponentlar oddiygina qo'shilmaydilar, balki bir-birlariga yordamlashib, uzviy bog'liq holda harakat qiladilar. Asarning barcha komponentlarini birlashtiruvchi birdan-bir asos uning g'oyasi yoki K.S.Stanislavskiy aytganidek, oliy maqsadi – vazifasidir. Badiiy asarning g'oyasi va oliy maqsadi san'atda aks ettirilgan voqelikning va san'atkorning bu voqelikka munosabatlarida umumlashgan, uyg'unlashgan bo'lishi zarur. San'atdagi xalqchillik tasvirlanayotgan asardagi muayyan g'oyaviylik yagona maqsadga qaratilishi lozim.

Oliy maqsadning mavjudligi asarning bir butunligini, uning tuzilishida ham, personajlarning xatti-harakatlari, fikrlari, his-tuyg'ularida ham mustahkam mantiq mavjudligini belgilaydi. Dramatik asar, seneriy mantiqi avvalo personajlarni xatti-harakati mantiqida namoyon bo'ladi. Rejissyor pesa ustida ishlash jarayonida asarning asosiy g'oyasini topa olishi lozim.

Stanislavskiy o'gitlarida aytilishicha, "oliy maqsad bu ishtirokchining - asosiy maqsadidir", muallifning oliy maqsadi yaxshi asar yaratib, uni teatr sahnasida ko'rish bo'lishi mumkin. Muallifning sir tutgan oliy maqsadini ochish rejissyor uchun kerakmi va amaliy jihatdan bu, unga nima beradi? Rejissyor uchun muallif tomonidan asarda ilgari surilgan asosiy g'oyasini, mohiyatini, fikrini aniqlash muhimdir.

Albatta rejissyor birinchi navbatda asarning g'oyasini aniqlaydi. Topilgan g'oya rejissyorning ijodi orqali oliy maqsadni vujudga keltiradi. Buning asosida shu g'oyani tomoshabinga yetkazib beradi. Asarning asosiy g'oyasidan oliy maqsad vujudga keladi. Rejissyor uchun asosiy masalalardan biri shundaki: o'zining oliy maqsadini aniqlab olgach, tomoshabinning ongiga yetkazib berishning yo'llarini topib olishi lozim. Bunda u tomoshabin uchun dramaturg tomonidan surilgan asarning oliy maqsadi va asosiy g'oyasini, spektaklning oliy maqsadi va g'oyasi sifatida qabul qiladi.

Stanislavskiy sistemasining yana bir zo'r ahamiyati shundaki, u o'zi yaratgan "oliy maqsad" va "oliy-oliy maqsad" haqidagi ta'limi bilan aktyor va rejissyorlar qo'liga juda o'tkir, g'oyatda kuchli g'oyaviy qurol berdi. Bu ta'lim teatr va kino xodimlari ijodining asosidir. Bu ta'lim san'atkorlarning dunyoqarashi, ular ijodidagi xalqchilik bilan uzviy chambarchas bog'lanib ketadi, ya'ni sahnaga chiqqan aktyor bugun, shu yerda, shu topda nima uchun sahnaga chiqqanini, o'z oldiga qanday oliy maqsad qo'yganini bilmog'i lozim. Bu oliy maqsad uning sahnada, spektaklda rol ijro etish paytidagi barcha xatti-harakatlarini asoslab beradi, uni sahnada mantiqan, maqsadga muvofiq ijod qilishga da'vat etadi.

Sahna san'atida barcha narsa bir maqsadda, g'oyaga qaratilgan bo'lishi lozim. Spektaklning asosi, asarning asosiy g'oyasidir. Sahna san'atida g'oyani topish va uni tadbqiq qilishni K.S.Stanislavskiy ijod jarayonining asosi deb hisoblagan.

Stanislavskiy dramatik materialni pesaning g'oyaviy ma'nosini o'rganish jarayoniga «oliy maqsad» va «etakchi xatti-harakat» tushunchalarini rejissyor hamda pedagog sifatida kiritib, bu tushunchalarni har bir rol uchun yoki pesa (spektakl) uchun qo'llash mumkinligini uqtiradi.

«Oliy maqsad» va «etakchi xatti-harakat»- hayotning asosiy mazmuni, pesaning tomiridir. Oliy maqsad-xohish, yetakchi xatti-harakat esa - uni bajarishga intilishdir³.

Faollik va yetakchi xatti-harakat

Sahnada bo'layotgan har qanday hatti-harakat faollashib borishi kerak. Faollik tamoyilining mohiyati, Stanislavskiyning so'zi bilan aytganda, "obraz va ehtirolarni o'ynab bo'lmaydi, balki obrazga kirib, ehtirolarning ta'siri ostida xatti-harakat qilmoq kerak"⁴. Aktyor sahnada harakat qilar ekan, asardagi qarama-qarshiliklar kuchayib borgan sari uning harakatlari ham asar mazmunidan kelib chiqqan holda faollashib borishi kerak. Aks holda tomosha yoki spektaklni tomoshabin tomonidan qabul qilishi susayadi va natijada asar

³ Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. T. Aloqachi. 2008 y. 33 b.

⁴ Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. T.Xo'jayev tarjimasi. "Toshkent" badiiy adabiyot nashriyoti, 1965 y. 57 b.

sahnada muvaffaqiyat qozonishi qiyin bo'lib qoladi. Shuning uchun etyudlardagi qarama-qarshiliklarni kuchaytirib, qahramonlarning harakatlarini faollashib borishga erishish lozim.

Harakat - bu insonning malum bir maqsadini amalga oshirish yo'lida qilgan qilmishidir. Harakat hamisha faol kechadigan jarayondir. Biz doim atrof-muhitga, narsalarga, tabiatga, odamlarga tasir ko'rsatamiz. Bu tasir fikr bilan, tuyg'u bilan, iroda bilan ifodalanadi. Bular bir-biriga uzviy chambarchas bog'liqdir. Harakat aks harakatni keltirib chiqaradi. Bu ruhiyatimizga bog'liqdir. Harakat asosiga qurilgan aktyorlik san'atining ma'naviy, ma'rifiy ahamiyati va uning tarbiyaviy kuchi benihoyat kattadir.

Aktyor uchun «etakchi xatti-harakat» - personajning barcha harakatlarining asosi bo'lib, u asosiy g'oyaga, oliy maqsadga yetaklaydi. Yetakchi xatti-harakat barcha harakatning asosiy «qizil ipi» bo'lib, alohida bo'lak va kichik vazifalarni bir chiziqqa birlashtirib, oliy maqsadga yo'naltiradi.

Etakchi xatti-harakat oliy maqsadga olib boruvchi yo'l. Erishishdagi qahramon xatti-harakati bilan belgilanadi, bu qahramonning barcha xarakatlari asosida o'z oldidagi maqsadlariga yetishishi uchun qilingan ham ruxiy ham jismoniy xarakatida o'z ifodasini topadi. Yetakchi xatti-harakat asarning asosi bo'lib, unda bo'ladigan kurashlar jarayonini ochib beradi.

Pesaning yetakchi xatti-harakati deganda, Stanislavskiy, yetakchi xatti-harakat tushunchasini dramaturgik harakatga yaqinlashtirar edi.

Dramaturgik harakatda, biz bilamizki, asardagi g'oyaviy muammolar personajlarning barcha harakatlari yordamida ochib beriladi. Dramaturgik harakat «etakchi xatti-harakat» hamda «qarshi harakatdan» tashkil topgan bo'lib, «etakchi xatti-harakat» ijobiy qahramonlarning asarning asosiy g'oyasini ochib beruvchi barcha harakatlarda namoyon bo'ladi.

Dramaturgik harakat har qanday pesada fabula bo'yicha, ya'ni asosiy voqealar zanjiri orqali «voqealar qatori» bo'yicha rivojlanadi. Shuning uchun Stanislavskiy aktyor va rejissyorlardan birinchi navbatda pesaning fabulasini bilishlarini talab qilgan. Xulosa qilib aytganda, yetakchi xatti-harakat spektaklning yuragi, asosiy chizig'i bo'lib, o'tayotgan kurashni, qarama-qarshiliklarni ochib beradi.

“Sahnada behuda yugurishning xojati yo'q, - deydi Tortsov. – Sahnada bekordan bekorga yugurish va azob chekish mumkin emas. Sahnada xatti-harakat qilaman deb, “umuman” harakat qilishning keragi yo'q, balki asosli, maqsadga muvofiq va unumli xatti-harakat qilmoq kerak”⁵.

K.S.Stanislavskiy quyidagicha hikoya qiladi: “Sahnada xatti-harakat qilmoq kerak. Drama san'ati, aktyorlik san'ati xatti-harakatga, aktivlikka asoslangan. “Drama” so'zining o'zi qadim yunon tilida “sodir bo'layotgan harakat” demakdir. Lotin tilidagi “aktio” so'zi drama so'ziga monanddir, bu so'zning o'zagi “akt” bizning “aktivlik”, “aktyor”, “akt” so'zlarimizga ham o'tgan. Shunday qilib sahnadagi drama ko'z o'ngimizda kechayotgan xatti-harakat demak, sahnaga chiqqan aktyor esa xatti-harakat qiluvchi kishidir.

⁵ Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. T.Xo'jayev tarjimasi. “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti, 1965 y. 56 b.

- Kechirasiz, - to‘satdan gapirib yubordi Govorkov, - siz sahnada harakat qilmoq kerak dedingiz. Lekin, sizning kresloda o‘tirishingiz qanday qilib xatti-harakatga kirsin? Menimcha bu tamomila harakatsizlikning o‘zginasi-ku.

- Arkadiy Nikoloyevich xatti-harakat qildimi, qilmadimi, bunisini aytolmayman, - hayajon bilan gapirdim men, - biroq Arkadiy Nikoloyevichning “xatti-harakatsizligi” sizning “serharakatligingiz”ga qaraganda ming marta qiziqarliroq bo‘ldi.

- Sahnada qimirlamay o‘tirish passivlikdan dalolat bermaydi, - tushuntira bolshadi Arkadiy Nikoloyevich. – Sahnada qimirlamay o‘tirgan kishi ham xatti-harakat qilayotgan bo‘lishi mumkin. Lekin bu tashqi-jismoniy emas, balki ichki-psixik harakatdir. Binobarin, jismoniy sokinlik ko‘pincha kuchli ichki xatti-harakat tufayli sodir bo‘ladi, bu ijod qilishda juda muhim, juda qiziqarlidir. San‘atning qimmat, uning ma‘naviy mazmuni bilan belgilanadi. Shuning uchun men o‘z formulamni bir oz o‘zgartirib shunday deyman: sahnada ham jismoniy, ham ruhiy xatti-harakat qilmoq kerak.

Bu bilan san‘atimizning asoslaridan biri – sahna ijodining va san‘atning aktivligi hamda harakatchanligi bajarilgan bo‘ladi”⁶.

Harakat aktyorlik san‘atining asosiy materiallari hisoblanadi. Xatti-harakat davomida «fikir qilish», sezish, ko‘ra olish, aktyor obrazining jismoniy holati yaxlit bir butun bo‘lib birlashadi. Stanislavskiy «sahnada harakat qilish lozim, faol harakatga dramatik san‘at mushtoqdir» - deydi. Sahnada aynan harakat uchun harakat qilmasdan, balki aniq maqsadga yo‘naltirilgan harakat qilish lozim. Sahnaviy harakat ichki hissiyotlardan kelib chiqqan holda maqsadli harakat bo‘lishi kerak. Kechinma va obrazlarni o‘ynamay, balki kechinma va obrazlarni ta‘sirida harakat qilish lozim.

Har qanday harakat - deydi Stanislavskiy, ruhiy-jismoniy akt bo‘lib, jismoniy hamda ruhiy tomonlardan tashkil topib, bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Har qanday jismoniy harakat ruhiy asosga ega bo‘lsa, har qanday ruhiy harakatni bajarishda vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan: Bir nimadan qattiq iztirob chekayotgan kishini ko‘nglini olish uchun uning ko‘zlariga diqqat bilan tikilish, yoniga o‘tirish, yelkasiga qo‘lni qo‘yish va h.k. kabi bir qancha jismoniy harakatlarni bajarish lozim. Bu yerda jismoniy harakat ruhiy harakatga tobe bo‘lib, tobelik xarakterida namoyon bo‘ladi.

«Har bir jismoniy harakatning ichida, - deydi Stanislavskiy, ichki xatti-harakat, kechinma yotadi». Jismoniy harakat bizni fikr qilishga, ruhiy qarashlar bilan boyitishga undaydi.

Jismoniy harakatni faollashtirish uchun, har bir ruhiy topshiriqni, aktyorning ongiga maksimal jismoniy aniqlikda yetkazib berish lozim. Masalan: aktyorga «Ko‘nglini ovla» degan topshiriq berilsa, bu vazifani bajarishi qiyinroq bo‘ladi. Agarda «o‘z partnyoringni kulishga majbur qil» degan topshiriq berilsa, unda kerakli faollik paydo bo‘ladi. Shunday qilib, biz sahnaviy harakatni aniq maqsadga erishish yo‘lidagi ruhiy-jismoniy akt sifatida qarashimiz lozim. Ikkinchi eng qiyin savollardan biri: Organik, ichki

⁶ Stanislavskiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. T.Xo‘jayev tarjimai. “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti, 1965 y. 53-54 b.

asoslangan, haqiqatga yaqin sahnaviy harakatni qanday bajarish mumkin? Bunday harakatni bajarish uchun K.S.Stanislavskiy ijodiy jarayonga - «agarda» degan «sehrli» soʻzni kiritish joizligini taʼkidlaydi.

«**Agarda**» soʻzi har bir aktyor uchun borliqdan ijod dunyosiga oʻtish uchun turtki vazifasini oʻtaydi.

«Agarda» soʻzi aktyorni qoʻyilgan savolga oʻz harakati bilan javob bera olishga undaydi. Masalan, muallif pesani yaratish davomida, asardagi voqealar maʼlum bir davrda, qaysidir davlatda, qaysidir joy yoki uyda, yashaydigan qandaydir xarakterli, oʻziga xos fikr va sezgilar haqida gapirsa va h.k.

“Agarda” u har qanday ijodning boshlanishiga sabab boʻladi. “Agarda” soʻzi aktyorlar uchun, yashab turgan hayotidan ijod yaratiladigan olamga olib oʻtuvchi qurol hisoblanadi.

K.S.Stanislavskiy xotiralarida shunday deyiladi: “... “agarda” goha oʻz vazifasini qoʻshimcha yordam talab qilmay, birdaniga yolgʻiz oʻzi ham ado etadi. Mana misol uchun... Arkadiy Nikoloyevich bir qoʻli bilan Maloletkovaga mis kuldon, ikkinchi qoʻli bilan Velyaminovaga charm qoʻlqopni uzat turib, shunday deydi:

- Sizga sovuq qurbaqa, sizga esa yumshoq sichqon. U soʻzini aytib tugatmagan ham edi, ikkala ayol jirkanib orqaga tisarildi.

- Dimkova suvni iching, - deb buyurdi Arkadiy Nikolayevich. U stakanni labiga olib borishi bilan:

- Unda zahar bor! – deb qoʻydi Tortsov. Dimkova qotib qoldi.

- Koʻrdingizmi! – dedi arkadiy Nikoloyevich, gʻururlanib. – bularning hammasi oddiy “agarda emas”, balki xatti-harakatni birdaniga, oʻz-oʻzidan qoʻzgʻatuvchi “sehrli agarda”lardir. Bunday “agarda”ni “sehrli” deb atasak ham boʻladi”⁷.

Aktyor uchun “agarda” real, hozir sodir boʻlayotgan dalil emas, balki endi yuz berishi mumkin boʻlgan narsa haqida gapiradi. “Agarda” bu soʻz hech narsani tasdiqlamaydi. U faqatgina faraz qiladi, u masalani hal qilishga havola etadi, xolos. Aktyor esa mana shu masalani hal qilishga urinadi. “Agarda” aktyorning ichki va tashqi faolligini zoʻrlash natijasida emas, tabiiy yoʻl bilan qoʻzgʻatadi. “Agarda” soʻzi harakatga keltiruvchi, ichki ijodiy faolligimizni qoʻzgʻatuvchi vositadir.

Oʻz navbatida aktyorni ham: «Agar rostdan ham mana shu hammasi haqiqat boʻlsa, men nima qilgan boʻlar edim? Qanday xatti-harakat qilgan boʻlar edim?, degan savol paydo boʻladi. Bu sehrli soʻz «agarda» aktyorning ichki ijodiy faoliyatini faollashtirib, uning tasavvuri va fantaziyasini uygʻotishga turtki boʻladi. U asta-sekinlik bilan oʻylab topilgan «berilgan shart-sharoitga» kirib boradi.

«**Berilgan shart-sharoit**» oʻzi nima? Avvalambor bu asarning - fabulasi, faktlar, voqealar, davr, vaqt, voqea boʻlib oʻtadigan joy, qahramonlarining yashash sharoiti, bizning aktyorlik va rejissyorlik nuqtai nazaridan pessani tushunishimiz, mizanstsenalar, sahnalashtirish, dekoratsiya

⁷ Stanislavskiy K.S. Aktyorning oʻz ustida ishlashi. T.Xoʻjayev tarjimai. “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti, 1965 y. 64 b.

va kostyumlar, butaforiya, chiroq, tovush va shovqinlarning barcha-barchasini aktyorlar e'tiboriga havola qilinishidir.

Dastavval bu so'z, sahnaviy atama sifatida A.S.Pushkin tomonidan ishlatilgan va K.S.Stanislavskiy tomonidan sistemaga kiritilgan.

Berilgan shart-sharoit», «agarda» kabi tasavvurlarning shartli ongimizda namoyon bo'lishidir. «Agarda» har doim ijodning boshlanishidir». «Berilgan shart-sharoit» esa uni rivojlantiradi. Bu ikkisi tasavvurni uyg'otadi. «Agarda» va «berilgan shart-sharoit» ichki va tashqi harakatni yuzaga keltirib, to'liq samarali harakatni yuzaga kelishiga yordam beradi.

“Berilgan shart-sharoit”, “agarda” singari “tasavvurimiz mevasi”, faraz qilingan narsa. Ularning kelib chiqishi bir: “berilgan shart-sharoit” – “agarda”ning o'zi, “agarda” esa “berilgan shart-sharoitning” o'zidir. Biri “agarda” faraz bo'lsa, ikkinchisi – “berilgan shart-sharoit” unga qo'shimchadir. “Agarda” ijodni boshlaydi, “berilgan shart-sharoit” esa uni taraqqiy ettiradi. Biri ikkinchisiz yashay olmaydi va rivojlana olmaydi. Lekin ularning vazifasi bir qadar boshqa-boshqa: “agarda” mudrab yotgan tasavvurni uyg'otsa, “berilgan shart-sharoit” “agardaga” asos bo'lib xizmat qiladi. Ular birga va ajralgan holda ichki rivojning paydo bo'lishiga yordam beradilar⁸.

K.S.Stanislavskiy «agarda»ni saqlab qolgan holda, «berilgan shart-sharoitni» shartli uch doiraga bo'lishni taklif etadi.

1. Kichik doira - (harakat davomida) - «qayerda», «qachon», «kim» va «nima» qilayapti, degan savollarga javob topish.

2. O'rtacha doira - «qayerdan, nima bilan kelding», (o'zing bilan, o'zing uchun nima olib kelding) va «bu yerdan qayerga borasan» (o'zing bilan, o'zing uchun nima olib ketasan) degan savollarni aniqlash.

3. Katta doira - bunda qahramonning biografiyasi, oliy maqsadi, asosiy muddaosi va kelajagini aniqlash.

Tabiiylik (organik) tamoyili

Bu ta'limot Stanislavskiy aktyor oldiga vazifa etib qo'ygan shartlardan eng muhimidir. Chunki, aktyor ijrosi o'zga insonning ichki va tashqi dunyosini yoritishdan iborat bo'lib, ijroda soxtalikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki, yaratilayotgan obrazning ayni o'zi tomoshabin zalida o'tirgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham mazkur ta'limotning eng asosiy maqsadi - aktyor tabiatini uyg'otib, oliy maqsad sari intiluvchi tabiiy ijodiy salohiyatni harakatga keltirishdan iboratdir. Aktyor ijodida hech bir notabiiylik, soxtalikka o'rin bo'lmasligi uchun Stanislavskiy, aktyor ijodidagi texnik harakatni alohida e'tibor bilan tadbiq qiladi.

Aktyor ijodida sun'iy va mexanik harakatlar bo'lmasligi kerak, barcha xatti-harakatlar tabiiylik talablariga bo'ysinmog'i lozim⁹. Rolda aktyorlik ijrosining sof tabiiy va harakatlarning aniq tizimiga erishishni maqsad qilib qo'yish kerak. “Men shu rolni bajaryapman, meni atrofdagilar qanday qabul qilishyapti”, degan fikrning kelishini o'zi noto'g'ridir. Ba'zan bo'lajan

⁸ Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. T.Xo'jayev tarjimai. “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti, 1965 y. 68-69 b.

⁹ Захава Б.Е. Мастерство актёра и режиссёра. Москва, Просвещение, 1978, 62 стр.

aktyorlar ya'ni talabalardan "qani sen sahnada oddiy yurishingni ko'rsat", deb vazifani bersak, aktyorlik mahorati elementlarini yaxshi egallashni boshlaganlar sahnada erkin, bemalol harakatlanadilar. Ammo ba'zilar, meni hamma kuzatib turibdi, shuning uchun yaxshiroq yurishim kerak, deb o'ylab boshqacharoq harakat qila boshlaydilar. Natijada harakatlardagi tabiiylik yo'qoladi.

Sahnaviy haqqoniylik deganda, biz dastavval, aktyorning sahnaviy ijodining hayotiyligini nazarda tutamiz. Aktyoring sahnaviy ijodining hayotiyliigi deganda esa - aktyorning sahna sharoitida turib, o'z qalbida uyg'ongan ichki his-tuyg'ularining tabiiyligini, jismoniy hatti-harakatining maqsadga muvofiqligini, unga aktyorning ishonch hosil eta olganligini nazarda tutamiz. Aktyorda bu ishonishning komil bo'lishi uchun, u sahna sharoitida turib, maqsadga muvofiq, tabiiy, bor vujudi bilan harakat qilmog'i lozim.

Bu - masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni - bo'lg'usi aktyor sahnada nimaga ishonishi kerak degan savol tug'ilishi mumkin. U sahnadagi dekoratsiyalarning tabiiyligiga ishonish kerakmi?

Ba'zi bir rejissyorlar va pedagoglar o'z aktyorlariga sahnadagi yasama zotlarni yasama emas, deb ko'rsatishga urinadilar va unga ishonishni talab qiladilar. Natijada bu usul aktyorni mutlaqo noto'g'ri yo'lga olib kiradi. Aktyorlik ijodining grammatikasini yaratuvchi K.S.Stanislavskiy ta'limotidan kelib chiqib aytganda, aktyor sahnadagi zotlarning realligiga emas, shu bezaklarga o'z qalbida paydo bo'lgan munosabatlarning tabiiyligiga ishonch hosil qilishlari kerak. Mana shu tabiiy va haqqoniy munosabatning natijasida shu zotlar orasida yashashning real tasvirlari aktyor qalbida paydo bo'ladi.

Shu bilan birga, o'quvchilarni ogohlantirib qo'yadigan yana bir narsa, u ham bo'lsa, sahnaviy hayot haqqoniyligiga erishmoqligi uchun aktyor sahnada o'zining ichki his-tuyg'ularini uyg'otib, ishga solmog'i kerak. Lekin bu ichki his-tuyg'ularini uyg'otish, aktyor qalbida hech qachon o'zidan-o'zi kelib chiqmaydi. K.S.Stanislavskiy ta'limotiga asoslanib aytganda, aktyor bu natijaga faqat maqsadga muvofiq faol va haqqoniy xatti-harakatlari orqali erishadi.

Sevimli aktyorimiz G'ani A'zamovning ijodiy yo'li hammamizga tanish. Avvalo uning nomini eshitgan inson yuzida tabassum paydo bo'ladi. Ammo san'atkor, hayotda boshqa komiklar singari sho'x, hazilkash va qiziqchi emas, ancha jiddiy, tili achchiq bo'lgan. U boshqa sahna qiziqchilari singari o'zidan so'z qo'shmagan, badiiy yaxlitlikka putur yetishi mumkin bo'lgan ortiqcha harakatlar ishlatmagan, tomoshabinni atayin kuldirmagan, kulgu u yaratgan obraz mohiyatidan hosil bo'lgan. U muallif va rejissyor tomonidan belgilangan obraz doirasida, matn asosida ijod qilgan. Har bir roliga hayotiy yondoshganligi sababli, ijrosi tabiiy chiqqan.

"Odatda men rolni olgach, uni erinmay, hijjalab o'qib chiqaman, mana shu davrda obraz xarakterini ochadigan birorta kalitni topib olaman. U izlanishimga yo'l ochib beradi", - deydi aktyor. Uning ijodi shunchalar tabiiyki, xatto sahnaga chiqqanda gapirmasdan tomoshabinni ham kuldorgan,

ham yig'latgan. Chunki aktyor kulguni fojia darajasiga ko'tarib, tragikomik obraz yaratgan. Bu obrazning asosi esa tabiiy ravishdagi ijrodir.

Aktyor Erkin Vohidovning "Oltin devor" komediyasida usta Mo'min obrazini yaratdi. Aktyorning mahoratiga qoyil qolmasdan iloj yo'q. Birgina oltinni bekkitish sahnasining o'zidagi mahorat har qanday tomoshabinni lol qilib qo'yadi. O'n besh daqiqagacha davom etadigan ushbu sahnada G'ani A'zamov, qariyb so'z ishlatmasada, sahnada Mo'min xolatida yashaydi. Aktyor asar va obraz mohiyatidan kelib chiqib mimika va pantomima vositalarini keng ishga soladi. Bu chinakam mahorat usuli. U obrazni shu qadar tabiiy o'ynaganki hattoki oltinni yashirish vaqtida hayajondan uning yuzlaridan ter quyilgan. Uning sahnadoshlarining ta'kidlashicha Mo'min obrazini yaratish uchun hattoki aktyor jinnixonada ma'lum muddat bo'lg'usi rolining xislatlarini o'rgangan ekan.

Aktyorning obrazda yashash tamoyili

Bu tamoyilni ba'zi mutaxassislar siymo qiyofasiga kirishish chog'ida aktyorning o'zligini yo'qotmay, ijodiy yondashuvi tamoyili deb ham yuritadi.

Aktyorning rolda "yashashi" deb uni ijro talqini nazarda tutilgan. Oddiygina mashqlarni yoki etyudlarni ishlash jarayonida ham bu printsipga katta e'tibor qaratish lozim. Masalan, xo'roz obrazini yaratayotgan aktyor - xo'rozga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganib, uning harakatlarini o'zlashtirib, xarakterli xususiyatlarini o'z ijodiga singdirgan holda sahnaga chiqishi kerak. Obrazda "yashash" tamoyili Stanislavskiy sistemasining kechinma san'ati mohiyatini anglatuvchi tushunchalardan biridir. Aktyorning rolga kirishish, unda yashash, obrazni talqin qilishda vazifalarni aniq belgilab olishiga yordam beradi.

Bizga ma'lumki, aktyorning ijodi ikkilamchi, u ijrochi xolos. Birlamchi manba bu – dramatik asardir. Aktyor dramatik asarda tasvirlangan qiyofani o'zida gavdalandirib, unga o'xshash pardoz qilib, kostyum kiygani bilan u obraz yarata olmaydi balki obraz yaratish uchun obrazda yashashi, obrazning ichki va tashqi dunyosini o'zida o'zlashtirish, umuman olganda obrazning haqiqiy egasiga aylanishi kerak.

Obraz – san'at va adabiyotda hayotni o'ziga xos badiiy shaklda aks ettirgan manzara va xarakterlar. San'at va adabiyotda obraz, voqelikning aniq shaxs (ijodkor) tafakkuri, hissiy olami prizmasidan o'tib, uning qaytadan boyitilgan xoldagi tiklanishi, jonlanishidan iborat. Bu murakkab jarayonda san'atkorning estetik ideali, dunyoqarashi, ruhiy olami, g'oyaviy nuqtai nazari, ijodkor tajribasi yetakchilik qiladi, voqelik shu asosda qaytadan jonlanadi, obrazdan tasvirga ega bo'ladi. Adabiyot va san'at voqelikni obrazlar vositasida aks ettirar ekan, har bir asarda tasvirlangan narsa, predmet yoki ishtirok etuvchi shaxslar keng ma'noda obraz deyiladi. Ammo, shunga qaramay, obraz atamasi adabiyot va san'atda birmuncha chegaralangan ma'noda – faqat insonga nisbatan qo'llaniladi. Demak, obraz atamasining aniq insonga nisbatan qo'llanishiga qarab, obraz tushunchasini quyidagicha ta'riflash mumkin; ijodkorning hayotiy kuzatishlari asosida shakllangan, uning badiiy to'qimasida aks etgan, ma'lum g'oyani tashuvchi inson hayotining aniq

va ayni umumlashgan tasviri obraz deb ataladi¹⁰. Demakki, aktyorning sahnadagi har bir ijro etgan personajini obraz deb atab bo'lmaydi. Obraz bu aktyorning o'ziga xos mahoratidan kelib chiqib, yaratilayotgan shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladigan yuksak darajadagi ijrodir.

“Shunday aktyor va aktrissalar ham borki, - deb yozadi Stanislavskiy, - ular uchun xususiyat, xislat, siymo qiyofasiga kirish degan tushunchalar begona. Bundaylar har qanday rolni o'zlariga moslashtirib, tashqi ko'rinishi, yoqimli ovozi ko'z-ko'z qilishni o'zlari uchun «oliy maqsad» qilib olganlar. Ular sahnaga olqish uchun chiqadilar. Ularning hayot mazmuni shundagina iboratdir”. Bundaylar uloqsiz chavondoza o'xshaydi. Aktyorning tashqi qiyofasi ikki tig'li xanjarga o'xshaydi. Undan unumli va oqilona foydalanishni o'rganish kerak, aks holda uning tashqi jozibasi o'z san'atining kushandasiga aylanishi ham mumkin.

Ba'zida rejissyorlar tomonidan (xattoki, tajribali rejissyorlar ham) aktyorning ichki dunyosi va imkoniyatlarini hisobga olinmasdan, asosan tashqi ko'rinishini, ya'ni bo'y-basdi, qomatini hisobga olib uni rolga taklif etadi (ayniqsa zamonaviy kinolarda). Bunday bo'y-basti kelishgan aktyorlar obrazning ichki xolati tugul, tashqi xolatini ham yoritishga qiynaladi. Xarakter haqida o'ylamaydi ham. Natijada sahnada obraz emas, balki nomiga rol ijro etiladi, xolos. Qani bu yerda “Agarda, men berilgan shart-sharoitda” ta'limoti?

Stanislavskiy ta'limotiga ko'ra, obraz ustida ishlar ekanmiz, «berilgan shart-sharoitga o'zimizni qo'yib ko'raylik», degan iboraga chuqurroq yondashib ko'ramiz. Aktyorlik san'atining dialektik (tabiiy harakat va rivojlanish) tabiatidan kelib chiqadigan bo'lsak, qarama-qarshilik qonuniyatining, aktyorning - siymo, siymoning - aktyor shaklini ko'ramiz. Bir qaralganda, ular haqiqatan ham bir-biriga tamoman zid bo'lib tuyuladi. Negaki, aktyor sahnaga chiqar ekan, o'zligini yo'qotmagan holda timsol qiyofasida yashashi kerak. Dialektik qarama-qarshilik deganimizda, shu holat nazarda tutilgan. Agar shu ikki holatdan bittasi inkor etilsa, ijodiy san'at qonuniyati buziladi. Agar aktyor o'zligini unutib, faqat timsol qiyofasida yashasa, unda bu taqlidiy, ya'ni yasama san'atga aylanadi. Demak, bunday holatda aktyor o'z-o'zini ko'z-ko'z qiladi, xolos. Faqat ikki holatni birgalikda olib borish, ya'ni o'zligini yo'qotmay, obraz qiyofasida yashash teatr aktyorining haqiqiy ijodini, san'atkorlik mahoratini ko'rsatadi.

Ma'lumki, qog'ozdan juda chiroyli gul yasash mumkin, lekin bu gulda hid, hayot nashidasi ufurib turgan tiriklik alomatlari bo'lmaydi. Sahnadagi taqlidiy ijro ham shu qog'oz guldari farq qilmaydi. Demak, aktyor rol ustida ishlar ekan, obrazga xos bo'lgan ichki va tashqi xislat va xususiyatlarni o'zida mujassamlashtira boshlaydi. Shu yo'l bilan u boshqa shaxs qiyofasiga kirib boradi, lekin u o'zligini bir daqiqa bo'lsada unutmaydi. Stanislavskiy ta'limotining qiymati ana shunda. O'zligini unutmaslik nimalarda aks etadi? Birinchi navbatda, ichki nigoh orqali o'zligini nazorat qilib borishda. Ya'ni siymoning tashqi qiyofasiga zo'r berib, qalbini esdan chiqarib qo'yish, yoki

¹⁰ Dushamov J. Ommaviy tadbirlar rejissurasi. T., G' G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2002y. 127 b.

siymoning tashqi qiyofasini unutib, bu mana menman deb, o'z-o'zini ko'rsatishga o'tib ketish yaramaydi. Yana qaytaramiz, Stanislavskiy ta'limotining «o'zidan kelib chiqib» degan shiorining asl mohiyati aktyor tabiiy ravishda obraz qiyofasiga kirib borishi uchun yaqin yo'l ekanligini ko'rsatib berishda¹¹.

Xullas, aktyor obrazga kirishi uchun o'ynalajak obrazni har tomonlama, ya'ni uning ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, irqi, millati, xarakteri, nimalarga qiziqishi, hattoki, qanday ovqatni yaxshi ko'rishini ham o'rganmog'i lozim. Shundagina u rolning ichiga kira oladi va uni obraz darajasida ijro etishi mumkin.

Tayanch iboralar:

K.S.Stanislavskiy sistemasi, hayotiy haqiqat, oliy maqsad, faollik va xatti-harakat, organik printsip, aktyorning obrazda yashash printsipli, rejissyor, rejissura, sahnalashtirish, spektakl, tomosha, sahna, aktyor mahorat, aktyorlik mahorati.

Savol va topshiriqlar:

1. K.S.Stanislavskiyning ijodiy faoliyati haqida gapirib bering?
2. K.S.Stanislavskiy sistemasini yaratishga nima sabab bo'lgan?
3. K.S.stanislavskiy sistemasi printsiplarini sanab bering?
4. Oliy maqsad nima?
5. Hayotiy haqiqat nima?
6. Organik printsip nima?
7. Faollik va xatti-harakat nima?
8. Aktyorning obrazda yashash tamoyiliga ta'rif bering?
9. K.S.Stanislavskiy sistemasining rejissyorlarni tayyorlashdagi o'rni qanday?
10. "Agarda" va "Berilgan shart-sharoitda" so'zlarining ma'nosi nimada?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston". 2011.
2. I.A.Karimov. "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor". T.: "O'zbekiston". 2009.
3. **I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat". 2008.**
4. K.S.Stanislavskiy. "Aktyorning o'z ustida ishlashi". T.Xo'jayev tarjimai. S.Muhamedov muharrirligida. T. Yangi asr avlodi. 2010
5. Sh.S.Hamidova. "Estrada teatri va uning janrlari". T.: 2009.
6. M.R.Rashidov. "Iskusstvo deystviya" T.: O'zDSI bosmaxonasi. 2009.
7. M.Umarov. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. T.: "Yangi asr avlodi". 2009.
8. **J.Mamatqosimov. "Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati". T.: "Fan va texnologiya". 2009.**
9. **F.Ahmedov. "Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari". T.: "Aloqachi". 2008.**
10. T.Tursunov. "O'zbek teatri tarixi". T.: 2008.
11. S.Tursunboyev. "Jahon teatri tarixi". T.: "Fan va texnologiya". 2008.

¹¹ Махмудов Ж. Актёрлик маҳорати. Т. Билим. 2005 й. 27 б.

12. J. Mahmudov, X. Mahmudova. "Rejissura asoslari". T.: O'DSI bosmaxonasi. 2008.
13. ZiyonET
14. <http://www.tsic.uz>
15. <http://www.teatr.ru>
16. <http://www.uzbekteatr.skm.uz>
17. <http://stanislavsky.by.ru>
18. <http://www.aktor.ru>
19. <http://www.meyerhold.ru>
20. <http://www.mxat.ru>

Mavzu: K.S.Stanislavskiy etikasi

Reja:

1. K.S.Stanislavskogo «Etika» sining teatr san'ati taraqqiyotidagi o'rni
2. Teatr jamoasi hayoti asosiga qurilgan etik prinsiplar
3. Asosiy etik talablar

Har bir san'at bilim yurti oldida talabalar tarbiyasiga qaratilgan ikki muhim vazifa mavjuddir.

1. Talabani ijodkor shaxs sifatida shakllantirish.

2. Talabaning ichki layoqatini yuzaga chiqarish.

Birinchi vazifa: bo'lajak ijodkorni siyosiyg'oyaviy, intizomiy, ma'naviyamafkuraviy jihatdan tarbiyalash (dunyoqarashni shakllantirish, ijodiy lazzat lahzalari, ma'naviy qiyofani shakllantirish va h.k.) yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ikkinchi vazifa: professional tarbiya vositasida, talaba ongida ijodkor shaxs tuyg'usini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Aktyorlik mahorati yuzasidan o'tkaziladigan imtihon, mohiyatan, boshqa yo'ldosh fan uchun ham imtihon hisoblanadi. Chunki talaba badiiy siymo yaratish jarayonida o'z imkoniyatlarini har tomonlama namoyish etadi.

Afsuski, o'quv jarayonida talabalar nazariy darslarga jiddiy e'tibor bermaydilar. Bunday ahvolning paydo bo'lishiga, shubhasiz, mahorat sirlarini o'rgatadigan o'qituvchilar sababchidir. Chunki ular amaliy mashg'ulotlar paytida nazariy bilimlarning qanchalik ahamiyatli ekanligini talabalarga yaxshiroq tushuntira bilmaydilar. Nazariy fanlardan saboq beruvchi o'qituvchilar esa, o'z navbatida, nazariya amaliyot bilan chambarchas bog'liq ekanligini o'z tinglovchilariga yetkaza olmaydilar.

Ko'p yillik teatr san'ati tajribasidan shu narsa ayon bo'ladiki, aktyorning tashqi qiyofasiga mos tushgan rol o'rtacha ijrodan yuqori darajaga ko'tarilmaydi. Buning sababi nimada?

Ma'lum bo'lishicha, sahnada ijodiyg'oyaviy fikrni tomoshabinga yetkaza olish uchun, qobiliyatli aktyor bo'lishdan tashqari, ma'naviyamafkuraviy jihatdan yetuk, har tomonlama professional, tayyorgarlik ko'rgan va shakllangan shaxs bo'lish kerak ekan. Negaki, ijodkor ijodiyg'oyaviy fikrni o'zida tajassum etishdan oldin, o'sha fikr uning ongida

paydo bo'lishi, tafakkur ko'zgusidan o'tishi, so'ngra siymo qiyofasida namoyon bo'lishi kerak.

Bunday vazifani ado etish uchun esa, munosib tashqi qiyofaning o'zigina kifoya qilmay, ana shu darajadagi tafakkur ham suv bilan havodek zarurdir.

Bo'lg'usi aktyorlarga ta'lim berish jarayonida, ikki qutbdan birbiri tomon intilayotgan: amaliy va nazariy bilim beruvchi o'qituvchilarning o'z talabalariga, ijodiy jarayon kechadigan sahna maydonida, har ikki bilim ning uchrashishi uchun zamin yaratishlari zarur bo'ladi.

Aynan bo'lg'usi aktyorlarning ijodiy izlanishlari jarayonida har bir talaba zamonaviy siyosiyg'oyaviy bilimlarni Mustaqillik davrida jamiyat hayotida, insonlar ongida ro'y berayotgan ruhiy va mafkuraviy o'zgarishlarni chuqur anglab yetishi, his qilishi muhim ahamiyatga ega.

«Dunyo jihodgardir», — degan edi ulug' mutafakkir Mahmudxo'ja Behbudiy.

Bugungi Mustaqil Respublikamizda milliy g'oyalar bilan oziqlangan yangi aktyorlar sulolasi paydo bo'ldi va paydo bo'lmoqda. Ozod mamlakatning ozod fuqarosi, vatanparvar davlat arboblari darajasidagi san'atkorlarni tarbiyalab yetishtirish san'at oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining Vatan oldidagi muqaddas burchidir va bu ta'limtarbiyaning asosiy mezonini hisoblanadi.

Bu muqaddas vazifani muvaffaqiyatli ado etish uchun esa, nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallash, mamlakatimiz ijtimoiy va siyosiy hayotida, millatimiz ongida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni san'atkorlar ijrosi orqali tomoshabinga yetkazish birinchi galdagi vazifalardan hisoblanadi. O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq artisti Zikir Muhammadjonov bu haqda shunday yozadi: «Respublikamiz o'z mustaqilligiga ega bo'lganiga 12 yildan oshdi. Shu qisqa muddatda misli ko'rilmagan yutuqlar yuzaga keldiki, ularni faqat odamlar yuzaga keltirayapti. Barcha sohalarda yangiyangi ajoyib qahramonlar dovruq qozonmoqda. Shunday qahramonlarimiz borki, ularga sahna to'ridan o'rin berib, ko'zko'z qilish vazifamizdir».

Badiiy saviyani tarbiyalash.

Teatr maktabining asosiy va muhim vazifalaridan biri — talabalarning badiiy saviyasini shakllantirishdan iboratdir.

Har bir insonning badiiy saviyasi axloqodobi, ma'naviy qiyofasi, badiiyg'oyaviy tamoyillardan hosil bo'ladi. Ammo birgina axloqodobning o'zi shaxsning «badiiy saviyasi» yuksakligidan dalolat bermaydi. Ayrim hollarda badiiy saviya axloqodob mezonlaridan ortda qolgan bo'lishi ham mumkin. Ba'zan teatrshunoslar, badiiy asarni a'lo darajada tahlil etganlari holda, shu asarda tasvirlangan qahramonlarning badiiy saviyasini tahlil etishda ojizlik qiladilar. Bu hoi bunday teatrshunoslarning estetik dunyoqarashi ularning hayot mazmuniga aylanib, qonqoniga singib ketmaganligi belgisidir.

Aksariyat hollarda badiiy jihatdan bo'sh, g'oyaviy noto'g'ri talqin etilgan pesa, dastlabki tanishuv vaqtida, ijobiy baholanadi. Lekin uni sahnalashtirish jarayonida, asarning barcha illatlari ayon bo'lib, badiiy to'qimalar chokchokidan so'kilib ketadi. Natijada ijodkorlar shunday bo'sh

asarga qanday qo‘l urganlariga o‘zlari hayron bo‘lishadi. Yoki buning aksini ko‘rish mumkin. Dastlabki tanishuvda bo‘sh bo‘lib ko‘ringan pesa, sahnalashtirish

1 «Teatr» jurnali, 2003yil, 1son. jarayonida, ijodiy jamoani o‘ziga maftun etadi va bu asar mavsumning eng yaxshi spektakli sifatida e’tirof etiladi.

Bundan chiqadiki, pesa bilan dastlabki tanishuv, ko‘p hollarda, yuzaki, yanglish taassurot qoldirishi mumkin. Bunga sabab — badiiy saviyaning ojizligidir.

Demak, badiiy saviya ijodiy dunyoqarash bilan hamohang qadam tashlamog‘i kerak. Buning uchun o‘qish, mashq qilish va yana o‘qish lozim.

Bo‘lg‘usi aktyorlarda badiiy did va saviyani o‘stirish uchun o‘qituvchilar ixtiyorida rag‘batlantirish hamda tanbeh berish kabi vositalar ham mavjud. Har ikkala vosita ham nozik va o‘tkir qurol bo‘lib, ulardan unumli foydalanish o‘qituvchidan sezgirlik, fahmfarosat, ehtiyotkorlikni talab qiladi. Bu qurollardan o‘z o‘rnida, sezgirlik bilan foydalana olmaslik talabalarni ijodiy nogironlikka olib kelishi mumkin.

Misol uchun «aktyorlik mahorati» mashg‘uloti vaqtida, o‘qituvchi talabaga qarata: «Sizning hozirgi ijroingiz hayotiy haqiqatga zid bo‘lsada, uni texnik jihatdan qoyilmaqom qilib o‘ynadingiz», — deyishi mumkin. Turgangapki, bunday o‘rinsiz maqtashning talaba uchun foydasidan ko‘ra ziyoni ko‘proq bo‘ladi. Talaba o‘zicha shunday xulosaga kelishi mumkin: «Garchand domla, xatti harakatimdan ko‘ngli to‘lmagan bo‘lsada, mahoratinga tan berdi».

Demak, talaba o‘zi uchun, «to‘g‘ri ekan», deya yanglish xulosani qabul qilib, bu noto‘g‘ri yo‘ldan ortga qaytmaydi.

Teatr san’atidagi eng muhim narsa — bu, iqtidor, texnika va layoqatdir degan tabiiy xulosa, talaba uchun dasturulamal bo‘lib qoladi. Agar sahna san’atida haqiqat mezonini buzilsa, bu sohada boshqa fazilatlarni qidirishning hojati yo‘q. Haqiqat yo‘qolgan joyda barcha fazilatlar sariq chaqachalik qiymatga ega emas.

Boshqa bir holatda esa, domla talaba ijrosidagi haqiqatnamo arzimagan harakatni ko‘rib, «hayotiy haqiqatga yaqin», deya baholasa va qoniqish hosil qilsa, talaba «sahna haqiqati bilan hayotiy haqiqat birbiriga zid ekanda», degan xulosa chiqarishi ham mumkin.

Teatr bilim yurtida bo‘lib o‘tgan bir imtihondagi voqea fikrimizga dalil bo‘lishi mumkin:

I kurs talabalari quyidagicha etud namoyish etishadi. «O‘zlari yaxshi tayyorgarlik ko‘rmagan imtihondan qutilib qolish uchun, o‘z betobliklarini bahona qilib, «tez yordam» chaqirishadi. Birinchi talaba o‘zining «betob» ekanligiga shifokorni ishontiradi. Ikkinchi talaba shifokor tomonidan beriladigan kasallik to‘g‘risidagi ma’lumotnoma qog‘ozini o‘g‘ir laydi va uni o‘zi to‘ldiradi. Ular o‘ylab topgan hiylalaridan xursand bo‘lib, sakrashadi.

Mazkur etud, hajviy janrda emas, hayotiylik tarzida talqin etiladi. Mahorat o‘qituvchisi esa, talabalarning yaxshi ijrosini inobatga olib, «ko‘rik imtihoni»ga tavsiya etadi.

Natijada badiiy haqiqat bilan hayotiy haqiqat o'rtasida tafovut paydo bo'lgan. Bunday hoi, o'z navbatida, tarbiyada muhim o'rin tutgan g'oyaviy dunyoqarash, ma'naviy va mafkuraviy tarbiyaga salbiy ta'sir o'tkazishini o'qituvchi inobatga olmagan.

Yuqorida keltirilgan misoldan shunday xulosa yasash mumkin. Talaba tomonidan bajarilgan har bir ijodiy ishga baho berish vaqtida, ijroda aks ettirilgan voqea mohiyati, uning g'oyaviy yo'nalishi, haqiqat mezonlariga munosibligi har tomonlama mushohada qilib ko'rilgandan keyingina, ijroning tashqi texnik jihatlariga baho berish kerak ekan. Toki talaba o'z ijodiy mehnati samarasiga aslo befarq bo'lmasin, u, birinchi navbatda, bajargan ijodiy ishining badiiyg'oyaviy yo'nalishi, mohiyati, hayotiyligi, so'ngra to'ldiruvchi sifatida, uning texnik jihatlarini baholanishini muntazam his qilib tursin.

O'qituvchi talabaning ijodiy ishini tahlil qilar ekan, dastavval uning mazmunmohiyati, «g'oyaviy talqini»ga asosiy e'tiborni qaratishi zarur. So'ngra aks ettirilgan voqeaning tashqi ko'rinishi, shakli, ijro mahorati darajasiga sinchkovlik bilan yondashishi lozim, xatti-harakat jarayonida yo'l qo'yilgan har bir kichik nuqson ham uning nazaridan chetda qolmasligi kerak. Kamchiliklar birmabir ko'rsatilgach, ularning sabablari aniqlanib, bartaraf etish uchun zarur yo'l-yo'riqlar berilishi kerak.

Estetik tarbiya intizomi

Aktyorning axloq va odob sohasidagi tarbiyasi, bir tomondan, teatr san'atining o'ziga xos tomonlariga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, aktyorning o'zi tanlagan soha taqozosiga ko'ra, g'oyaviy kurash jabhasining jangchisi sifatida, uzluksiz davom etayotgan g'oyaviy kurashning oldingi safida ekanligi bilan bog'liqdir. Aktyor, g'oyaviy jabha kurashchisi sifatida, millat va davlat oldidagi o'z mas'uliyatini chuqur anglagan bo'lishi mustaqil Respublikamiz manfaatlarini himoya qilishi kerak.

«Sahna uzunasiga o'ttiz, eniga yigirma qadam, balandligi pardasi barobar uncha katta bo'lmagan makon, — deb yozadi Georgiy Tovstanogov. — Biroq bu makonning pardalari ochilgach, unga o'tmish ham, bugun ham, kelajak ham sig'ishi mumkin...»

Demak, teatr san'ati yo'lida xizmat qilishga bel bog'lagan har bir inson zimmasidagi sharaflı vazifani shu yurtning farzandi sifatida, tomoshabin, teatr jamoasi, pesa muallifi, sahnadagi hamrohi (partnyor) va nihoyat, o'z vijdoni oldidagi mas'uliyatini chuqur anglagan holda ado etishi shart.

Teatr san'atining o'zigagina xos bo'lgan yana bir jihati uning sintetik xususiyatidan kelib chiqadi. YA'ni, uning har bir soha odamlari yig'indisi sifatida yagona dastur asosida faoliyat olib borishi, ijodiy jarayonni to'g'ri belgilash bilan bog'liq murakkab jamoa ekanligi teatr faoliyatini murakkablashtiradi.

Shuningdek, teatr san'atining «Hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun», degan shiori amalda hamma uchun birdek qo'llanishi kerak. Shu o'rinda

filologiya fanlari nomzodi Shuhrat Rizayevning «Jadid dramasi» kitobida keltirilgan quyidagi qiziqarli faktlarga e'tiboringizni qaratmoqchimiz:

— 1914yil oxirlarida rasman «Turon to'dasi» nomini

olgan Toshkent shahridagi musulmon drama san'ati havaskorlarining «Turon» jamiyati («Nizomi» 1916yil 11noyabr kuni va 7176raqamli reyestr bilan D. Yegorov tomonidan tasdiqlangan) jamoaning maqsad va manfaatlarini to'la ifodalagan:

- a) aholi o'rtasida sahna hamda xayriya ishlariga jiddiy munosabatni o'stirish;
- b) xalq uchun spektakllar sahnalashtirish, unga sog'lom hordiq bag'ishlash.

— Kechalar, konkurslar, spektakllar va shunga o'xshash ommaviy tomoshalar tashkil etish...

Truppaning muntazamligi va qat'iy ijodiy qoidalariga binoan ishlanishini ko'rsatuvchi yana «Ijrochi a'zolarining majburiyatlari» qismida quyidagicha bandlar bor.

1. Ijrochi-a'zolar jamiyati yil davomida uyushtiruvchi ommaviy tomoshalar: konsert, spektakl, kechalar va shunga o'xshash jamiyat hay'ati yoki rais tomonidan taklif etilgan ko'riklarda kami bilan besh marta ishtirok etishi kerak. Ishtirok etmaganlar a'zolarining umumiy yig'ilishi qarori bilan ijrochia'zolar safidan chiqariladi.
2. Ijrochi-a'zolar, aktyor biror spektaklda band bo'lsa, belgilangan barcha repetitsiyalarga kelishi va rejissorning hamma ko'rsatmalariga amal qilishi majburiydir.
3. E'tiborli sababsiz ikki marta repetitsiyaga kelma"gan ijrochilar muayyan spektaklda ishtirok etish huquqidan mahrum etiladilar.
4. Asosiy repetitsiya va o'z ishtiroklaridagi spektaklga, rejissorni kamida bir kun avval ogohlantirmasdan, ishtirok etmasalar, umuman spektakllardan chetlashtirilishlari mumkin.

1 Shuhrat Rizayev. «Jadid dramasi». Toshkent, «Ma'naviyat», 1997yil, 68, 69, 70betlar.

M. Uyg'ur, YE. Bobojonov, M. Muhammedov, T. Xo'jayev, N. Aliyevlar aktyor va rejissorlarning ma'naviy qiyofasi, xulqiy odobi masalalariga katta e'tibor qaratganliklari bejiz emas, albatta.

Ularning ta'biricha, aktyorning estetik tarbiyasi, qo'shimcha unsur emas, zaruriy sifat hisoblanadi.

Ayonki, spektakl yaratish jarayonida ko'plab soha mutaxassislari qatnashadi. Spektakldagi siymolar orqali g'oyaviybadiiy yaxlitlik vujudga keladi. Biroq har bir yaratuvchi, yuksak axloqiy, g'oyaviybadiiy mezonlarga rioya etmas ekan, oliy maqsad hisoblangan badiiylikka erishib bo'lmaydi.

Buning uchun har bir ijodkor qat'iy intizomli bo'lmog'i, o'zini o'zi tarbiyalamog'i, ko'pchilik qaroriga bo'ysunish kabi ichki qonunlarga so'zsiz itoat etmog'i lozim.

K. S. Stanislavskiy iborasi bilan aytganda, «O'zini san'atda emas, san'atni o'zida sevish» kerak bo'ladi. Faqat ulkan g'oyalar bilan yo'g'rilgan, oliyjanoblilik, yuksak ma'naviy va ma'rifiy axloq, yuksak maqsad sari sobitqadamlilik bilan borish ruhida tarbiyalangan insonlargina, ijodiy muhitni ichichidan yemiruvchi illatlar — birovning yutug'ini ko'ra olmaslik, g'ayrlik, g'iybat va mishmishlardan, tor doiradagi dunyoqarashlardan baland bo'laoladilar. YE. B. Vaxtangov «Yaramas axloq egasi yaxshi aktyor bo'la olmaydi», degan bo'lsa S. Stanislavskiy «Axloqi buzuk, ma'naviy qashshoq

odam sahnada turib tomoshabinni poklik va oliyjanoblilikka da'vat eta olmaydi», degan edi.

Aktyorning asosiy ish quroli uning emotsional (his — tuyg'u) xotirasidir. O'zi yaratmoqchi bo'lgan siymoning ichki dunyosini to'laqonli ochib berish uchun aktyorning hayotiy tajribasi va intellektual xotirasining kuchli bo'lishi qo'l keladi.

Agar bo'lajak aktyor, jamoa manfaati nimaligini, hamkasblarini qo'llabquvvatlashning ahamiyatini, jamoa manfaatini o'z manfaatidan ustun quyish, to'g'ri so'zli, haloUik kabi xislatlarni o'quv dargohidagi ta'lim olish jarayonida anglab yetmasa, o'zlashtirmasa, professional teatr sahnasida bu fazilatlarini o'rganish uchun vaqt ham, imkoniyat ham bo'lmaydi. Sahnada yuzaki taqlid, tashqi ko'rinish bilan sinchkov tomoshabinni chalg'itib bo'lmaydi.

Toki, aktyor ongidashuurida ijobiy axloq va odob doirasidagi fazilatlar shakllanmas ekan, u salbiy siymoni ham ishonarlik darajada aks ettira bilmaydi.

Xalqimizda «Beayb — parvardigor» degan maqol bor. Ammo inson o'zidagi kamchilik va nuqsonlardan forig' bo'lishga intilsa, bu uning kamoloti belgisi hisoblanadi.

Navoiy bobomiz aytganlaridek:

Har kishi olam elida xo'b emas,

Har kishining har ishi marg'ub emas.

Teatr san'atida uchraydigan illatlarni murg'aklik holatidayoq bartaraf etishga qodir aktyor san'atning bu murakkab sohasiga o'z umrini baxshida qilsa arziydi. Modomiki, inson teatr deb atalmish bu sehrli va sirli olam bo'sag'asiga qadam qo'yar ekan, o'zida mavjud barcha illatlarni tashqarida qoldirib, ichkariga kirishi kerak. Vaxtangovning ta'biricha, aktyorning ichki va tashqi holatidan teatrga aloqasi bo'lmagan sifatlarni topa olmaslik kerak. Chunki aktyordagi barcha insoniy xislatlarga o'rganish kerak. YA'ni tarbiyachi, o'zining kuchli irodasi, emotsional ta'siri ostida, har bir talabadan ijodiy jamoa tuza bilishi lozim. O'z talabalarini bir g'oya, bir maslak yo'lida ortidan ergashtira bilgan tarbiyachi yetakchi bo'lgan ijodiy jamoa orasida, ana shunday ijodiy muhitda har bir talaba yengil nafas oladi, mehroqibatni, samimiyligni his etadi. Natijada har bir salohiyat egasi o'z imkoni, qobiliyati mahoratini oshirishga, imkoniyatlarini kengaytirishga intiladi.

Shu bilan birga, bachkanalik, baxillik, g'ayrlik, manmansirashlik, shuhratparastlik kabi «yovuz dushmanlar»ning har qanday ko'rinishiga qarshi ayovsiz kurash ochish kerak.

Ustoz rejissor T. Xo'jayev, labini to'rt enlik bo'yab, yuziga bo'yoq chaplab, labiga sigareta qistirib, bor bisotini ko'zko'z qilib, hayo va iffat ko'chasidan o'tmaganlarni o'z ustaxonasiga yaqinlashtirmagan. Sochini yelkasiga tushirib, soqolmo'ylovini osiltirib yurgan oliftalarni darsga qo'ymagan.

Ming afsuslar bo'lsinki, so'nggi yillarda teatr oliy o'quv yurtlari va bilim yurtlarida «mustaqillik va demokratiya» tushunchalarini hayosizlik,

odobsizlik, betga choparlik, manmansirashlik, intizomsizlik tushunchalari bilan almashtirib qo'yayotgan yoshlar soni ortib bormoqda. Bundaylarga qarata shayx Sa'diyning quyidagi baytini eslatib qo'ymoqchimiz: Qobiliyat bo'lsa aslida, Tarbiyat unga qiladi asar. Qancha urinma bo'lmas sayqali, Temir aslida bo'lmas javhar. Shundaycha qolur Iso eshagi Makkaga borib kelsa ham agar.

Shuning uchun talaba ilk kurslardan o'zidagi barcha ijobiy xislatlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratishi lozim. Kiyim kiyishi, soch tarashidan tortib, ta'lim dargohidagi yurishturishi, o'zini tutabilishigacha tarbiyachining hamisha diqqate'tiborida bo'lishi kerak.

Agar, uzoqdan kelayotgan odamning aktyor va aktrisaligi yaqqol ko'rinib tursa, ustiga ustak o'sha odam o'z husni, ustiboshini ko'zko'z qilib kelayotgan bo'lsa, u sariq chaqaga arzimaydigan aktyoraktrisadir.

Buyuk aktyorlar hayotiga nazar tashlasangiz, ular o'z yurishturishi, muomala madaniyati, jamoat o'rtasida o'zini tuta bilishi, samimiy va kamtarinligi, xushfe'lligi bilan boshqalardan ajralib turishgan. Abror Hidoyatov, Olim Xo'jayev, Shukur Burhonov, Sora Eshonto'rayeva, Vohid Qodirov, Manzura Hamidova, Razzoq Hamroyevlar naqadar kamtarin, naqadar kamsuqum, odamoxun inson bo'lganlar.

Garchand mavzudan biroz chetga chiqilsada, hayotiy bir voqeani keltirib o'tmoqchimiz.

Buyuk san'atkor, O'zbekiston xalq hofizi Komiljon Otaniyozov o'zining ajoyib insoniyligi bilan qo'l ostidagi san'atkorlarga hamisha o'rnak bo'lar edi. Toshkent viloyatining Bo'ka tumanida bo'ladigan bir konsertda ishtirok etish uchun borarkan, Komiljon Otaniyozov kutilmaganda:

—Mashinangni to'xtatchi, anavi yerda to'u taraddudi bo'layapti shekilli, — deydi haydovchiga.

Mashina to'xtab, ular to'yxonaga yaqinlashadilar. Bu qanaqa to'y, — so'raydi Komiljon Otaniyozov.

Otamizning to'yi! Bugun u kishi 80 yoshga kirdilar.

—Shunaqa deng!.. Qani Otamurod torni menga gatii!

Torni qo'lga olgan Komiljon Otaniyozov, eshik ol dida yangi to'n kiyib turgan nuroniy cholga mehr bilan boqqanicha qo'shiq boshlab yuboradi:

To'ylar muborak, nuroniy inson,

Sadqalar bo'lsin sizga tanu jon.

Ulug' sakson yosh bo'lsin muborak,

Iqbol yor bo'lsin sizga har qachon!..

Qo'shiqni tugatib, cholning qo'lidan bir piyola choy ichib, mashinaga, chiqar ekan, Komiljon Otaniyozov shogirdlariga o'girilib:

—San'at va san'atkor xalq xizmatkori, uning baxt va boyligi esa xalq olqishidir, — deydi.

Bugungi kunda o'zbek milliy teatr san'ati namoyandalari bo'lmish aktyor va aktrisalarning tarbiyasi, ularning o'zgalarga o'rnak ko'rsatishi naqadar muhimligi haqida so'z borar ekan, o'sib kelayotgan yosh va navqiron avlodni otabobolar, ustozlar udumiga tayangan holda tarbiyalash, faqat ularga o'zimizning yurishturish, kiyinish, muomala madaniyatimiz orqaligina o'rnak ko'rsatishimiz mumkin. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 2001yil 3-sentabr kuni Hamza nomidagi o'zbek davlat akademik drama teatriga «Milliy teatr» maqomini berish to'g'risidagi farmonini e'lon qilgan ekan:

«Sizlar o'zbek teatr san'atimizning eng yaxshi an'alarini asrabavaylab, rivojlantirib, kelajak avlodga yetkazasiz, milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi yetuk asarlaringiz bilan xalqimiz madaniyatini yanada yuksaltirishga munosib hissa qo'shasiz, deb ishonaman», — degan edi.

Prezident qo'ygan talablarni bajarish esa, bugun M. Uyg'ur nomidagi San'at institutida tarbiyalanayotgan talabalarning ham muhim va sharaflil vazifasi bo'lmog'i kerak.

Bu vazifani muvaffaqiyatli ado etish, talabalarning ta'lim-tarbiyasi masalalari ko'p jihatdan tarbiyalovchilar qo'lidadir.

Vaxtangov o'z talabalari oldiga qo'ygan talablar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. Studiyachilarning axloqiy mezoni deb atalgan bu talablar, institut talabalari uchun ham dasturulamali bo'lib qolsa ajab emas. Ular quyidagilardir:

1. Muomalada — shirinsuxanlik.
2. Kundalik hayotda — kamtarinlik.
3. Do'stlarga yordam qo'lini cho'zish.
4. Jamoa ishida bir-biriga yelkadoshlik.
5. Yurishturishda — olibtaqchilik qilmaslik va manmansiramaslik.
6. O'zaro munosabatlarda — xayrixohlik, o'zgalarga muvaffaqiyatidan quvonish.
7. Aktyorlik mahorati
8. Jamoat joylarida — yengil tabiatlilikdan uzoq bo'lish, o'zo'zini ko'z ko'z qilmaslik.
9. Tanqidiy fikrlarga sabrli bo'lish. O'zgalarga fikri bilan hisoblashish.

Teatr olamidagi muhit shunday bir sharoitdan iboratki, unda ajoyib gullar bilan birga sassiq alafalar ham o'sishi mumkin. Bu sharoitning tuprog'i o'z kasbiga sodiq, san'at yo'lida shaxsiy huzurhalovatdan kechgan, fidoyi insonlarni ham, manmansiragan, tannoz, san'atni o'z shaxsiy manfaati yo'lida qurbon etuvchi olibtalarni ham oziqlantiradi. Aholining ayrim tabaqalari orasida aktyorlarga nisbatan past nazar bilan qarashning mavjud bo'lishi sabablari mana shunday soxta san'atkorlar emasmikan? San'at oldidagi mas'uliyat har bir aktyorni o'z kasbiga hurmat bilan qarashga chorlaydi. Modomiki aktyor, o'z kasbiga e'tiqodini, boshqalarning unga nisbatan hurmatini oshirmoqchi ekan, eng avvalo, ishni o'zidan boshlashi kerak. U xalqning «Yaxshi xulq ming yaxshi libosdan a'lo», degan dono naqlini doimo yodda tutishi shart.

San'atkorning tili, jismi xuddi tanburning nozik torlariga qiyos. Uni sozdan tushiradigan har qanday yaramas illat, jirkanch odatlardan aktyor o'zini tozalashi kerak.

Ijodiy jamoa o'rtasida axloqiy va ma'naviy sog'lom muhit yaratish uchun mas'ul xodimlar orasida rejissorning o'rni alohida ahamiyatga ega.

Agar xulq-odob aktyorning kasbiy majburiyatlari sirasiga kirsa, ijodiy jamoaning axloqiy qiyofasini shakllantirish, sog'lom ijodiy muhitni qaror toptirish bevosita rejissorning vazifasidir. Bordiyu tarbiyaning shu tarmog'ida rejissorning uquvsizligi, ojizligi sezilsa, demak, u rejissor sifatida hali mukammallikdan yiroqdir.

Alohida ta'kidlab o'tmoq joizki, faqat ma'naviy sog'lom ijodiy muhitdagina to'laqonli badiiy yuksak spektakl tug'ilishi mumkin.

Demak, teatrdagi ijodiyaxloqiy muhit yaratish yo'lida rejissor vaqt va mehnatini ayamasi lozim. Chunki sarf etilgan vaqt va mehnat, albatta, o'z mevasini beradi.

Ma'naviy sog'lom muhit qaror topmagan, aksincha tilyog'lamalik, laganbardorlik, g'ayrlik, chaqmachaqqarlik, beparvolik va betgachoparlik kabi xunuk illatlar hukm surgan jamoada qanday ijodiy ish bo'lishi mumkin? Bundan chiqadigan xulosa shuki, shaxs qanchalik yuqori malakali, mahorat egasi bo'lmasin, agar u ijodiy ishida axloqodob mezonlarini nazarpisand qilmasa, uni mahoratiyu, yuksak malakasi tanazuldan qutqarib qola olmaydi.

Yoki boshqa bir manzaraga e'tiboringizni qarataylik:

Endigina san'at olamiga qadam qo'yib, ozgina yutuqqa erishgan qizaloqning jurnal sahifasida surati paydo bo'lishi ham shu navniholning ijodini bir necha yilga to'xtatib qo'yishi, eng achinarlisi, uni hatto bir umrga sahnadan uzoqlashtirishga olib kelishi mumkin. Bu yerda, endigina tetapoya bo'layotgan ijodkorni suratga tushirib, uni jurnalda bosib chiqargan muxbirlar bilan o'qituvchining uzoqni ko'ra bilmay xatoga yo'l qo'yganligini ta'kidlab o'tish kerak.

Aktyor dushmanini tashqaridan emas, o'zo'zidan, manmansirash va hoyuhavasga bino qo'yishidan qidirishi, shulardandir, deb bilishi kerak. Tinmay izlanish, o'z yutug'idan qoniqmaslik, mahoratini oshirish uchun o'qibo'rganish, yaxshilarga ergashish kabi xislatlar aktyorni shonshuhrat sari olib boruvchi yagona yo'ldir.

Ma'lumki, aktyor va umuman san'at ahli hamisha maqtovlarga o'ch bo'ladi. Maqtov ayrim hollarda zarur hamdir. Buni inkor etib bo'lmaydi. Ammo mas'uliyatni his etgan holda qabul qilingan, meyoridan oshmagan maqtov aktyorga foyda keltirishi mumkin.

Aktyorning yana bir mas'uliyati, o'zini ozuqa bilan ta'minlaydigan dramaturg mehnatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni taqozo etadi.

Buyuk san'atkorlar o'zlari ishtirok etadigan spektakllar xususida odamlarning, hatto o'z oila a'zolari va yaqinlarining ham noo'rinnajo'ya so'z aytishlariga yo'l qo'ymaganlar. Zero pesaga hurmatsizlik undagi o'z roliga ham hurmatsizlikni paydo qiladi. Shuning uchun aktyor rolni o'ziga moslashtirish o'rniga o'zini rolga moslashtirmog'i kerak.

Aktyorlarning birbiriga munosabati sahnada, ijodiy jarayondatug‘ilishini hisobga olinsa, bo‘lajak aktyorlarda birbiriga bo‘lgan mas’uliyat hissini dastlabki mashg‘ulotlardan oq boshlamoq kerak.

Endi aktyorning mehnat intizomi haqida aytadigan bo‘lsak, mehnat intizomi, ijodiy, axloqiyma’naviy ichki intizomdan ajralgan holda bo‘lmaydi. Axloqiy intizom bilan mehnat intizomi birbiriga chambarchas bog‘liqdir.

K. S. Stanislavskiy ta’limotida aktyorning sahnaviy tarbiyasi

Jahon madaniyati va san’ati tomonidan e’tirof etilgan Stanislavskiy ta’limoti hamda Milliy teatr namoyandalarining hayotiy tajribasidan o‘tgan ilg‘or tajribalar milliy aktyorlar tarbiyasida uslubiy qo‘llanma bo‘lishi kerak.

Mazkur usul va ta’limotlar asrlar davomida shakllanib, sinovlardan o‘tib, san’at qonuniyatlari asosida rivojlanib keldi. Milliy uyg‘onish, zulm va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik, oddiy xalq turishturmushi bilan bog‘liq yuksak g‘oyalar hozirgi kunimizdagi eng ilg‘or san’at shohsupasiga olib boruvchi birdanbir to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi.

Stanislavskiy tomonidan kashf qilinib, teatr tajribasidan o‘tgan «aktyorlik mahorati ta’limoti» teatr san’ati tarixida buyuk o‘zgarishlarga olib keldi. Sababi bu ta’limotga asoslangan qonuniyatlari zahirida insonga tabiat tomonidan berilgan ko‘rish, eshitish, hid bilish, sezish, ta’mbilish hislari yotadi. Ushbu qonuniyatlari teatr san’atining o‘ziga xos tomonlarini mujassamlashtirgan. Mazkur realistik (lotincha: badiiy umulashtirilgan haqiqat) ta’limotni milliy teatr san’ati amaliyotida qo‘llash eng to‘g‘ri va oqilona yo‘ldir. Chunki Mannon Uyg‘ur, Yetim Bobojonov, Toshxo‘ja Xo‘jayevlar shu yo‘ldan borganlar.

Stanislavskiy ta’limotidan oqilona foydalanish uchun uni sinchkovlik bilan o‘rganish kerak. Agar bu ta’limotdan oqilona foydalanilmasa, bilag‘onlik qilib, yuzaki tatbiq etilsa, mutlaqo teskari natijaga erishish mumkin.

Bu ta’limotning asosiy jihati shundaki, u hayotni haqqoniy aks ettirish uchun xizmat qiladi. Bu ta’limot boshidan oxirigacha hayotiy haqiqat tushunchasi bilan sug‘orilgan. Shuning uchun teatr oliy o‘quv yurti o‘qituvchisi, o‘z talabasini, yasama soxta haqiqat bilan hayotiy haqiqatni birbiridan farqlashga o‘rgatishi kerak. Bulling uchun har bir bajarilgan mashqni darhol hayotiy haqiqatga taqqoslashni odat qilishi lozim.

Demak, har qanday soxtalik, sun’iylik mazkur ta’limotning dushmani sifatida qabul qilinishi kerak. Hatto, «teatrlashtirilgan shartlilik»da ham u qanchalik ta’sirchan va qiziqarli bo‘lmasin, bunday ijroga nisbatan tanqid tig‘i shafqatsiz bo‘lishi kerak. Faqat shunday yo‘l bilangina hayot nafasi anqib turgan tabiiy ishlash usulini egallash mumkin. Biroq bu degani hayot haqiqatiga xilof bo‘lmagan har qanday voqeani sahnaga olib chiqish mumkin degan gap emas. Bu yo‘lda shakshubhasiz saralash maydoni bo‘lishi kerak.

Lekin saralashda qaysi mezonlardan kelib chiqiladi. Sahna uning zaruriy haqiqatni bizga qaysi mezon ajratib beradi?

Bu savolga Stanislavskiy «Oliy maqsad», deya javob beradi.

«Oliy maqsad»ning o‘zi nima?

Ayrim talqinchilar «Oliy maqsad» «G'oya»ning o'zi, degan fikrni ilgari surishadi. Bunday fikr mohiyatan noto'g'ri.

«Oliy maqsad» bilan «G'oya» bir tushuncha bo'lganida Stanislavskiy o'z ta'limotiga yana bitta bob, yana bitta ibora kiritib o'tirmagan bo'lardi.

Nag bir ijodkorning o'z g'oyasini insonlar ongiga singdirishdan ko'zlagan muddaosi — «Oliy maqsad»dir.

Demak, «Boy ila xizmatchi» pesasining g'oyasi — adolat tantanasiga bo'lgan ishonchdir.

Ana shu adolatni yaqinlashtirish uchun muallif tomonidan olib borilgan sayharakat — uning oliy maqsadidir. Boshqacha qilib aytganda, G'oya — adolat uchun kurashib, uni qo'lga kiritish muallifning «Oliy maqsadi» sanaladi.

Oliy maqsad sari intilish adolatni ijtimoiysiyosiy qayta qurish sari da'vat etuvchi ijodiy faollik va g'oyaviy fikrni ham talab qiladi. Shuning uchun bu ta'limotni mavjud ijtimoiysiyosiy hayotdan ajralib qolgan texnik ta'limot deb qarash xatodir. Har bir ijodkor ijodiy izlanish jarayoni bo'lmishbadiiybezak, musiqa, texnika vositalaridan foydalanish yo'llarini qidirar ekan, «Oliy maqsad» hamisha unga to'g'ri yo'lni ko'rsatib turadi.

Ta'limotning navbatdagi muhim jihati: aktyorlik san'atidagi ta'sirchan vositalarni tanlay bilish yo'lidir. Eng ta'sirchan yo'l — harakat hisoblanadi. Sahnada harorat, shijoat, «jo'shqin»likni o'ynab bo'lmaydi, «aksincha» maqsad amalga oshiriladi. Ta'limotning mana shu o'q ildizi hisoblanmish harakat degan murvat nimaligini tushunmagan odam umuman ta'limot nimaligini tushunmaydi, desa ham bo'ladi. Ta'limotning eng asosiy maqsadi — aktyor tabiatini uyg'otib, oliy maqsad sari intiluvchi tabiiy ijodiy salohiyatni harakatga keltirishdan iboratdir. Shu bilan bir qatorda, aktyor ijodida hech bir notabiiylik, soxtalikka o'rin bo'lmasligi uchun Stanislavskiy, aktyor ijodidagi texnik harakatni alohida e'tibor bilan tadbiq qiladi.

Aktyorlik san'atining oxiroqibat erishishi lozim bo'lgan natijasi — tabiiy ijod orqali berilgan siymotimsol qiyofasiga kirishdir.

Qayerdaki badiiy siymo yaratilmas ekan, u yerda san'at haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Biroq aktyorning ijodi — ikkilamchi. YA'ni u ijrochi, xolos. Shuning uchun aktyor, avvalo, birlamchi manba bo'lmish san'at — dramaturg asariga murojaat qiladi. Dramaturg asarida siymolar tavsiya etiladi. To'g'ri, ular hozircha so'zda deylik. YA'ni bu siymolar qog'ozdagina mavjud.

Agar aktyorni siymoga xos kiyintirib, soqolmo'ylov yopishtirib, qo'liga kitob berilsayu, u bu kitobdagi so'zlarni ifodali o'qib bersa, buni siymo yaratildi deyish mumkinmi? Yo'q, siymoga yaqinroq deyish mumkin. Ammo bu siymo aktyor tomonidan emas, dramaturg tomonidan yaratilgan siymo bo'lib qoladi. Bunday siymo yaratuvchisi — dramaturgdir. Ammo bunday ifodali o'qishni ko'rganeshitgan sodda tomoshabin, bu siymoni aktyor yaratdi, deya xayol qilishi mumkin. Chunki u shu siymo orqali ifodalangan badiiylik ta'sirida bo'ladi.

Bordi-yu aktyor, o'sha dramaturg yozgan matnni hishayajon bilan, jarangli ovozda, yana ham ifodaliroq qilib o'qisa va sodda tomoshabin bundan

ko'ngli to'lib, uni olqishlasa, bunday havaskor, taqlidchi o'zini «haqiqiy san'atkorman», deb his qilib, hatto «haqiqiy san'atkor o'zimman», deya atrofga jar solishdan ham toymaydi.

— Shunday aktyor va aktrisalalar ham borki, — deb yozadi Stanislavskiy, — ular uchun xususiyatxislat, siymo qiyofasiga kirish degan tushunchalar begona. Bundaylar har qanday rolni o'zlariga moslashtirib, tashqi ko'rinishi, yoqimli ovozini ko'zko'z qilishni o'zlari uchun «oliy maqsad» qilib olganlar. Ular sahnaga olqish uchun chiqadilar. Ularning hayot mazmuni shundangina iboratdir.

Bundaylar maydonda koptoksiz yugurayotgan futbolchiga o'xshaydi.

Aktyorning tashqi qiyofasi ikki tig'li xanjarga o'xshaydi. Undan unumli va oqilona foydalanishni o'rganish kerak, aks holda uning tashqi jozibasi o'z san'atining kushandasiga aylanishi ham mumkin.

Aktyorlik san'atida uning siymo qiyofasiga kira olishi mahorat mezoni hisoblanadi. Aniqroq qilib tushintiradi gan bo'lsak, aktyor sahnada bironbir siymo timsolini yaratar ekan, avvalo, o'sha siymoga xos bo'lgan xususiyat va xislatlarni tomoshabin ko'z o'ngida, muayyan makon va zamonda yarata olsagina, u yaratgan timsol haqiqiy ijod namunasi sifatida qiziqarli va ishonarli bo'ladi. Demak, aktyor siymo ixtirochisi hisoblanar ekan.

Har qanday rol harakatsiz bo'lmaydi. Harakatsiz rol boshsiz tanaga o'xshaydi, xolos. Siymo qiyofasiga kirish uchun esa ko'p qirrali qurol bo'lmish sahna ijodining qator talablariga rioya etilgandagina faoliyat natijali bo'lishi mumkin.

Bu talab laming dastlabkisi aktyor o'zini berilgan shartsharoitga qo'yib, siymo zimmasidagi vazifani o'z hayoti tabiatiga qiyoslashidan boshlanishi kerak. YA'ni, avvalo, o'zidan kelib chiqishi kerak. Ta'limotning mana shu qismi noto'g'ri talqin etilishi oqibatida kutilgan natijaning teskarisini ko'rish mumkin.

Uzoqqa borishning hojati yo'q. So'nggi vaqtlarda teatrda ham, kinoda ham tanlangan rolga aktyorning tashqi qiyofasi mos kelishkelmasligi hisobga olinadi. Kino san'atida esa yana ham oson yo'l tanlanib, shu rolga tashqi ko'rinishi mos tushadigan, ammo san'atga umuman aloqasi yo'q odam taklif etiladi.

Bunday «aktyor» na siymoning ruhiy holatini va na siymo talab qiladigan xarakterni yorita oladi. Natijada sahnadan bizga tirik odam emas, harakatlanuvchi surat qarab turadi. Bu bir tomoni bo'lsa, ikkinchidan, kino va teleyekrandan birbiriga o'xshash, bir xil kulib, bir xil yig'laydigan, bir xil turib, bir xil o'tiradigan robotdan farq qilmaydigan aktyorlar tikilib turganini ko'ramiz. Ularning soni kundan kunga bolalab, ko'payib borayapti. Bunday rejissorlar aktyorning mahorati, ichki imkoniyatlarini hisobga olmasdan, uning tashqi qiyofasini suiste'mol qiladilar, xolos. Rejissor u yoki bu rolni baland bo'yli, qora soch, o'rta yashar qiyofada ko'rdimi, shunday ijrochi qidiriladi. Ijrochi topildi deguncha uning oldiga, Stanislavskiyning «Agarda men berilgan shartsharoitga tushib qolsam», degan ta'limotidan kelib chiqadigan talab qo'yiladi. YA'ni bu ta'limotning texnik tomonigina talab qilinadi. Modomiki shunday ekan, teatr san'ati sohasidagi ta'limotni egallash uchun

to'rt yil o'qitish shartmikan? Diqqatni to'plash, hamroh bilan munosabat o'rnatish, tabiiy xatti-harakat, berilgan sharoitda yashashni o'rgandimi, qo'liga diplom tutqazib qo'yish shart emasmi?

Hamma gap shundaki, hech bir san'at institutida bunday qilinmaydi. Talaba yana ikki uch yil o'qitiladi. Lekin u institutni tamomlab, teatrga ishga kelganidan keyin rollar faqat uning tashqi qiyofasidan kelib chiqib taqsimlansa, bu yerdagi ijod havaskorlik to'garagidan farq qilmay qoladi.

Aktyor ijodining dastlabki bosqichlaridan rejissor yosh ijodkor mahoratini oshirishni, uning qobiliyati qirralari charxlanishini ko'zlab, rol taqsimoti vaqtida uning tashqi ko'rinishini e'tiborga olishi mumkin. Ammo bunday tajriba odat tusiga kirib qolsa, aktyor bir qolipga tushib qoladi va bu hoi borabora o'zo'zini sahnada o'ynashga aylanib ketadi. Chunki u izlanishdan to'xtaydi, talabchanlik y'oqoladi. Bunday tanazzul holatiga tushib qolmaslik uchun aktyor hamisha o'zi va siymo o'rtasidagi farqni sezib turishi kerak.

Stanislavskiy ta'limotiga ko'ra, timsol ustida ishlar ekanmiz, «berilgan shartsharoitga o'zimizni qo'yib ko'raylik», degan iboraga chuqurroq yondashib ko'ramiz. Aktyorlik san'atining dialektik (tabiiy harakat va rivojlanish) tabiatidan kelib chiqadigan bo'lsak, qaramaqarshilik qonuniyatining aktyorning — siymo, siymoning — aktyor shaklini ko'ramiz. Bir qaralganda, ular haqiqatan ham birbiriga tamoman zid bo'lib tuyuladi. Negaki, aktyor sahnaga chiqar ekan, o'zligini yo'qotmagan holda timsol qiyofasida yashashi kerak. Dialektik qaramaqarshilik deganimizda, shu holat nazarda tutilgan.

Agar shu ikki holatdan bittasi inkor etilsa, ijodiy san'at qonuniyati buziladi. Agar aktyor o'zligini unutib, faqat timsol qiyofasida yashasa, unda bu taqlidiy, ya'ni yasama san'atga aylanadi. Agar aktyor timsolni emas, sahnada faqat o'zini takrorlasa, u havaskorlik darajasidagi, aftangoriga bo'yoq surkab olgan sirk artistlaridan qolishmaydi, bunday holatni sirk artistlarida kuzatish mumkin.

Demak, bunday holatda aktyor o'zo'zini ko'zko'z qiladi, xolos. Faqat ikki holatni birgalikda olib borish, ya'ni o'zligini yo'qotmay, timsol qiyofasida yashash teatr aktyorining haqiqiy ijodini, san'atkorlik mahoratini ko'rsatadi.

Xo'sh, bunga erishish yo'llari qanday?

Keling, misollarga murojaat qilaylik. Agar hozir qirq yoshda bo'lsangiz, yigirma yoshingizda qanday edingiz? Nahotki yigirma yil ichida o'zgarmagan bo'lsangiz. So'zsiz — o'zgargansiz. Avvalo, jismonan o'zgargansiz! Ruhiyatingiz, dunyoqarashingiz o'zgargan. Ong vaxotira o'zgargan, yurishturish o'zgargan. Lekin bu o'zgarishlar tabiiy tarzda, astasekinlik bilan ro'y berganligi sababli siz uni sezmagansiz. Lekin sizning xayolingizda hamon o'shao'sha, yigirma yoshdagideksiz. Chunki o'tgan yigirma yil davomida hamisha, «anovi» deb emas, «men», «o'zim» deb yashagansiz. Barcha o'zgarishlar o'zingizda ro'y bergan. Shunday qilib, o'zligingizni tark etmagan holda to'xtovsiz o'zgarib borgansiz. Aktyor ham siymo qiyofasiga kirib borar ekan, biron soniya bo'lsin, o'zligidan chetga chiqib ketmaydi.

Farqi bitta. Hayotda yigirma yil davomida ro'y bergan o'zgarishlar sahnada ikki uch hafta ichida ro'y beradi. Demak, aktyor rol ustida ishlar ekan, o'zini pesada berilgan uchinchi shaxs emas, bu «mening o'zim», deya faraz qilishi kerak. Aktyor hech qachon o'zligini unutmasligi lozim. Bu odam menman, degan sezgini saqlab turishi kerak bo'ladi. Nega shunday? Chunki timsol yaratadigan barcha qurollar aktyorning o'zidadir. Hissiyot, ovoz, sezgi, imoishora, fikrlash va h. k. Harakatga keltiruvchi bunday qurollar manbai — aktyorning o'zida mujassam.

Har bir aktyorning o'ziga xos bo'lgan fazilat va nuqsonlarini, xuddi urug' qadalgan yerga qiyoslash mumkin. Mana shu urug'dan o'simlik unib chiqadi. Uni yerdan sug'urib olishingiz bilan quriydi. Rolni ham aktyorning o'zligidan ajratilsa, rolda hayot nafasi o'chadi.

Ma'lumki, qog'ozdan juda chiroyli gul yasash mumkin, lekin bu gulda hid, hayot nashidasi ufurib turgan tiriklik alomatlari bo'lmaydi. Sahnadagi taqlidiy ijro ham shu qog'oz guldin farq qilmaydi. Demak, aktyor rol ustida ishlar ekan, timsolga xos bo'lgan ichki va tashqi xislat va xususiyatlarni o'zida mujassamlashtira boshlaydi. Shu yo'l bilan u boshqa shaxs qiyofasiga kirib boradi, lekin u o'zligini bir daqiqa bo'lsada unutmaydi. Stanislavskiy ta'limotining qiymati ana shunda.

O'zligini unutmaslik nimalarda aks etadi? Birinchi navbatda, ichki nigoh orqali o'zligini nazorat qilib borishda. YA'ni siymoning tashqi qiyofasiga zo'r berib, qalbini esdan chiqarib qo'yish, yoki siymoning tashqi qiyofasini unutib, bu mana menman deb, o'zo'zini ko'rsatishga o'tib ketish yaramaydi. Yana qaytaramiz. Stanislavskiy ta'limotining «o'zidan kelib chiqib» degan shiorining asl mohiyati aktyor tabiiy ravishda timsol qiyofasiga kirib borishi uchun yaqin yo'l ekanligini ko'rsatib berishda. Shunday qilib, Stanislavskiy ta'limotining asosiy tamoyillari quyidagilardan iboratdir:

1. Hayotiylik tamoyili.
2. San'atda g'oyaviy fikrning «Oliy maqsad» orqali amalga oshirilishi tamoyili.
3. Sahnadagi maqsad sari intilish jarayonida sezgi va hissiyotlarni qo'zg'atuvchi yagona kuchharakat ekanligi to'g'risidagi tamoyil.
4. Aktyorning tabiiy tarzda paydo bo'ladigan ijod tamoyili.
5. Siymo qiyofasiga kirishish chog'ida aktyorning o'zligini yo'qotmay, ijodiy yondashuvi tamoyili.

Stanislavskiy ta'limotining qimmatini shundaki, u har qanday zamon va makonda universal (hammabop) xususiyatga egadir.

Aktyorning ijrosi o'zidan, tabiiy qonuniyatlardan chetga chiqmay, sodda va oddiy holatlardan kelib chiqsagina, qiziq va jozibali bo'lishi mumkin. Stanislavskiy ta'limoti g'ayritabiiy holatlardan paydo bo'ladigan tuyg'ulardan amalda foydalanish yo'llarini ko'rsatib berishi bilan ham qimmatlidir.

Shuning uchun aktyor qaysi zamon va makonda sahnaga chiqishidan qat'i nazar, Alloh tomonidan in'om etilgan layoqatini, tabiiy iqtidoriga quloq solgan holda sahnaga olib chiqqan va tomoshabin qalbini junbushga keltira olgan. Demak, Stanislavskiy bu qonuniyatlarni ichidan to'qib chiqargan emas,

aksincha inson tabiatida yashirinib yotgan imkoniyatlarni ro'yobga chiqargan, xolos. Bu ta'limot hech bir zamon va makonda o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Mazkur ta'limot yaratilajak spektakllar janri, uslubiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Albatta, Shekspir bilan Hamza, Moler bilan A. Qahhor asarlarining sahnaviy talqini o'rtasida farq bo'lishi tabiiy. Biroq bu asarlarda rol ijro etuvchi aktyorlarning ichki imkoniyatlari, tabiiy sezgilarini ochish, rivojlantirish, ularni ko'rsatishyo'llari ushbu ta'limot doirasida bo'lishi shakshubhasizdir. Bunyod etilayotgan muhtasham binoning uslubiy qiyofasini uning poydevori belgilaganidek, bo'lg'usi spektaklning badiiy qiymatini, tabiiyligini ta'minlaydi. Asarning g'oyaviy ta'sirchanligi uning badiiy yuksakligini oshiradi.

Ijodning bunday mahsuli uchun tayyor badiiy shakl, oldindan tayyorlab berilmagani bilan, u ijodiy jarayon uchun to'liq erkinlik yaratadi. Haqiqiy realistik san'atning shakli va turlari xilmaxil va rangbarangdir. Shu jumladan, teatr san'atida ham, aynan shunday. Mavzuning qandayligi, janri, uslubidan qat'i nazar rangbaranglik realistik san'at talablariga zid kelmaydigan, badiiy haqiqat asosida aks ettirilayotgan voqelik mohiyatini har jihatdan ochib berishga xizmat qiladi.

Stanislavskiyning shogirdi YE. B. Vaxtangov sahnalashtirgan spektakllarni tahlil qilar ekanmiz, garchand ular realistik poydevorga qurilgan bo'lsada, shakl jihatdan Stanislavskiy sahnalashtirgan spektakllardan farq qiladi. Vaholanki har ikkala teatr aktyorlari ham Stanislavskiy ta'limotiga tayangan holda ijod qilganlar. Natijada ular sahnalashtirgan spektakllardan Stanislavskiy xursand bo'lgan. Hozirgi kunimizda ham «Ilhom» studiyasining ayrim spektakllari, Abror Hidoyatov nomidagi teatrning «Otello» spektakli talqini, Milliy teatrdagi bir qator spektakllar va viloyat teatrlarining ko'pgina spektakllari, janr va shakl jihatdan birbiridan farq qilsada, realistik talqin jihatidan Stanislavskiy ta'limoti asosiga qurilgan asarlardir.

Lekin Milliy teatrdagi sahnalashtirilgan ayrim spektakllarni shu holicha boshqa teatrlarga ko'chirib qo'yish taqlidiy san'atdan boshqa narsa emas.

Har qanday ko'chirmachilik, boshqa aktyor tomonidan ijod qilingan rolni boshqa aktyorning rol egasiga o'xshab o'ynashi xuddi birovning kiyimini o'g'irlab kiyib olishdek gap. Lekin bitta rolni ikki aktyor ijro etishiga to'g'ri kelib qolsachi?

Nazira Aliyeva o'zining «San'at mening hayotim» kitobida «Alisher Navoiy» spektaklidagi A. Navoiy rolini ikki buyuk aktyor — Abror Hidoyatov va Olim Xo'jayevlar gavdalandirganligi xususida to'xtalib, shunday deb yozadi:

«Olim Xo'jayev yaratgan Alisher Navoiy obrazining mukammal talqinini ko'rgan va eshitgan kishiga Abror aka gavdalandirgan Alisher Navoiy obrazi bundan ham yuksakroq, teranroq, mukammalroq ekanligini tushuntirib berish qiyin... Bu ikki ulkan aktyor yaratgan Alisher Navoiy obrazi san'at bo'stonida mangu viqor to'kib turuvchi ikki buyuk chinorga o'xshaydi»...

Demak, har ikkala aktyor yaratgan ulug' siymo qiyofasida ikki buyuk aktyorning o'zigagina xos bo'lgan entires, hishayajon va shijoat aks etgan.

Bu mavzudagi soʻzni muhtasir qilar ekanmiz, Stanislavskiyning: «Olgʻa intilmaydigan sanʻat va aktyor bamisoli orqaga ketayotgan sanʻat va aktyordir», — degan soʻzlarini taʼkidlab oʻtamiz.

Tayanch iboralar:

K.S.Stanislavskiy etikasi, Stanislavskiy taʼlimoti, «Oliy maqsad», axloqiy mezon, ustoz rejissyor, aktyorning asosiy ish quroli, professional tarbiya, aktyorlik mahorati

Savol va topshiriqlar:

1. K.S.Stanislavskiyning etikasi haqida gapirib bering?
2. K.S.Stanislavskiy taʼlimotini yaratishga nima sabab boʻlgan?
3. Oliy maqsad nima?
4. Aktyorning obrazda yashash tamoyiliga taʼrif bering?
5. K.S.Stanislavskiy sistemasining aktyorlarni tayyorlashdagi oʻrni qanday?

Adabiyotlar roʻyxati:

1. I.A.Karimov “Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “Oʻzbekiston”. 2011.
2. I.A.Karimov. “Adabiyotga eʼtibor – maʼnaviyatga, kelajakka eʼtibor”. T.: “Oʻzbekiston”. 2009.
3. **I.A.Karimov. “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch”. T.: “Maʼnaviyat”. 2008.**
4. K.S.Stanislavskiy. “Aktyorning oʻz ustida ishlashi”. T.Xoʻjayev tarjimasi. S.Muhamedov muharrirligida. T. Yangi asr avlodi. 2010
5. M.Umarov. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. T.: “Yangi asr avlodi”. 2009.
6. T.Tursunov. “Oʻzbek teatri tarixi”. T.: 2008.
7. **B.Sayfullaev, J.Mamatqosimov. “Aktyorlik mahorati”. T.: “Fan va texnologiya”. 2012.**
8. SH.S.Hamidova. “Estrada teatri va uning janrlari”. T.: 2009.
9. J.Mahmudov. “Aktyorlik mahorati”. Toshkent: Bilim, 2005.
10. S.Tursunboyev. “Jahon teatri tarixi”. T.: “Fan va texnologiya”. 2008.
11. J.Mahmudov, X.Mahmudova. “Rejissura asoslari”. T.: OʻDSI bosmaxonasi. 2008.
12. ZiyonET
13. <http://www.tsic.uz>
14. <http://www.teatr.ru>
15. <http://www.uzbekteatr.skm.uz>
16. <http://stanislavsky.by.ru>
17. <http://www.aktor.ru>
18. <http://www.meyerhold.ru>
19. <http://www.mxat.ru>

Mavzu: Harakat sahna sanʼati asosi sifatida

1. Ma'lum maqsadga erishishga qaratilgan insonning xolatlari
2. Organik xatti - harakat
3. Xatti-harakatlar mantiqi
4. Maqsadga qaratilgan va ma'noli harakatlar

Talabani sahnaga chiqarib o'tkazib qo'yamiz, u hech narsa qilmaydi, faqat o'tiradi. Ammo, talaba darrov zaldagi tomoshabinga (maqsadsiz) «o'ynay» boshlaydi. Shu bois saxnada nimaiki sodir bo'lmasin, hammasi biror maqsadli bo'lishi kerak. Demak, talaba saxnada tomoshabinga o'zini ko'rsatish uchun emas, biror bir maqsad bilan o'tirish kerak. Misol tariqasida o'qituvchi zarur mashqni o'zi ko'rsatib berishi mumkin. Masalan, u sahnaga chiqib o'tirib, leksiya daftarini o'qishi talabalarga nima xaqda ma'ruza qilishni o'ylashi va o'rganishi.

Organik xatti - xarakatni o'zlashtirish uchun mashqlar: 1 - pog'ona: Talaba, kursdoshlari va o'qituvchi oldida oddiy, xayotiy xarakatlarni bajarishi kerak. Masalan: nimanidir yaxshilab ko'rishi, tamosha qilishi, yaxshilab eshitishi, qidirishi, o'qib berishi, yodlashi mumkin. Buning uchun turgan joyini o'zgartirish, bir nimani olish, o'ziga-o'zi savol berish ham mumkin. Bunday mashqlar talabani tamoshabindan chalg'itish va ko'pchilik oldida tanho bo'la olishga o'rgatish uchun qilinadi. Buni teatr tilida tamoshabin olididagi tanxolsh deyiladi.

1. -pog'ona: O'qituvchi bergan xatti - xarakat mazmuniga talaba shart - sharoit topishi xatti-harakat qilishi (Sahnaviy improvizatsiya, ya'ni badiyxa qilishi) talab etiladi. Bunda «Bugun, shu yerda, hozir» deb ishlashi lozim.

2. pog'ona: Qaytarish. O'qituvchi bergan (mashq) vazifani talaba qaytarishi kerak. Qaytariq qilmasdan, har gal yangi jilo, yangi mazmun bilan takror qilish kerak. Faqat etyud-mashqning birlamchiligi xamda improvizatsiya xususiyati yo'qolmasligi lozim. aks holda, talaba tamonidan xatti - xarakatning haqiqiy jarayoni emas, (Masalan, biror predmetni bekitib qo'yib, talabaga qidirish vazifasi berilganda) balki, eslab qolingani mezanisga qaytariladi. Bu esa, jarayonning faqat tashqi tomonidan xalos. Buning sababi birinchidan- berilgan vazifani hayotiy talab va maqsad bilan (sahnaviy vazifani o'zi sezmagan, mohiyatini anglamagan holda) bajariladi. Ikkinchi qaytarishda buyumni qayerda yotganini talaba biladi, bunda xayotiy talab yo'q va talaba vazifaning mohiyatiga tushunmasdan, tashqi ko'rsatish bilan bajaradi. Bunday bo'lmasligi uchun birinchi qidirganda jarayon qanday elementlardan tashkil topganligini (orentirovka, qabul qilish, baxolash, diqqat, mantiq izchillik va x.k.) eslab qolmoq va o'ziniki qilib olmog'i darkor.

Sahnada xatti harakatsiz bir daqiqa ham «yashab» bo'lmaydi. Drama san'ati, aktyorlik san'ati xatti-harakatga, aktivlikka asoslangan. Drama so'zi yunoncha bo'lib, «sodir bo'layotgan harakat» ma'nosini anglatadi. Lotin tilidagi «aktio», «drama» so'zi mazmuniga monand. So'zning o'zagi esa «akt» u «aktivlik», «aktyor», «akt» shakli va mazmunida

Yevropa xalqlari tiliga, shu jumlada rus tiliga, u orqali o'zbek tiliga o'tgan. Sahnada qimirlamay xatti-harakat qilish ham mumkin. Bu tashqi, jismoniy emas, ichki psixologik (ruhiy) xarakat bo'ladi. Sahnada ham jismoniy, ham ruhiy xatti-harakat bo'lishi lozim. Talaba uchun mashq - vazifa: («Shleyf»ini so'zlab bo'lib). Stol ustida turgan 400 ming so'm edi. O'rtog'ingizni eshikkacha kuzatib uyga kirsangiz pul yo'q! Qidiring! «Agarda men» - sax_naviy xatti-harakati mazmunli, asosli, mantiqli -- izchil va x_ayotiy bo'lishi lozim. Bu uchun ushbu «Agarda» ni biz o'z tasavvurimiz bilan boyitishimiz kerak.

Hayotda - qanday yurishimizni, qanday o'tirishimizni, gaplashish, qarashimizni, eshitishimizni xullas hayotda ichki va tashqi harakat qilishimizni unutamiz. Sahnada esa xuddi yosh boladay yurish, gapirish, ko'rish, eshitishlarning barchasiga qayta o'rganamiz.

Xatti-harakat aktivlikka asoslangan. Bu aktivlik saxna xarakatida ko'rinadi. Rolning joni ham, artistning kechinmasi ham, pesa ichki dunyosi ham aynan xatti-harakatda desak mubolag'a bo'lmaydi. Biz sahnada ko'rsatayotgan odamlar haqida uning xatti-harakatlari, qilgan ishlari orqali hukm chiqaramiz va ularning kimligini bilib olamiz. Bularga aynan xatti-harakat orqali erishamiz.

To'qima sharoitda qanday xatti-harakat qshshshimiz mumkin? Sahlada har doim sehrli «agarda» ni ishlatib xatti-harakat qilish kerak. Masalan, haqiqiy dars ketayapti. Agarda shu dars x,ozir soat 13.00 da emas, kechasi 1.00 da bo'layapti. Nima uchun? Kim qanday xatti-harakat qilayapti?

Boshqa mashq. Talaba auditoriya bo'ylab yursin! Masalan, olma terishi mumkin, olma terayotganda yomg'ir yog'ib ketdi. Oqlash kerak. Ustaxonada yurgani uchun xatti-harakat texnikasi o'zlashtirilgan bois albatta unda savol tug'iladi: Qachon, qayerda va nega? Unga javob berish kerak.

Yana bir necha mashq. Masalan, eshikdan kirish, stuldan turish, o'tirish, partnyor qo'lini siqish. Hamma xatti-harakat «agarda» va yuqoridagi 3 ta savol bilan vazifalar aniqlanadi. Eshikdan sekin kiring. «Nima uchun savolini bering! Eshikdan tez kiring. «Nima uchun savolini bering! Paltoni tez yechib tashlang. Yana o'sha savolni bering Paltoni nimaga yechayotganingizni ayting oqlang.

Xatti-harakatlar mantiqi. Mashq boshida mantiq yo'q. Talabaga vazifa beriladi. Xonaga kirish, oyna oldiga borish va stol tagiga kirib, so'ng yugurib chiqib ketish. Mexanik tarzda bu mashqni bajargandan keyin, talaba uni badiiy to'qima bilan «oqlab», mashqni qaytarish kerak. Masalan, «o'qishdan uyga kelib, oynani ochgan edim, oynadan koptok uchib kirib, stol tagiga kirib ketdi. Men koptokni olib, ko'chaga yugurib chiqib ketdim».

Ruhiy va jismoniy tabiatni rivojlantirish uchun aktyor-talaba sahnaviy xatti - harakat elementlari ustida puxta ishlash kerak. YA'ni sezish, eslab qolish, obrazli ko'rish, tasavvur qilish, shart - sharoitni his etish, mantiqiy - izchil xatti-harakat qila bilish, fikrlash, obe'kt jismoniy va nutqiy ta'sir qila olish, ovoz, nutq va plastik xarakterlik, ritmni his qilish, gruppirovka, mezanssena va boshqalar, shular jumlasidan.

1 - kurs, 1 - yarim yillikda Gippiusning « Gimnastika chustv» - qo'llanmasi asosidagi mashqlar ustida ishlanadi.

Tayanch iboralar:

Xatti harakat, organik xatti – harakat, shart – sharoit, jarayon, sahnada xatti-harakat, «aktio», «drama», «akt», «agarda men», sahnaviy xatti - harakat elementlari, sezish, eslab qolish, obrazli ko'rish, tasavvur qilish, shart - sharoitni his etish, mantiqiy - izchil xatti-harakat qila bilish, fikrlash, obe'kt jismoniy va nutqiy ta'sir qila olish, ovoz, nutq va plastik xarakterlik, ritmni his qilish, gruppirovka, mezanssena.

Savol va topshiriqlar:

1. Organik xatti-harakatni qanday o'zlashtirish mumkin?
2. «Aktivlik» - nima degani?
3. To'qima sharoitidagi xatti-harakat nima?
4. Aktyor ruhiy-jismoniy tabiatining rivojlanishi

Adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston". 2011.
2. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat". 2008.
3. K.S.Stanislavskiy. "Aktyorning o'z ustida ishlashi". T.Xo'jayev tarjimas. S.Muhamedov muharrirligida. T. Yangi asr avlodi. 2010
4. G. Kristi. «Vospitaniye aktyora shkoli Stanilavskogo»
5. J.Mahmudov, X.Mahmudova. "Rejissura asoslari". T.: O'DSI bosmaxonasi. 2008.
6. M.Ismoilov. "Rejissura va aktyorlik mahorati bo'yicha o'tkaziladigan amaliy mashqlar" T.: O'z RFAAK bosmaxonasi. 2007.
7. Sh.S.Hamidova. "Estrada teatri va uning janrlari". T.: 2009.
8. Yusupova M.R. "Uprajneniya po aktyorskomu treningu". T.: O'zDSI bosmaxonasi. 2005.
9. F.Ahmedov. "Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari". T.: "Aloqachi". 2008.
10. J.Mahmudov, X.Mahmudova. "Rejissura asoslari". T.: O'DSI bosmaxonasi. 2008.
11. ZiyonET
12. <http://stanislavsky.by.ru>
13. <http://www.aktor.ru>

Mavzu: Sodda jismoniy xarakatlar. Sahnaviy tasavvur va fantaziY.

Reja:

1. San'at sohasidagi tasavvur
2. Aktyorning ijodiy tasavvuri
3. «Diqqat» uchun qilinadigan mashqlar
4. Tana holatini oqlash uchun mashqlar

San'atning har bir sohasida tasavvur ayni shu sohaning o'ziga xos tomonlaridan kelib chiqqan holda namoyon bo'ladi. Yozuvchining tasavvuri rassomnikidan yoki bastakornikidan farq qiladi. Sahnaviy tasavvurning ham boshqalaridan farqi bor.

Tasavvurga ega bo'lmagan aktyor hech qachon yaxshi aktyor bo'la olmaydi. Xo'sh, aktyor tasavvuri nima, uning boshqa san'atkorlardan qanday farki bor? Farqi shundaki rassom yoki haykaltarosh o'z tasavvurini o'zidan tashqarida yaratadi, aktyor esa bunday qilolmaydi. Aktyor o'zi yaratayotgan obrazni o'zi vujudida his qiladi va jonlantiradi. Zero yaratayotgan qahramoni hayoti haqida o'ylayotganda uchinchi shaxsda emas, birinchi shaxsda fikrlaydi. Tasavvurida paydo bo'layotgan obraz hayoti bilan qo'shib ketadi. Aktyorning tasavvurini yosh bolanikiga o'xshatish mumkin. Chunki bolalar o'yin paytida o'zlarini goho shoh, goho malika, goh esa sarkarda, uchuvchi deb tasavvur qiladilar va buni juda jiddiy qabul qiladilar.

San'at sohasidagi tasavvur, inson organizmidagi 5 ta sezgining birortasi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, rassomda - ko'rish, musiqachida eshitish, haykaltaroshda sezish organlari bilan bog'liq. Aktyorning ijodiy tasavvuri esa 5 ta sezgi organining hammasi qamrab oladi. Lekin aktyor uchun eng asosiysi bu uning o'z tanasi, gavdasi, chunki u sahnada shahsan harakat qiladi; - tushuntiradi, yupatadi, qo'rqitadi, sevgi izhor qiladi va yana qanchadan-qancha badiiy vazifalarni bajaradi. Demak, aktyor aqli-idrokini, irodasini, fantaziyasini ishga solib o'z badiiy tasavvurini mushaklarning ma'nodor harakatlari orqali ifoda qiladi. Shu uchun unga o'z «mushaklari xotirasini» (muskulnaya pamyat) o'stirish katta ahamiyatga ega.

Ishonch, tasavvur va fantaziyani tarbiyalash uchun hilinadigan mashqlar.

1. «Diqqat» uchun qilinadigan mashqlarni murakkablashtirib borish kerak. Kuzatish uchun tanlangan obektni talaba o'zi uchun «zarur» deb belgilashi lozim. Bundan u o'z-o'ziga «nimaga?» «nima uchun?» shu obektni kuzatayapman, u yoki bu ovozlarni tinglayapman va hakoza savollarni berishi, tasavvuri va fantaziyasidan kelib chiqqan holda ushbu savollarga javob topishi kerak: Tasavvur diqqatni yanayam aktivlashtiradi, unga emotsional hissiy tus beradi. Shundan so'ng talaba qay yo'sinda, qanday qilib ushbu obektni o'zi uchun zarur deb tasavvur qilganini gapirib beradi. Dars yakunida mashqni eng yaxshi va eng yomon bajargan talabaning hikoyalar taqqoslab tahlil etiladi. Bunda pedagog ishonch va diqqat o'rtasidagi bog'liqlikni yorqin misollarda isbotlab berishi mumkin. Shunda talabalar o'z tasavvurlari qanchalik boy bo'lsa, diqqatlari shunchalik chuqur va faol bo'limini, hamda fantaziyalari shunchalik kengayib borishini ilg'ab oladilar.

2. Tana holatini oqlash uchun mashqlar:

Bundan tashqari pedagog bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan turli xatti-harakatlarni taklif qilib ketma-ketligini o'zgartirmagan holda ularni oqlashni so'rashi mumkin. Bunday mashqlar talabalarning tasavvurini yangi-yangi oqlashlar topish uchun zo'r berib ishlashini

ta'minlaydi. Bir-biriga bogliq bo'lmagan hatti-harakatlarni berilgan shart-sharoitdan kelib chiqib oqlash.

Bundan hatti-harakat aynan personajning harakter-xususiyatidan kelib chiqib tanlanishi kerak.

Bu mashqlar aktyorni o'z hatti-harakatlarining shemasini pesada berilgan shart-sharoitdan va qahramonning harakteridan kelib chiqib oqlashga o'rgatadi. Bu malaka talabaga kelajakda yaratadigan rollari ustida izlanishlarida katta yordam beradi.

3. Suratga qarab, shu suratdagi odamlarni har birini alohida, fe'l-atvori, kasbi, boshqa odamlar bilan munosabatini aniqlash mashqlarini buyuring. Bunday mashqlar talaba-aktyorda tasavvurdan tashqari kuzatuvchanlikni, xotirani, ziyraklikni ham rivojlantiradi.

Tayanch iboralar:

Tasavvur, sahnaviy tasavvur, aktyor tasavvuri, aktyor, fantaziya, aqli-idrok, rassom, ishonch va diqqat, hatti-harakat, munosabat.

Savol va topshiriqlar:

1. Sahnaviy tasavvur nima?
2. Aktyor tasavvurida sezgi organlarining ahamiyatini ta'riflang.
3. Tasavvur va fantaziya uchun mashqlar o'ylab toping

Adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston". 2011.
2. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat". 2008.
- K.S.Stanislavskiy. "Aktyorning o'z ustida ishlashi". T.Xo'jayev tarjimasi. S.Muhamedov muharrirligida. T. Yangi asr avlodi. 2010
3. S.Tursunboyev. "Jahon teatri tarixi". T.: "Fan va texnologiya". 2008.
4. B.YE.Zaxava «Masterstvo aktyora i rejissyora» 88-111 betlar.
5. N.Maxmudovaning shu mavzuga bag'ishlangan ilmiy seminarlardagi ma'ruzasi (kafedra fondida).
6. J.Mahmudov, X.Mahmudova. "Rejissura asoslari". T.: O'DSI bosmaxonasi. 2008.
7. ZiyonET
8. <http://stanislavsky.by.ru>
9. <http://www.aktor.ru>
10. <http://www.meyerhold.ru>
11. <http://www.mxat.ru>

Mavzu: Aktyorlik kuzatuvlari

Reja:

1. Qabul (idrok) qilish va kuzatuvchanlik uchun mashqlar

2. Kuzatish va insondagi organik jarayonni mantiqan tahlil qilish
3. Eshitish apparatlarini ishga solish uchun mashqlar
4. Qabul idrok qilish va kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun mashqlar

Mashq: Xonadagi yaqin va uzoq obektni aytib berish. Bir xil rangdagi xonaning buyumlarini aytib berish. O'rtog'i bajargan pozalarni qaytarish. Stol ustidagi predmetlarning joylashishini eslab qolib, o'zgartirilgandan keyin joy-joyiga qo'yish va aytish. Bir-birining ko'zi, sochi rangini so'zlab berish.

Mashq: Eshitish apparatlarini ishga solish. Xona, ko'cha, koridorni eshitish.

Mashq: Sezish. Biror materialni ko'zni berkitib ushlab ko'rish, formasini aniqlash, razmerini sezish yoki xona temperaturasini, o'rtog'ining kiyimini sezish va x.k.z.

Ta'm bilish organlari uchun mashq.

Xullas talaba bu mashqlarni bajarganda o'ziga-o'zi nima uchun bu mashqlarni qilyapman? Nima uchun xonani tanimayapman? Eshityapman? Sezyapman? Kabi savollarni berishi va o'zi unga javob topishi lozim. Misol uchun men tez yordam mashinasini kutypapman, o'rtog'im o'lim to'shagida vax.k.z.Ko'chada yurgan odamlarni kuzatish zarur. Necha yoshda, kasbi, ichki xrlati va boshqa savollarga javob topmoq lozim. Kuzatish va insondagi organik jarayonni mantiqan taxlil qilish aktyor uchun juda zarurdir.

Qabul idrok qilish va kuzatuvchashshkni rivojlantirish uchun, Gippius qo'llanmasidagi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq

Tayanch iboralar:

Obekt, eshitish apparatlari, sezish, kutypapman, qabul idrok qilish va kuzatuvchanlikni rivojlantirish

Savol va topshiriqlar:

1. Kuzatuv mashqlariga nimalar kiradi?
2. Aktyor kuzatuv mashqlarini ta'riflang.
3. Kuzatuv uchun mashqlar o'ylab toping

Adabiyotlar ro'yxati:

1. K.S.Stanislavskiy. "Aktyorning o'z ustida ishlashi". T.Xo'jayev tarjimasi. S.Muhamedov muharrirligida. T. Yangi asr avlodi. 2010
2. B.YE.Zaxava «Masterstvo aktyora i rejissyora» 88-111 betlar.
3. J.Mahmudov, X.Mahmudova. "Rejissura asoslari". T.: O'DSI bosmaxonasi. 2008.
4. **B.Sayfullaev, J.Mamatqosimov. "Aktyorlik mahorati". T.: "Fan va texnologiya". 2012.**
5. J.Mahmudov. "Aktyorlik mahorati". Toshkent: Bilim, 2005.

Mavzu: Buyumlarni jonlantirish

Reja:

1. Buyumsiz jismoniy xatti - harakat mashqlari

2. Xatti - harakatlarning bo'laklari
3. Mantiq izchillik
4. Diqqatni yig'ish
5. Shart - sharoit
6. Mashqdan etyudga o'tish
7. Tasavvurdagi buyumlar bilan xatti - harakat qilish turlari

“Haqiqiy aktyor dastavval rolni uzviy ravishda qanday ijod qilish zarurligini o'rganmog'i kerak. U ichki va tashqi texnikani muttasil takomillashtirishi, shuningdek, omilkorlikni talab etmagan san'atning yo'qligini hamda bu omilkorning mukammalligi uchun qat'iy o'lchovning mavjud emasligini bilmog'i lozim”, - deb ta'kidlaydi K.S.Stanislavskiy. Buyumga jon kiritish, oddiy tilda aytadigan bo'lsa odamiylashtirish, ya'ni odam sifatida harakatga keltirishdir.

Aktyorlik va rejissyorlik kasbi o'ziga xos hayotiy kuzatuvni talab etadi. Shuningdek talabalarga ham bu vazifalar berilib, hayotdagi har bir xolat va voqealarga nisbatan kuzatuvchan bo'lish talab etiladi. Bu kasb tanganing ikkinchi tomonini ko'rishni, jonsizlarga jon ato etishni taqozo etadi. Bu kasbda har bir predmet jonlanishi, o'zaro suhbat qurishi hattoki janjallashishi ham mumkin.

Hayotda choynak va piyolalarning birga raqs tushganini ko'rganmisiz?

Sahnada talabalar xuddi choynak va piyolaning dasturxonda turishini eslatuvchi xolatda turishadi. Ular ichida boshqalarga nisbatan gavdasi kattarog'i choynak vazifasini bajaradi. Uning bir qo'li belida, ikkinchi qo'li esa, xuddi choynakning jumragidek tepaga bosh balandligi bo'yicha ko'tarilgan. Qo'lning kaft qismi qayrilgan. Talaba tik oyoqlarda emas, balki tizzada turibdi. Uning atrofida to'liq xolatda o'tirgan 3-4 to'rtta piyolani jonlantiruvchi talabalar. Qo'llar ikki yonga yoyilgan. Musiqa berilib, predmetlar musiqaga mos harakat qilishadi. Ular ko'z orqali yoki mimika, imo-ishora orqali bir-biri bilan muloqotda bo'lishadi. Choynak atrofida raqs tushishi, choynak ularga choy quyishi yoki kichik bir voqeani vujudga keltirish uchun piyolalar o'rtasida janjal chiqishi, ular janjaliga choynak aralashish mumkin.

Bunday mashqlar, talabalarning tasavvurini, aktyorlik mahoratini oshiradi. Sahnada partnyor bilan ishlashga asos bo'ladi. Aktyor ijodida ko'pchilik xolatlar uning mimikalari, imo-isholari orqali ochib beriladi. Ayniqsa treningni mustahkamlovchi, buyumlarni jonlantirish, buyumlarsiz harakat va etyudlarda mimikalar asosiy muloqot o'lchovi sanaladi. Chunki bu mashqlarda partnyorlar o'zaro suhbat qurishmaydi. Qisqa bir vaqtda tomoshabin hukmini qozonishga harakat qiladi.

“Sahnada artistning ko'zlari, nigohi, qarashi uning yuksak ijodiy qalbining ulkan, chuqur ichki mazmunini ifoda qilishi lozim. Buning uchun uning qalbida insonning ruhiy hayotga monand bo'lgan ichki mazmun to'plangan bo'lmog'i lozim: ijrochi sahnadaligida ko'nglining shu mazmuni orqali pesadagi o'z partnyorlari bilan munosabatda bo'lishi kerak”, - deydi K.S.Stanislavskiy.

Mimika - yuz mushaklarining turli xisli holatlarni va kayfiyatni aks ettiradigan ifodali harakatlardir.

Yuzdagi xolatlar, imo-ishoralar o'ynalayotgan obrazning xarakterini bildiradi. Masalan, talaba qosh-ko'zlarini chimirib, yuzlarini qizargan xolatda bayon etsa, yomon xarakter, aksincha, yuzlarida tabassum, ko'zlarida sho'xlik alomatlari obrazning yaxshi xarakter ekanligi bildiradi.

Buyumlarni jonlantirishda bir buyum orqali buyumning turli xil kayfiyatini ko'rsatishi mumkin. Kundalik hayotimizda doimo ishlatiladigan samavarni talabalar quyidagicha jonlantirgan: Talaba stul ustiga tizasi bilan o'tirgan, qo'llari ikki yonida. Samavarga bir kishi kelib muzdek suv qo'yganini, unga olov yoqqanini, samavar o'z vazifasini xursand bo'lib bajarishini, ijerochining yuz mushaklari, mimikalari orqali bilish mumkin. Masalan, uning yoniga inson kelganini, u qilayotgan harakatlarni ko'zlari orqali bildirib turadi. Muzdek suv quyganini esa, xuddi inson tanasiga muzdek suv quyib yuborganda birdaniga seskanib ketishi, to'satdan ovoz chiqarib yuborishi kabi xatti-harakatlar orqali ko'rsatib bergan. Shundan so'ng samavardagi suvning qaynash jarayonini, talaba suv qaynab, bug' chiqish vaqtidagi singari ovoz va mimikada ko'rsatib bergan. Samavarning ko'p qaynashi oqibatida uning erib ketishini ya'ni sekin-asta stuldan yiqilishi voqeani jonlantirgan va ta'sirchanligini oshirgan.

Buyumlarni jonlantirish bo'yicha dars jarayonida o'qituvchi tomonidan ma'lum bir buyumlarni jonlantirish vazifa sifatida berilishi mumkin. Lekin, amaliyotda isbotlanganidek talabaning o'zi mustaqil ravishda hohlagan buyumini jonlantirish, vazifani a'lo darajada bajarishga, talabaning fantaziyasini boyitishga olib kelgan. O'qituvchi tomonidan berilgan vazifalar ba'zi-bir fantaziyasi sust bo'lgan talabalar uchun asos bo'lib, o'zlari mustaqil vazifalar tayyorlashga zamin yaratgan.

Aktyorlik va rejissyorlik kasbi uchun tahsil olayotgan talabalar o'z ustida mustaqil ishlashi, asosiy jarayon bo'lib, talabani mustaqil fikrlashga olib keladi. Mustaqil fikrlash esa aktyorlik va rejissyorlik mahoratining asosiy elementlaridandir. Talaba hoh uyda, hoh ko'chada yoki bozorda bo'lsin har atrofdagilarga nisbatan bee'tibor bo'lmasligi kerak. Yonidagi odamning nafaqat o'zini balki, uning soyasini ham ko'rmog'i, uning fikrini o'qimog'i kerak. Shundagina jonsiz buyumga jon berishi, uning turmushdagi vazifasidan kelib chiqib sahnaviy hayot berishi mumkin.

Aktyorlik mahoratida "buyumlarni jonlantirish" degan ibora bo'lib, bu aktyor texnikasini kuchaytiradigan va tasavvurini boyitadigan omildir. Buyumlarni jonlantirish – bu biror bir Buyumsiz harakatlar fikrni bir joyga yig'ishni, tasavvurni, o'tkir kuzatuvchanlikni, avval his qilgan narsalarni eslab qolish qobiliyatini, mantiq va ketma-ketlikni talab qiladi.

Tasavvurdagi buyumlarga asoslangan mashqlar, aktyorlik mashqiga kirgan holda ham, ular ko'pincha yuzaki, ijod bilan chuqur bog'liqlikni tushunmagan holda bajariladi.

Mashqlarga bunday yondoshganlar aktyor tabiatni qo'zg'ata olmaydi va xech qanday natijaga erisha olmaydilar. Shu bois, ularga bajarayotgan xatti-

harakatlarini haqiqatdan his qilishga da'vat qilmoq lozim. Aks holda talabalar yolg'on aktyorlik o'yiniga ishonib, foyda o'rniga zarar oladilar.

Nega jismoniy xatti - harakatlarning mantiq va ketma-ketligini real buyumlarga asoslangan mashqlarda o'rganib bo'lmaydi? Tasavvurdagi buyumlarga murojaat etishning nima keragi bor? Buyumsiz xatti-harakatlarga asoslangan mashqlar, hayotda tez-tez qaytarilishi tufayli, mexanik tarzda bajariluvchi oddiy jismoniy harakatlarning mantiqi va ketma-ketligini chuqur anglab tiklab olishga yordam beradi.

Real buyumlar bilan bog'liq xatti-harakatlar ihtiyorsiz, hayotiy tajribaga asoslangan mexanik tarzda bajariladi, talaba bu jarayonni kuzatishga ulgurmaydi. Ularni ilg'ab olish qiyin. Agar bunga yo'l qo'yilsa, jismoniy harakatlarning mantiq va ketma-ketligini buzuvchi muvaffaqiyatsizliklar yuzaga keladi. O'z navbatida buzilgan mantik haqiqatni barbod qiladi, x_aqiqatsiz esa, aktyorda ham tomoshabinda x_am ishonch va his tuyg'u bo'lmaydi.

«Buyumsiz xatti - harakatda»da o'zgacha shart-sharoitlar yuzaga keladi. Bunda katta bir xatti - harakatning, har bir eng kichik bo'laklariga e'tibor berish imkoni paydo bo'ladi. Bu narsasiz hamma yordamchi bo'laklarni talaba eslay olmaydi va bajara olmaydi.

Real buyumlar bilan hayotiy xatti - h_arakatni bajarishdan keyin, tasavvurdagi, buyumsiz xatti - harakatga o'tish maqsadga muvofiqdir. Masalan, o'qituvchi qorong'ida yo'qolgan buyumni topish uchun gugurt yoqib qidirishni buyuradi. Uning uchun hayotda minimal diqqat bilan bajariluvchi xatti - harakatlarni talaba sinab ko'rganidan keyin, endi unga gugurtsiz yoki qutisiz birin-ketin shu jarayonni qaytarish buyuriladi.

Barmoqlarning odatiy harakatlarini aniq, tiklab olishi uchun, avvaliga yetarli darajada diqqatni to'plashga to'g'ri keladi. Bu uchun esa, yana bir bor , real gugurtlar bilan, mashqni qaytarib olishni takozo etadi. Bu murakkab xatti - harakat jarayonni bajarish va eslab qolish uchun, avval uni mayda tarkibiy qismlarga bo'lish lozim.

Tasavvurdagi buyumsiz xatti - harakatni real xatti - harakat bilan solishtirib, tekshirish va taqqoslash mumkin.

Xatti-harakatni o'rganishda, uni yanada tipiklashtirib va oydinlashtiradigan, kichik to'qnashuvlari mavjud mashqlar ko'proq foydalidir. Zero, hayotda gugurt qutisi hech qanday qiyinchiliksiz ochilishi, gugurt donasini tez yeqish mumkin. Ammo mana shu jarayonni sahnada ko'rsatish uchun to'qnashuvlar kerak. Masalan, gugurt donasi sinib ketdi; yoqayotgan paytda shamol esdi va h.k. Shunga o'xshash qaramaqarshiliklar diqqatni aynan maqsadga muvofiq to'planishiga yordam beradi.

Talaba mashqqa kirishayotib, o'zini birdaniga berilgan shart-sharoitlar bilan o'rab olishi shart emas. Xatti - harakatga muhtojlik paydo bo'lganida, ular o'z-o'zidan zarurat darajasiga qarab bajarilaveradi. Vaqti kelib , shunga o'xshash mashq butun bir etyudga aylanishi mumkin . Masalan gugurt yoqish mashqi, dushman shtabini yondirib tashlash etyudiga aylanishi mumkin. Lekin, mashq boshlanganda talabaning oldiga

bunday murakkab vazifani qo'ysak, uning diqqati bajarayotgan harakatining aniqligiga va uni h_{ayot} haqiqati darajasiga yetkazishga emas, balki, (etyud «ko'rsatish») qahramonqiyofasini yaratish va dramatik vaziyatni ifodalashga qaratiladi.

Demak avval harakatning texnikasini, ya'ni aniq bajarish uslubiylatini o'zlashtirish kerak. Barcha diqqatni shunga jalb qilgan holda, xatti - harakatning har bir tarkibiy qismini mukammal o'rganish lozim. «Kichkina haqiqatni yarata bilishning o'zi ijod... Kimki kichik jismoniy harakatlarni yaxshi bajarayotgan bo'lsa, u sistemaning yarmisini bilgan bo'ladi».

Talaba, mashq shart-sharoitlaridan kelib chiqqan xatti - harakatni ko'rsatib bermog'i to'g'ri emas, balki, ushbu mashq jarayonida o'zi uchun sahna sirlarini ixtiro etmog'i kerak. Jismoniy xatti - harakatlarning haqiqatini, mantiq va izchilligini qidirayotganda, shuni esda tutish lozimki, yolg'on -- mantiqsizlik, odatda ortiqcha harakatlarda yaqqol ko'rinadi. Buyumsiz xatti - harakatlar mashqini egallab bo'lganidan keyin, tasavvurdagi buyumlarni real buyumlar bilan navbatma - navbat kombinatsiya tarzida almashtirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, haqiqiy qoshiqcha bilan tasavvurdagi shakar (stakanga) solib aralashtirishi, stakandan tasavvurdagi choyni ichish mumkin. Shuni tushunib olgach, mashqdan stakan va qoshiqchani olib tashlash mumkin.

Talaba buyumsiz xatti - harakatni bo'laklarga ajratib, o'rganib bo'lganidan keyin, uni yaxlit va mukammal bajarishga harakat qiladi.

Buyumsiz harakatlar ustidagi ishning keyingi bosqichi quyidagilardan iborat. Bunda nima uchun va nega men bu harakatlarni bajarayapman? -- degan savollarga javob topish orqali talaba shart sharoitlarga olib kiriladi va sahnaviy harakatlarga aniqlik kiritiladi.

Ular tajribada sinalgan, hayotda ko'rilgan, yoki kitoblardan o'qilgan fikrlar jarayoni bo'yicha mantiqli va izchil bo'lishi lozim.

Agar tashnalik qiynasa, ma'ruza paytida tomoq qurib qolsa, yoki dori ichish kerak bo'lsa, suvni ichish zarurati paydo bo'ladi. Sharoitga qarab suv, doriga, vinoga, qaynoq choyga, yoki zaharga aylanishi mumkin.

Buyumsiz harakatlarga asoslangan etyudlar bora-bora mukammalashib badiiy yakunlangan butun bir tomoshaga aylanishi mumkin. Masalan, Stanislavskiy o'zining opera-dramatik studiyasida «Motsart va Saleri» deb shartli nomni olgan etyud, buyumsiz harakatlarga asoslangan rasm chizish mashqidan tug'ilgan. Bo'yoqlar, kanop, bo'yoq taxtasi, mo'yqalam bilan muomala qilish texnikasi yetarli darajada ishlanib chiqilgandan so'ng, mashqni bajaruvchi ikkita odam orasida o'zaro aniq munosabatlar o'rnatilgan. Natijada Stanislavskiy studiyachilarni etyudni yanada rivojlantirishga jalb qilgan. Ulardan biri o'qituvchi, boshqasi o'quvchi bo'lgan. O'quvchining rasmi o'zining rasmidan iste'dod bo'yicha o'zib ketganligini ustoz aniqlaydi. Hasad tuyg'usi uyg'onadi. O'qituvchi o'quvchisiga rasmini yo'qotib yuborishni hoinona maslahat (provakatsiya) qiladi. So'ngra sodir bo'lgan jinoyat uchun pushaymonlik yuzaga keladi. Etyud dramatik mazmundagi butun bir aktli pesaga aylangan.

Tasavvurdagi buyumlar bilan mashqlar qilish va ularni etyud darajasiga yetkazish quyidagi bosqichlardan o'tadi:

1. Buyumsiz xatti-harakatning mantiqlilik va izchillik texnikasini egallash. Masalan xat yozish, ya'ni qog'oz, ruchka, siyohdon bilan muomala qilish. Xatti - harakatning h_ar bir kichkina tarkibiy qismining mantiqi va ketma-ketligini va harakatning barcha jarayonini yaxlitligicha sinchiklab o'rganish va qayta - qayta takrorlash.
2. Tasavvurdagi buyumlar bilan muomala qilish texnikasini mukammal ya'ni san'at darajasiga yetkazish.
3. Savollar berish orqali shart sharoitlarni aniqlash. Masalan, kimga va nega xat yozyapman.
4. Agar sevgi xati yozilsa, asosiy obekt qog'oz, xat, siyohdon emas, balki xat yozilayotgan odam bo'ladi. Bunda endi tasavvurdagi sherik bilan tilsiz suhbat, harakat mantiqining asosini tashkil etadi va o'zlashtirilgan xat yozishning texnikasi, (ya'ni mantiq va izchillik) borgan sari ikkinchi planga o'tadi.
5. Xat yozish texnikasi mashqi davomida shart-sharoitlar mantiqiga asoslanib, u yangi xat qayerda va qachon yozilayapti kabi tafsilotlar bilan boyitiladi. Agar xat yozish 19-asrda sodir bo'layotgan bo'lsa, unda g'oz pati bilan yozish texnikasi o'zlashtiriladi.
6. Shart sharoitlarni aniqlashtirish va keskinlashtirish natijasida, sevgi xatini yozish etyudga aylanishi mumkin.
7. Agar berilgan shart sharoitlarni o'zlashtirish qiyin bo'lsa,, buyumsiz xarakatga asoslangan mashqlarni, tempo -ritmini aniushb va unga emotsional bo'yoq beruvchi, talaba tassavvurini qo'zg'atib, uni yangi o'y - fikrlarga yo'llovchi musiqa ostida bajarish tavsiya qilinadi.

Tasavvurdagi buyumlar bilan xatti - harakatlanishga asoslangan mashqlar o'z xususiyatlariga ko'ra ikki turga bo'linishi mumkin.

Birinchisiga, butun badan kuchini yoki uning ayrim mushaklari kuchini talab qiluvchi xarakatlar mansub. Bu og'irlikni hisqilish, gavdaning egilishi, qo'l-oyoqlarning harakatlari, butun badanning bo'shliqdagi harakatlanishi bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman jismoniy ishlar. Masalan, xona tozalash, pol yuvish, kir yuvish, pechka yoqish, turli xil og'irlik va shakldagi buyumlar bilan xatti-harakat qilish, yer chopish, daraxt ekish, teatr pardasining ochilishi va h. k. z. kiradi.

Ikkinchisida jismoniy harakatlarda haqiqatni xis qilish, turli hajmdagi va shakldagi buyumlar bilan muomala qilishning to'g'ri usullarini o'rgatadigan, sahnabop xatti -- harakatlar topish maqsadga muvofiqdir. Bunday mashqlarga masalan yuvinish, ovqatlanish, ichish, kiyinish va yechinish, tikish, dazmollash, o'qish, yozish, chizish kabilar, shuningdek, qulflar-kalitlar, pullar, turli o'yinlar, archa bezatish, musiqa asboblari chalish kabilar bilan bog'liq xatti -- harakatlar kirishi mumkin. Buyumsiz xatti - harakatlarni egallash texnikasi, oddiy psixo • jismoniy harakatlarning tabiatini o'rganishga, mantiqi va ketma-ketligini tiklashga yordam beradi. Aktyor texnikasini rivojlantirishga qaratilgan ushbu mashqlar, kelajakdagi rollar ustida ishlash uslubiyotini egallashda, dasturul amal hisoblanadi. Ular elementarpsixofizik harakatlardan murakkab psixologik

mazmun bilan to'yingan xatti - harakatlarga o'tishning muayyan professional ko'nikmalarini tarbiyalash vosita vazifasini bajaradi. Shuningdek, ular aktyorning, jismoniy va ruhiy tabiatiga hos barcha elementlarining normal ishlashini, doimo saxnabop holatda bo'lishini ta'minlaydi va mustaxkamlaydi. Bu mashqlar ifoda vositalarining aniq bajarishi orqali aktyor fikrining sahnaviy ma'nodorligini yorqinlashtiradi. Zero, mashqlar aktyor-ijodkordan aniqlik, kuzatuvchanlik, kuchli diqqat, mushaklarini mohirona ishlatish ko'nikmasini yuzaga keltiradi. Adabiyotlar:

Tayanch iboralar:

Xatti-harakat, faollik, buyumlarni jonlantirish, xatti-harakat, tasavvur, tasavvurdagi buyum, "Agarda", "Berilgan shart-sharoitda", rejissyor, rejissura, sahna, aktyor mahorat, aktyorlik mahorati.

Savol va topshiriqlar:

1. Buyumsiz jismoniy xatti - harakat mashqlari haqida tushuncha bering
2. Xatti - harakatlarning bo'laklari nima?
3. Mantiq izchillik haqida so'zlab bering.
4. Tasavvurdagi buyumlar bilan xatti - harakat qilish turlari haqida gapiring.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston". 2011.
2. **I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat". 2008.**
3. K.S.Stanislavskiy. "Aktyorning o'z ustida ishlashi". T.Xo'jayev tarjimai. S.Muhamedov muharrirligida. T. Yangi asr avlodi. 2010
4. **F.Ahmedov. "Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari". T.: "Aloqachi". 2008.**
5. T.Tursunov. "O'zbek teatri tarixi". T.: 2008.
6. B.Zaxava «Masterstvo aktyora i rejissyora» «Prosvexseniye» M. 1978g.
7. G. Kristi. «Vospitaniye aktyora shkol: Stanilavskogo» Izd. 2 - ye. M., Iskusstvo 1978g.
8. S.Tursunboyev. "Jahon teatri tarixi". T.: "Fan va texnologiya". 2008.
9. J.Mahmudov, X.Mahmudova. "Rejissura asoslari". T.: O'DSI bosmaxonasi. 2008.
10. ZiyonET
<http://stanislavsky.by.ru>

Mavzu: Psixofizik xususiyatlar mashqi

Reja:

1. Aktyor idrok organlarini rivojlantirish
2. Sezish va his qilish mashqlari
3. Sezgiga asoslangan xotira
4. Emotsional xotiraga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish

Aktyor idrok organlarining rivojlanishi haqida, ya'ni uni ko'ra olish, eshita olish, his qilish, va atrofni kuzatish qobiliyatlari haqida hozirgacha gapirib kelingan. Ammo aktyorga, hayotni borlig'i bilan to'la qabul qilish va kuzatishi muxim emas. His qilganlarini va samarali kuzatuvlarini o'z hissiy xotirasida saqlay bilishi muhim. Sezgiga asoslangan xotira bu hayotiy obrazlarini fikran qaytadan ishlab, jonlantirish qobiliyatidir. Bu haqda Gogol «rassomga yo'q narsalarni, xuddi ular ko'z oldimizda turgandek qilib tasvirlash xosdir» degan. Bu ijodiy layoqat ma'nosini bundan lo'ndaroq baholash qiyin. Zero, o'z tasavvurimizda hayotiy obrazlarni qaytadan ishlab chiqayotib, ularning idroklari bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlarini ham o'zimizda bir vaqtning o'zida eslab namoyon qilamiz. Boshqa so'z bilan aytganda, sezgiga asoslangan xotira orqali biz avval his qilingan tuyg'ular xotirasi • emotsional xotiraga ham ta'sir o'tkazamiz.

Emotsional xotiraga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish, qoniqarsiz natijaga olib keladi. Bu haqda Stanislavskiy - «Ong xaltasiga jazosiz kirib olish va uni kovlash mumkin emas» deb o'rgatgan. Zero, emotsiyalarni oddiy xoxish kuchi bilan chaqirish mumkin emas. O'z organizmini bunday majburlash, aktyorni ruxiy siqqlikka olib keladi. Ko'pincha aktyor dramatik voqea haqida gapirayotib, unga mos xissiyotlarni ko'z xotirasi, eshitish, mushak va boshqa xotiralar yordamida butun tavsilotlari bilan qayta tiklaydi. Natijada aktyor tomoshabin ko'z o'ngida yangi kuch bilan avval his qilgan tashvish, alam, qurquv, qaig'urish holatlarini uzida tiriltiradi.

Yozuvchi, rassom, bastakor va aktyorlar sahnabop harakatlar, rasmlar, musiqa va kitoblar yordamida tasavvurimizga ta'sir qilib, o'ylab topilgan asar qaxramonlari taqdiri ustida bizlarni yig'lashga, kulishga, tashvish chekishga majbur qiladilar. Sezgiga asoslangan xotira va u bilan bog'liq bo'lgan hissiy xotiralar, rassom uchun alohida ma'no kasb etadi, ular ijodini ozuqlantiruvchi xom ashyo sanaladi.

.Aniq ko'rish va eshitish, taassurotlarni yorqin qabul qilish va xotiralarida mustahkam saqlash qobshshyatlaridan mahrum insonlar, o'zlarini aktyorlik kasbiga baxshida qilishdan ham mahrum sanaladilar. Bu haqda A. Ostrovskiy, «Tabiatdan aniq eshitish, kurish tuygularini olgan, shu bilan birga hissiy ta'sirga tez beriluvchan kimsalarni biz aktyorlikka mos insonlar deb hisoblashimiz mumkin. Shunday qobiliyatlarga ega insonlarda, har bir ruhiy holatning, harakatning barcha tashqi ifodalari, juda yoshligidan boshlab qalbida muhrlanib qoladi va xotira orqali zarur vaqtda chaqirilishi mumkin. His qilgan tuyg'ularini xotirada saqlay olish qobiliyatini tarbiyalab mukammallashtirish va rivojlantirish mumkin.

Teatr san'ati pedagogikasida mana shu maqsad uchun, alohida usul va mashqlar ishlab chiqilgan. Mana shu mashqlarning eng sodda shakli - xotirada ko'rish, eshitish orqali haqqoniy-hayotiy obrazlarning tiklanishidir. Talabalarga tanish xonadonning uy jihozlarini, dengizdan, tog'lardan, gigant qurilishlardan olgan birinchi taassurotlarini, mashhur rassomning rasmini, arxitektura yodgorligini, sinfdoshlarning tashqi ko'rinishini esga olish taklif qilinadi.

Eshitish qobiliyatining xotirasiga asoslangan bir necha mashqlarni tavsiya qilish mumkin. Masalan, shamol va yomg'irning shovqinini, momaqaldiroqning gumburlashini, to'rgayning sayrashini, tanish ovozning tembrini, mashhur qo'shiqning musiqasini eslash. Shuningdek binafshaning, atir gulning, yangi pichanning hidini, xantalning, limonning, vinoning ta'mini, issiq va sovuq suvni, tish og'rig'ini, yozgi jazirama kunni his qilish tuyg'usini esga olish. Dengiz bilan bog'liq xotirasi ko'plab tuyg'ular xotirasini o'z ichiga oladi. Bular, bir tomondan ikkinchi tomonga qarab harakatlanayotgan vahimali

to'lqinlarning ko'rinishi yoki uning qirgoqqa kelib urilishidagi shovqin, dengiz suvining sho'r ta'mi, o'ziga xos hidi, uning harorati va boshqalar.

Shular jumlasidan mashqlarda avval his qilgan tuyg'ularni aniq esga olishga erishish muhimdir.

Bunday hodisalar bilan bog'liq mashqlarning natijalarini, tekshirish qiyin. Ammo, tekshirish mumkin bo'lgan mashqlar ham ancha. Masalan, xotira bo'yicha buyumning shaklini, kostyumning fasonini, arxitektura inshootining ko'rinishi, ko'rilgan spektaklning plani ro'yxatini tasvirlashni tavsiya qilish mumkin.

Haykaltaroshlik asarini o'z gavdasi bilan taqlid qilib ko'rsatish, darsda qatnashuvchi bolalar yordamida mashhur rassomlarning rasmlaridan mizanssenalar tizimi hissiy tuyg'ularni tarbiyalashga yordam beradi.

Sezgiga asoslangan xotiraning rivojlantirishdagi keyingi bosqichida nafaqat u yoki bu hodisani, obrazni xotirada tiklash va esga olishdan iborat, endi uni so'zlar bilan tasvirlay olishi, o'zining xayoliy obrazlarini eshituvchilarga yuqtira olishi ham muhim. Bu endi so'zli harakatga tegishli mashq. U haqda muallif matni ustida olib boriladigan ish haqidagi ikkinchi kurs dasturida aniq va ravshan gapiradi. Biroq birinchi kurs boshlanishida ham so'zli harakat muammosi paydo bo'ladi, chunki mashqlar va etyudlar jarayonida, talabalar so'z bilan murojaat qilishlariga to'g'ri keladi. Bunda ular muallif matni bilan emas, o'z so'zlari bilan ish olib boradilar. Lekin bu ikki jarayon o'rtasida jiddiy farq yo'q.

Tayanch iboralar:

Aktyor idrok organlari, sezgi, ko'ra olish, eshita olish, his qilish, va atrofni kuzatish, xotira, hissiy xotira, jonlantirish, fikran qaytadan ishlash, emotsional xotiraga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish, ong, qaig'urish, aniq ko'rish va eshitish, taassurotlarni yorqin qabul qilish.

Savol va topshiriqlar:

1. Sezish va his qilish xotiralarini nechta?
2. Sezish va his qilish xotiralarining har bir turiga ta'rif bering.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston". 2011.
2. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat". 2008.

3. K.S.Stanislavskiy. "Aktyorning o'z ustida ishlashi". T.Xo'jayev tarjimasi. S.Muhamedov muharrirligida. T. Yangi asr avlodi. 2010\
4. G. Kristi. «Vospitaniye aktyora shkolx Stanilavskogo» Izd. 2 - ye. M. , Iskustvo 1978
5. J.Mahmudov, "Aktyorlik mahorati". T.: O'DSI bosmaxonasi. 2008.
6. <http://www.uzbekteatr.skm.uz>
7. <http://stanislavsky.by.ru>

Mavzu: Ritmik mashqlari

Reja:

1. Temp ijro harakatining tezligi
2. Temp va ritm harakatining o'zgarishiga mashqlar
3. Temp va ritmni musiqa bilan o'zaro bog'liqligi

Temp ijro harakatining tezligi. Masalan ichki holatimizga qarab, sekin, tez, o'rta harakat qilishimiz mumkin.

Ritm faqatgina tezlik emas. Buning ichiga aktyorning faol sahnaviy xatti - harakati, ichki kechinmasi, emotsional yashashi kiradi va ularning bari sahnaviy voqea bilan bog'liq bo'ladi.

Biror odamni ritmik harakat qilayapti, ritmga mos ish qilayapti, to'g'ri ritmda nafas olayapti deb gapiramiz. Bunda nima nazarda tutiladi? Bunda insonning bir xil, silliq, siqqliksiz, osoyishta to'xtamlar bilan xatti - harakat qilish nazarda tutiladi. Buning aksi -biror kasal odamning yurak urishi, cho'loq odamning yurishi, duduq odamning nutqi, ritmsiz yomon tashkil etilgan ishlarni ham (sahnaviy voqelikka aloqador bo'lsa) shuning ichiga qo'shamiz.

Aslida temp va ritm atamasi musiqa leksikoniga tegishli. Temp va ritm bir biri bilan uzviy bog'liq. Aktiv ritm xatti harakat jarayonini tezlashtiradi, yoki aksincha, sustlashgan ritm o'zining ortidan sekinlashgan xatti - harakatni olib keladi. Yana boshqa variant - shaxmat o'yinida juda sekin temp bo'lishi mumkin, ammo ijrochilarning ichki ritmi juda aktiv bo'ladi.

Temp, xatti-harakatining tashqi tamonini tezligini bildiradi. Ritm, aktyor rolining ichki xolatidir.

Temp va ritm harakatining o'zgarishiga shart - sharoitga bog'liq.

Mashqlar. Yashash, yurish, turish, qayrilib boqish, salomlashish, o'tirish, biror buyumni olish. Bularni har - xil tempo-ritmda ishlab ko'rish mumkin. Ishlayotgan shu tepm bilan tamoshabinda qandaydir taassurot qoldirishingiz mumkin. O'zingizning ritmingizdan har xil hissiyotlar kelib chiqayotganini o'zingiz sezasiz.

Kiyinish mashqi:

1. Institutga kech qolayapsiz.
2. Yonayotgan uy ichida kiyinish kerak.
3. Dam olish kuni, boradigan joy yo'q, kiyinayapsiz...
4. (Yana boshqa mashq «Metronom»).

Tayanch iboralar:

Temp, sekin, tez, o'rta harakat qilish, ritm, sahnaviy xatti – harakat, sahnaviy voqea, aktyor, aktiv ritm, ichki ritm, sustlashgan ritm

Savol va topshiriqlar:

1. Temp - ritm deganda nimani tushunasiz?
2. Tempo - ritm o'zgarishi nimaga bog'liq?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O'zbekiston”. 2011.
2. **I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. T.: “Ma'naviyat”. 2008.**
3. K.S.Stanislavskiy. “Aktyorning o'z ustida ishlashi”. T.Xo'jayev tarjimasida. S.Muhamedov muharrirligida. T. Yangi asr avlodi. 2010
4. Sh.S.Hamidova. “Estrada teatri va uning janrlari”. T.: 2009.
5. J.Mahmudov. “Aktyorlik mahorati”. Toshkent: Bilim, 2005.
6. **Yusupova M.R. “Uprajneniya po aktyorskому treningu”. T.: O'zDSI bosmaxonasi. 2005.**
7. ZiyonET
8. <http://stanislavsky.by.ru>
9. <http://www.aktor.ru>

DIPLOM SPEKTAKLINI YARATILISHI

1. Rexels M. “Rejissyor avtor spektaklya” izd “Iskusstvo” L. 1982 g.
2. Po'latov I. SH. “Sahna nutqi” “O'qituvchi” Toshkent 1994
3. O'zbek pedagogika anatomiyasi “O'qituvchi” 1995 y.
4. Oydinov N. “O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar” “O'qituvchi” Toshkent 1997 y.

To'rtinchi kursda spektakl ustida ishlash mazmuni ikki qismdan iborat bo'ladi.

1) Diplom spektaklini amalga oshirish uchun olib boriladigan ish jarayoni. Bu jarayondagi ish yo'nalishi professional teatrdan sahnalashtirish uchun spektaklga qo'yiladigan talablar asosida kechadi.

2) O'quv ishlab-iqarish amaliyotini tashkil qilish va o'tkazish. Bu jarayon diplom oldi va diplom spektaklini tomoshabinlarga namoyish qilishni o'z ichiga oladi.

To'rtinchi kurs talabalari barcha fanlardan o'qib o'rgangan bilimlarini diplom spektaklini amalga oshirish uchun sarflashadi. Diplom spektaklida talabalar tomonidan yaratiladigan har bir obraz professional teatr aktyorining ijodiy ishi bilan teng bo'lishi lozim. Chunki san'at maktabining bugungi diplomati, ertangi kunning teatr aktyori. Shunday ekan, diplom spektaklidagi har bir ish, professional teatrga qo'yiladigan ilk qadam hisoblanadi. Diplom spektakli professional teatrning butun imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda sahnalashtiriladi. YA'ni spektaklni sahnalashtirish professional teatrdagidek

ma'lum grafika asosida olib boriladi. Bu jarayonda talabalarda mustaqil ijod qilish, kollektivni his qilish, uni tushunish va bir-biriga ijodiy yordam berish hususiyatlarini tarbiyalash ham diplom spektaklini yaratish jarayoniga kiradi.

Demak, to'rtinchi kursning o'qish jarayonida amalga oshiriladigan diplom spektakli yaxshi dramaturgiyaga hamda boy g'oyaga asoslangan mukammal asar bo'lishi shart. Spektakl zamonaviy yoki klassik asar ham bo'lishi mumkin. Eng muhimi tanlangan asardagi personajlar har xil hususiyatlarni o'zida mujassamlashtirmog'i lozim. Agar diplom oldi spektakli kichik yoshdagi tomoshabin uchun tanlangan bo'lsa, diplom spektakli albatta katta yoshdagi tomoshabinlarga mo'ljallab olingan bo'lishi kerak. biz bilamizki, qo'g'irchoq teatri faqat yosh tomoshabinlar uchun emas, balki katta yoshdagi tomoshabinlarni ham xushnud qilib kelmoqda. Har bir qo'g'irchoq teatri sahnasi uchun tanlangan asar, o'z tomoshabiniga ega bo'lgan holda uning yoshiga qarab sahnalashtiriladi.

I – Ma'ruza: DIPLOM SPEKTAKLI USTIDA ISH JARAYONI ADABIYOTLAR

1. M. Korolyov "Iskusstvo teatra kukol", M. "Iskusstva" Lenengrandskoye otdeleniye. 1973 g.
2. M. Ashurova "Qo'g'irchoq teatri san'atining aktyorlik maktabi", Toshkent 2007 y.
3. I. Radun "Put k ssene", Tashkent. 1983 g.
4. A. Sayfuddinov "Adabiy asar va ijrochilik maktabi", Toshkent. "Fan". 1980 y

Diplom spektakli ustida olib boriladigan ish jarayoni huddi 6-bosqichdagidek bo'ladi. Faqat rol taqsimlashga kelganda pedagog-rejissyor kurs talabalarini diplom oldi spektaklida o'ynagan rollariga monand bo'lmagan, butunlay o'zgacha xarakterli personaj obrazini yaratishi kerak. Chunki o'qish jarayonidagi bir xil yo'sindagi rol ijrosi uning aktyorlik imkoniyatlarini chegaralab qo'yishga olib keladi. Bu esa bo'lajak aktyorni bir qolipga solib qo'yadi. Shuning uchun diplom spektaklida talabalarga to'g'ri rol taqsimlash ish bosqichining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'qish jarayonida talabalar diplom oldi va diplom spektakllarida turli xil, bir-biriga monand bo'lmagan obrazlarni yaratishi, uning kelgusida teatrdan ko'p qirrali aktyor bo'lib yetishuviga imkon beradi. Aktyor bitta spektaklda bir nechta obraz yaratish imkoniga egaligi qo'g'irchoq teatrining o'ziga xos hususiyatlaridan biridir. Bunday holni biz diplom oldi spektaklida ham qo'llagan edik. YA'ni "Sehrli kiyik" spektaklida talaba S. Sharipova tantiq, qaysar, erkato'y, shoh qizi Budur hamda bu obrazga qarama-qarshi bo'lgan dono, vazmin, aql bilan ish ko'radigan Tovus obrazlarini to'laqonli yarata oldi. Talaba A. Shamsiyev esa "Yovuz o'rgimchak" hamda "soqchi" obrazlarini yaratdi. Diplom ishi uchun olingan Isfandiyorning "Avaz-Botir" spektaklida S. Sharipovaga "qarg'a" rolini, "Sehrli kiyik" rolini ijro etgan N. Farmonovaga qaysar Gulini, I. Sodiqovning "Afandining besh xotini" spektaklida V. Shamsiyev "Afandi" rolini ijro etgan bo'lsa, "Avaz-Botir"

spektaklida ochko‘z “dev” rolini zo‘r muvaffaqiyat bilan ijro etdi. O‘qish jarayonida diplomatlarning har xil obrazlar yaratishi, ularning iste’dodini yanada keng ko‘lamda ochilishiga yordam beradi. Faqat bu yo‘nalishda ular yuzalikka, bachkanalikka, masxarabozlikka o‘tmasdan, obraz talqiniga jiddiy yondashishi kerak. Ijro maktabida talabaning imkoniyat qirralarini kengroq ochilishiga, uning kelgusida professional teatrdagi yaxshi mutaxassis bo‘lib ishlashiga imkoniyat yaratadi. U obraz yaratish jarayonida ko‘proq mustaqil ishlashga o‘rganishi lozim. Ijod jarayonida yaratayotgan obrazlar birdaniga paydo bo‘lmasdan, asta-sekinlik bilan tug‘ila boshlaydi. YA’ni obrazning xarakteriga xos bo‘lgan hususiyatlar uning tasavvurida paydo bo‘lib, uni qo‘g‘irchoq personajiga moslashtirib ishlay boshlaydi. Qo‘g‘irchoq teatrida obraz yaratish qo‘g‘irchoqning tashqi holatidagi hususiyatlarga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun obrazga topilgan yurish-turish, odat-qiliqlar uning tashqi xarakteridan kelib chiqqan holda bajariladi. YA’ni aktyor obraz yaratish jarayonida qo‘g‘irchoqning tanasidagi har bir a’zosini o‘ziga itoat qildirish kuchiga ega bo‘lishi lozim. U qo‘g‘irchoqni itoat qildirish oldimi, aktyorda o‘ziga nisbatan ishonch hosil bo‘ladi. So‘ng u itoatkor qo‘g‘irchoq obrazini pyesadagi davr, uni o‘rab turgan muhit, o‘sha davrning urf-odatlarini, kiyim-kechaklariga monand qo‘g‘irchoq personaji niqobining xarakterli hususiyatidan kelib chiqqan holda maqsadli harakat qilishga o‘rgatadi va uning tana harakatlarini rivojlantirib boradi. Shunda qo‘g‘irchoq personajining tana harakati epchillikka, noziklikka va harakatchanlikka moyil bo‘ladi. “Avaz-Botir” spektaklida Guli obrazini yaratish jarayonida Hikmatoy ko‘p ijodiy qiyinchiliklarga duch keldi. U Guli-qo‘g‘irchoqni bor imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda uni yaxshi boshqarish yo‘llarini o‘rganib oldi. Spektakl shart-sharoitidan kelib chiqib, sahnada ishlash jarayonida qo‘g‘irchoqni hozir qo‘liga olgandek o‘zini yo‘qotib qo‘ydi. Chunki, undan faqat umum hususiyatga ega bo‘lgan qo‘g‘irchoqni emas, balki aynan shu spektakldan kelib chiqqan holda qaysar shoh qizi Guli obrazini yaratish talab qilindi. Demak, oddiy qizdan shoh qizining kiyinishi, yurish-turishi, o‘zini tutishi, gapirish odatlari, atrofdagilarga munosabati butunlay boshqacha. Shuning uchun obraz yaratish jarayonida aynan shu spektakldagi ma’lum obrazga mos bo‘lgan xarakterdagi hususiyatlardan kelib chiqqan holda ishlashni o‘rganish kerak ekan. Obraz yaratish jarayonida birinchi uning tashqi holatidagi hatti-harakatlar aniq topilib, undan keyin obrazning ichki mohiyati bilan birlashgan holda ishlash kerak.

Qo‘g‘irchoq aktyoriga obraz mohiyatini muhim tomonini ochib berish uchun kuchli tasavvur, mohirlik, topqirlik, sehirgarlik hamda takrorlanmas sehirli ovoz kerak bo‘ladi. Bu hususiyatlarni aktyor obraz ustida ishlash jarayonida to‘g‘ri aniq ishlata olsa, obraz talqini to‘g‘ri va maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunga misol tariqasida Farg‘ona qo‘g‘irchoq teatrida sahnalashtirilgan “Oltin jo‘ja” spektaklida Bo‘ri obrazini talqin qilgan T. Sultonov, Andijon teatri sahnasida yaratilgan “Shox Laylak” spektaklidagi R. CHO‘qqiyev ijrosidagi Salim donishmand va savdogar Mirza, Toshkent Davlat qo‘g‘irchoq teatrida “Issombusi” spektaklida Issombusi rolini ijro etgan Munisa Egamberdiyeva, institut o‘quv teatrida “Afandining besh xotini”

diplom spektaklida Afandi obrazini yaratgan Valijon Shamsiyev, shu spektaklda Jannatoy obrazini zo'r mahorat bilan ijro etgan Qirmizi Kubbesova, "Yo'ldosh ota sarguzashtlari" spektaklida Yapon xotini va kampir obrazini yaratgan Gulnozalnarni misol qilsa bo'ladi.

Spektakl yaratishda rejissyor, rassom, qo'g'irchoq ustalarining birligi

Avtor tomonidan personajlarga berilgan ichki xarakterli hususiyatlardan kelib chiqqan holda rassom-haykaltarosh, qo'g'irchoq ustasi, mexanizator hamda pedagog-rejissyor hamkorligida tashqi umumlashgan hususiyatga ega bo'lgan qo'g'irchoq tayyorlanib, talaba qo'liga topshiriladi. Qo'g'irchoq teatri aktyori o'ziga o'ta talabchan, barcha insoniy odob-ahloq normalariga rioya qilgan, pok inson bo'lishi kerak. chunki u endi hayotga mustaqil qadam qo'yayotgan, borliqni mohiyatini o'z aql-idrok doirasida tushunishni istagan, hamma narsaga o'ta ishonuvchan. Hayotda hamma narsa go'zal deb biluvchi beg'ubor bolakaylarga xizmat qiladi. Ularning didini, dunyoqarashini san'atga bo'lgan mehr-muhabbatini uyg'otishda va shakllantirishda birinchi ustoz va murabbiy hisoblanadi.

Qo'g'irchoq teatri aktyorining eittk normalari quydagilardan iborat bo'lishi kerak:

- aktyor birinchi navbatda teatr san'ati tarixini o'rganishi, uning an'alariga sodiq qolishi, shu sohani rivojlantirish yo'lida qo'lga kiritsak yutuqlarni tan olishi;
- kelajakka ishonch bilan qarab, shu san'atni yanada ravnaq topishi uchun o'z kuch va iste'dodini ayamassligi;
- o'tgan ijodkorlarni teatr san'atida qilgan ishlarini o'rganishi va tadbiq etishi;
- hayotda yuz berayotgan islohotlarni amalga oshirishda o'z insoniy burchini o'tashi;
- K. S. Stanislavskiy aytganidek-"Sen san'atdagi o'zingni emas, balki o'zingdagi san'atni seva bilgin", degan risolasiga amal qilish;
- Ilm-fan, san'at, madaniyat va san'at yutuqlaridan xabardor bo'lib, uni o'rganishi va targ'ib qilishi;
- Insonparvarlik, vatanparvarlik g'oyalarini ilgari surishi, mehr-oqibatli, odamgarchilik, e'tiqod singari odob-ahloq g'oyalariga rioya qilishi;
- San'atga, teatrga, sahnaga va uning kasbiga aloqador bo'lgan barcha ijodkorlarga mehr-oqibatli bo'lishi va ularni xurmat qilishi;
- Yuksak intizomli, o'z kasbiga jiddiy qaraydigan fidoiy inson bo'lishi;
- San'atning mohiyatiga aniq tushunishi, o'z ishiga ongli ravishda yondoshishi va ma'suliyatni his qilgan holda ijod qilish;
- Boy hayotiy tajribaga ega bo'lib, o'z ustida tinmay ishlab, malakasini oshirib borish, yaxshi mukammal obrazlar yaratish imkoniga ega bo'lishi;

- Ijod jarayonida yuqorida keltirilgan aktyor etika hususiyatlarini amalga oshirishda bor kuch va g'ayratini ayamasi lozim;

Bo'lajak ijodkor aktyor etik normalarini o'qish va ish jarayonida amalga oshirib, shu hususiyatlarni o'zida mujassamlashtirsa, u kelajakda yaxshi inson hamda yaxshi aktyor bo'lib yetishadi. Hamda ijodkor sifatida o'z oldiga qo'ygan buyuk maqsadlarga erishadi. Demak, yaxshi aktyor yoki rejissyor bo'lish uchun birinchi navbatda yaxshi inson bo'lish kerak ekan. Ana shunda jamiyatga foydasi tegadigan ilg'or fikrlar kuychisi bo'lgan mukammal asarlar yaratiladi. Bunday asarlarni yaratish uchun K. S. Stanislavskiyning ta'biricha—"Hayotda meshchanlarcha yashab sahnada buyuk insonlarni obrazini yaratish juda qiyin bo'ladi".

Ustozim Tursunboy Isroilov aktyorlik mahorati darsida ko'p marotaba bergan o'gitlari har doim qulog'im ostida jaranglab turadi. "Inson o'zida bor bo'lgan kamchiliklardan biri to'la xalos bo'lishi qiyin. U o'z kamchiliklarini asta-sekin ongli ravishda tushungan holda bartaraf qilishi va uni boshqa qaytarmasligi, shu bilan birga o'zning yaxshi hislatlarni tarbiyalab borishingiz lozim. Shunda siz yaxshi inson hamda yaxshi ijodkor bo'lib yetishasiz", deb ta'kidlar edilar.

Balki ustozni o'gitlariga amal qilgan ko'pgina shogirdlar bugungi kunda el nizarida bo'lib, san'at sohasining barcha jabhalarida yaxshi ijod qilib kelmoqdalar. Bular: ustoz-rejissyor Rustam Usmonov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Zuhra Ashurova, Saida Rametova, Gulbahor Mamedova, Ikrom Xoniqulov, Rahmatulla Mirzayev va boshqalar.

Aktyor tomoshabin oldiga chiqishdan oldin o'zida javobgarlik va katta mas'uliyat his qila bilishi shart. Spektaklni tomoshabinga namoyish qilish uchun uni o'z vaqtida boshlab, sahnaga qo'g'irchoq bilan o'z vaqtida chiqish emas, balki spektakl va unda ijro etadigan rolni hozir, shu bugun, shu soatda, shu daqiqada bugungi kunning talabi bilan bog'lab, unga yangicha yondashib, sayqal berib ijro etishga harakat qilish kerak. aktyor rol ustida qancha ishlasa, uning imkoniyat chegaralari shuncha kengayib, rol jozibasi shuncha ochiladi

II-Ma'ruza: ETYUDNING SPEKTAKL YARATISHDAGI O'RNI ADABIYOTLAR

1. M. M. Korovlyov "Iskusstvo teatra kukol". Izd., "Iskusstvo" Leningradskoye otdeleniye. 1973.
2. G. X. Muxamedova "Musiqali teatr aktyorlarini tarbiyalashning asoslari". Toshkent. 1991.
3. I. V. Radun "Put k ssene". Toshkent 1983.
4. M. Ashurova "Qo'g'irchoq teatr san'atining aktyorlik maktabi". Toshkent 2007 y.

Biz bilamizki, bira to'la spektaklni yaxlitligicha sahnaga olib chiqib o'ynab bo'lmaydi. Spektakl mayda bo'laklar va ko'rinishlardan iboratdir. Oldin ana shu mayda bo'laklar mahzini chaqib, so'ng ularning asosiy g'oyaga, aniq maqsadga bo'ysundirish kerak. Asosiy g'oya va maqsad spektakl ustida olib boriladigan ishga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi kompas vazifasini o'taydi. Bu

yo‘l esa hayot past-balandliklardan, o‘nqir-cho‘nqirlardan iborat bo‘ladi. Ana shu hayot yo‘laklaridan har bir personaj o‘z maqsadiga erishi uchun har xil yo‘l bilan boradi. Sizning qo‘lingizdagi qo‘g‘irchoq bu jarayonni o‘tash uchun uzoq yo‘l yurishga tayyor bo‘lishi kerak. Bu uzoq yo‘lni bosib o‘tish uchun qo‘g‘irchoq sahnada erkin hatti-harakatga moyil bo‘lib, o‘z kuchiga ishonmog‘i lozim. Menimcha, bu jarayon yengilroq va osonroq kechishi uchun unga etyud yordam beradi. Shuning uchun qo‘g‘irchoq personaji asosiy maqsadga erishmog‘i uchun birinchi qadamini etyuddan boshlaydi. YA’ni u asta-sekinlik bilan hayot lavhalarini anglashga, tushunishga, uni o‘zlashtirishga harakat qila boshlaydi.

“Sehrli kiyik” spektaklidagi “Yordam” deb nomlangan bir bo‘lakni olib etyud tariqasida ko‘ramiz. Bunda biz avtor tomonidan berilgan shart-sharoitni olamiz. YA’ni voqea tog‘ bag‘rida sodir bo‘ladi. Ovchi kiyikni ushlash uchun unga tuzoq qo‘yadi. Kiyik tuzoqqa tushib qoladi. Shu atrofda o‘tin terib yurgan bola kiyikni qiynalayotganini ko‘rib qoladi va unga yordamga kelib, uni qutqaradi. Shu payt ovchi kelib qoladi va kiyikni tutib oladi. Bola qancha yalinib, yolvormasin ovchi kiyikni qo‘yib yubormaydi. Oxiri bola yig‘ib yurgan pullarini ovchiga berib, kiyikni qutqarib oladi. Ovchi ketadi. kiyik o‘z navbatida hayotini asrab olganligi uchun bolani iqtisodiy tenglikdan ozod qiladi va do‘stlik ramzi sifatida kiyik unga sehrli qo‘g‘irchoqchasini sovg‘a qiladi. Bu qo‘g‘irchoq Xasanga juda ko‘p boylik keltiradi. Demak, bu etyudda talabalar avtor tomonidan berilgan shart-sharoitdan kelib chiqqan holda qo‘g‘irchoqqa yaqin bo‘lgan hatti-harakatlarni topishadi. Bu topilgan hatti-harakatlar aniq maqsad sari yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Etyuddagi ish jarayoni qo‘g‘irchoq personaji bilan aktyorni bir-biriga yaqinlashtiradi.

Spektaklni boshidan oxirigacha etyud tariqasidi o‘tishi lozim. Talabalar etyud ishlash jarayonida qo‘g‘irchoqning imkoniyatlarini o‘zi uchun aniqlashga imkon yaratadi. YA’ni talaba bu yo‘nalishda qo‘g‘irchoqni texnik boshqarishdan ijodkor sifatida namoyon bo‘la boshlaydi. U bu jarayonda ko‘lidagi qo‘g‘irchoqni qanday boshqarish emas, balki ish yo‘nalishida u yana qanday kutilmagan harakatlar qilishga qodir ekanligini o‘zi uchun aniqlaydi.

Kiyikni qopqonga tushib qolgandagi iztiroblariyu, uni hayotini asrab qolgan insonga bildirgan minnatdorchiligi, do‘st bo‘lishni taklif qilishi yoki Xasanning qopqonga tushgan kiyikka yordamga kelishi, o‘zi yemay yig‘ib yurgan pullari kiyikni qutqarish uchun ovchiga berishi, ovchining esa o‘z navbatida xudbinligiyu, o‘zini o‘ylab bolaning oxirgi pullarini tortib olishi kabi insoniy his-tuyg‘klarni albatta qo‘g‘irchoq o‘zining qotib qolgan tashqi holati orqali yetkaza olmaydi. Bu yerda tomoshabinga umuman ko‘rinmagan holda to‘siq orqasida yashirinib olgan aktyor, o‘z him-tuyg‘ularini qo‘lidagi qo‘g‘irchoq‘iga elektr simlari orqali yuborigan tokdek uning jonsiz tanasiga singdirib, sahnada haqiqiy mo‘jiza sodir etadi.

Bu mo‘jiza qo‘g‘irchoq boshqarish emas, balki unga jon ato etish, uni o‘ylashga, fikrlashga va boshqalarni o‘z hatti-harakati ketidan ergashishiga unga yordam berishga, uni ayab-avaylashga, so‘ngra unga sodiq qolishga yoki u bilan do‘st bo‘lishga chorlaydi. U o‘z nomidan o‘z haqida gapira boshlaydi. Siz esa bunga o‘zingiz bilmagan holda ishona boshlaysiz. U esa

repetitsiyadan-repetitsiyagacha uni hurmat qilishga, unga bir jonsiz tasviriy san'at asaridek qaramaslikka, spektakldan keyin uni sahnaning bir chetiga jonsiz predmet deb, tashlab yurmasligingizni so'raydi. Albatta siz talaba, uni asta-sekin seva boshlaysiz. Chunki u siz bilan tan, bir jon bo'lib qoladi. U sizning butun his-hayajoningizni, umid va orzularingizni tarannum eta boshlaydi.

Bir kuni "Sehrli kiyik" spektakli repetitsiyasidan keyin talabalarga 10 minut tanaffuz e'lon qilindi. Bir vaqt qaragam, chetda qo'g'irchoq'ini quchoqlab o'tirgan talabaga ko'zim tushdi. Unga murojaat qilib: "Sena nega tanaffuzga chiqmading?"-deb so'rasam, u bo'lsa: "domla bilasizmi, men shu kungacha qo'g'irchoq'imni, ya'ni kiyikni tushuna olmay qiynalib yurgandim. Uning harakatlari qo'pol, menga hech ham bo'ysunmasdi. Bugun esa butunlay boshqacha, biz bir-birimizni tushungandaymiz. Hayolimda qo'g'irchoqni joyiga qo'ysam, u mendan xafa bo'layotganday. Bugun negadir qo'g'irchoq'im ko'zimga boshqacha ko'rinyapti, hayolimda men uni yaxshi ko'rib boryapman"-deb jilmayib qo'ydi. 10 daqiqadan so'ng yana repetitsiya boshlandi. Endi kiyik qo'g'irchoq'ini boshqarayotgan talabani umuman tanib bo'lmadi. Chunki u boshqarayotgan qo'g'irchoq, ya'ni "Sehrli kiyik" plastikasida noziklik, sehrlilik, ovozida jarangdorlik o'z-o'zidan tug'ilib kela boshladi. Sahnada sodir bo'layotgan bu jarayonga qo'g'irchoq teatrida "Ular bir-birini tushunishdi",- deyiladi. Demak, aktyor qo'g'irchoq boshqaruvchidan, ijodkor aktyorga aylandi. Bunday aktyor qo'g'irchoq teatrida mo'jiza yarata oladi, ya'ni qo'g'irchoq personaji orqali mukammal obraz yaratishga qodir bo'ladi.

III-Ma'ruza: USLUBNING OBRAZ YARATISH JARAYONIDAGI O'RNI

ADABIYOTLAR

1. Q. Xo'jayev "Sahnaga yo'l", Toshkent "O'qituvchi". 1982 y.
2. Chto je takoye teat kukol (sbornik statey), M. VTO. 1980 g.
3. M. Qodirov "O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri", Toshkent. 1979 y.

Har bir ijodkor hayotda sodir etiladigan ma'lum voqea va hodisalarga o'zgacha yondoshadi. Voqelikni tasvirlashda u o'z uslubiga ega bo'ladi. Bitta davrda bir xil voqelikdagi asar personajlari o'z xarakterli xususiyatiga, hayotda tutgan o'rniga qarab har xil tasvirlangan bo'ladi.

Shuning uchun spektakl yaratishda hamda undagi obrazlarning talqinida pedagog-rejissyor va talabalar avtor uslubiga katta e'tibor berishi va avtor g'oyasiga bo'ysungan holda ishlashni bilishi zarur. Bu asar mohiyatini, asosini ochishda ijodkorga katta yo'l ochib beradi. Misol, uchun biz bir davrda yashab ijod qilib kelayotgan Pirimqul Qodirov bilan O'tkir Hoshimovning asarlarini o'qiganimizda, ularning har biri o'zining mualliflik uslubiga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz. P. Qodirov o'z romanlarida ko'pincha tarixga nazar tashlab, tarixiy shaxslarning boshidan kechirgan ajoyib va g'aroyib sarguzashtlarni va tarixda o'chmas iz qoldirgan ulug' faoliyatlarni yoritadi.

Bunga uning “Bobur”, “Humoyun va akbar” romanlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Adib O‘tkir Hoshimov esa, o‘z romanlarida zamonasining ilg‘or kishilarini bosib o‘tgan hayot yo‘li, ularning qismatini yorqin bo‘yoqlarda tasvirlaydi. Uning “Nur borki, soya bor” yoki “Ikki eshik orasi” romanlari fikrimizga dadil bo‘lishi mumkin.

Bolalarning sevimli yozuvchisi Sa‘mi Abduqahhor satira janrida ijod qilib kelmoqda. U bir qancha masal, hajviy hikoya, she‘riy felyeton va parodiyalar avtori. Yozuvchi o‘zining asarlarida jamiyatimizdagi kishilarning tinch yashab, ijod qilib, unumli ishlashi uchun halal beruvchi yulg‘ich, aldoqchi va ishyoqmaslarga satira janri orqali ayovsiz kurashadi. Uning “Hijolat”, “Bekatta”, “Tush”, “Ayron”, “Jumboq” va boshqa asarlaridagi kishilarning salbiy hislatlari tanqid qilinadi. Anvar Obidjonov esa Sharqning bir dono hukmdorining “Men xalqning qahridan ko‘ra mazaxlaridan ko‘proq qo‘rqaman”, degan fikriga qo‘shilgan holda jamiyatimizdagi turli nuqsonlarni yo‘qotishga “kulgini” qurol qilib olgan. “Kulgi umrni uzaytiradi”, degan donishmandlarning fikriga qo‘shilgan holda o‘zining hangomalaridan dardni kulgi bilan yengish mumkinligini isbotlagan yozuvchi. Uning “Sovugan ko‘ngil”, “Shubha”, “Dardingni stadiona ayt”, “Ming so‘mlik po‘stak”, “Poygadagilar”, “Ro‘zg‘orni qumsash” va boshqa asarlarida nuqsonlar tanqid ostiga olinadi.

Qo‘g‘irchoq dramaturgiyasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, shu sohani yirik vakillaridan biri adib Muhsin Qodirov o‘z asarlarida poetik falsafa orqali xalq ijodiyoti hamda ertak motiviga murojaat qilib, voqelikni zamonaviy qahramonlar hayoti orqali tasvirlaydi. Bunga adibning “Sirli nay”, “Chin do‘st”, “Susambil”, “Kenja qiz” asarlari misol bo‘la oladi. Adib Anatoliy Qobulov esa o‘z asarlarida ertak mavzusiga murojaat qilib, asar qahramonlari hayot yo‘lini, ularning ichki kechinmalarini sehr orqali hal etadi. Bunga uning “Sehrlı kiyik” asarini ko‘rsatish mumkin.

Avtorning asar yaratishda o‘ziga xos uslubi bo‘lganidek rejissyor, aktyor, rassom-haykaltarosh va qo‘g‘irchoq ustasining ham spektaklni tayyorlash, obraz yaratish jarayonida o‘ziga xos uslubi bo‘ladi. Shuning uchun sahnada yaratiladigan har bir ijodiy ish o‘zining alohida hususiyatga ega bo‘ladi. Bitta dramatik yoki qo‘g‘irchoq teatriga mo‘ljallangan asar har bir alohida olingan teatrdan avtor uslubidan kelib chiqqan holda aynan ma‘lum teatr ijodkorlari tomonidan o‘z yechimiga va talqiniga ega bo‘ladi. Misol uchun, rejissyor Iso Yoqubov bilan hamkorlikda ishlagan rassom-haykaltarosh Yevgeniy Akudinaning qo‘g‘irchoq teatr sahnasida yaratgan spektakllari o‘zining jozibadorligi, ranglarni to‘g‘ri tanlanganligi, qo‘g‘irchoqlarni ustalik bilan yasalganligi, sahnada boy, rang-barang anjomlarning har biri o‘z o‘rnini topganligi, spektaklda albatta musiqa, qo‘shiq, o‘yinlarning ko‘pligi va o‘z o‘rnida aniq ishlatilishi, spektaklning ixchamligi personajlarning tomoshabinlar bilan ko‘proq muloqotda bo‘lishi, bir so‘z bilan aytganda, ular yaratgan spektakl har doim go‘zalligi va tomoshabinni bir qarashda o‘ziga maftun eta olishi bilan ajralib turadi. YE. Shvarsning “Zolushka, Isfandiyorning “Temirchi va malika haqida ertak”, H. Olimjonning “Oygul

bilan Baxtiyor”, M. Halilning “Sirli nay” va boshqa asarlar asosida ishlangan spektakllar e’tiborni tortadi. Rejissyor Shomurod Yusupov bilan rassom haykaltarosh Yevgeniy Akudinaning ijod yo‘liga nazar soladigan bo‘lsak, bu ijodkorlarning birgalikda yaratgan “Baxt izlagan Xasan”, “Olovuddinning sehrli chirog‘i”, “Alpomish”, “Chodir jamol” va boshqa spektakllari sahnada kenglikni talab qiladigan, sehr va mo‘jizalarga boy, spektaklda aktyor o‘yinidan ko‘ra ko‘proq texnika va chiroqlarni ishlatilishi bilan ajralib turadi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, har bir ijodkorni alohida bir-biridan ajratib turadigan o‘z qalami va o‘z uslubi bor. Shuning uchun bitta asarni o‘nta rejissyor o‘nta teatrda sahnalashtirsa, asar ma’lum aniq asoslanishiga qaramasdan, uning talqini har xil bo‘ladi.

Uslub to‘g‘risida gapirganda, aktyorlarda ham obraz talqinida o‘ziga xos yo‘nalish borligini guvohi bo‘lamiz. Shuning uchun qo‘g‘irchoq teatri sahnasida yaratilgan jodugar kampir, shox, malika, bo‘ri, quyon, tulkiolalar obrazlari har xil aktyorlar ijrosida turlicha talqin qilingan. “Yangi yil mo‘jizasi”, “O‘lmas Kashshey” spektaklidagi jodugar kampir o‘zining hususiyatiga ko‘ra bir xil xarakterga ega bo‘lgan obraz. YA’ni atrofdagilarga faqat yomonlik istovchi personaj. Shunga qaramasdan bu obraz bolalar teatrining spektaklida juda ko‘p talqin qilingan obrazlardan biri bo‘lib kelmoqda. Yoki yosh tomoshabinlarning sevimli qahramoniga aylangan “Quyon” bilan “Bo‘ri” obrazlari ham shular jumlasidan hisoblanadi. Har xil spektakl yoki multfilmda turli xil talqin qilingan Quyonvoy obrazi kichikintoylarning sevimli qahramoniga aylangan. Uni bolalar jon-dillari bilan sevib, himoya qilishadi. Bo‘ri obrazini oladigan bo‘lsak, u har ikki pyesaning birida uchrab turadi. U ko‘pincha o‘z xarakterli hususiyatiga ko‘ra, bir xilda salbiy obraz tariqasida ko‘rsatilgan. Lekin aktyorlar bu personajni gohida hammani qo‘rqitib yuradigan, gohida landovur, gohida rahimdil qilib, obrazni ko‘p qirralarini ochib berish imkoniga ega bo‘lgan.

Demak, aktyor obrazni ro‘yobga chiqarish uchun o‘zining aktyorlik mahorati hamda iste’dodini turli vosita, usul bilan bir qatorda sahna san’atida yaratilgan ijodiy yo‘l-yo‘riqlaridan ham foydalanish imkoniga ega bo‘lishi kerak. ana shunda talaba bolalarning sevimli qahramoniga aylangan Polvon Kachal, Zumrad, Zolushka, G‘ozcha, Quyonvoy, kiyin va h.k.larni har safar sahnaga olib chiqqanda bu personajlarni yangi bo‘yoqlarda ifodalab, ularga xos bo‘lgan yangi-yangi hislatlarni topib, obraz talqiniga yangicha jilo bera oladi.

IV-Ma’ruza: SPEKTAKL USTIDAGI ISH JARAYONI ADABIYOTLAR

1. I. Po‘latov “Sahna nutqi”. “O‘qituvchi”. Toshkent. 1994.
2. I. V. Radun “Put k ssene”. Toshkent. 1983.
3. Q. U. Xo‘jayev “Sahnaga yo‘l”. Toshkent. 1982.

Pedagog-rejissyor pyesa to‘g‘risidagi o‘z fikr, o‘ylarini va maqsadini talabaga majburiy singdirmasdan, ularga pyesa ustida ish jarayonida singdirib boradi. Talaba pyesani chuqur anglamog‘i darkor. Pyesa ustidagi ish jarayoni ko‘r-ko‘rona sodir etilmasligi kerak. bu jarayonda talaba pyesa hamda undagi

personajlarning munosabati yuzasidan o'z mustaqil fikriga ega bo'lishi va uni ayta ola bilishi darkor. Pyesa hususida ko'proq talabalar mustaqil fikr yuritib, ularning o'zlari o'zaro ijodiy tortishuvlar natijastda asta-sekin pyesaning g'oyaviy mazmuni, oliy maqsadini, yetakchi hatti-harakatni, hatti-harakat qiluvchi shaxslar orasidagi munosabatlarni hal etishlari mumkin. ular har bir personaj haqida, uning kelib chiqishi sabablari, xarakteriga xos hususiyatlar, pyesadagi boshqa personajlar bilan o'zaro munosabati, uning maqsad va vazifalari, hayotda tutgan o'rnini muhokama qiladilar. Bir so'z bilan aytganda, inson hayotining butun qirralariga taaluqli tomonlarini chuqur tahlil qilishi lozim. Albatta bu jarayon talabalarga rol taqsimlashdan oldin amalga oshirilishi va bu jarayonga hammaning aktiv qatnashishini ta'minlash har kim o'zining mustaqil fikriga ega bo'lishi lozimdir.

O'qituvchi pyesa tahlili jarayonida talabalarning har biri pyesa va uning personajlari to'g'risida mustaqil fikr yuritishiga, asarni yangi qirralarini ochishga imkon beradi. Asar personajlarining tutgan o'rne, ularning hatti-harakat tizmasi, xulq-atvori, pyesaning g'oyasi, voqealari va qarama-qarshiliklarga ularning bildirgan munosabati inobatga olinadi. Talabalar pyesa personajlarini tahlil qilish jarayonida ularga chetdan qarab emas, pyesa personaji, ya'ni qo'g'irchoqni imkon qadar hususiyatlariga tayanib fikr yuritishlari kerak. Ular faqat pyesadagi sodir etilayotgan voqealarni emas, balki shu voqealarni sodir etilishi uchun sababchi bo'lgan oldingi voqealar, hodisa va shart-sharoitlarni o'rganishlari lozim. Bu hususda R. Usmonov quyidagicha yozadi "...faqatgina parda ochilguncha emas, pardalar, ko'rinishlar orasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqealarni ham aniqlash zarur. Bu ko'rinish va pardalar orasida ma'lum vaqt, voqea, shart-sharoit, munosabat, insonlar xakteri, dunyoqarashi va shunga o'xshash qator faktlar o'zgarishi mumkin. shuni aniqlab olmasdan sahnada uzluksiz hayotiylikni yaratib bo'lmaydi".

Fikrlar isboti tariqasida A. Qobulovning "Sehrli kiyik" pyesasini tahlilini aytib o'tish joiz. Pyesa kursda o'qib chiqilganda talabalar orasida qandaydir jimlik hukmron surar edi. ularning hayolini nimadir jamlab olgan, ko'zlari o'ychan edi. o'qituvchi bu jimlikni buzishga, ularning fikrini auditoriyaga qaytarishga qaror qildi va ularga murojaat qilib "Xo'sh, pyesa sizlarga yoqdimi?", deb so'radi. O'quvchilar bir zum o'zlariga kelib, nigohlarini o'qituvchiga qaratib birin-ketin "Ha, ha yoqdi", deb javob berishdi.

O'qituvchi talabalarga rollar taqsimlanishidan oldin, ulardan pyesa personajlarning kelib chiqishi, pyesada tutgan o'rne va xarakterli hususiyatlari to'g'risidagi fikr yuritishlarini aytdi. Nima uchun rol taqsimlanmasdan personajlarga xarakteristika berish kerak degan savol tug'ilishi mumkin. Chunki, bu jara1nda kurs talabalarining har biri pyesadagi hamma personajlar ustida fikr yuritishga majbur bo'lishadi.

O'qituvchi-Ho'sh kim personajlar to'g'risida fikr yuritishga tayyor?

So'zni birinchi bo'lib Nargiza boshladi: "Pyesada har xil hususiyatlarga ega bo'lgan har xil xarakterdagi personajlar bor. Misol uchun, kiyikchani oladigan bo'lsak, u birinchi marotaba hayotga mustaqil qadam qo'ygan

personaj. Uni insondan farqi shundaki, u tabiat qo‘ynida erkin yashashni yaxshi ko‘radi va borliqni jon dili bilan sevib yashaydi. U atrofdagilarga ishonch ko‘zi bilan qaraydi, hali u nima yaxshi, nima yomonligini ilg‘ay olmaydi...”

Nargiza shu tariqa pyesadagi personajlarga qisqa xarakteristika berib chiqdi.

Sayyora-Malika Budur podshohning suyuqli qizi. Hamma narsasi muhayyo bo‘lishiga qaramay yana ko‘proq boylikka erishishni hohlaydi va hech narsadan tap topmaydi. Xasanni sevmasa ham, boylik tufayli unga turmushga chiqdi. Oqibatda aldanib qoladi. Malika Budur qaysar, o‘z so‘zini o‘tkazishni yaxshi ko‘radigan xudbin qiz.

Anvar-Xasan asar boshida oq ko‘ngil, mehnatkash, rahimdil, birov uchun jonini ham ayamaydigan inson. U sehrli qo‘g‘irchoqni qo‘lga kiritgandan keyin, yengil boylik orttirish payida bo‘ladi. YA’ni u xudbin, va’dasining ustidan chiqmaydigan, do‘stni qadrlamaydigan qaysar insonga aylanadi.

Shu tariqa kurs talabalari personajlarga asta-sekin baho berib, ularning xarakterining mohiyatiga yeta boshlaydilar.

Albatta bu har bir personajning oliy maqsadi, yetakchi hatti-harakatlar, ularning o‘zaro munosabati, pyesadagi voqealarga, ularning o‘rab turgan muhitga bo‘lgan munosabatlari qanday kechganligi aniqlab boriladi.

Asar to‘la-to‘kis tahlil qilingandan keyin, talabalarga rollar bo‘lib beriladi. Talabalarga rol taqsimlash ularning to‘rt xil imkoniyatini inobatga olgan holda kechadi.

1. Berilgan rol talabani to‘liq imkoniyatini ochib berishga xizmat qilsin.
2. Talabaning ichki imkoniyatlarini temperament, his, hayajon, tasavvur, fantaziya va x.k.lar.
3. Talabaning ovoz imkoniyatlari.
4. Qo‘g‘irchoq his qilish hususiyati.

Pyesa aniq bo‘laklarga bo‘linib, har bir bo‘lak nomlanib, maqsadi, voqeasi, qarama-qarshiligi, shart-sharoiti aniqlab chiqiladi. Misol uchun, pyesadagi birinchi bo‘lak nomini talabalar “Uchrashuv” deb qo‘yishdi. Haqiqatdan ham, bu bo‘lakda kiyikcha tabiat, qush, kapalak, Xasan, vazir bilan uchrashadi. Xasan qushlar, kiyikcha, vazir bilan uchrashadi. Vazir esa kiyikcha va Xasan bilan uchrashadi. Shu tariqa barcha pyesadagi bo‘laklar o‘z talabiga ko‘ra aniqlanib chiqiladi. Lekin bularning hammasida ham, oliy maqsadga intilish asos bo‘lib turibdi.

Xo‘sh, pyesa tahlil qilindi, personajlarga berib chiqildi, asar mayda bo‘laklarga bo‘linib, tahlil qilindi. Endi pyesani aniq maqsad asosida o‘qib chiqish kerak bo‘ladi. Pyesa o‘qib chiqildi ham. Lekin spektaklda aniq maqsadga erishish uchun jonli aktyorlar emas, balki qo‘g‘irchoq personajlari qatnashadi. Shunday ekan, ustaxonada tayyor bo‘lgan personajlar bilan kursni

tanishtirish kerakdir. Haqiqatdan ham, pyesani spektakl darajasiga yetkazadigan asosiy qo'g'irchoq personajlarning nomidan pyesani o'qish lozim. Menimcha, huddi shunday bo'lgani ma'qul. Shu tariqa, talabalar o'zlariga birlashtirilgan personajlarning tashqi formasi, uning niqobi bilan tanishib chiqadilar va qo'g'irchoqni qo'llariga ushlab, unga o'ziga xos ovoz topishga urinib ko'rishadi. Stol atrofida asarni qo'g'irchoqning niqobidan kelib chiqqan holda, pyesani maqsadiga muvofiq, personajlarning xarakterli hususiyatidan kelib chiqqan holda o'qiy boshlaydilar. Albatta bu jarayon asta sekinlik bilan amalga oshiriladi. Demak, shu daqiqadan boshlab o'zligini unutib, qo'g'irchoq nomidan ishlash jarayoni boshlanadi. Qo'g'irchoq bilan ish jarayoni sahnadan boshlanmasdan, aksincha, u ancha ilgari pyesa ustida ishlash jarayonida boshlanar ekan. Bu shu san'at turiga xos bo'lgan hususiyatlardan yana bir ko'rinishidir.

ADABIYOTLAR

1. M. Korolyov "Iskusstvo teatra kukol" M. "Iskusstva" L. Otd. 1973g.
2. G. Kristi "Vospitaniye aktyora shkoli Stanislavskogo" M. izd. 1978g.
3. A. Sayfutdinov "Adabiy asar va ijrochilik maktabi" M. VTO. 1986y.
4. M. Qodirov "O'zbek xalq tomosha san'ati" Toshkent "O'qituvchi" 1981y.
5. M. Ashurova "Qo'g'irchoq teatr san'atining aktyorlik maktabi" Toshkent. 2007 y.

V-MA'RUZA

QO'G'IRCHOQ TEATRI AKTYORI IJODIGA XOS BO'LGAN HUSUSIYATLAR

To'rtinchi kurs o'qish jarayonida kurs talabalari barcha fanlardan o'qib o'rgangan bilimlarini diplom spektaklini amalga oshirish uchun sarflashadi. Diplom spektaklida talabalar tomonidan yaratiladigan har bir obraz professional teatr aktyorining ijodiy ishi bilan teng bo'lishi lozim. Chunki san'at maktabining bugungi diplomati, ertangi kunning teatr aktyori. Shunday ekan, diplom spektaklida har bir qilinadigan ish, bu professional teatrga qo'yiladigan ilk qadam hisoblanadi. Diplom

Spektakl professional teatrning butun imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda sahnalashtiriladi. YA'ni spektakl sahnalashtirish professional teatrdagidek ma'lum grafik asosida olib boriladi. Bu jarayonda talabalar har tomonlama mustaqil ijod qilishga, kollektivni his qilish, uni tushunish va bir-biriga ijodiy hamkorlikda yordam berish hususiyatlarini tarbiyalash ham diplom spektaklini yaratish jarayoniga kiradi.

Demak, to'rtinchi kursning o'qish jarayonida amalga oshiriladigan diplom spektakli yaxshi dramaturgiyaga hamda boy g'oyaga asoslangan mukammal asar bo'lishi shart. Spektakl zamonaviy yoki klassik asar mukammal asar bo'lishi shart. Spektakl zamonaviy yoki klassik asar ham bo'lishi mumkin. Eng asosi tanlangan asardagi personajlar har xil xarakterli hususiyatlarni o'zida mujassamlashtirmog'i lozim. Agar diplom oldi spektakli kichik yoshdagi tomoshabin uchun tanlangan bo'lsa, diplom spektakli albatta katta yoshdagi tomoshabinlarga mo'ljallab olingan bo'lishi kerak. biz bilamizki, qo'g'irchoq teatri faqat yosh tomoshabinlar uchun emas, balki katta yoshdagi tomoshabinlarni ham xushnud qilib kelmoqda. Har bir qo'g'irchoq

teatri sahnasi uchun tanlangan asar, o'z tomoshabiniga ega bo'lgan holda uning yoshiga qarab sahnalashtiriladi.

Diplom spektakli ustida olib boriladigan ish jarayoni huddi 6-bosqichdagidek bo'ladi. Faqat rol taqsimlashga kelganda pedagog-rejissyor kurs talabalarini diplom oldi spektaklida o'ynagan rollari monand bo'lmagan, butunlay o'zgacha personaj obrazini yaratib berishi kerak bo'ladi. Aksincha, o'qish jarayonida talabada bir yo'sindagi rol ijrosi, ya'ni bir janrda talqin qilgn roli-lirik bo'lsa, lirik; komik bo'lsa, komik; xarakterli bo'lsa, xarakterli personajning obrazi uning ko'p qirrali aktyorlik imkoniyatlarini chegaralab qo'yishga olib keladi. Bu esa bo'lajak aktyorni bir qolipga solib qo'yadi. Shuning uchun diplom spektaklida talabalarga to'g'ri rol taqsimlash ish bosqichining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'qish jarayonida talabalar diplom oldi va diplom spektakllarida turli xil bir-biriga monand bo'lmagan obrazlarni yaratishi, uning kelgusida teatrda ko'p qirrali aktyor bo'lib ishlashiga to'g'ri yo'l ochib beradi. Chunki, qo'g'irchoq teatrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri aktyor bitta spektaklda bir nechta obraz yaratish imkoniga egadir. Bunday holda biz diplom oldi spektaklida ham qo'llagan edik. YA'ni, "Sehrli kiyik" spektaklida talaba S. Sharipova tantiq, qaysar, erkatoy. shoh qizi "Budur" hamda bu obrazga qarama-qarshi bo'lgan dono, vazmin, aql bilan ish ko'radigan "Tovus" obrazlarini to'laqonli yarata oldi. Talaba A. Shamsiyev esa "Yovuz o'rgimchak" hamda "soqchi" obrazlarini yaratdi. Diplom ishi uchun olingan Isfandiyorning "Avaz-Botir" spektaklida S. Sharapovaga "qarg'a" rolini, "Sehrli kiyik" rolini ijro etgan N. Farmonovaga qaysar Gulini, I. Sodiqovning "Afandining besh xotini" spektaklida V. Shamsiyev "Afandi" rolini ijro etgan bo'lsa, "Avaz-Botir" spektaklida ochko'z "dev" rolini zo'r muvaffaqiyat bilan ijro etdi. O'qish jarayonida diplomatlarning har xil obrazlar yaratish ularning iste'dodini yanada keng ko'lamda ochilishiga yordam beradi. Faqat bu yo'nalishda ular yuzakilikka, bachkanalikka, masxarabozlikka o'tmasdan obraz talqiniga jiddiy yondashishiga to'g'ri keladi. Ijod maktabida talabaning imkoniyat qirralarini kengroq ochilishiga uning, kelgusida professional teatrda yaxshi mutaxassis bo'lib ishlashiga imkoniyat yaratadi. U obraz yaratish jarayonida mustaqil ishlashga o'rganishi lozim. Ijod jarayonida yaratayotgan obrazlar birdaniga paydo bo'lmasdan asta-sekinlik bilan tug'ila boshlaydi. YA'ni, obrazning xarakteriga xos bo'lgan xususiyatlar uning tasavvurida paydo bo'lib, uni qo'g'irchoq personajiga moslashtirib ishlay boshlaydi. Qo'g'irchoq teatrida obraz yaratish qo'g'irchoqning tashqi holatidagi xususiyatlarga ko'proq bog'liq bo'ladi. Shuning uchun obrazga topilgan yurish-turish, odat-qiliqlar, uning tashqi xarakteridan kelib chiqqan holda bajariladi. YA'ni, aktyor obraz yaratish jarayonida qo'g'irchoqning tanasidani har bir a'zosini o'ziga itoat qildirga olish kuchiga ega bo'lish lozim. U qo'g'irchoqni itoat qildirga oldimi, aktyorda o'ziga nisbatan ishonch hosil bo'ladi. So'ng u itoatkor qo'g'irchoq obrazini pyesadagi davr, uni o'rab turgan muhit, o'sha davrning urf-odatlar, kiyim-kechaklariga monand, qo'g'irchoq personajning niqobining xarakterli xususiyatida kelib chiqqan holda sekin maqsadli harakat qilishga o'rgatadi va uni tana harakatlarini rivojlantirib boradi. Shunda qo'g'irchoq personajining

tana harakati epchillikka, noziklikka va harakatchanlikka moyil bo'ladi. "Avaz-Botir" spektaklida Guli obrazini yaratish jarayonida Hikmatoy ko'p ijodiy qiyinchiliklarga duch keldi. U Guli-qo'g'irchoqni bor imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda uni yaxshi boshqarish yo'llarini o'rganib oldi. Spektakl shart-sharoitidan kelib chiqqan holda sahnada ishlash jarayonida qo'g'irchoqni hozir qo'liga olgandek o'zini yo'qotib qo'ydi. Chunki, undan faqat umum hususiyatga ega bo'lgan qo'g'irchoqni emas, balki aynan shu spektakldan kelib chiqqan holda qaysar shoh qizi Gulini obrazini yaratish talab qilinadi. Demak, oddiy qizdan shoh qizining kiyinishi, yurish-turishi, o'zini tutishi, gapirish odatlari, atrofdagilarga munosabati butunlay boshqacha. Shuning uchun obraz yaratish jarayonida aynan shu spektakldagi ma'lum obrazga mos xarakterdagi hususiyatlardan kelib chiqqan holda ishlashni o'rganish kerak ekan. Obraz yaratish jarayonida birinchi uning tashqi holatidagi hatti-harakatlar aniq topilib, undan keyin obrazning ichki mohiyati bilan ularni birlashtirgan holda ishlash kerak. aktyor ijodining muvaffaqiyati bu uning izlanishida, borliqni sezib idrok etishida hamda barcha topilgan narsalarni obrazni yaratish jarayonida, ularni shunga tadbiq qila olishidadur.

Qo'g'irchoq aktyorida obraz mohiyatini muhim tomonini ochib berish uchun unga kuchli tasavvur, mohirlik, topqirlik, sehrgarlik hamda takrorlanmas sehrli ovoz kerak bo'ladi. Bu hususiyatlarni aktyor obraz ustida ishlash jarayonida to'g'ri aniq olsa, ana shunda obraz talqini to'g'ri va maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunga misol tariqasida Farg'ona qo'g'irchoq teatrida sahnalashtirilgan "Oltin jo'ja" spektaklida bo'ri obrazini talqin qilgan T. Sultonov, Andijon teatri sahnasida yaratilgan "Shoh Laylak" spektaklidagi R. Cho'qqiyev ijrosidagi Salim donishmand va savdogar Mirza, Toshken Davlat qo'g'irchoq teatrida "Issombusi" spektaklida Issombusi rolini ijro etgan Munisa Egamberdiyeva, institut o'quv teatrida "Afandining besh xotini" diplom spektaklida Afandi obrazini yaratgan Valijon Shamsiyev, shu spektaklda Jannatoy obrazini zo'r mahorat bilan ijro etgan Qirmizi Qubbesova, "Yo'ldosh ota sarguzashtlari" spektaklida Yapon xotini va kampir obrazini yaratgan Gulnozalar misol qilsa bo'ladi.

Bu spektakllarda muvaffaqiyatli chiqqan obrazlar talqini aynan uni yaratgan aktyorning bilim darajasiga, sahna san'ati to'g'risidagi keng tushunchasi va ma'lumotiga, mahoratiga hamda sahnada meyor darajasini bilgan holda ijod qilib, o'zi yaratgan obrazni to'laqonli keng mazmun va ma'noda yarata olganligidadur.

Diplom spektaklini yaratish jarayonida diplomatlar yuqorida keltirilgan teatr aktyoriga xos bo'lgan hususiyatlarni o'zida mujassamlashtirmog'i lozim. Chunki ular yaratayotgan obrazlarning har biri o'z xarakteriga, tarbiyasiga, hayot tarziga, jamiyatda tutgan o'rniga bog'liq bo'ladi. Demak, pyesada avtor tomonidan olingan ma'lum davr, unda yashayotgan personajlarning har biri o'ziga xos hususiyatga ega bo'lgan turli xarakterdagi insonlardir. Obraz yaratish jarayonida har bir talaba o'zining ish yo'nalishini, unga biriktirilgan rolning aynan shu personajga xo bo'lgan xarakteriga monand hususiyatlarning izlab topishga to'g'ri keladi.

Diplom uchun olingan Isfandiyorning «Avaz-Botir va malika-guli» spektaklidagi Avaz-Botir aqlli, haqgo'y, o'z xalqiga, Vataniga sodiq sevgilisiga erishish uchun har qanday to'siqlarni yengishga qodir, kuchli pahlavon, botir. Malika-Guli-qaysar, tantiq, qorong'ulik mamlakatida yashasa ham u tabiatni, qushlarni, yorug'likni, quyoshni, odamlarni juda yaxshi ko'radi. Sevgilisiga sodiq qiz.

Baymoq-sotqin, boylik uchun hamma yovuzliklarga tayyor, o'z manfaatini ko'zlaydigan, ochko'z personaj.

Qarg'a-aqlli, itoatkor, haqiqat uchun kurashuvchi, insonlardagi yaxshi hislatlarni qadrlaydigan personaj.

Avtor tomonidan personajlarga berilgan ichki xarakterli hususiyatlaridan kelib chiqqan holda rassom-haykaltarosh, qo'g'irchoq ustasi, mexanizator hamda pedagog-rejissyor hamkorligida tashqi umumlashgan hususiyatga ega bo'lgan qo'g'irchoq tayyorlanib, talaba qo'liga topshiriladi. Talaba bu personajning tashqi holatiga qarab, unga yana bir marta baho berishi kerak. avaz-Botir qo'g'irchoq personajining ko'zlari o'tkir, qirra burun, keng yelkali, kiyimi ostidan bilagidan kuchi bo'rtib turibdi, uning tashqi ko'rinishi kuchli va baquvvat odamligini aytib turibdi. Belida kamar, yelkasida o'q-yoy osib olgan.

Guli-chiroyli, gavda tuzilishi juda nozik, yashil harir ko'ylak kiygan, yuzidan uning jaxldor saroy qizi ekanligi ko'rinib turibdi.

Shunday qilib, har bir personajning ichki xarakteriga moslab, uni tashqi hususiyatlarini aniq topishga harakat qilish kerak. Ish jarayonida esa uning ichki holatini tashqi hususiyatlariga moslab hatti-harakat qilishga o'rganish, ya'ni personajdagi tashqi tana harakatchanligi uning ichki dunyosidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu jarayon obraz mohiyatini va mag'zini ochishga talabadan butun mahorat va iste'dodini ishga solishni talab qiladi.

VI-Ma'ruza: QO'G'IRCHOQ PERSONAJINING HARAKATGA MOYILLIGI ADABIYOTLAR

1. M. H. Qodirov "O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri". Toshkent. 1979
2. M. H. Qodirov "O'zbek xalq tomosha san'ati". "O'qituvchi". Toshkent. 1981
3. M. H. Qodirov "Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar". T., O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. 1993
4. M. Ashurova "Qo'g'irchoq teatr san'atining aktyorlik maktabi". Toshkent. 2007 y.

Shartli sahnadagi repetitsiya stol atrofidan turgazib, qo'g'irchoq bilan jismoniy hatti-harakat qilishga undaydi. Talaba tasviriy san'at asari bo'lgan qo'g'irchoq personaj imkoniyatlarini aniqlashga kirishadi. U shartli sahnadagi ish bosqichidan qo'g'irchoq obrazini sahnaga kirib kelishidan, sahnadan chiqib ketguncha bajaradigan hatti-harakatidan xabardor bo'lishi va qo'g'irchoq obrazini o'ziga xos plastik harakat yo'nalishini topa olish hususiyatiga ega bo'lishi kerak. Shunda ikkinchi kurs va uchinchi kursning

to'liq o'qish jarayonida ish faqat qo'g'irchoq turlarini o'rganish hamda ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ishlash yo'llarini o'zlashtirishga bag'ishlanadimi degan savol tug'ilishi mumkin. Spektakl ustida ish jarayonida yana qo'g'irchoq imkoniyatlarini o'rganish va o'zlashtirish masalasi qo'yilyapti. Nega?

Bu savolga shunday javob berish mumkin: har bir qo'lga olingan yangi qo'g'irchoq personaji o'zining xarakteriga qarab, oldingi qo'g'irchoq personajiga mutlaqo o'xshamaydi, o'xshash ham mumkin emas. Spektaklda yuzta personaj bo'lsa, ularning ichki mexanik tuzilishi, tashqi formasi, o'ziga xos xarakterli hususiyati mavjud bo'ladi. Shuning uchun 10 yillik yoki 20 yillik ish staji bilan teatrda ishlab kelayotgan aktyor yoki aktrisa ham qo'lga tushgan yangi qo'g'irchoq personajini imkoniyatlarini qaytadan o'rganib chiqadi, undan keyin u bilan sahnada bemalol ishlay olishga muyassar bo'ladi. Agar shu jarayondan voz kechib, darrov obraz yaratishga sakrab o'tadigan bo'lsa, unda oyog'i singan va qo'ltiq tayoqda yurgan nogironga o'shab qoladi. Aktyor qo'g'irchoqni to'siq ustida erkin hatti-harakat qilishga o'rganishi va uni maqsadli amalga oshirishdan bolashi kerak. chunki har bir qo'g'irchoq o'zining texnik sabalariga ko'ra unga alohida e'tibor bilan yondoshishni talab qiladi. Shu talabni e'tiborga olib, ish boshlasangiz marra sizniki bo'ladi. Kurs talabalariga har biri o'ziga tegishli qo'g'irchoq personajlarini qo'llariga olib, shartli maydonchada uning imkoniyatlarini tekshirib, qo'llarini ishlash uchun moslay boshlaydilar.

O'qituvchi har bir spektakl uchun yasalgan qo'g'irchoq qanday harakat imkoniyatlariga moyil ekanligini talabadan so'rab, uning harakatlarini tekshirib chiqadi. Shunda shartli maydonchada kiyik-Nargiza qo'g'irchoqni bosh hamda orqa oyoqlariga uni tanasini ushlab turish hamda kiyikni harakatga keltirish uchun tutqichlar (trostlar)ni sezadi va sinab ko'radi. Bosh qismidagi tutqich kiyikni bo'ynini har tomonga egishga va boshini hoxlagan tomonga burishga hamda gavdaning oldi qismini harakatga keltirishga yordam beradi. Tananing orqa qismidagi tutqich esa, uning oyoqlarini hamda tanasini harakatga keltirishga yordam beradi. Bu tutqichlar kiyikning harakatiga xo chopib, sakrab yurishiga ham yordam beradi.

O'qituvchi-Nargiza, kiyikni qanday harakatlar bajara olishini bizga ko'rsatib ber.

Nargiza kiyik qo'g'irchoq'i orqali uni yurish-turishini, sakrab, chopib o'ynashini, hamda ma'lum to'siqqa duch kelib, to'xtab, uni kuzatishini ko'rsatdi.

O'qituvchi-Yaxshi harakatlar topibsan, lekin topgan harakatlaringni kiyik emas, sen bajaryapsan. Sahnada harakat yo'nalishi kiyik plastikasidan kelib chiqqan holda bajarilishi kerak. sahnada biz kiyikni ko'rganda, seni to'siq orqasida borligingni unutaylik. Qo'g'irchoq teatr sahnasida hayvonlar obrazini yaratayotganda, biz ularning tabiatidan kelib chiqqan holda harakatlarni izchilligiga erishaylik. Ular sirkdagi o'rgatilgan

hayvonlarga umuman o'xshamasligi kerak. Bajarilayotgan harakatlar ularning hayot qonuni asosida tabiiy bo'lishi lozim. Shunda siz sahnada qo'g'irchoq personajingizni soxta o'rgatilgan emas, balki uning harakatlarini tabiiy chiqishiga erishasiz.

Sahnada hayvonlar obrazini yaratishda mana shu qonun-qoidaga amal qilgan holda ishlashga moyil kerak.

O'qituvchi vazir qo'g'irchoq personajini harakat imkoniyatlarini o'rganayotgan Otabekka murojaat qildi.

O'qituvchi-Sen o'z qo'g'irchoq'ing haqida nimalar bilib olding.

Otabek-Mening qo'g'irchoq'im trostli qo'g'irchoq turi bo'lib, uning bosh qismiga tutqich o'rnatilgan. Bu tutqich qo'g'irchoqni gavda qismini harakatga keltirish uchun qulaylik yaratadi. Tutqichda yana ikkita mexanizm o'rnatilgan bo'lib, biri boshini har tomonga burish, egish uchun bo'lsa, ikkinchi mexanizm uning lablarini ishlatishga mo'ljallangan. Faqat qo'g'irchoq og'irroq ekan. Uning labini harakatga keltirish uchun o'rnatilgan mexanizm yaxshi ishlamayapti.

O'qituvchi-Xo'sh qo'g'irchoqni qanday harakatlarini o'zlashtirding?

Otabek qo'g'irchoq orqali uning yurishini, o'tirishini, nimanidir poylab turganini hamda tezlik bilan yashirib olganini ko'rsatib berdi.

O'qituvchi-Birinchidan, qo'g'irchoq'ingni tashqi qiyofasini oladigan bo'lsak, u juda semiz. Yoshi ham anchagacha borgan. Shuning uchun semiz odam bunchalik tez harakat qilishga moyil emas. Harakat jarayonida uning yoshi ham inobatga olinadi. Demak, uning gavda tuzilishidan kelib chiqqan holda hatti-harakat qilish kerak ekan. Lab mexanizmiga kelsak, har biringiz qo'lingizdagi qo'g'irchoqlarni butun sexnik tomonlarini yaxshilab ko'rib chiqib, unda kamchiliklar bo'lsa darrov ustaxonaga, ya'ni qo'g'irchoq mexanizatoriga murojaat qilib kamchiliklarini bartaraf qilishingiz va qo'g'irchoqni erkin harakat qilishiga moslashtirishingiz kerak.

VII-Ma'ruza: AKTYOR TALQINIDAGI ASOSIY HUSUSIYATLAR

ADABIYOTLAR:

1. YE. V. Speranskiye "Aktyor teatra kukol". VTO, Moskva. 1986

2. G. V. Kristi «Vospitaniye aktyora shkoli Stanislavskogo». Moskva. «Izdatelstvo» 1978.
3. N. Oydinov «O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar». Toshkent «O‘qituvchi». 1997.

Ijodkor hoh u aktyor yoki rejissyor, yoki qalam sohibi dramaturg, yo bo‘lmasa tasviriy san’at vakili-naqqosh, usta, rassom, kim bo‘lishidan qat’iy nazar kelajakka umid bog‘lab ijod qiladigan bo‘lsa, eng avvalo hayotni yaxshi bilishi, tomoshabinning dunyosini anglay olishi va o‘rganishi darkor. Hayot bilan hamohang va tomoshabindan ancha yurgan ijodkorgina o‘zining ijodiy ishlari bilan el qalbidan joy olishga musharraf bo‘la oladi. Shuning uchun teatr tomoshasiga kelgan har bir tomoshabin sahnada mahorat bilan ijro etgan aktyor iste’dodidan mamnun bo‘lishi, spektaklda yaratgan obrazlar majmuasida o‘ziga kerak bo‘lgan tomonlarni ilg‘ab olishi va shu bilan birga undan o‘zi uchun tegishli xulosa chiqara bilishi zarur. Ana shunda ijodkor tomoshabin olqishiga sazovor bo‘lib, uning loyiq bo‘ladi. Bunday ijodkorlarni el sevadi va ardoqlaydi. Bu iltifotga sazovor bo‘lish hamma ijodkorlarga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun bekorga san’at donishmandlari: “San’atda birinchi bo‘l, birinchi bo‘lmasang bu sohani tark et”, deb aytishmagan.

Teatr san’ati deganimizda darrov ko‘z o‘ngimizga yetuk sahna ijodkorlari Mannon Uyg‘ur, yetim Bobojonov, Abror Hidoyatov, Shukur Burxonov, Olim Xo‘jayev, Halima Nosirova, Sora Eshonto‘rayeva, Yayra abdullayeva, Oydin Norboyevalar; qo‘g‘irchoq teatri san’ati deganimizda Toshmuhammad Doniyorov, A. Saidaliyev, N. Zayniddinov, Vladimir iogelsen, Tohir Mahramov, Iso Yoqubov, Shohida Komilova, Fatxulla Xo‘jayev, Angela Mahkamova, Shomurod Yusupov, Munisa Egamberdiyevalar; tasviriy san’at deganimizda Kamoliddin Behzod, Chingiz Axmarov, rahim Axmedov, Ro‘zi Choriyev, Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekovlar siymosi va ularning san’at yo‘lida yaratgan ijodiy ishlari gavdalanadi. Bu ijodkorlar tomoshabinlar qalbida bir umrga jo bo‘lgan buyuk insonlardir.

Qo‘g‘irchoq teatri aktyorini tarbiyalashda uning shu san’atni sevishi va unga sodiq qolishda yuqorida tilga olingan san’atkorlarning shaxsiy hayoti va ularning bosib o‘tgan ijodiy yo‘llari bo‘lg‘usi aktyor uchun katta ijod maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun o‘qish davrida, ayniqsa spektakl ustida olib boriladigan ish hamda obraz yaratish jarayonida buyuk san’atkorlar ijodiy yo‘liga qayta-qayta marojaat qilish va o‘rganish zarur. Yetuk san’atkorlarning yaratgan obrazlari ertaga san’atga mustaqil qadam qo‘yayotgan ijodkorlarga poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shunda ular o‘z ijodini tomoshabinga qanchalik qimmatli ekanligini anglab olishadi. Chunki aktyorning butun ijodiy faoliyati faqat tomoshabin bilan bog‘liq holda o‘tadi. Shunday ekan qo‘g‘irchoq teatri ham sahnada yaratadigan obrazlari orqali tomoshabinni o‘z ketidan ergashtirib, uni dunyoqarashini shakllantirishi va uning qalbiga ezigulik urug‘larini sochishi kerak.

Yosh tomoshabin san’atga ilk qadamini qo‘g‘irchoq teatridan boshlar ekan, uni teatrdan olgan birinchi taassuroti bir umrga esda qolishi va bu

dargohni tez-tez qumsab turishi lozim. Shuning uchun qo'g'irchoq teatrida birinchi marotaba ko'rgan spektaklni eslab, undagi o'zidagi yaxshi taassurotni obrazi va shu obrazni yaratgan aktyorni eslashadi. Ba'zilar esa shu san'at turini yoqtirib, keyinchalik uni o'ziga kasb qilib oladi. Qo'g'irchoq yoki drama san'ati bo'limiga imtihon topshirishga kelgan abituriyentlar ko'pincha "Men Shukur Burxonovday yoki Tohir Mahromovday bo'laman, shuning uchun shu sohani tanladim", degan gaplarni eshitasiz. Yoki sahnada ijro etilgan har xil kasbdagi insonlarning obrazini yosh tomoshabin birinchi marotaba teatrdan ko'rib, u bilan tanishadi. Ba'zida unda sahnada ko'rgan kasb egasiga nisbatan qiziqish uyg'onadi va u o'zini shu kasbga tayyorlab boradi. Bu esa uni kelajakda shu egallashiga ham yordam beradi.

Demak, teatr tomoshabinni faqat tarbiyalamay, uning ongini shakllanishiga, dunyoqarashini kengayishiga, borliqni jonli obrazlar orqali ko'rishiga hamda kelgusi hayot yo'lini belgilab berishida ham unga yaqindan yordam berar ekan. Shuning uchun ham bo'lg'usi aktyor o'z kasbining qiymatini, uning mohiyatini tushungan holda uning oldida turgani katta ma'suliyatni anglamog'i zarur. Shunday ekan u butun ijodiy yo'li davomida tinmay o'z ustida ishlab, iste'dodini yangi qirralarini rivojlantirib, ijod pog'onalariga ko'tarilib, tomoshabin olqishiga sazovor bo'lib, uning qalbidan joy olib, san'atda o'z o'rniga ega bo'la oladi. Ana o'shanda u o'z maqsadiga erishgan bo'ladi. Aktyor ijodi bilan bog'liq bo'lgan bu fazilatlarni talaba o'qish jarayonida anglab olishi va unga amal qilishi darkor.

Talabalar diplom oldi va diplom spektakllarini tomoshabinga namoyish qilganlarida, ular o'z aktyorlik burchlarini to'g'ri tushuna borishlari va tomoshabin uchun fidokorona xizmat qilishga o'rganishlari zarur. Aktyor o'z kasbiga fidoiy bo'lib, o'z ustida tinimsiz mehnat qilmas ekan, u o'zida bor bo'lgan iste'dodi bilan uzoqqa bormay, yarim yo'lda shamol ta'sirida o'chib qolgan shamchiroqqa o'xshab qoladi. Ana shunda u tomoshabin nazaridan chetda qolib ketadi. bu aktyor uchun kechirib bo'lmas fojia hisoblanadi. Bo'lg'usi teatr aktyori san'at sohasida yetuk mutaxassis bo'lib qolmay, balki u pok ahloqli, yuksak didli, nazariy bilimlarni puxta egallagan, davr ruhini yaxshi his qila oladigan, bolalar va kattalar ruhiyatini chuqur anglagan yuksak madaniyatli, zamonasining yetuk insoni bo'lmog'i darkor. Bunday fazilatlarga ega bo'lgan aktyorgina sahnada haqiqiy yetuk, mukammal obrazlar yarata olish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, bitiruvchi kurs talabalarining to'rt yillik o'qish jarayoni nihoyasiga yetib qoldi. Endi navbat Davlat imtihoniga. Davlat imtihoniga barcha kurs talabalari ishtirok etgan turli janrdagi ikkita yoki uchta spektakl olib chiqiladi. Albatta bu spektakllarda har bir o'zining serqirra aktyorlik imkoniyatlarini ochib beradigan bitta yoki ikkita har xil xarakterdagi personajlarni obrazini yaratgan holda sahnaga chiqish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Bitiruvchi talabaning diplom ishidagi ijodiy yo'li uni kelgusida shu san'at sohasida ishlay olish darajasini ko'rsata olishi shart. Chunki bugungi bitiruvchi diplomant ertangi teatr aktyori. Demak, teatrning kelajagi bu san'at maktabining yosh ijodkorlar qo'lida. Shuning uchun Davlat imtihonidagi baholash jarayoni bo'lg'usi aktyorlarni yana bir borShuning

uchun Davlat imtihonidagi baholash jarayoni bo'lg'usi aktyorlarni yana bir bor ijod yo'lini ko'rsata olishi va ularga mustaqil hayotga yo'llanma sifatida xizmat qilishi kerak.

Bitiruvchi talabalarning diplom ishi uning to'rt yillik bosib o'tgan ijod yo'lini belgilab berishi lozim. YA'ni:

1. Bo'lg'usi aktyorning ma'naviy-ahloqiy normalari;
2. Aktyorning kasbiga bo'lgan munosabati va fidoiyligi;
3. Aktyorlik mahorati fanidan nazariy bilimlari;
4. Aktyorlik mahorati fanini nazariy hamda amaliy jihatdan o'zlashtirish va yaratish jarayonida undan to'laqonli foydalanish;
5. Teatr qo'g'irchoq'ining barcha turlari bilan yuqori darajada ishlay olish hususiyatlari;
6. Ovozni har xil yo'sinda ishlata bilish-sahna nutqi texnikasi va sahna nutqi madaniyati;
7. Aktyorni sahnada o'zini boshqara olish va tutish etikasi;
8. Spektakl ansamblini his qilish va shu ansambl doirasida ijod qila olish kabi fazilatlarni umumlashtirgan holda baholanishi lozim bo'ladi.

Yuqorida qayd qilingan qo'g'irchoq teatri aktyoriga xos hususiyatlarni baholanishi bu bo'lg'usi ijodkorlarni ijod yo'lini to'g'ri ko'rsata olish hamda ularga katta mustaqil hayotga yo'llanma berish bilan barobar bo'lmog'i lozim.

VIII-Ma'ruza: QO'G'IRCHOQ TEATRIDA OBRAZ YARATISH JARAYONI

ADABIYOTLAR:

1. YE. S. Demmeni "Prizvaniye kukolnik". "Iskusstvo". Leningradskoye otdeleniye. 1986.
2. YE. V. Speranskiye "Aktyor teatra kukol". VTO, Moskva. 1986
3. Q. U. Xo'jayev "Sahnaga yo'l". Toshkent. 1982.
4. A. S. Sayfutdinov "Adabiy asar va ijrochilik maktabi". "Fan" nashriyoti. Toshkent. 1980.

Talabalar bu yo'nalishda qo'g'irchoq teatrida sahnaviy obraz yaratish jarayoni bilan tanishadilar. Aktyor to'siq yoki qo'g'irchoq orqasida (qo'g'irchoq turiga bog'liq) yashiringan yoki ko'rinmagan holda o'zining ichki va tashqi hususiyatlarini qo'g'irchoq personajiga o'tkazib, uni tashqi formasi orqali yaxlit, mukammal obraz yaratadi. Demak, qo'g'irchoq teatrida tomoshabinga obrazni talqinini yetkazib beradigan aktyor-bu sahna qo'g'irchoq'idir. Albatta bu narsa aynan shu san'atga xos hususiyat. Qo'g'irchoq teatrida obraz yaratish jarayonida ikki maktab vakili uchrashadi. Biri jonli aktyor-kechinma san'ati vakili, ikkinchisi tasviriy san'at asari, ya'ni jonsiz qo'g'irchoq ko'rsatish san'ati vakilidir. Bular ijod jarayonida uchrashib, biri yaratuvchi, ikkinchisi ko'rsatish imkoniyatlari orqali sahnada obraz sifatida namoyon bo'ladi. Demak, aktyor obraziga faqat rolning mohiyatidan kelib chiqqan holda bormasdan, eng avvalo qo'g'irchoqning tashqi

hususiyatlariga e'tibor qaratishi lozim. Shunda u shirmadagi qo'g'irchoq aktyori fikrini bayon eta oladi. Demak, obraz yaratish jarayonida qo'g'irchoqning tashqi qiyofasi va avtor tomonidan unga berilgan aniq xarakter, ya'ni uning kelib chiqishi, faoliyati, xulq-atvori, idroki, qobiliyati, intilishi va shunga o'xshash hususiyatlari inobatga olinadi. Obrazlarga xarakteristika berish jarayonida talaba o'zi sahnaga olib chiqadigan personajning xulq-atvori, uning atrofdagilarga munosabati, yetakchi hatti-harakatini va oliy maqsadini aniqlab olish zarur. Shunda obraz talqini to'g'ri va aniq bo'lib chiqadi. Misol: "Sehrli kiyik" spektaklining qahramoni Xasan-pyesaning boshlanishida kambag'al, rahmdil, oq ko'ngil, yordamini ayamaydigan, halol mehnat orqali kun kechirib kelayotgan bo'lsa, asarning ikkinchi qismida u shafqatsiz, faqat o'zini o'ylaydigan, yengil yo'l bilan boylik orttirish payiga tushgan, boylik uchun do'stini sotadigan, xudbin bir inson sifatida namoyot bo'ladi.

Spektakl boshlanishida Xasan kambag'al bo'lishiga qaramasdan, yo'ldan topib olgan bittayu-bitta tangasini qopqonga tushib qolgan kiyikni qutqarish uchun ovchiga beradi.

Xasan kiyikka: "Endi sen ozodsan"-deb uni qo'yib yuboradi. Kiyik hayotini asrab qolgan Xasanga sehrli qo'g'irchoq'ini sovg'a qiladi. Spektakl oxirida kiyik unga: "Xasan sening hamma narsang bor, endi menga qo'g'irchoqchani ber va meni qo'yib yubor"-deganda, Xasan unga "Men senga sehrli qo'g'irchoqchani bermayman, u meniki. Sen esa mening qulim bo'lasan"-deb javob beradi.

Kiyik spektakl boshida beg'ubor, ishonuvchan, odamlarni qadrlaydigan, yaxshilik qilgan insonga qo'lidan kelgani yaxshilik qiladigan, oq ko'ngil bo'lgan bo'lsa, asar oxirida u odamlarga nisbatan ishonchini yo'qotgan, ehtiyotkor, qat'iyatli, kerak bo'lganda jazolash ham mumkin bo'lgan obrazga aylanadi. Spektakl oxirida Xasan o'z aybini tushunib yetadi, sehrli kiyikdan kechirim so'rab: "Meni tashlab ketma, sehrli kiyik"-deb yolvorishiga qaramay, kiyik: "Endi kech bo'ldi Xasan, men sen bilan qololmayman, chunki sen boylik uchun do'stingni sotding, men senga endi ishonmayman va seni hech qachon kechirmayman"-deb Xasanni tashlab ketib qoladi.

Demak, obraz yaratish jarayonida personajlarning xarakteriga xos hususiyatlar spektaklida asta-sekinlik bilan ularning hatti-harakati, hayotda tutgan o'rni, atrofdagilarga bildirgan munosabati va har birining maqsadga erishish yo'lida qilgan harakatlari asosida kechadi. Ular personaj xarakteri, uning xalq-atvori, hatti-harakatining o'zgarishi, spektaklida ro'y beradigan qarama-qarshiliklar orqali ochiladi. Spektakl boshlanishida kim va qanday inson ekanligi, spektaklning oxirida kim va qanday inson bo'lib qolganini birgina obraz orqali o'z talqiniga ega bo'ladi.

Spektakl insonlar hayot davomida o'zgarib yaxshi va yomon odamlarga ajralishi holatini ko'rsatib berishga qaratiladi.

Qo'g'irchoq obrazining xarakteri uning tashqi plastikasi, hatti-harakati orqali ochiladi, obrazga topilgan mag'iz (zerno) shu insonning o'ziga xos hususiyatlarini har tomonlama ochib berishga olib keladi. Bu haqda YE.

Demmeni shunday degan edi: “Menimcha, qo‘g‘irchoq qo‘g‘irchoqligicha qolib, keng insoniy his-tuyg‘ularni yetkazib bera olishi kerak”¹.

Demak, qo‘g‘irchoqlar o‘ynida qo‘g‘irchoq spektakllarining yutug‘i bo‘lib qoladi. Qo‘g‘irchoq teatri sahnasida yaratilgan obrazlarning to‘laqonli chiqish qo‘g‘irchoq o‘yniga bog‘liqligi bilan belgilanadi. Spektaklning sifati esa qo‘g‘irchoq aktyorining mahorati orqali aniqlanadi.

Respublika qo‘g‘irchoq teatrida qo‘yilgan “Issumbosi” spektakli aktyorlar o‘yiniga boy bo‘lgan tomoshabop spektakldir. Bu spektakldagi bosh qahramon Issumbosi obrazini yaratgan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan aktrisa M. Egamberdiyeva qo‘g‘irchoq o‘yinida juda katta yutuqni qo‘lga kiritgan. Uning Issumbosi qo‘g‘irchoq personaji faqat qo‘g‘irchoq teatri sahnasida sodir etilishi mumkin bo‘lgan hatti-harakatlarni ijro etgan. YA’ni bu personaj qovoqda tug‘ilishda voyaga yetgunda yapon “ushu” sport turining butun qirralarini ocha olgan. U shu sportga xos bo‘lgan hususiyatlarni ikr-chikirigacha qo‘g‘irchoq plastikasida, ya’ni qo‘l, oyoq, gavda harakatlarida chaqqon va aniq ko‘rsata olgan. Tomoshabinlar ko‘z oldida qo‘g‘irchoq emas, balki kichkina odamcha harakat qilayotganga o‘xshab ketadi. qo‘g‘irchoqning harakat plastikasida bolalikdan voyaga yetgan o‘spirinning o‘sish davri ham bu obrazda o‘z aksini topgan issumbosi obrazining bolalarga xos sho‘xliklar harakatchanligi, tinib-tinchimasligi, jo‘shqinligi uning yoshligini aks ettira olgan bo‘lsa, bosiqlik, sevgiga sadoqat, ota-onaga mehr obrazning balog‘at yoshiga to‘g‘ri keladi.

Atrofdagi personajlarni ham o‘z ketidan ergashtira olgani bu obrazning eng asosiy yutug‘idir. Qolgan obrazlar ham spektakl jarayonida uning hatti-harakatiga ergashishadi.

Shunday qilib, bu spektakl qo‘g‘irchoq personajlarining rang-barang o‘yini bilan muvaffaqiyatli chiqib, Respublika qo‘g‘irchoq teatri VI an’anaviy festivalda tomoshabinlarning olqishiga sazovor bo‘ldi. Shuning uchun spektakl yaratish jarayonida boshqa chiroq, dekoratsiya, musiqa kabilar bilan birga asosiy diqqatni aktyorning o‘yiniga kerak bo‘ladi. Boshqacha aytganda, qo‘g‘irchoq teatri aktyori shu sohaga xos hususiyatlar bilan birga boshqa (odamiy) teatr hususiyatlariga ham ega bo‘lishi zarur. Chunki bu hususiyatlar bir vaqtning o‘zida sahnada bir nechta obraz yaratish imkonini beradi.

Yaratilgan obrazlar har xil harakat, rang, har xil personajni ifoda etish, ularni ovoz diapazoniga xos so‘z harakatlarini topa olish, qo‘g‘irchoqni his qilgan holda o‘zini u orqali ko‘rsata olish xarakteriga ega bo‘lishi kerak. “Sehrli kiyik” spektaklida talaba S. Sharipova ikki xildagi qo‘g‘irchoq turi hamda xarakter jihatidan bir-biriga o‘xshamaydigan ikki xil obrazni bitta spektaklda yaratishda muvaffaq bo‘ldi. Bu obrazning biri erka, tantiq, o‘jar, tannoz Malika Budur (trostli qo‘g‘irchoq) bo‘lsa, ikkinchisi aqlli, dono, fahm-farosatli, bosiq, faqat ezgulikka chorlaydigan Sehrli tovus (niqob) obrazlardir.

Talaba bu obrazlarning xarakterli hususiyatidan kelib chiqqan holda alohida plastik harakat va unga monand ovoz topa oldi. U Budur obrazida to‘siq orqasida yashiringan holda qo‘g‘irchoqning imkoniyatidan kelib chiqqan bo‘lsa, Sehrli Tovus obrazini niqob kiygan holda ijro etdi. Bu obrazni

¹ Деммени Е. “Искусство”. 1986 г. Стр. 110.

talqin qilishda talaba niqobning tashqi qiyofasidan, o'zining tana harakatlarini unga bo'ysundirgan holda harakat qildi. Spektaklda bir vaqtning o'zida bir nechta obraz yaratish ham shu san'atning xarakterli hususiyatlaridan biridir.

Obraz yaratish jarayonida aktyor qo'g'irchoq personajining tashqi ko'rinishi va xarakterli hususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo'g'irchoqqa xos ovoz hamda so'z xarakteristikasini topishi kerak bo'ladi. Demak, obraz yaratish jarayonida qo'g'irchoqning tashqi plastik harakati qanchalik zarur bo'lsa, ovoz hamda so'z xarakteristikasi ham shunchalik ahamiyat kasb etadi. Obraz ustida ishlash jarayonida qo'g'irchoq personajining niqobidan, uning tashqi va ichki holatlaridan kelib chiqqan holda unga ovoz jarangini topish va uni berilgan obrazga moslashtirish va obrazni nutqiy xarakterini yaratishga erishish kerak. Tomosha zali va to'siqning borligini hisobga olgan holda, qo'g'irchoqni tana plastik harakatini va nutqini ifodalashda undagi xarakterli hususiyatlarni topib, so'zni asosiy maqsadga asoslangan holda bayon qilish lozim. Aktyor so'z orqali obrazning ichki mohiyatini tomoshabinga ayta olishga qodir bo'lishi darkor. Spektaklning hayoti undagi obrazlarning to'laqonli chiqishida obrazni yaratuvchi talabaning ishonarli, ta'sirli, maqsadga muvofiq gapira bilish mahoratiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Spektakl yaratish jarayonida talaba sahna dekoratsiyasi, bezaklari, nur, butaforiya, musiqa, shovqin, shirmadagi uch planlik hamda spektaklning boshqa komponentlari bilan tanishadi. Spektakl yaratish jarayonida ijodiy kollektivning roli beqiyosdir. Chunki har bir talaba bu jarayonda aktiv ishtirok etishi va sahna qonun-qoidalariga amal qilishi zarur. Partnyorni his qilish, unga yelka tutish va yordam berish prinsiplariga amal qilish lozim.

Qisqacha qilib aytganda, diplom oldi spektaklini pedagog-rejissyor, rassom, qo'g'irchoq ustasi, aktyorlarning ijodiy birligi, ularni hamfikrligi hamda hamkorligi bilan birgalikda yaratiladi.

Oltinchi bosqichning yakuniy reytingida sahnada yaxlit diplom oldi spektakli ko'rsatiladi.

Spektaklda har bir talaba qo'g'irchoq personaji orqali to'laqonli obraz yaratish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda kurs talabalari qo'g'irchoq personajining harakatga moyilligi, etyudning spektakl yaratishdagi o'rni, qo'g'irchoq teatrida obraz yaratishning o'ziga xos hususiyatlari, hamda talaba spektaklda o'zi yaratgan obrazning to'la yozma tahlilini yozishi va shu bosqichda o'tilgan temalar yuzasidan nazariy test sinovlarini topshirishi shart.

X-Ma'ruza: QO'G'IRCHOQ TEATRI AKTYORINING ETIKASI ADABIYOTLAR:

1. Y. Kalashnikov "Teatralnaya etika Stanislavskogo". VTO. Moskva. 1978.
2. "O'zbek pedagogikasi antologiyasi". "O'qituvchi". Toshkent. 1995.
3. E. F. Ismailov «Mannon Uyg'ur». Toshkent. 1983.
4. A.Hidoyatov "San'atkor haqida, tarjimai hol, shaxsiy insholar, maqolalar, xotiralar". Toshkent. 1985.

Men O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi Iso Yoqubovning o‘zi sahnalashtirgan va o‘zi aktyor sifatida o‘ynagan Andersen “Ole lukoye” spektaklini tomoshabinga ko‘rsatishdan oldin unga tayyorgarlik ko‘rganini kuzatganman. U teatrga spektakl tomoshabinga namoyig qilishidan bir soat oldin kelib, sahnada spektakl uchun kerak bo‘lgan barcha anjomlarni ko‘zdan kechirib chiqdi. So‘ng o‘zi o‘ynatadigan qo‘g‘irchoq personajini qo‘liga olib rolni butun so‘zlarini harakatda tekshirib chiqdi.

Qo‘g‘irchoq teatri san‘atining etik aktyorning normalari, ahloqiy talablari quydagilardan iborat bo‘lishi kerak:

- aktyor birinchi navbatda teatr san‘ati tarixini, qo‘lga kiritgan yutuqlarini o‘rganishi, an‘analariga sodiq qolishi, shu sohani rivojlantirish yo‘lida tan olish;
- kkkelajakka ishonch bilan qarab, shu san‘atni yanada ravnaq topishi uchun o‘z kuch iste‘dodini ayamasi;
- o‘tgan ijodkorlarini teatr san‘atida qilgan ishlarni o‘rganishi va tatbiq etishi;
- hayotda yuz berayotgan, san‘at sohasidagi islohotlarni amalga oshirishda o‘z hissasini qo‘shish;
- K. S. Stanislavskiyning aytganidek-“Sen san‘atdagi o‘zingni emas, balki o‘zingdagi san‘atni seva bilgin”, degan hikmatiga amal qilishi;
- Barcha inmoniy odob-ahloq normalariga talabalar to‘la rioya qilishi;
- Ilm-fan, san‘at, madaniyat yutuqlaridan xabardor bo‘lish, o‘rganish va targ‘ib qilishi;
- Insonparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalarini ilgari surishi, o‘z e‘tiqodiga ega bo‘lishi;
- O‘z kasbiga sodiq va fidoiy inson bo‘lishi;
- San‘at mohiyatini aniq tushunishi va ma’suliyatni his qilgan holda ijod qilishi;
- Tajriba to‘plashi o‘z ustida tinmay ishlashi, malakasini oshirishi, mukammal obrazlar yaratish imkoniga ega bo‘lishi lozim;

Bo‘lajak ijodkor aktyor ahloqiy talablarga o‘qish va ish jarayonida amal qilsa, kelajakda ajoyib inson hamda yaxshi aktyor bo‘lib yetishishi mumkin. shunda jamiyatga foydasi tegadigan ilg‘or fikrlar kuychisi, mukammal asarlar yaratuvchisi bo‘lishi mumkin. jumladan, K. S. Stanislavskiyning fikricha “Hayotda meshchanlarcha yashab, sahnada buyuk insonlarni obrazini yaratish juda qiyin...!”

Aktyorlik mahorati sohasi bo‘yicha ustozim Tursunboy Isroilov bergan o‘gitlari har doim qulog‘im ostida jaranglab turadi. “Inson o‘zidagi kamchiliklaridan biri to‘la xalos bo‘lishi qiyin. U o‘z kamchiliklarini asta-sekin bartaraf qilishingiz va yaxshi hislatlarni tarbiyalab borishingiz lozim. Faqat shunda biz yaxshi inson hamda yaxshi ijodkor bo‘lib yetishingiz mumkin”, deb ta’kidlar edilar.

XI-Ma’ruza: SAHNAVIY TALQIN VA TOMOSHABIN

1. G. V. Kristi «Vospitaniye aktyora shkoli Stanislavskogo». Moskva. «Izdatelstvo» 1978.
2. B. YE. Zaxava «Masterstvo aktyora i rejissyora». «Prosvesheniye». Moskva. 1978.
3. «Putevoditel po muzeyu Gosudarstvennogo ordena trudovogo krasnogo znameniy STK pod rukovodstvom narodnogo artista S. V. Obrazsova». «Iskusstvo», Moskva. 1982.
4. «Putevoditel po muzeyu Gosudarstvennogo ordena trudovogo krasnogo znameniy STK pod rukovodstvom narodnogo artista S. V. Obrazsova». «Iskusstvo», Moskva. 1980.

Aktyorni har tomonlama shakllanishida ishlab-chiqarish amaliyoti katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda talabalar o'quv teatrida diplom oldi va diplom spektakllarini keng tomoshabinlarga namoyish qilishadi. Talabalar spektaklni namoyish qilish jarayonida teatr va aktyor ijodida tomoshabinning o'rni va mohiyati qanday kuchga ega ekanligini anglab olishadi.

Demak, diplom oldi va diplom spektaklini tomoshabinlarga namoyish qilish jarayonida spektaklda talabalar yaratgan har bir obraz talqini tomoshaxonada o'tirgan bolalarni butun fikru hayolini, o'ylarini qamrab olib, o'z davriga olib kirish kuchiga ega bo'lishi kerak. Spektakl bir soat davom etadigan bo'lsa tomoshabin shu bir soat mobaynida aktyorlar bilan birgalikda spektakl zamoniga sayohat qilib, uning vaqti bilan yashashi lozim. Buning uchun talabalar yaratgan har bir obraz talqini tomoshabinlarni qamrab olishi, qo'g'irchoq personaji plastikasidagi hatti-harakatlar tomoshaxonaning oxirgi qatorida o'tirgan tomoshabinning yetib borishi, aktyorning har bir aytilgan so'zi uning dil to'ridan joy olishi lozim. YA'ni obraz mohiyatini, uning aniq maqsadini tomoshabiniga yetkaza olish kuchiga ega bo'lishi kerak.

Qo'g'irchoq teatri spektakllarining ko'pchiligi tomoshabin bilan muloqotda o'tadi. Repetitsiya jarayonida talaba bo'sh tomosha zali bilan muloqotda bo'lishiga to'g'ri keladi. Spektakl namoyish qilish paytida tomoshaxonada 200-250 tomoshabin o'tirgan bo'ladi. Albatta har bir tomoshabinni tomosha qilayotgan spektaklga o'z tushunchasi, o'z qarashi hamda qabul qilishi bo'ladi. Shuning uchun muloqot jarayoni ham har xil tus olishi turgan gap. Bu jarayon tajribasiz aktyorga juda ko'p qiyinchiliklar tug'diradi. Chunki u har doim to'siq yoki qo'g'irchoq orqasida yashiringan holda bo'ladi. Uning ko'zlari tomoshabin bilan to'qnasha olmaydi. U faqat qo'g'irchoq personaji orqali tomoshaxonada sodir etilishi mumkin bo'lgan harakatlarni ilg'ab, ular orasida qaysi birining to'g'ri munosabat bildirganini anglab, so'ng aynan shu tomoshabiniga javob qaytaradi. Aktyor tomonidan noto'g'ri anglangan fikr spektakl yo'nalishini boshqa tomonga olib chiqishi mumkin.

Rassom-haykaltarosh eskizlari ustida ishni oxiriga yetkazgandan keyin ish to'liq holda kafedra majlisida tasdiqdan o'tadi. Undan keyin, dekoratsiya va qo'g'irchoq personajlarini tayyor holga keltirish uchun eskizlar qo'g'irchoq

yasash ustaxonasiga topshiriladi. Bu ishni amalga oshirish jarayonida birinchi rasso-haykaltarosh, ikkinchi qo'g'irchoq ustasi, uchinchi mexanizator, to'rtinchi yana qo'g'irchoq ustasi, beshinchi tikuvchi, oltinchi butaforlar qatnashishadi.

Demak. Rasso-haykaltarosh qo'g'irchoq personajlarini tashqi xarakteriga xos bosh qismini qolipini yasaydi. Tayyor bo'lgan qoliplarga qo'g'irchoq ustasi ishlov berib, ularni meyoriga yetkazadi. Undan keyin qo'g'irchoqni tayyor holdagi bosh qismlarni mexanizator olib qaysi bir personajning og'zi, mo'ylovi yoki qoshi harakatga keltirish uchun mo'ljallangan bo'lsa, shunga qarab ularning har biriga mexanizm o'rnatadi. O'rnatilgan mexanizm talabalar qo'liga mos tushib, ishlashi uchun yengil qulay bo'lishi lozim. Mexanizmlar o'rnatilgan qo'g'irchoqning bosh qismi yana qo'g'irchoq ustasiga beriladi. U tikuvchi bilan ishni oxiriga yetkazadi. Qo'g'irchoqni tayyorlash jarayonida kurs talabalari aktiv qatnashadilar. Har bir talaba o'zi o'ynatadigan qo'g'irchoqni qanday yasalishi, unga o'rnatilgan mexanizmlarni boshqarish jarayonidan xabardor bo'lsa, keyinchalik spektakl ustida ishlashda qo'g'irchoqni boshqarish yengil kechadi. Chunki talaba uning barcha texnik imkoniyatlaridan xabardor bo'ladi.

Spektakl dekoratsiyalari o'quv teatri ustaxonasida duradgor usta tomonidan yasaladi. Qo'g'irchoq teatri sahnasi uchun yasaladigan dekoratsiyalar drama, musiqali drama, opera va balet teatrlarini dekoratsiyalariga o'xshagan katta emas, balki qo'g'irchoq teatrining sahnasiga mo'ljallangan yengil kichik hajmda bo'ladi.

Qo'g'irchoq teatri uchun tayyorlanadigan butaforlar, personaj sifatida bo'lsa, ularning tashqi tuzilishi harakat qilishga moyil bo'lishi lozim.

Misol uchun, Buxoro teatrining "Men o'z uyimni izlayman" (rejissyor G. Aliyeva) spektaklidagi "Chigit" obrazi personaj sifatida spektaklda bosh rolni ijro etadi. Shuning uchun uning harakat qilish qobiliyatini inobatga olgan holda "chigit"ga ko'z, burun, og'iz va qo'llar yasalgan. Teatrning yosh aktrisasi A. Vordasheva ijrosidagi bu obraz Respublika qo'g'irchoq teatrining an'anaviy VI festival qatnashchilarini befarq qoldirmadi. Aktrisa tomonidan to'laqonli ijro etishga yordam berdi. Bu obraz talqini uchun A. Vordasheva "Eng yaxshi ijrochi" degan sovringa sazovor bo'ldi. "Chigit" obrazini to'laqonli chiqishida albatta rassom bilan qo'g'irchoq ustasining mehnati maqtoviga sazovordir. Chunki "chigit" sahnada paydo bo'lganda, u hali harakat qilishga ulgurgani ham yo'q, lekin uning tashqi tuzilishi tomoshabinlarda kulgi uyg'otib, qalbini qandaydir iliq hislar egallaydi. "Chigit" sahnaga kirib kelishi bilan tomoshabinlar uni qarsaklar bilan qarshi oladilar. Demak, qo'g'irchoq teatrda obraz yaratish jarayonida aktyor bilan rassom va qo'g'irchoq ustasi tegma-teng o'zida ma'suliyatni his qilar ekan. Shuning uchun qo'g'irchoq mutaxassislarining shunday iborasi bor: "Aktyor to'siq orqasida qanchalik harakat qilmasin, uning qo'lidagi qo'g'irchoq harakatga moyil emas ekan, u sarf qilgan kuchini 60% havoga ketadi". qo'g'irchoq teatrini, o'z kasbiga aylantirish va yetuk mutaxassis bo'lish va shu san'atning butun sirlarini o'rganish uchun kelgan talabalar ham spektakl

yaratish jarayonida o'quv ustaxonalarida rassom, qo'g'irchoq ustasi bilan birgalikda ishlab, sohaning butun sir-asrorini o'rganishi lozim.

O'quv ustaxonalarida spektakl yaratish uchun dekoratsiyadan tortib qo'g'irchoq va har xil kerakli anjomlarni yasash va yaratish jarayonida kurs talabalarining aktiv ishtiroki ularning o'zi tanlangan sohaga o'ta ma'suliyat bilan qarashga, qiyinchiliklarga bardosh berishga hamda kasbiga jiddiy yondashib, uni qadrlashga o'rgatadi.

Hech kim, hech qachon o'zi yaratgan narsani o'zi buzishga jur'at etolmaydi. Bu jarayon huddi kitobxonani kitobini avaylab o'qishga o'xshab ketadi. chunki kitobni qancha avaylab asrasangiz, undan shuncha ko'p kitobsevarlar bahramand bo'ladi.

Ustaxonalarda yaratiladigan spektakllarga ham kitob iborasi to'g'ri keladi. Chunki yaratilgan qo'g'irchoqlarni kurs talabalari bitirib ketgandan keyin kurs talabalari foydalanishi mumkin bo'ladi. To'liq spektakl sifatida yoki shu spektakldan kurs ishi uchun olinadigan lavhalarda ham qo'llash mumkin. ustaxonada avaylab asralgan har bir qo'g'irchoq, anjom yoki dekoratsiyalar bu bo'limning ertangi kuni hisoblanadi.

Shunday qilib, biz qo'g'irchoq teatri san'ati bo'limida spektakl yaratish jarayonida faqat rejissyor bilan aktyor qatnashmasdan, spektakl taqdirini hal qilishda rassomga ham ko'p narsa bog'liqligini angladik. Spektaklga personajlarning rassom-haykaltarosh yetkazib berar ekan, rassom ijodiy jarayonini hal qilishda bevosita o'z o'rniga ega. Bu bilan teatr sohasida rejissyor bilan rassom bir xil qadam tashlaydi, degan fikrga kelish mumkin. Shu sababli bu soha vakillari ko'pincha qo'g'irchoq teatrida kim birlamchi, rejissyormi yoki rassommi degan savollarni o'rta tashlab, unga javob izlashadi. Bundan chiqdi Nemirovich Danchenkoning "sahnaga gilamcha tashlab, ikkita aktyorning chiqishidan tomosha boshlanadi", degan iborasi qo'g'irchoq teatriga to'g'ri kelmas ekan.

Qo'g'irchoq teatri sahnasiga o'nta gilam yozsangizu, bitta tasviriy san'at asari qo'g'irchoq bo'lmasa, hech qanday tomosha to'g'risida o'ylashni ham, gapirishni ham keragi yo'q. Demak, talabalri o'quv ustaxonalarida qo'g'irchoq personajlarini tayyorlash jarayoniga aktiv qatnashishi bilan birga pedagog rejissyor bilan pyesa tahlili jarayonini ham davom ettirishlari kerak.

O'zbek tilidagi adabiyotlar ro'yxati

Muallif	Adabiyot nomi
---	Xavaskorlar saxnasi
---	San'at saodatim
---	Xavaskorlar saxnasi

---	Suz ma'suliyati
Abdulla S	Tanlangan asarlar
Abdulla S	Toxir va Zuxra
Abdusamatov X	Drama nazariyasi
Avaz K.	Jaxannam kushigi
Avaz Komil	Xiva dilbandi
Azimov I	Saylanma
Azimov I	Dramalar

Azimov S	Yulduzlar jamoli	Olimjon X.	Pyesalar
Alp Jamol	Saylanma	Oripov A	Soxibkiron
Alp Jamol	Saylanma	Oripov A	Soxibkiron
Alp Jamol	Saylanma	Ostrovskiy A.N.	Kambagallik ayb emas
Alp Jamol	Saylanma	Ostrovskiy A.N.	Serdaromad joy
Alp Jamol	Saylanma	Oxundov M.F.	Tanlangan asarlar
Alp Jamol	Achchikni - Achik kesar	Pogodin N.	Miltikli kishi
Ananyev A.A.	Pyesalar	Raxmonov B	Pyesalar
Bayron J.G.	Saylanma	Raxmonov B	Baxor arafasi
Biryukov N	Chayka	Rizayev A	Jadid dramasi
Boboyev M.	Yoshlik chogim-oltin chogim	Rizayev A	Saxna ma'naviyati
Bobojon R.	Komediylar	Rizayev SH	Jadid dramasi
Bobojon R.	Pyesalar	Samandar E.	Jaloliddin Manguberdi
Bobojon R.	Yusuf va Zulayxo	Safarov N.	Tanlangan asarlar
Boshbekov SH.	Eshik kokkan kim buldi?	Safarov N.	Tanlangan asarlar
Gete I.V.	Faust	Safarov N.	Pyesalar
Gogol N.V.	Revizor	Safarov N.	Shark tongi
Gorkiy M.	Pyesalar	Sa'dulla SH.	Ikki bilaguzuk
Gorkiy M.	Pyesalar	Simonov K.	Rus masalasi
Dante A	Duzax	Sobirov T.	Kaydasan ,xayot!
Yokubov O.	Pyesalar	Sofronov A.	Pazanda
Ibroximov A	Birinchi busa	Sulton I.	Istexkom
Ibroximov A.	Tusmol	Sulton I.	Dramaturgiya
Ismoilov U.	Tanlangan asarlar	Sulton Izzat	Noma'lum kishi Shoir kalbi
Isfandiyor	Mezon	Toshev N	Jaloliddin Manguberdi
Karim M.	Insonlikka nomzod	Tuygun	Muxabbat
Karimov M.	Diydor	Tuygun	Pyesalar
Kaxxor A.	Ogrik tishlar	Tuygun	Baxodir
KorneychukA.	Pyesalar	Tuygun	Baxodir
Lermontov M.YU	Dramalar	Tuygun	Muxabbat
Matjon O.	Ardaxiva	Tuygun	Pyesalar
Matjon O.	Yonayotgan daraxt	Uygun	Abu Ali Ibn Sino
Matrizoyev K.	Kasam va vijdon	Uygun	Pyesalar
Muxtor A.	Tong bilan uchrashuv	Uygun	Tanlangan asarlar
Nazarov U.	Uzgalar uchun	Uygun	Pyesalar
Nazarov Uchkun	Uzgalar uchun	Uygun	Tanlangan asarlar
Nosov N	Pyesalar	Uygun	Tanlangan asarlar
Oymirzayev J.	Oygul va Obod	Uygun	Zebuniso

Umarbekov U	Saylanma
Fatxullin Z.	Tanlangan asarlar
Fatxullin Z.	Tanlangan asarlar
Fatxullin Z.	Tanlangan asarlar
Fatxullin Z.	Tanlangan asarlar
Fatxullin Z.	Tanlangan asarlar
Fatxullin Z.	Pyesalar
Fitrat	Kiyomat
Fitrat	Tanlangan asarlar
Fitrat	Tanlangan asarlar
Fitrat	Tanlangan asarlar
Fitrat	Chin sevis
Fonvizin D.I.	Dumbul boyvachcha
Xaimov Y.	Daxri
Xamza	Saylanma
Xamza	Asarlar
Xamza	Boy ila xizmatchi
Xamza	Boy ila xizmatchi
Xamza	Saylanma
Xikmat N	She'rlar.Poema,Pyesa
Xikmat N	Bir sevgi afsonasi
Xe Szin-Chji	Sochi okargan kiz
Chexov A.P.	Pyesalar
Chexov A.P.	Ok chorlok
Chexov A.P.	Tanlangan asarlar
Chexov A.P.	Chinovnikning ulimi
Chulpon	Yana oldim sozimni
Chulpon	Asarlar
Shayxzoda M.	Mirzo Ulugbek
Shayxzoda M.	Mirzo Ulugbek
Shayxzoda M.	Asarlar
Sharipov SH. i dr.	Suz mulkining sultoni
Sharipov SH. i dr.	Suz ma'suliyati
Shukrullo	Ugrini karokchi urdi
Shukrullo	Tanlangan asarlar
Shuxrat	Besh kunlik kuyov
Yakubov O	Pyesalar
Yashin K.	Pyesalar

Yashin K.	Drami
Yashin K.	Adabiy makolalar. Ssenariy
Yashin K.	Pyesalar, inssenirovka, xikoyalar, ocherk va maklalar
Yashin K.	Tanlangan asarlar. She'rlar va pyesalar
Yashin K.	Asarlar. Dramalar. Muzikali dramalar. Adabiy ssenariy
Yashin K.	Asarlar. Dramalar
Yashin Komil	Pyesalar
Yashin Komil	Tanlangan asarlar. Pyesalar
Yashin Komil	Inkilob tongi
Yashin Komil	Pyesalar
Yashin Komil	Asarlar. Adabiy makolalar
Yashin Komil	Asarlar. Adabiy makolalar. Publitsistika
Yashin Komil	Asarlar. Tarjimalar
Yashin Komil	inkilob tongi

Rus tilidagi adabiyotlar ro'yxati

Abashidze G.	Dve pyesi
Abdulla S.	Mukimi
Abdullin A.	Trinadsatiy predsedatel.
Abdullin A.	Ne zabivay menya, solnse.
Ablesimov A	Melnik koldun, obmanshik i svat.
Aduen N.	Tabachniy kapitan
Azernikov V	Professional jizni.
Azernikov V	Otpusk za svoy schet
Azimzade Y.	Anadjan.
Azimov S.	Aysha
Azimov S.	YA viju zvezdi
Azimov S.	YA viju zvezdi
Aysberg I.	Posledniy gumanist
Aksenov I.A.	Yelisavetinsi
Aksirov Z.	Pesnya Daxanago
Alekseyev A.	YA i moi družya
Aleksin A	Zvonite i priyezjayte
Aleshin S.	Tema s variatsiyami
Aleshin S.	Pyesi
Aleshin S.	Tema s variatsiyami
Aleshin S.	Yesli... i drugiye pyesi.
Aleshin S.	6 pyes.
Alibegova N.	Maski
Aliger M.	Skazka o pravde
Alimdjan X.	Mukanna
Al D.	Dialog
Al D.	Pravdu! Nichego, krome pravdi!!
Andreyev L.	Gaudeamus
Andreyev L.	Dramaticheskiye proizvedeniya
Andreyev L.	Dramaticheskiye proizvedeniya
Andreyev L.	Rasskazi. Satiricheskiye pyesi. Felyetoni.
Andreyev P.	Padeniye i velichiye
Andreyev P.	Yesli vrag ne sdayetsY...
Andronikov I.	K muzike
Ankilov N.	Soldatskaya vdova
Annenskiy I.	Stixotvoreniya i tragedii
Antokolskiy A.	Velikani s ulitsi Prazdnikov
Antokolskiy A.	Mi-nevidimki!

Antokolskiy A.	Krasnaya gvozdika
Antokolskiy P	Visokoye solnse
Antokolskiy P	Teatr
Anuchina YE., Romova N.	Komnata na solnechnoy storone
Apushkin Y.	Teatr
Apushkin Y.	Pyesi
Apushkin Y.	Fakeli
Apushkin Y.	Sin Elladi
Apushkin Y.	Yaltinskaya osen
Apushkin Y.	Obrazi i sudbi
Apushkin Y.	Zapovednoye
Arbuzov	Pyesi
Arbuzov	Drami
Arbuzov	Teatr
Arbuzov	Pyesi
Arbuzov	Tanya
Arbuzov	Tanya
Arbuzov	Vibor. Sbornik pyes
Arbuzov	Godi stranstviy
Arbuzov	Nakanune
Arbuzov	Domik na okraine
Arbuzov	Yevropeyskaya xronika
Arbuzov	Vecherniy svet
Arbuzov	Dvenadsatiy chas.
Arbuzov	Poteryanniy sin
Arbuzov	Shestero lyubimix
Arbuzov A.	Izbrannoye
Argun A.	Pesn o serdse
Ardov V.	Po pamyati i s naturi
Ardov V.	Nash stadion
Arkanov A.	Toreador
Arkanov A.	Malenkiye komedii bolshogo doma
Arutyunyan J.	Perekrestok
Arutyunyan J.	Za golovu - pyatdesyat millionov
Arutyunyan S	Tolko chelovek xodit pryamo
Auezov M.	Abay
Afinogenov A.N.	Pyesi
Afinogenov A.N.	Izbrannoye
Afinogenov A.N.	Pyesi

Afinogenov A.N.	Pyesi	Braginskiy E., Ryazanov E.	Soslujivsi
Afinogenov A.N.	Mashenka	Brausevich L.	Goryashiye parusa
Afinogenov A.N.	Nakanune	Brik O., Leonidov O.	Yevgeniy Bazarov
Afinogenov A.N.	Strax	Brodele A.	Uchitel Straume
Afinogenov A.N.	Izbrannoye	Brodele A.	Vesna v sele Rechnom
Afinogenov A.N.	Strax	Brushteyn A.	Pechal moyey zemli...
Afinogenov A.N.	Pyesi	Brushteyn A.	Xijina dyadi Toma
Afinogenov A.N.	Izbrannoye	Brushteyn A.	Tristan i Izolda
Afroz D.	Ot schastya nikto ne umiral	Brushteyn A.	Pyesi
Axundov M.	Izbrannoye	Brend M.	Beskoristnaya pomosh
Axundov M.	Izbrannoye	Buachidze K.	Tolko komedii
Axundov M.	Obmanutiye zvezdi	Buachidze K.	Komedii
Babkin P.I.	U domashnego ochaga	Buachidze K.	Tolko komedii
Baydjiyev M.	Mi-mujchini	Budansev S.	Kolleksiya mednix monet
Baydjiyev M.	V subbotu vecherom	Bukov YE.	Dunay, nespokoyniye vodi
Baydjiyev M.	Mi-mujchini	Bukov YE.	Bep i Dep
Baldano N.	Pyesi	Bulgakov Valentin Fedorovich	Pyesi 1920-x godov
Baratashvili M.	Strekoza	Bulgakov Valentin Fedorovich	Pyesi
Barsegyan A.	Slomanniy kabluk	Bulgakov M.	Pyesi
Baxterev I.	Polkovodets Suvorov		Dni Turbinix. Posledniye dni (A.S.Pushkin)
Belov V.	Tri pyesi	Bulgakov M.	Drami i komedii
Berggols O.	Pyesi i ssenarii	Bulgakov M.	Pyesi 1920-x godov
Bill-Belotserkovskiy V.	Izbrannoye	Burunov K., Amanov B.	Keymir kor
Blauman R.	Pyesi	Burilichev V.	Bremya slavi
Blauman R.	Pyesi	Bes G.	Mir nachinayetsya s menya
Blok A.	Lirika. Teatr	Vaganov N.	Nasledstvo
Blok A.	Teatr	Vagarshyan V.	David Sasunskiy
Blok A.	Teatr	Vagner Y.	Druzya
Bobrov E.	Berendeyevo ozero	Vagner N.	Morskaya drujba
Bomont F.	Ritsar plameneyushogo pestika	Vakeli I.	Pyesi
Bondareva YE.	Sergey Lazo	Valt V., Gippius N.	V nachale puti
Bondareva YE.	Bespokoynoye serdse	Vampilov A.	Izbrannoye
Bondarenko F.	Kak zakalyalas stal	Vampilov A.	Izbrannoye
Borovik G.	Intervyu v Buenos-Ayrese	Vampilov A.	Proshaniye v iyune
Borovik G.	Agent 00	Vampilov A.	YA s vami. lyudi
Boryan G.	Pyesi	Vanag Y.	Vstrecha na beregu
Braginskiy E.	Igra voobrajeniya	Vasilenok YE.	Korolevskiy gambit
Braginskiy E.	Raskritoye okno	Vasilyev V., Romanovich I.	Liricheska podmoskovnaya
Braginskiy E., Ryazanov E.	Ironiya sudbi, ili s legkim parom		

Vasilyev V.	Obiknovennaya istoriya	Volodarskiy E.	Dolgi nashi
Vasilyev I.	Novogodniy vecher	Volodin A.	Portret s dojdem
Vasilyev-Severyanin P.V.	Galileo Galiley	Volodin A.	Osenniy marafon
Vaxit X.	Yesli lyubov nastoyashaya	Volodin A.	Mos strashaya sestra
Vashensev S.	Naxodka	Volodin A.	Dlya teatra i kino
Vezirov N.	Izbranniye proizvedeniya	Volchek Y.	Zaglyanut v kolodets
Veysler A.L.	Den-denskoy	Volkenshteyn V.	Spartak
Veysler A.L.	Pyesi	Volkenshteyn V.	Spartak. Noviy Prometey
Vetemaa E.	Pyesi	Volskiy V.	Pyesi
Viyese S.	Raynis i Aspaziya	Vorfolomeyev M.	Zanaveski
Vilde E.	Nepostijimoye chudo	Vorfolomeyev M.	Motivi. S Novim godom !
Viner A.B.	Podnyataya selina	Vsevoljskiy	Suroviye vremena
Vinnikov N.	Sam - vosem. Komedii	Vsevoljskiy	Molodost marshala
Vinnikov N.	Pyesi	Vurgun S.	Vagif
Vinnikov N.	"Kogda svetet akatsiya" i drugiye komedii	Vurgun S.	Vosxodit solnse
Vinnikov N.	"Ilyushka smeyetsya" i drugiye komedii	Gabbe T.	Gorod masterov
Viola CH.	Ne vozvrashaysya, Ilda!	Gabbe T.	Gorod masterov
Virta N.	Pyesi	Gabrilovich YE., Yegorov M.	Bratya
Virta N.	Dramaticheskiye proizvedeniya	Gayda rA	Timur i yego komanda
Virta N.	Zemlya	Gaydayenko I., Berkun I.	Za gorizontom
Virta N.	Pyesi	Gaydovskiy G.	Kabani
Vitarskiy N	Perviy den otpuska	Galan YA	Lyubov na rassvete
Vitarskiy N	Kaska	Galan YA	Izbrannoye
Vitarskiy N	Niti jizni	Galan YA	Pyesi
Vitarskiy N	Pesnya izdaleka	Galich A A	Poxodniy marsh
Vitkovich V., Solovyev L.	Zabavniy skandal	Galich A.	Generalnaya repetitsiya
Vishnevskiy V.	Izbrannoye	Gal Y.	Sin
Vishnevskiy Vs.	Izbrannoye	Gamzatov R.	Goryanka
Vishnevskiy Vs.	Izbrannoye	Gansovskiy S F	Lyudi etogo chasa
Vishnevskiy Vs.	DramaturgiY. Izbrannoye	Garin N.	Derevenskaya drama
Vishnevskiy Vs.	Pyesi	Garin N.	Rasskazi i pyesi
Vlasov P.	Belaya derevnya	Gelman A I	Pyesi
Vodopyanov M.	Mechta	Gelman A I	Mi, nijepodpisavshiyesY...
Vodopyanov M., Laptev Y.	V-62	Gelman A I	Pyesi
Voytexov B., Lench L.	Pavel Grekov	Geraskina L.	Pyesi
Volkov A.	Kseniya	German Y.	Za tyuremnoy stenoy
Volovikova M.	Bertold Oppengeym	German Y.	Sestri
Volodarskiy E.	Pyesi	German Y.	Temnoy osenney nochyu
		GernetN., Yagdfeld G.	Katya i chudesa

Gertyev A.	Rabi i bari	Goldfeld V.	Ivan da Marya
Getsadze A.	Drami i komedii	Gorbatov B.	Yunost otsov
Gindin M., Ryabkin G.	V obyektive	Gorbatov B.	Yunost otsov
Gladkov A.	Davnim-davno	Gorbatov B.	Pyesi
Glazova N.	Volchitsa	Gorbunov I.F.	Sseni iz gorodskoy jizni
Glazova N.	Nelyubimaya jena	Gorin G.	Komicheskaya fantaziya
Glebov A.	Pyesi dlya samodeyatelnogo teatra	Gorobiy F.	Zdes mnogo solnsa
Glebov A.	Izbranniye pyesi	Gorkiy A.	Rasskazi. Pyesi
Glebov A.	Zolotiye berega	Gorkiy M.	Pyesi
Glebov A.	Konsultatsiya	Gorkiy M.	Na dne.Yegor Bulichov i drugiye
Glebov A.	Inga	Gorkiy M.	Pyesi
Glebov A.	Poljizni tomu nazad	Gorkiy M.	Pyesi
Glebova T.	Neschastniy brak	Gorkiy M.	Pyesi
Glova A.	Drami i komedii	Gorkiy M.	Pyesi
Glova A.	Pushkin	Gorkiy M.	Vragi
Gogol N.V.	Revizor	Gorkiy M.	Dachniki
Gogol N.V.	Revizor	Gorkiy M.	Na dne
Gogol N.V.	Revizor	Gorkiy M.	Pyesi
Gogol N.V.	Izbranniye proizvedeniya	Gorkiy M.	Na dne
Gogol N.V.	Revizor	Gorkiy M.	Pyesi i ssenarii
Gogol N.V.	Izbranniye sochineniya	Gorkiy M.	Pyesi
Gogol N.V.	Revizor	Gorkiy M.	Rasskazi.Pyesi.Mat.
Gogol N.V.	Revizor	Gorkiy M.	Pyesi
Gogol N.V.	Revizor	Gorkiy M.	Sobraniye sochineniy
Gogol N.V.	Revizor	Gorkiy M.	Sobraniye sochineniy
Gogol N.V.	Revizor	Gradov G.	Opasnoye zadaniye
Gogol N.V.	Revizor	Gradov G.	Opasnoye zadaniye
Gogol N.V.	Revizor	Gradov P.	Priznaniye v lyubvi
Gogol N.V.	Pyesi	Griboyedov A.S.	Gore ot uma
Gogol N.V.	Revizor	Griboyedov A.S.	Gore ot uma
Golikov P.	Budni	Griboyedov A.S.	Gore ot uma
Golichnikov	Delo o dushax	Griboyedov A.S.	Gore ot uma
GolliI.	Gelo Sebexlebskiy	Griboyedov A.S.	Gore ot uma
Golovachev V., Lashilin B.	Narodniy teatr na Donu	Griboyedov A.S.	Gore ot uma
Golosovskiy I M	Xochu verit	Griboyedov A.S.	Gore ot uma
Golubev V	Dorogoy podarok	Griboyedov A.S.	Gore ot uma
Golubev V	Previshe vsego	Griboyedov A.S.	Gore ot uma
Goldfeld V.	Dobroye slovo	Griboyedov A.S.	Gore ot uma
Goldfeld V.	Ivan-da-Marya	Griboyedov A.S.	Sochineniya v stixax

Griboyedov A.S.	Sochineniya	Gusev V.	Tvoya pesnya
Griboyedov A.S.	SochineniY. Vospominaniya sovremennikov	Gusev V.	Ivan Ribakov
Griboyedov A.S.	Sochineniya	Guseyn M.	Djavanshir
Griboyedov A.S.	Gore ot uma.	Gyandjali N.	Komedii
Grigoryev P.	Doch russkogo aktera	Gyandjali N.	Komedii
Grigulis A.	Glina i farfor	Davidov I.	Chujaya volya
Grin E.	Veter s yuga	Dadiani SH	Pushkin v Gruzii
Gritsyus A.	Jarkoye leto	Danilov A.	Komissar militsii
Grox L.	Svatovstvo	Dar D.	Doroga mechtaniy
Grushas Y.	Tayna Adomasa Brunzi	Daraseli V.	Tri pyesi
Grushas Y.	Tayna Adomasa Brunzi	Dvoretzkiy I.	Pyesi
Grushas Y.	Lyubov, djaz i chyort	Dvoretzkiy I.	Veranda v lesu
Gubarev V.	Sarkofag	Dvoretzkiy I.	Trassa
Gubarev V.	"Poyexali!" Osobiy polet	Devyatov D.	Pyesi
Gubarev V.	Velikiy volshebnyk	Delendik A.	Greshnaya lyubov
Gubarev V.	Barishnya	Delendik A.	Greshnaya lyubov
Gubarev V.	Pavlik Morozov	Demirchyan D.	Xrabriy Nazar
Gulbis X.	Odinokiy pilayushiy klen	Derjavin V.	Mujestvo
Gullakyan A.	Na zare	Derjavin V.	Kvinchento/Prometey/
Gumilev N.S.	Dramaticheskoye proizvedeniY.Perevodi.Stati	Djabarli	Almas
Gusev V.	Pyesi	Djabarli	Sevil
Gusev V.	Sochineniya	Djimiyevev G.	Cherniye tuchi
Gusev V.	Sochineniya		

BAHOLASH MEZONLARI

“AKTYORLIGI MAHORATI” FANIDAN TALABALAR BILIMINI

BAHOLASH MEZONI

Fan uchun ajratilgan soat	984 soat	Maksimal ball	100 ball
Ma’ruza	80	Saralash ball	55 ball
Amaliy	768 soat	86-100 ball	“a’lo”
Laboratoriya	-	71-85 ball	“yaxshi”
Seminar	-	55-70 ball	“qoniqarli”
Yakka	136 soat	0-54 ball	“qoniqarsiz”

I SEMESTR

№	Baholash vaqti	Baholash usuli	Ajratilgan ball
Joriy nazorat – 70 ball			
1	26-30 sentabr	Amaliy	17 ball
2	25-31 oktabr	Amaliy	17 ball
3	24-30 noyabr	Amaliy	18 ball
4	20-27 dekabr	Amaliy	18 ball
Oraliq nazorat – 0 ball			
	-	-	-
Yakuniy nazorat – 30 ball			
5	25-31 yanvar	Amaliy	30 ball

II SEMESTR

№	Baholash vaqti	Baholash usuli	Ajratilgan ball
Joriy nazorat – 70 ball			
1	21-28 fevral	Amaliy	17 ball
2	23-30 mart	Amaliy	17 ball
3	23-30 aprel	Amaliy	18 ball
4	24-31 may	Amaliy	18 ball
Oraliq nazorat – 0 ball			
	-	-	-
Yakuniy nazorat – 30 ball			
5	21-28 iyun	Amaliy	30 ball

Qayta topshirish uchun ko'rsatilgan sanadan keyin bir hafta muddat beriladi.

TALABALAR BILIM DARAJASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

BALL	BAHO	TALABANING BILIM DARAJASI
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish Ijodiy fikrlay olish Mustaqil mushohada yuritish Amalda qo'llay olish Mohiyatini tushunish Bilish, aytib berish Tassavurga ega bo'lish
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada yuritish Amalda qo'llay olish Mohiyatini tushunish Bilish, aytib berish Tassavurga ega bo'lish
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushunish Bilish, aytib berish Tassavurga ega bo'lish

0-54	Qoniqarsiz	Aniq tassavurga ega emaslik Bilmaslik
------	------------	--

BALLAR TAQSIMOTI

№	Baholash turlari	Baholash muddati hafta	Baho uchun ajratilgan ball	Baho	Ballar taqsimoti		
Joriy nazorat amaliy mashg'ulot bo'yicha 70 ball					17	18	30
1	Joriy I	1-4	17	qoniqarli	9,35	9,9	16,5
2	Joriy II	5-9	17	yaxshi	12,7	12,7	21,3
3	Joriy III	10-14	18	a'lo	14,6	15,4	25,8
4	Joriy IV	15-19	18				
Yakuniy nazorat 30 ball							
1	Yakuniy nazorat	20	30				

